

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096



SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna

filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
L. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdanzoda, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

<i>Azizxonova S.</i> Azimiy hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari.....	5
<i>Абдуганиева Н.</i> Сказки индонезии и их формульность	13
<i>Qalandarov M., Xushnazarova G.</i> Kamoliddin Husayn voiz Koshifiyning “Lub ul-bob-masnaviy” va Odina Eshon “miftoh ul-asror” asarlari tahlili.....	24
<i>Karimov N.</i> Li Munyol ijodida qaqnus qushi obrazi	33

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Begmatova B., Qurbonov S.</i> Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi.....	45
<i>Mirziyatov Sh.</i> “Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida.....	56
<i>Abduvaliyeva Oʻ.</i> Afgʻoniston va Pokiston tilshunoslarining qoʻshma soʻzlar va kopulyativ qoʻshma soʻzlarga oid tadqiqotlari tahlili.....	64
<i>Axmedova C.</i> Семантическая классификация слова «любовь» в арабском языке	72
<i>Rasulova K.</i> Oybekning “Navoiy” romanidagi portret tavsiflarining tarjimalarda berilishi	82
<i>Jumaniyazov M.</i> Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” asarida keltirilgan she'riy baytlar va maqollar	93
<i>Saidov U.</i> Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar..	108
<i>Saydumarova M.</i> “O'tkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida	121
<i>Abdullayeva N.</i> Dunyo tilshunosligida o'zlashgan soʻzlar masalasi. Ularni o'zlashtirish qoida va tamoyillari	134

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Faromarzi F.</i> Hofiz i Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan qo'lyozmasi haqida.....	144
<i>Dr. Korayem S.</i> Literary heritage of Ali-shir Nava'i: (A study on his influence and contribution to world civilization)	157
<i>Jumayev Gʻ.</i> Temuriylar davri manbalaridan “Osor al-vuzaro” asarining oʻrganilishi	171



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>Saliyeva M.</i> Zamonaviy axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya.....	178
<i>Sadibaqosev H.</i> Zamonaviy global xavfsizlik tizimida AQSHning o‘rni: imkoniyatlar va muammolar	190
<i>Ходжимуратова Д.</i> «Велаят-е факих» как основа политической системы Ирана	201
<i>Зарипова З.</i> Опыт Японии в развитии системы среднего образования и достижения высоких показателей в рейтинге международной программы образовательных достижений учащихся средних школ PISA.....	210
<i>Саудазимхужаева М.</i> Вопросы к измерению и оценке эффективности «мягкой силы».....	224



ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDY

SARVINOZ AZIZXONOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Azimiy Hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari

Annotatsiya: Maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan biri bo'lgan, hikmat janrida she'rlar yozgan, hikmatnavislik an'anasini davom ettirgan, XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan Azimxoja Eshonning hayoti va uning hikmatnavislikka qo'shgan hissasi, hikmatlarining tahlili hamda hikmatlarida Ahmad Yassaviy hikmatlari kabi didaktik masalalarga, ya'ni din-iymon, Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning shifoatiga erishish, dunyo-oxirat, jannat-jahannam, ishq g'oyalarning pand-nasihat tarzida ifoda etilgani, Allohdan uning quli ekanligini, zohiri va botinini obod qilish yo'lida harakat qilmaganligi sababli Allohdan panoh so'rashi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Nafs xudbinlikni, o'zim bo'lay falsafasini tug'dirishi, nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmasdan, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylashligi, oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo'lib qolishi, toliblarning odobli va axloqli, ma'rifatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'z nafsin tarbiya qilish qanoatni odat qilish, xalqning malomat va xiyonatiga bag'rikenglik ila javob bergan solik "haqiqiy toliblar" qatoridan joy olishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: hikmat, yassaviylik, devon, an'ana, tasavvuf, shariat, ma'rifat, tariqat, imon, taqvo, diyonat.

Аннотация: В статье дается информация, жизнь Азимходжи Эшона, который был одним из последователей Ходжи Ахмада Яссави, писавшего стихи в жанре мудрости, продолжавшего традицию написания мудрости, жил и творил в конце XVIII в. первой половины XIX века, и его вклад в мудрость, анализ его мудрости, и дидактические вопросы, такие как мудрость Ахмада Яссави в его мудрости, то есть религия-вера, достижение заступничества Хазрата Мухаммада (мир ему), мир-загробный, рай-ад, любовные идеи выражаются в виде советов, что он служителю Аллоха, и что ему следует искать прибежища у Аллоха, поскольку он не прилагал усилий для улучшения своего внешнего вида и внутреннего «я».

Нафс рождает эгоизм, философию быть самим собой, попав в ловушку нафса, человек думает жить хорошо, даже за счет других, ничему не вредя, не заботясь о расточительности, и в результате становится тиран, беспощадный лицемер, а искатели должны быть вежливы, нравственны и просвещены. По его словам, сказано, что среди «истинных искателей» будет сборщик налогов, который культивирует свое



эго и имеет привычку довольствоваться, который терпеливо отвечает на вину и предательство народа.

Ключевые слова: хикмат, яссавийа, деван, традиция, суфизм, шариат, просвещение, тариқат, вера, благочестие, религия.

Annotation: The article provides information about the life of Azimkhodji Eshon, who was one of the followers of Khoja Ahmad Yasawi, who wrote poetry in the genre of wisdom, who continued the tradition of writing wisdom, lived and worked at the end of the 18th century. The first half of the 19th century, and his contribution to wisdom, analysis of his wisdom, and didactic issues, such as the wisdom of Ahmad Yasawi in his wisdom, that is, religion-faith, the achievement of the intercession of Hazrat Muhammad (peace be upon him), the afterlife, heaven-hell, love ideas are expressed in the form of advice that he is a servant of Allah, and that he should seek refuge with Allah, since he did not make efforts to improve his appearance and inner self.

Nafs gives rise to egoism, the philosophy of being oneself, having fallen into the trap of nafs, a person thinks to live well, even at the expense of others, without harming anything, not caring about extravagance, and as a result one becomes a tyrant, a merciless hypocrite, and seekers must be polite, moral and enlightened. According to him, it is said that among the "true seekers" there will be a tax collector who cultivates his ego and has a habit of contentment, who patiently responds to the guilt and betrayal of the people.

Key words: hikmat, yassaviya, devan, tradition, sufism, sharia, enlightenment, tariqat, faith, piety, religion.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari salmoqli o‘rinni egallaydi. Ularning orasida hayoti, ijodi va ilmiy-ijodiy merosi hanuzgacha to‘liq tadqiq etilmaganlari ham uchraydi. Qo‘lyozma merosi o‘rganilmagan ijodkorlarning merosini atroflicha tadqiq etish, asarlari manbalarini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish, ularning mumtoz adabiyotdagi o‘rini belgilab berish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ijodiy merosi deyarli o‘rganilmagan ijodkorlardan biri, o‘zbek mumtoz adabiyotining uzviy qismi hisoblangan tasavvuf adabiyoti namoyandasi عظیم خواجہ ایشان (Azimxoja eshon)dir. U “عظیمی” (Azimiy) taxallusi bilan qalam tebratgan. Shoir XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmida yashab, ijod qilgan [7:320].

Xoja Ahmad Yassaviy boshlagan hikmat uslubi, Yassaviy darveshlari tomonidan bir an‘ana bo‘yicha asrlarcha davom ettirilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda Nizomiy Xo‘qandiy, Jaloliy, Gulshaniy, Azimxoja Eshon singari shoirlar hikmatnavislik rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Azimiy iste‘dodli mutasavvuf shoirlardan bo‘lib, o‘zining yangicha dunyoqarashi va tasavvufiy g‘oyalarining keng ko‘lami bilan o‘zbek tasavvuf adabiyoti tarixida ma‘lum iz qoldirgan hamda hikmat janridagi she‘rlari orqali diniy-tasavvufiy, axloqiy-ma‘rifiy g‘oyalarni o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar orqali yoritgan ijodkordir.

Matnshunos Otabek Jo‘raboyev “Azimxoja Eshon va uning devoni qo‘lyozma nusxalari borasida” nomli maqolasida Azimiyning vafot tarixi aniq – hijriy 1263



(milodiy 1847)-yil. Biroq, tug‘ilish sanasini taxminan 1770-yillar, deyish mumkin. Chunki, Azimxoja vafot etganda yoshi 75 atrofida ekani so‘zlanadi” [1:18] deya ta’rif bergan. Yana ushbu maqolada Azimiyning 7 ta qo‘lyozma nusxalarining to‘liq tavsifi haqida ma’lumot beradi.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, Azimxoja Eshon Qo‘qon shahrining Sarmozor mahal-lasida nAQSHbandiya-xojagon tariqatiga mansub, ziyoli-ruhoniy oilasida dunyoga kelgan [1:18].

Azimxoja Eshon va uning ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tasnifi:

Faqat Azimxoja nomi prof. Fitrat, A.Qayumov, E.Qurbonova, B.Qosimov, A.Alim-bekov ishlarida tilga olingan. A.Madaminov, L.Turdaliyea, I.Mannopov, N.Xasan, I.Usmonovlar o‘z tadqiqotlarida Azimxoja Eshon nomini, asarlarini o‘z tadqiqotlarida zikr etganlar va ayrim misollar keltirilgan. K.Eraslan, S.Rafiddinov, B.Xasanov o‘z tadqiqotlarida shoir she’rlarini bevosita tadqiq qilganlar va asarlaridan namunalarni nashrga tayyorlaganlar. Azimiy hayoti, ijodi va asarlarining manbalari haqida nisbatan to‘liqroq ma’lumotlar P.Qayyumiy, O. Jo‘raboyevlar tadqiqotlarida berilgan.

Adabiyotshunos Sayfiddin Rafiddinov Azimiy hikmatlarini 1894-yilda Toshkent-ning “Kamenskiy” matbaasida Ahmad Yassaviy devoni bilan qo‘shib chop etilgan nashrini asos qilib, ushbu kitobdagi Azimiyning 26 hikmatini 1993-yilda nashrga tayyorlab, so‘zboshi hamda eski yozuvidagi matni bilan chop ettirgan [3:88].

Bundan tashqari, turkiyalik olim Kemal Erarslan ham “Azim hace’nin hikmetleri” [4:193–230] nomli maqolasida Azimiyning 28 ta hikmatini nashr ettirgan. Ularning 27 tasi 1312-yilda Toshkentda bosilgan “Devoni Hikmat”dan, 1 tasi esa 1290-yildagi “Devoni Hikmat” qo‘lyozmasidan topilgani to‘g‘risida ma’lumot bergan.

Maqola mavzusini yoritishda germeneytik, qiyosiy-tarixiy va biografik metodlardan foydalanilgan.

Azimiy Yassaviydan uzoq vaqt keyin yashagan va hikmat an’anasini davom ettirgan darvesh bo‘lganini ta’kidlash mumkin. U 4000 misradan ortiq adabiy meros qoldirgan. Yozgan she’rlarini to‘plab, devon tuzgan. Unda o‘zbek va fors tillaridagi g‘azal, mustahzod, muxammas, masnaviy va hikmatlari o‘rin olgan bo‘lib, muallif devonining bir nusxasini “Murod ul-oshiqin” (Oshiqning murod kitobi) deb nomlagan [2:125 b].

Shoirning devonida 28 ta hikmati mavjud bo‘lib, hikmatlarida Ahmad Yassaviy hikmatlari kabi didaktik masalalarga, ya’ni din va iymon, taqvo va diyonat, murshid va murid munosabatlari, Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning shafolatiga erishish, dunyo va oxirat, jannat va jahannam, ishq g‘oyalarining pand-nasihati tarzida ifoda etilgan [10:138]. Masalan, shoir hikmatlarida xalqni diyonatli va insofli bo‘lishga, har bir masalada adolatli qaror qilishga da’vat etgan. Azimiy hikmatlarida ishq va oshiq mavzusi o‘ziga xos tarzda tasvir etiladi. U Allohga bo‘lgan ishqni haqiqiy sanaydi.



Shoir hikmatlarining tili ham Yassaviyniki singari sodda va tushunarlidir. Hikmatlarining asosiy mavzusi haqiqiy ishq talqini, Alloh visoliga erishish talabgori bo'lgan solikning tavhid yo'lidagi ruhiy kechinmalarini yoritishdan iboratdir.

Azimiy hikmatlarining tasavvufga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritilganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini, ularning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ibodat, tolib, murshid, botin, Haq zikri, xilvat, nafs, qanoat, toqat, muhabbat, hub, fano filloh, "nafyi vujud", "kashfi vurud", "mavhi shuhud", "xayrat", "fano", "baqo" kabi tasavvufiy atamalarni o'z o'rnida ishlatish orqali Haq vasliga erishishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir solikning zabt etmog'i zarur bo'lgan manzillarning mohiyatini yorqin ochib bergan [9:13]. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Azimxoja bir so'fiy sifatida haqiqat va ma'naviy kamolotga to'g'ri yo'nalish maqsadida soliklarga maslahat beradi. Jumladan, toliblarning odobli va axloqli, ma'rifatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'z nafsini tarbiya qilib, qanoatni odat qilish, xalqning malomat va xiyonatiga bag'rikenglik ila javob bergan solik "haqiqiy toliblar" qatoridan joy oladi, deya ta'kidlaydi o'z hikmatlarida.

Shoir hikmatlarida ilohiy ishq ulug'lanadi. Allohni tanish, uning ishqini idrok qilish, Haq vasliga erishish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritiladi. Azimiy inson hayotidagi katta kurash – nafs ehtiyojlarini taslim etish yo'lidagi kurash deb hisoblaydi. Nafs inson uchun katta yov, dushman deydi. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafs ehtiyojlariga taslim bo'lmagan kishining g'ururi, insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan.

"Murod ul-oshiqin" devonida barmoq she'r tizimining o'n ikkilik (4+4+4) (ya'ni, har bir misrasida o'n ikki bo'g'in takrorlanuvchi) turkumi eng faol qo'llangan bo'lib, biz tahlil qilayotgan hikmat ana shu vaznda aks etgan:

يا قادرا درگاهينگا يازگان قلمن
رحم ايلانگيل سندين اوزگا پناهيم يوق
ظاهر باطن ايتماي بوزگان قلمن
رحم ايلانگيل سندين اوزگا پناهيم يوق

4

4

4

Yo Qodiro, / dargohingga / yozgan qulman, 12

Rahm aylagil / sendin o'zga / panohim yo'q, 12

Zohir, botin / obod etmay / buzgan qulman, 12

Rahm aylagil / sendin o'zga / panohim yo'q, 12 [2:135⁶]



Mazkur hikmat to'rt misrali, 9 banddan iboratdir. Har bir bandlar (to'rtliklar)ning oxirgi misralari o'zaro qofiyalanadi. Bu esa qadimgi xalq she'riyati shakllariga xos xususiyatlardan biridir. O'n ikkilik turkumdagi hikmatlar, asosan, to'rtliklardan iborat.

Ushbu 9 ta to'rtlik, (36 misra)dan iborat quyidagi hikmatida Allohning rahmatiga erishish, undan o'zga panoh yo'qligini, hidoyat yo'lini mahkam tutmoqlik kerakligi haqidagi g'oyalari ifodalangan.

Bu to'rtlikda bosh qahramon Allohdan uning quli ekanligini, zohiri va botinini obod qilish yo'lida harakat qilmaganligi sababli Allohdan panoh so'raydi.

Alloh taologa quruq, ko'r-ko'rona mutelikning hojati yo'q. Xudo g'azabidan qo'rqibgina amrima'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. Shuning uchun so'fiylar: Allohni jon-u dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafs-u hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini targ'ib qiladi.

غفلت بيله عمر اوتكارديم طاعت قيلماي
 يمان لار دين يراق قاچيب عزلت قيلماي
 نفس اولتوروب رياضت گا عادت قيلماي
 رحم ايلانگيل سندن اوزگا پناهيم يوق

G'aflat bilan umr o'tkardim toat qilmay,
 Yamonlardin yiroq qochib uzlat qilmay.
 Nafs o'lturub riyozotga odat qilmay,
 Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q. [2:135^o]

Mazkur to'rtlikda esa bosh qahramonning "G'aflat bilan umr o'tkardim toat qilmay" so'zlari uning yo'ldan adashganini, umrni nafs yo'lida g'aflat ila o'tkazganligi, yomonlardan uzoqlashib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lmaganligini, nafsini o'ldirib, qiyinchiliklarga odat qilmaganligini ochib bersa, "Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q" jumlasini qahramonning Allohning rahmiga yetishib, hidoyat yo'lga intilayotganidan dalolat beradi.

Tasavvuf ahli uchun asosiy masala qalbni poklash, uni xudbinlik zangidan tozalash bo'lgan. Ular bu ishni nafsni poklashdan boshlaganlar. Buning uchun nafsni poklash yo'llarini ishlab chiqqanlar. Nafsni va shu orqali ko'ngilni poklash esa riyozat chekish orqaligina bo'ladi. Riyozat chekish shunchaki, sabr-toqatli bo'lish, qiyinchiliklarga bardosh berish emas, balki Haq yo'lida ongli ravishda inson o'z oldiga ulug' bir maqsadni belgilab, unga yetishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni zimmasiga olib, to'siqlarni yengib o'tib, olg'a maqsad sari intilish riyozat bo'ladi. Tasavvuf tariqatlari riyozat chekish orqali inson nafsini va ko'ngilni poklash yo'li bo'lib, unda inson ko'ngli avval mumdek yumshab shakl oladi, so'ng chiniqtiriladi va sayqal beriladi. Oxirida ko'ngil po'lat ko'zgu singari sayqal topadiki, o'zida ilohiy nurni



akslantirib, oy singari nurlanib, o'zi ham atrofga ziyo tarata boshlaydi. Ana shunday ko'ngil egasi komil insondir. Bunday inson o'zidan atrofga ziyo taratadi, o'zga insonlar ruhini ham ma'rifatli etadi, ko'ngillarni nurlantiradi.

Nafs xudbinlikni, o'zim bo'lay falsafasini tug'diradi. Nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo'lib qoladi. Shuning uchun ham shoir nafsga qul bo'lishdan panoh so'raydi.

سۆزلار بولسام تېلیم کینار یلغان سوزگا
دروش من دیب لاف اورارمن فعلیم اوزگا
قانلیغ یاشیم توکار بولدوم سر یغ یوزگا
رحم ایلاگیل سندن اوزگا پناهیم یوق

So'zlar bo'lsam tilim ketar yalg'on so'zga,
Darveshman deb lof urarman, fe'lim o'zga.
Qonlig' yoshim to'kar bo'ldum sarig' yuzga,
Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q. [2:136^a]

O'zbek adabiyotshunosi, tarjimashunos olim N.Komilovning yozishicha, "Alisher Navoiyning fikricha, shoirida darveshlik xislati bo'lmasa, uning iste'dodi ulug' maqsadga xizmat qilolmaydi, balki shu uchundir u shoirlik va darveshlik iste'dodini mujassam etgan kishilarning ko'pini «Majolis un-nafoyis» asarida keltirib, maxsus ta'kidlab o'tgan. Uning yozishicha, har bir ziyoli zohiriy ilmlar (dunyoviy fanlar) bilan birga, botiniy ilm (tasavvuf)ni ham egallashi lozim, bu uning fazl-u kamolini oshiradi, xushaxloq, halim va odamshavanda bo'lishga ko'maklashadi" [5:30]. Azimiy ham darveshman deb lof urarman, lekin fe'lim o'zga deb, qahramonning xatti-harakati darveshlik talablariga mos hayot emasligiga ishora beradi.

ذاکړ لار دیک تانگ اتقونچه تیزیم چوکوب
یادینگ بیلان تور المادیم بیلیم بوکوب
ایمدی کیلیم درگاهینگا بیلیم بوکوب
رحم ایلاگیل سندن اوزگا پناهیم یوق

Zokirlardek tong otquncha tizim cho'kub,
Yoding bilan turolmadim belim bukub.
Emdi keldim dargohinga boshim egub,
Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q. [2:136^b]

Ma'lumki, Allohning ojiz bandasi o'zini yaratgan Xoliqini – Allohni yodga olsa, eslasa, mana shuni "zikir qildi" deyiladi. Allohni yodga olgan, Allohni eslagan banda esa "zokir" deyiladi.



Shoir Alloh yo'lida ibodatga mashg'ul bo'luvchilar kabi tiz cho'kib, Alloh yodi ila bel bukib sajda qilmaganini, endilikda hayotiy haqiqatni anglab, umr mohiyatini tushunib yeta boshlab tavba qilib, toat-ibodatga bel bog'lab, Undan panoh so'raydi.

ناصر سوزى قَتَبِ كُونْگُلوم اير يَتِمادى
ايغان نَكْرِم كُونْگُل كِرِين اَر يَتِمادى
اوتلوغ اَهْم جانُ تَتِيم ياروتِمادى
رحم ايلانْگيل سَندين اوزْگا پناهيم يُوق

Nosih so'zi qattig' ko'nglum eritmadi,
Ayg'on zikrim ko'ngul kirin aritmadi.
O'tlug' ohim jon-u tanim yoritmadi,
Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q. [2:1366]

Allohning zikri har bir banda uchun buyuk baxt, yuksak maqomdir. Bandani eng ulug'vor cho'qqilarga olib chiqadigan sababdir. Alloh taolo Qur'oni karimda فَانْكُرُونِي “Bas, Meni yod etingiz, (Men ham) sizlarni yod eturman” deydi (Baqara surasi, 152-oyat) [6:23]. Zikr bilan insonning qalbidagi mog'ori ketadi, poklanadi. Bu to'rtlikda shoir aytgan zikrlari qalbini yoritmaganligini, qalbi poklanmaganligini izhor qilib, O'zidan panoh tilaydi.

بو حال برله اوتار بولدى يَتْمِيش ياشيم
عُمر اوتارين بيلالماديم غافل باشيم
رحم ايتماسانْگ نچوك بولور مَنينْگ ايشيم
رحم ايلانْگيل سَندين اوزْگا پناهيم يُوق

Bu hol birla o'tar bo'ldi yetmish yoshim,
Umr o'tarin bilolmadim, g'ofil boshim.
Rahm etmasang nechuk bo'lur mening ishim,
Rahm aylagil sendin o'zga panohim yo'q. [2:137^a]

Yuqoridagi to'rtliklarda Azimiy bosh qahramonning hayot mazmunini anglab yetganligi, 70 yoshga kiringunga qadar Alloh yodi bilan yashamaganligini, hayoti endi tavba-tazarrulari befoyda ekanligini, nasihat qilganlarning so'zlari ko'ngliga ta'sir qilmaganini tushungan holda Allohdan unga rahm qilishini so'raydi.

گرچه بولدوم يمانلاردین يمان من قل
اوز يمانليغ ايشلاريم دين بولدوم ملول
يَحْشَى لار نى حُرْمَتِيدِين قِيلْگِيل قَبُول
رحم ايلانْگيل سَندين اوزْگا پناهيم يُوق

Garchi bo'ldum yamonlardin yamon man qul,
O'z yamonlig' ishlarimdin bo'ldum ma'lul.



Yaxshilarni hurmatidin qilg‘il qabul,
Rahm aylagil sendin o‘zga panohim yo‘q. [2:137^a]

Ushbu misralarda yomonlardan-da yomonroq bo‘lganini, o‘z yomonliklaridan bemor bo‘lganligini, haqiqatni kech anglab yetganligini afsus-nadomatlar bilan izhor qiladi va Alloh taoloning rahmiga erishish, Allohdan yaxshi insonlarning haqqidan uni afv etishini so‘rab iltijo qiladi.

خلق ایچینده عالم درویش بولدی آتیم
یلغان درویش ایلگا یتماس شرافتیم
عوف ایتمسنگ ایلنی اورتار شراره تیم
رحم ایلاگیل سندین اوزگا پناهیم یوق

Xalq ichidin olim, darvesh bo‘ldi otim,
Yalg‘on darvesh elga yetmas sharofatim.
Afv etmasang elni o‘rtar sharoratim,
Rahm aylagil sendin o‘zga panohim yo‘q. [2:137^b]

Ma‘lumki, tasavvufda tavba – qaytish demak, ya‘ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlariga qaytish. Tavbani bob ul-abvob – eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo‘ygan odamning niyati va mohiyati, avvalo, shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetish ish yo‘lida g‘ov bo‘ladigan jamiki narsalardan yuz o‘girishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan qaytish, shariat man etgan nahy va yomon ishlardan qaytish, Haqning g‘ayri bo‘lgan narsalaridan qaytish kabilarni o‘z ichiga oladi. Tavbaning mohiyati o‘z nuqsonlarini ko‘ra bilish, o‘zining ahvolini anglash, qabih ishlar, qabih fe‘l va qabih fikrdan qaytish, dunyoning ma‘nisizligi, arzimasligini anglab, zulm-u adolatsizlikdan qaytishni ham bildiradi. Qo‘rquv tavbasi, ya‘ni gunohga iqror bo‘lish – oddiy odamlarga xos. So‘fiylar tavbasi esa qalb istijobi, ya‘ni istijobat – uzilish, o‘zgarish tavbasidir.

Azimiy hikmatining ushbu to‘rtligida bosh qahramon Allohdan hidoyat so‘rab zikr qiladi.

عاجز عظیم سنینگ گدانگ الله الله
كرم قیلغیل گداینگا جان آگاه
سن سن رحمان سن سن رحیم سن سن اله
رحم ایلاگیل سندین اوزگا پناهیم یوق

Ojiz Azim sening gadong, Alloh-Alloh,
Karam qilg‘il gadoyinga joni ogoh.
Sensan Rahmon, sensan Rahim, sensan Iloh,
Rahm aylagil sendin o‘zga panohim yo‘q. [2:138^a]



XULOSA. Azimxoja Eshon XVIII asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida shakllangan iste‘dodli mutasavvuf shoirlardan biridir. Azimiy ijodiga xos xususiyatlardan biri, bu Yassaviy hikmatlari kabi diniy-tasavvufiy g‘oyalarning pand-nasihah tarzida ifodalanganligidir.

Azimiy hikmatlarida shariat talablariga rioya qiladigan insonga xos bo‘lgan barcha ijobiy xislatlar ulug‘lanadi, salbiy illatlar qoralanadi, mehr-muruvvat, ishq, sadoqat, adolat tarannum etiladi. Shoir hikmatlarida poklik, halollik, to‘g‘rilik, yo‘qsil-g‘ariblarga g‘amxo‘r bo‘lish lozimligini ta‘kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жўрабоев О. “Азим хожа Эшон ва унинг девони қўлёзма нусхалари борасида”. Адабиёт кўзгуси. Илмий нашр №11. – Тошкент, 2009.
2. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фондида сақланаётган №189 рақамли қўлёзма.
3. Рафъиддинов. С. Азим Хожа Эшон. Ҳикмат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
4. Elarslan. K. Azim hase`nin hikmetleri. Belleten. Cild 19, 1971. S.193–230.
5. Комилов. Н. Хизр чашмаси. “Маънавият” – Тошкент: 2005.
6. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент: 2007.
7. Қайюмов. П. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти. “Тамаддун”, – Тошкент: 2011.
8. Қаюмов. А. Қўқон адабий муҳити. VII жилд. “Мумтоз сўз”, – Тошкент: 2012.
9. Азимхожа Эшон. Мурод ул-ошиқин. Нашрга тайёрловчи: Б.Ҳасанов, – Тошкент: 2009.
10. Dr. Nadirhan Hasan. Çağatay şairi Azim hase ve hikmet'leri. Türk dünyasi araştırmaları. Sayı:191, Nisan 2011.

НАСИБАХОН АБДУГАНИЕВА

Преподаватель, PhD, ТГУВ

Сказки Индонезии и их формульность

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию поэтики и стиля волшебной сказки на материале малайско-индонезийского фольклора. Цель нашего исследования – анализ поэтической системы индонезийской волшебной сказки, как функционально организованного единства составляющих ее компонентов. В данной статье были рассмотрены инициальные, медиальные формулы сказки, которые мы подразделили на «внешние» и «внутренние», то есть формулы. Эти стабильные поэтические структуры (формулы) играют значительную роль в композиционном строении сказки, а также в характеристике сказочных персонажей. Важнейшие функции (действия) персонажей отмечены формулами.



Фольклор этнических групп Индонезии характеризуется многообразием древних жанров и видов, это сложная, формировавшаяся на протяжении веков система, постоянно взаимодействующих жанров. Ее составляют своеобразная мифологическая и обрядовая поэзия, монументальный героический эпос, историко-героические сказания, народная лирика и драма, разнообразные паремнологические жанры.

Вопрос об автохтонности сюжетов волшебной сказки не вызывает сомнений у большинства исследователей индонезийского и малайского фольклора. Исконно индонезийский характер описываемой географической обстановки и детали их быта, этнографические реалии, имена персонажей – все это свидетельствует о том, что волшебные сказки являются плодом национальной культуры народов архипелага.

При написании статьи привлекались сказки народов Индонезии на индонезийском, малайском и русском языках, опубликованные на протяжении XX века. Таким образом, в основе данного исследования – материалы сказочной традиции народов Индонезии, какой она предстает перед нами на протяжении прошлого XX века. Полноценность такого материала и правомерность его использования для исследования не приходится указывать – ведь на этом этапе индонезийская сказка сохраняла традиционный сюжетный состав, образы поэтики.

Ключевые слова: инициальные формулы, медиальные формулы «временные» и «топографические» формулы, функции персонажей, морфология В.Я.Проппа, фольклорное явление, указателя Аарне-Томпсона.

Annotation. This article dwells upon the study of the ethics and style of a fairy tale based on the material of Malay-Indonesian folklore.

The purpose of our study is to analyze the poetic system of the Indonesian magic tale as a functionally organized unity of its components. In this article we considered the medial formulas of the fairy tale, which we subdivided into "external" and "internal", that is, formulas designed to arouse listeners' interest, and transitional (internal) formulas. These stable poetic structures (formulas) play a significant role in the compositional structure of a fairy tale, as well as in the characterization of fairy tale characters. The most important functions (actions) of the characters are marked with formulas. The scientific novelty of our study is that the work attempted to interpret the methodical methods of analysis developed by the outstanding folklorist V.Ya. Propp on the material of Russian folk tales, in the context of Indonesian magic tales.

The folklore of the ethnic groups of Indonesia is characterized by a variety of ancient genres and types; it is a complex system of constantly interacting genres that has been formed over the centuries. It is composed of a kind of mythological and ritual poetry, monumental heroic epic, historical and heroic legends, folk lyrics and drama, various paremiological genres.

In Uzbekistan, a special study of the elements of the poetics of the Indonesian fairy tale has not been carried out yet, as well as there is no methodology for conducting analysis.

The question of the autochthonous nature of the plots of a fairy tale does not raise doubts among the majority of researchers of Indonesian and Malay folklore. The originally Indonesian character of the described geographical setting and the details of their life, ethnographic realities, the names of the characters - all this testifies to the fact that fairy tales are the fruit of the national culture of the peoples of the archipelago Indonesia.



When writing the work, the tales of the peoples of Indonesia in Indonesian, Malay and Russian, published throughout the XX century, were involved. Thus, this study is based on materials from the fairytale tradition of the peoples of Indonesia, as it appears to us throughout the past XX century. The completeness of such material and the legitimacy of its use for research does not have to be indicated - after all, at this stage, the Nusantar fairy tale retained the traditional plot composition, images of poetics.

Keywords: medial formulas, "internal" and "external" formulas, character functions, V.Ya. Propp morphology, folklore phenomenon of the index of Aarne-Thompson.

Annotatsiya. Ushbu maqola Malayziya-Indoneziya folklor materiali asosida ertakning poetikasi uslubini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotimizning maqsadi Indoneziya ertaklarining poetik tizimini uning tarkibiy qismlarining funktsional jihatdan tashkil etilgan birligi sifatida tahlil qilishdir. Ushbu maqolada biz ertakning boshlang'ich, medial formulalarini ko'rib chiqdik, ularni "tashqi" va "ichki", ya'ni formulalarga ajratdik. Bu turg'un poetik tuzilmalar (formulalar) ertakning kompozitsion tuzilishida, shuningdek, ertak qahramonlarini xarakterlashda katta rol o'ynaydi. Belgilarning eng muhim funktsiyalari (harakatlari) formulalar bilan belgilanadi.

Indoneziyadagi etnik guruhlarining folklori turli xil qadimiy janr va turlar bilan ajralib turadi, bu asrlar davomida shakllanib kelgan doimiy o'zaro ta'sir qiluvchi janrlarning murakkab tizimidir. U o'ziga xos mifologik va marosim she'riyatidan, monumental qahramonlik eposidan, tarixiy va qahramonlik afsonalaridan, xalq lirikasi va dramaturgiyasidan, turli xil paremiologik janrlardan tashkil topgan.

Ertak sujetlarining avtonom xarakteri haqidagi savol Indoneziya va Malayziya folklor tadqiqotchilarining ko'pchiligida shubha tug'dirmaydi. Ta'riflangan geografik muhitning dastlab indoneziyalik xarakteri va ularning hayoti tafsilotlari, etnografik haqiqatlar, belgilar nomlari – bularning barchasi ertaklar arxipelag (Nusantara) xalqlari milliy madaniyatining mevasi ekanligidan dalolat beradi.

Asarni yozishda Indoneziya xalqlarining XX asr davomida nashr etilgan indoneziya, malay va rus tillaridagi ertaklari ishtirok etdi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot Nusantara xalqlarining ertak an'analari materiallariga asoslanadi, chunki bu o'tgan XX asr davomida bizda paydo bo'lgan. Bunday materialning to'liqligi va tadqiqot uchun foydalanishning qonuniyligini ko'rsatishi shart emas – axir, ushbu bosqichda Nusantar ertagi an'anaviy sujet kompozitsiyasini, poetikaning obrazlarini saqlab qoldi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich formulalari, "vaqtinchalik" va "topografik" formulalari, belgilar xususiyatlari, morfologiyasi V.Ya.proppa, Folklor hodisa, Aarne-Thompson ko'rsatkich.

Изучение восточной литературы и фольклора как органической части историко-культурных и филологических исследований является важным направлением востоковедной науки Республики Узбекистан. Современное состояние – стремление творческого развития традиций мирового и отечественного востоковедения, для которых характерны высокая компетентность и профессионализм, корректное отношение к факту, тщательный филологический и текстологический анализ.



Стереотипность является одной из характерных черт фольклора; это давно известно, тем более, что стереотипность наличествует в той или иной форме во всех фольклорных жанрах и воздействует на самые различные аспекты устного народного творчества.

Сказка оказалась в этом смысле особенно щедрой и предоставила исследователям богатый и разнообразный материал, демонстрирующий удивительное сходство, иногда даже совпадения, в фольклоре самых различных народов. Поэтому не случайно именно проза была первым фольклорным жанром, давшим возможность – отправляясь как раз от явных элементов стереотипности – систематизировать мировое сказочное наследие с помощью указателей мотивов, сюжетов.

Достаточно вспомнить о переизданиях указателя Аарне-Томпсона и т.д.¹. Но это оказалось лишь первым этапом, так как исследование стереотипности не могло быть самоцелью; необходимо было изучить сказку во всей её сложности, чтобы открыть законы, управляющие процессом фольклорного творчества. Уже в начале прошлого века А.Олрик, один из представителей финской школы, говорил в связи со сказкой о строгости неизвестных художественной литературе «эпических законов», которые ограничивают свободу устного повествования². Стереотипность в сказке как раз и является результатом действия подобных законов, которые Олрик попытался выявить, причем в одних случаях добился успехов, в других – лишь высказал предположения.

Открытым оставался очень важный вопрос об оригинальности. Не исключает ли стереотипность сказки её оригинальность? Разумеется, нет. Несмотря на значительное место, занимаемое стереотипными элементами в этом сложном фольклорном жанре. Стереотипность, несомненно, ограничивает свободу устного повествования, но в какой мере? Ответ на этот вопрос как раз и ищут исследователи сказок, изучая самые различные стороны данного явления. Поэтому нельзя говорить об оригинальности сказки не зная её стереотипных элементов; нельзя критически установить подлинную ценность той или иной сказки, не обнаружив вначале стереотипных, традиционных, в большинстве случаев универсальных, и, значит, характерных для всего жанра элементов. Какой бы яркой личной одаренностью не отличался сказитель, какие бы новые оттенки он не вносил в процесс творческой импровизации, он не мыслил вне традиции³. Поэтому при наличии некоторых индивидуальных стилистических особенностей (манеры), сказочник [pendongeng] не может не исходить из

¹ Об этом подробнее см.: Померанцева Э. Мифологические персонажи в русском фольклоре. – [Москва, 1979.]

² См.: Рошияну Н. Традиционные формулы сказки. – [Москва, 1974. Подробнее об этом см. уже упомянутые нами исследования В.Проппа, В.Жирмунского, Е.Мелетинского].

³ Смирнов Ю.И. Славянские эпические традиции. [Москва, 1974. – С. 7-18].



традиционного стилевого фонда, созданного поколениями его предшественников. В этом традиционном фонде особо следует выделить общие места, в высочайшей степени стереотипные, которые часто приобретают характер стабильных словесных формул¹. Данный раздел нашей диссертации посвящен как раз традиционным формулам индонезийской сказки.

Инициальные формулы

Всякий (сказочник) [pendongeng], как правило, начинает свою сказку «датированием» действия, то есть фиксацией его во времени и «локализацией» этого действия в пространстве указанием места, где происходили действия, о которых будет рассказано. Получается, таким образом, два типа инициальных формул:

- 1) формулы времени (хронологические);
- 2) формулы пространства (топографические).

Сказочник помещает свою сказку во времени и пространстве. Таковы первые функции инициальной формулы сказки. Рассмотрим конкретно, как это происходит в индонезийской сказке.

Формулы времени

Самая простая инициальная формула времени в индонезийской сказке:

- «Были (был) однажды ...»

- *Sekali...*

Эта формула констатирует существование одного или нескольких героев и помещает их во времени, она содержит утверждение: когда-то жил раджа, бедняк, султан и т.д., время не конкретизировано, однако нет никакого сомнения в правдоподобности существования героев.

Эта инициальная формула еще не вводит в действие главного героя, который чаще всего появляется позднее; как правило, этот «элемент» относится к родителям героя. Часто в начале сказки герой даже не явился на свет, он должен родиться. Этим и объясняется возникновение медиальной формулы, отмечающей быстрое взросление героя (см. выше – мотив детства героя).

Другая инициальная формула образуется добавлением нового элемента «однажды», подчеркивающего исключительность, уникальность описанного в сказке:

- «Было однажды ...»

- *Itu sekali...*

- «Жил давно однажды ...»

- *Ada Panjang sekali...*

¹ Серебряный С. Формулы и повторы в «Рамаяне» Тулсидаса // Памятники книжного эпоса. [Москва, 1978. – С. 106-141].



Подчеркивая уникальность развития действия и вместе с тем его правдоподобность, сказочник часто прибегает к следующим «приёмам», - т.е. отправляет слушателей в «глубокую старину» - *kuno tinggi*:

- «В давние времена ...»
- *di zaman kuno...*
- Давным-давно ...
- *Lama-lama...*
- «Давным-давно, когда на земле еще и людей не было ...»
- *Di zaman kuno, ketika bumi itu bukan orang - orang...*

Другая инициальная формула времени индонезийской сказки появляется в результате ввода нового элемента; на этот раз он содержит логическую дедукцию: «в стародавние времена», - представляя своего рода аргумент «правдивости» тех событий, о которых будет рассказано. «Так рассказывают яванские старики...»: элемент – «старина», «старики», «в былые времена» - имеет в инициальной формуле индонезийской сказки большое распространение:

- «В те далекие лета ...»
- *Pada hari-hari...*
- «В давние-давние времена ...»
- *dalam waktu yang lama-lama...*
- «Давным-давно ...»
- *Lama-lama...*
- «Жил в давние времена раджа ...»
- *Di zaman hidup raja...*
- «Рассказывают, будто в глубокую старину ...»
- *Mengatakan bahwa di hari tua...*
- «Случилось это еще в незапамятные времена ...»
- *Itu terjadi untuk waktu yang lama...*

Рассмотренные нами инициальные формулы индонезийской волшебной сказки содержат пять морфологических элементов, каждый из которых выполняет определенную функцию: 1) факт существования героя; 2) наличие неких «событий», о которых будет рассказано; 3) фиксация во времени действия или героев; 4) исключительность событий, описанных в сказке; 5) подлинность, достоверность повествования.

Все эти пять элементов сохраняют утвердительный характер инициальной формулы; сомнение, а тем более отрицание отсутствуют; еще не замечается тенденция сказочника квалифицировать свою сказку с самого начала как вымысел. Напротив, общий смысл формулы – утверждение исключительности, подлинности того, о чем будет рассказано. Хотя время является неопределенным, что может вызвать сомнение у слушателей, сказочник обещает им истинный рассказ, исключительный, но достоверный.



Формулы пространства

До сих пор мы ничего не говорили о так называемых топографических формулах. Как можно было заметить, указание на место действия в волшебной сказке практически универсально. Мы отметили два вида топографических формул.

1) Формулы не являющиеся чисто топографическими:

- «Был однажды в лесу старик-отшельник ...»

- *Setelah di hutan adalah pertapa tua...*

- «Были на свете два брата» ...

- *Di cahaya tinggal dua bersaudara...*

- Далеко-далеко в какой-то стране ...

- *Di Negara manapun...*

2) Формула точно «топографическая», с указанием реально существующего места, что делает сказку более достоверной, кое-кто из слушателей, возможно, знает эти места или даже бывал там.

- В одной деревушке на склоне горы ...

- *Di satu desa, di lereng bukit...*

- На реке Табу, что впадает в реку Садан ...

- *Di sungai Sadan, yang mengalir ke sungai Sadan...*

- «В стране Гулита Сагоб, что на самом краю света ...»

- *Di negara Gulita sagob, di tepi dunia...*

- Есть на острове Белитунг река Черучук ...

- *Di pulau Belitung ada, sungai cerucuk...*

Таким образом, индонезийский сказочник, используя инициальные формулы, имеет возможность варьировать; используя два вида формул пространства, сказочник часто указывал на точное место (топографическая формула), где происходило действие – это усиливало достоверность повествования.

Для рассмотрения вопроса об медиальных необходимо, прежде всего, уточнение некоторых понятий, их определение, а также обзор основных результатов, к которым пришли фольклористы в исследовании данной темы.

Предварительно следует сказать, что инициальные и финальные формулы пользовались большим вниманием исследователей¹, хотя изучение их было достаточно поверхностным; медиальные же формулы, наоборот, занимают

¹ Vinogradov V. Syujet i stil. [Plot and style] – Moskva, 1963. – 203 s.; Kudelin A. Formulnie sochetaniya v "Sirat Antare" // Pamyatniki knijnogo eposa. [Formula combinations in "Sirat Antara" / / Monuments of the book epos] – Moskva, 1978. – 84 s.; Ibragimov N. Arabskiy narodniy roman. [Traditional formulas of fairy tales] – Moskva, 1984; Roshiyanu A. Traditsionnie formuli skazok. – Moskva, 1974. – 89 s.; Birach A. O traditsionnoy stilisticheskoy forme belorusskix skazok // O traditsiyax i novatorstve v ustnom narodnom tvorchestve. [About the traditional stylistic form of Belarusian fairy tales // About traditions and innovations in oral folk art]– Ufa, 1964. – S. 201-203.



незначительное место в работах, посвященных форме сказок. На наш взгляд, это объясняется, прежде всего, тем, что обнаружение медиальных формул – нелегкое дело, требующее особого внимания. Заметные, а значит легко обнаруживаемые инициальные и финальные формулы не представляют никаких трудностей для выделения, ибо отмечают два определенных момента сказки – начало (введение) и конец (заключение) повествования.

Это облегчает, конечно, и определение их функциональной природы. Но медиальные формулы не занимают определенного места, они могут быть рассыпаны по всему повествованию, сопровождая какого-либо героя или его действия, отмечая начало и конец определенного эпизода, очерчивая портрет какого-либо персонажа и т.д. Следовательно, коль скоро медиальные формулы разнообразны, различны также и их функции, и для их определения необходимо просмотреть огромный материал. Кроме того, богатство и разнообразие медиальных формул вызывает трудности их систематизации и классификации, поэтому исследователи прибегали в конце концов – как, впрочем, и в случае инициальных и финальных формул – к их инвентаризации.

Что касается термина «медиальные формулы», мы должны внести кое-какие уточнения, обосновать его употребление. Известный румынский фольклорист Н.Рошияну называет несколько терминов, которыми пользуются исследователи сказок¹. Следовательно, мы располагаем несколькими терминами, которые определяют одно и то же фольклорное явление. Чем это объясняется? Вполне понятно, что слова *intercalaires* и *mediane*² не являются синонимами, тем более они не могут быть заменены термином *libergangsformel* (переходные). Возникает закономерный вопрос: отражает ли эта разность терминов реальные объективные факты или просто выбор был случайным. Мы попытаемся показать, что разница в терминологии отражает действительное различие: на самом деле существуют переходные формулы (*libergangsformel*), которые могут быть включены, например, между разными эпизодами, выполняя при этом строго определенную роль, но этим не исчерпываются медиальные формулы.

Следовательно, речь идет о терминах с различными сферами употребления: все переходные формулы являются медиальными и, то есть они находятся «внутри» самой сказки, но последние не сводятся целиком к первым, переходные формулы составляют лишь небольшую группу медиальных формул. Вот почему употребляемые термины кажутся нам неподходящими для определения исследуемого явления, поскольку они сводят медиальные формулы к одной группе, точнее подгруппе, которая к тому же не является самой значительной. Конечно, термин «медиальная формула» не раскрывает сущности данного

¹ Roshianu N. Traditionnelles formules de contes [Traditional formulas of fairy tales]. - Leningrad, 1974. – str. 89.

² *Intercalaires* (нем.яз. - внутритекстовые) и *mediane* (текстовые).



явления, как, впрочем, и названия инициальная или финальная формула не являются самыми удачными¹, но мы, следуя методике румынского фольклориста Н.Рошияну, пользуемся ими, поскольку из-за разнообразия функции формул их местоположение в сказке остается единственным критерием, позволяющим их включение в особые группы. Рошияну Н., например, считает, что исследователи формул занимались только теми формулами, которые сказочник включает между эпизодами. Безусловно, исследуя формулы, находящиеся внутри сказки, мы должны иметь в виду тот факт, что эти формулы, более органически, чем инициальные и финальные, включаются в ткань сказки, в том смысле, что они (конечно, не все) тесно связаны с некоторыми персонажами, с определенными эпизодами и т.д.

С другой стороны, имеются и медиальные формулы, которые с функциональной точки зрения близки к инициальным или финальным, касаясь исключительно отношения сказочник – слушатель, что придает им некоторую независимость от действия сказки как такового, например, присутствие сказочника на свадьбе или его отсутствие². Следуя методике Рошияну Н. и Соколова Ю., мы будем говорить о двух больших, отличающихся друг от друга группах медиальных формул: 1) «внешние» медиальные формулы и 2) «внутренние» медиальные формулы.

Внешние медиальные формулы

Эти формулы выполняют в индонезийской волшебной сказке одну из своеобразных функций инициальных формул. Речь идет о функции, заключающейся в пробуждении интереса слушателей, привлечения и даже проверке их внимания. Мы попытаемся выделить в рамках внешних медиальных формул три подгруппы, каждая из которых выполняет определенные функции: 1) формулы, имеющие целью пробудить интерес слушателей, привлекая тем самым их внимание; 2) формулы, которыми проверяется внимание слушателей; 3) переходные формулы.

1). Формулы, имеющие целью пробудить интерес слушателей, привлекая тем самым их внимание.

– Двадцать шесть дней шел Андакен Пендрат по дворцу, и был он столь огромен, а что было дальше еще чудеснее ... («Повесть о Ханг Туахе»)

– *Dua puluh enam hari andaken pendrat berjalan melalui istana, yang besar masia ara yang lebih...*»

– «И шли они, шли по всему свету... слушайте же, что было дальше, кто слушает многому научится»

¹ Roshianu N. Traditsionnyye formuli skazok [Traditional formulas of fairy tales]. - Leningrad, 1974. str. 90-91.

² Sm.: Sokolov Yu. Russkiy folklor. [Russian folklore] – Moskva, 1971. – 329 s



– *Dan mereka pergi di lama panjang dengarlah apa yang terjadi dam yang mendengarkan banyak untuk belajar...*

– «Так и шли сироты, и шли, а вы же послушайте наш рассказ о радже джиннов» («Два брата»).

– *Dua ahak yatim berjalan anda mendengarkan cerita kamu Raja Peri...*

Эти формулы, к которым можно прибавить и другие, лишь внешне связаны с действиями героя («... шел да шел...», «... шли и шли...»), которого, впрочем, не определяют. Собственно, формула начинается лишь тогда, когда сказочник сообщает, что сказка продолжится «событиями» более чудесными и более интересными.

Надо отметить вместе с тем, что эта формула, хотя она не связана с определенным эпизодом, не употребляется случайно. Вообще ею пользуются при перемене действия, которая иногда служит и началом нового эпизода. Отмечая смену действия или начало нового эпизода, данные формулы приближаются к подгруппе переходных формул, но всё же их главной функцией остается та, о которой мы говорили выше. Герой отправляется в путь, где он должен будет решать новые трудные задачи; сменяется, таким образом, место действия, а сказочник, как бы предвосхищая будущие приключения своего героя, привлекает внимание своих слушателей. Как правило, эта формула вводится в сказку глаголом «идти» “*pergi*” в прошедшем времени, который является чем-то вроде перекидного мостика между данной формулой и собственно повествованием, обеспечивая вместе с тем плавный, естественный переход от одного эпизода к другому.

2). *Формулы, которыми проверяется внимание слушателей*

Эта подгруппа медиальных формул представлена очень слабо в индонезийских сказках. Такие формулы были обнаружены лишь в сказках, записанных сравнительно недавно. В чем состоит этот способ проверки внимания? В определенный момент в ходе изложения сказки сказочник, замечая, что слушатели устали, а некоторые даже уснули, внезапно произносит какое-то слово, на которое слушатели должны откликнуться другим словом.

В классических сборниках сказок данная формула действительно не встречается, однако это не является убедительным доказательством того, что этот прием недавнего происхождения. Известно, что в прошлом некоторые собиратели были менее точны в смысле соблюдения подлинной народной речи, устраняли из сказок многие элементы, относящиеся исключительно к устному характеру фольклорного произведения. Возможно, что именно поэтому прием не засвидетельствован в более старых сборниках. Кроме того, наша формула связана исключительно с моментом «исполнения», с «живой» сказкой, следовательно, её употребление предполагает наличие слушателя, что не всегда можно обеспечить в процессе собирания фольклора. Известно, например, что



определенным образом рассказывается сказка, когда кто-то хочет её записать, и совершенно иначе рассказывается та же самая сказка перед постоянными слушателями, которые хотят её именно слушать.

3). *Переходные формулы.*

Частота употребления переходных формул гораздо значительнее – как в индонезийских сказках, так и в сказках других народов. Зато они не столь разнообразны. Эти формулы являются специфичным композиционным элементом.

– «Теперь расскажи о Пандэвах...»

– *Sekarang menceritakan tentang pandevah...*

– «Теперь давайте оставим Ненек Кебайан и вернемся к Индрапутре...» – *Sekarang mani kita tinggalkan kebayan nenek dam kembali ke Indraputra...*

– «Теперь вернемся во дворец раджи ...»

– *Sekarang kembali ke istana Raja...*

«Теперь оставим всех там и посмотрим, что делают великаны ...»

– *Sekarang tinggalkan semua dan melihat apa yang mereka lakukan raksasa...*

Нетрудно заметить, что вышеприведенные формулы выполняют чисто композиционную функцию, употребляясь только тогда, когда меняется место действия, что обязательно совпадает с началом нового эпизода. В этих формулах, состоящих из двух частей, содержится, как правило, глаголы [menahan] – «оставить», иногда [meninggalkan] – «покинуть», и [melihat] – «видеть, увидеть» в смысле «узнать», представляющие собой как раз переход от одного эпизода к другому: первая часть формулы отмечает конец одного эпизода, вторая – начало следующего. Иногда сказочник употребляет только вторую часть формулы, называя и место, где предстоит действовать герою. Иногда вместо глагола «посмотрим» [melihat] сказочник употребляет глагол «вернемся» [kembali] – в этом случае речь идет об уже известном слушателям месте, где герой действовал раньше. Частота употребления переходных формул в сказках народов мира есть доказательство того, что они являются специфической чертой устной народной прозы.

Данные формулы используются для того, чтобы указать на необыкновенные свойства сказочных коней и, как правило, сопровождают любое их появление.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Афанасьев А.Н. Поэтические воззрения славян на природу. – Москва, 1865.
2. Померанцева Э. Мифологические персонажи в русском фольклоре. – Москва, 1979.
3. Рошняну Н. Традиционные формулы сказки. – Ленинград, 1974.
4. Серебряный С. Формулы и повторы в «Рамаяне» Тулсидаса // Памятники книжного эпоса. – Москва, 1978. – С. 106-141.
5. Смирнов Ю.И. Славянские эпические традиции. – Москва, 1974.
6. Соколов Ю. Русский фольклор. – Москва, 1971.



7. Hassan – Putri Kenmag (Cerita Rakyat Bengkulu).– Indonesia, 2006.
8. Salleh M.N. Hua Lu Puu (Cerita Rakyat Maluku Utara), Kuala Lumpur, 2005.

MIRZAJON QALANDAROV

Katta o'qituvchi, TDSHU

GULHAYO XUSHNAZAROVA

Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, TDSHU

Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning “Lub ul bob-masnaviy” va Odina Eshonning “Miftoh ul-asror” asarlari tahlili

Annotatsiya. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy” asari XIII–XIV asrlarda yaratilgan bugungi kungacha sevilib o'qiladigan eng mashhur tasavvufiy asarlardan biridir. Bu asar insonni ma'naviy kamolotga yetkazish va tasavvufning mohiyatini ochib berishni maqsad qilgan.

Voiz Koshifiyning Mavlono Jaloliddin Rumi “Masnaviyi ma'naviy” asari sharhi forsiy zabon xalqlar orasida mashhur bo'lgan. Ular Mavlono Jaloliddin Rumi asarlari, xususan, “Masnaviyi ma'naviy” asari ustida izlanishlar olib borib, chuqur tahlil orqali Rumiyning fikrlarini tushunishga yordam berishgan. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy jami qirqaqa yaqin fors tilida asar yozgan. Ular shakl va mazmun jihatdan juda xilma-xil bo'lib, XV asrning ikkinchi yarmida o'rta asrlar Eron va Markaziy Osiyodagi musulmon ilmining ko'plab sohalarini qamrab oladi. Koshifiy haqli ravishda buyuk ensiklopedik olim hamda islom ilmi va adabiyotiga bir qancha o'ziga xos yangi yo'nalishlarni olib kirgan Temuriylar davri arbobidir.

Voiz Koshifiyning “Lub ul bob masnaviy” asari adabiyot tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biridir. Biz mazkur asarning to'liq mundariyasi va ta'lim-tarbiyaga oid boblarini qisqacha rasmiy bayonini qilishga harakat qildik. Mazkur boblarda insonning ruhiy hayotini, ma'naviyatini, dunyoqarashini o'rganish va yuksaltirishning ahamiyati bayon qilinadi. Asar asosan insonning ma'naviyatiga oid fikrlari va nazariyalardan iboratdir tarbiya va ta'lim sohasidagi muammolarga jiddiy e'tibor qaratadi.

Voiz Koshifiyning “Lub ul bob masnaviy” va Muhammad Odina Eshonning “Miftoh ul-asror” asarlari masnaviy sharhida muhim o'rin tutadi. Ularning tarkibiy jihatlari va uslublaridagi farqlar, o'quvchilarga har ikki asardan turli xil ma'naviy saboqlar olish imkonini beradi. Bu tahlil, shuningdek, masnaviyning boy merosini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Lub ul bob masnaviy, Voiz Koshifiy, Miftoh ul-asror, chashma, rashha.

Annotation. Mawlana Jalaluddin Rumi's "Masnavi Ma'navi" is one of the most famous Sufi works created in the 13th-14th centuries that continues to be beloved and read to this day. This work aims to guide a person to spiritual perfection and unveil the essence of Sufism.



The commentary on Mawlana Jalal ad-Din Rumi's "Masnavi Ma'navi" by Waiz Kashifi was popular among Persian-speaking peoples. They conducted research on the works of Mawlana Jalal ad-Din Rumi, particularly "Masnavi Ma'navi," and through in-depth analysis helped to elucidate Rumi's thoughts. Kamoliddin Husayn Waiz Kashifi wrote about forty works in Persian. They are very diverse in form and content and cover many areas of medieval Islamic science in Iran and Central Asia in the second half of the 15th century. Koshifi is rightfully a great encyclopedic scholar and a figure of the Timurid era who brought a number of unique new directions to Islamic science and literature.

The work "Lub ul bob masnavi" by Waiz Koshifi is one of the significant literary works in the history of literature. We have attempted to provide a concise official summary of the full contents and chapters of this work related to education and upbringing. These chapters describe the importance of studying and enhancing a person's spiritual life, spirituality, and worldview. The work consists mainly of thoughts and theories about human spirituality and pays serious attention to problems in the field of upbringing and education.

The works "Lub ul bob masnavi" by Waiz Kashifi and "Miftoh ul-asror" by Muhammad Odina Eshon play a significant role in the commentary on masnavi. The differences in their structural aspects and styles allow readers to derive various spiritual lessons from both works. This analysis also helps to gain a deeper understanding of the rich heritage of masnavi.

Keywords. Lub ul bob masnavi, Voiz Koshifi, Miftoh ul-asror, chashma, rashha.

Аннотация. Произведение Мавлоно Джалалиддина Руми "Маснавийи Маънавий" является одним из самых известных суфийских произведений, созданных в XIII-XIV веках и читаемых по сей день. Это произведение направлено на духовное совершенствование человека и раскрытие сущности суфизма.

Комментарий Воиза Кашифи к произведению "Маснавийи Маънавий" Мавлоно Джалалиддина Руми был популярен среди персоязычных народов. Они проводили исследования произведений Мавлоно Джалалиддина Руми, в частности, "Маснави Маънави," и посредством глубокого анализа способствовали пониманию мыслей Руми. Всего Камолитдин Хусейн Ваиз Кашифи написал около сорока произведений на персидском языке. Они очень разнообразны по форме и содержанию и охватывают многие области средневековой мусульманской науки в Иране и Центральной Азии во второй половине XV века. Кашифи по праву является великим ученым-энциклопедистом и деятелем эпохи Темуридов, внесшим в исламскую науку и литературу ряд своеобразных новых направлений.

Произведение Ваиза Кашифи "Люб ул боб маснави" является одним из произведений, имеющих важное значение в истории литературы. Мы попытались сделать краткое официальное изложение полного содержания и глав, относящихся к образованию и воспитанию данного произведения. В этих главах излагается значение изучения и развития духовной жизни, духовности, мировоззрения человека. Произведение состоит в основном из взглядов и теорий, связанных с духовностью человека, и уделяет серьезное внимание проблемам в области воспитания и образования.

Произведения Ваиза Кашифи "Люб ул боб маснави" и Мухаммада Одина Эшона "Мифтах ул-асрор" занимают важное место в комментариях к маснави. Различия в их структурных аспектах и стилях позволяют читателям извлекать разные духовные



уроки из обоих произведений. Этот анализ также помогает глубже понять богатое наследие маснави.

Ключевые слова. *Луб ул боб маснави, Воиз Кошифи, Мифтох ул-асрор, чаима, раиша.*

KIRISH. “Masnaviyi ma’naviy” Mavlono Jaloliddin Muhammad binni Bahouddin Valad Balhiy Rumiyning shoh asarlaridan biri bo‘lib, bu kitob Sharq va G‘arb adabiyotida buyuk asarlardan biri sifatida ta’riflanadi. Oltita katta jildlardan iborat ushbu asar 26840 baytdan (51370 misradan), Qur’onning 70 foiz ma’nosini o‘zida jamlagan va asar 690 ta hadisga sharh, 270 ta turli mavzudagi hikoyalardan iboratdir¹.

Uning asliy nomi “**Masnaviyi ma’naviy**” “مثنوی معنوی” bo‘lib, ma’nosini “Ruhiy ma’naviyatdagi ikki qatlamli she’r” deb tarjima qilish mumkin. Bu asar tasavvufiy mazmunlarga ega bo‘lib, insonning ruhiyatiga yetib boradigan maslahatlarni o‘z ichiga oladi. “Masnaviyi ma’naviy”da murakkab mantiqiy masalalar, hayotning ma’noli tomonlari, insonning ma’naviyatiga oid muammolar va ularning yechimlari, do‘stlar o‘rtasidagi muhabbat va hurmat kabi mavzular ko‘rsatiladi. Asar davomida tasavvufiy qoidalar, zikr, fikr va muhokama usullari, odamlarning ruhiyatini rivojlantirishga oid maslahatlar ham berilgan.

Ushbu maqola “Masnaviyi ma’naviy”ning Odina Eshon hamda Voiz Koshfiy tomonidan yozilgan sharhlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, adiblarning fikrlari o‘rganishlarini tahlil qilishdan iboratdir. Ikkala ijodkor ham o‘z sharhlarida Mavlono “Masnaviy”ida ma’naviyat va (irfon) tasavvuf, Qur’on oyatlari va payg‘ambarlik hadislaridan ifodali shaklda sharhlar bitishgan.

“Masnaviyi ma’naviy”ning o‘zbek tilida ham tarjimasi mavjud. Ushbu asar xalq orasida o‘ziga xos ma’naviy qiymati bilan tanilgan.

Masnaviyi o‘rganish xuddiki Masnaviy dengiziga sho‘ng‘ib uning to‘lqinlarini tomosha qilish va tiniq suvidan bir tomchi (rashxa) olishdir. Masnaviyi o‘rganib tahlil qilishdan maqsad insonlarga ma’naviyatni, ruhiy ozuqani yetkazishdir. Bu jarayon, bir tomondan, tasavvufiy bilimlarni o‘rganish va ulardan foydalanish, ikkinchi tomondan esa, boshqalarga bu bilimlarni ulashishdir.

TADQIQOTNING USULLARI. Shular orasida yana bir necha asrlar muqaddam bor kuchi bilan mehnat qilib, Masnaviyning shiddatli to‘lqinlariga o‘zini butun qalbi bilan tashlagan qizg‘in va’zgo‘y mulla Husayn Voiz Koshifiy Sabzavoriy va Shayx Odina Eshonning mehnati ulug‘ va tahsinga sazovordir. Voiz Koshifiy Mavlono Masnaviy dengizidan qimmatbaho toshlar va tilla tomchilarni tanlab olib, “Lub ul bob masnavi” va “Miftoh ul-asror”ni yaratib, tafakkur va tasavvuf ixlosmandlariga taqdim etdi.

NATIJARLAR. “Masnaviyi Ma’naviy” sharhiga bag‘ishlangan asarlarni tahlil qilish, albatta, muhim bir mas’uliyatli vazifadir. Voiz Koshifiyning “Lub ul bob masnavi” asari va Muhammad Odina Eshonning “Miftoh ul-asror” asari tarkibiy

¹ *Masnaviy 40 rivoyatga sharh.* Toshkent "Navro‘z" nashriyoti, 2019.



jihtadan qiyosiy tahlil qilinishi, ularning mazmuni va uslubidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Voiz Koshifiyning “Lub ul bob masnaviy” asari

1. Boblarni nomlash an’anasi: Koshifiyning boblarni nomlash uslubi an’anaviy va ma’naviy ahamiyatga ega. U har bir bobda masnaviyning muhim jihatlarni yoritib, o’quvchiga ma’naviy saboq berishga intiladi. Nomlar ko’pincha ramziy bo’lib, o’quvchini chuqur fikr yuritishga undaydi.

2. Tarkibiy jihatlari: Asarda, masnaviyning asosiy g’oyalarni ochib berish uchun qiziqarli va chuqur tahlil usullaridan foydalanadi. Har bir bobda Koshifiyning o’ziga xos yondashuvi va fikrlash tarzi ko’rinadi.

Muhammad Odina Eshonning “Miftoh ul-asror” asari

1. Tarkibiy struktura: Odina Eshon asari ham masnaviyga oid qiziqarli tahlillarni o’z ichiga oladi, ammo u ko’proq ma’naviy va falsafiy jihatlarga e’tibor qaratadi. Boblar nomlari ko’proq sirli va chuqur ma’noga ega bo’lib, o’quvchini yanada chuqur fikr yuritishga undaydi.

2. Uslub va mazmun: Odina Eshon o’z asarida masnaviyning muhim jihatlarni o’ziga xos uslubda ifodalaydi. Uning yondashuvi ko’proq majoziy va ramziy bo’lib, o’quvchini yangi fikrlarga yo’naltiradi.

Qiyosiy tahlil

– **Uslubiy farqlar:** Koshifiyning uslubi ko’proq an’anaviy va tushunarli, Odina Eshon esa ko’proq majoziy va ramziy.

– **Mazmun:** Har ikkala asar masnaviyga oid muhim g’oyalarni yoritadi, ammo Koshifiyning asari ko’proq amaliy saboqlarga e’tibor qaratadi, Odina Eshon esa falsafiy savollarni ko’taradi.

MUHOKAMA. Husayn Voiz Koshifiy hayotiy faoliyatiga to’xtaladigan bo’lsak, notiqlik san’ati namoyandasi va nazariyotchisi, mutafakkir, ilohiyotchi olim. Arab, fors, turk tillarini yaxshi bilgan, kimyo, astronomiya, musiqa, adabiyot va fiqhdan to’la ma’lumot olgan buyuk olim hisoblanadi.

Yoshligidan voizlik bilan shug’ullangan. Nishopur, Mashhadda (1455–1468), keyinchalik Hirotda yashagan. Asarlarini fors tilida yozgan.

Koshifiy tasavvuf adabiyotining dunyodagi eng mashhur notig’iga aylandi va uning tafakkuri hamda tasavvufi zamon va makon chegarasidan oshib, butun insoniyat undan bahramand bo’ldi. Voiz Koshifiy Temuriylar davrining oltin davri, Jomiy, Xoja Ahror Valiy, Navoiy davrida Hirotda yashab ijod qildi, uning asarlari, xususan, tafsiri diyorlarimizdagi madrasalarda asosiy adabiyot sifatida o’qitildi.

Shayx Odina Eshon esa, Xorazm diyoridan yetishib chiqqan valiy zot bo’lib, uning to’liq nomi Abu-l-Muzaffar ibn Sayyid Muzaffar al-Xusayniy al-Xorazmiy al-Karvakiydir. Uning asl ismi Sayyid Odina Muhammad bo’lgan. “Miftoh ul-asrsr”ning yagona nusxasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar xazinasida 7143 ashyo raqami bilan saqlanmoqda. Bu nusxa



Muhammad Rahmxon Feruzning ko'rsatmasi bilan Habibulloh ibn Mulla Abdussalom al-Haqohiy tomonidan ko'chirilgan. Bu nusxada kotib tomonidan yo'l qo'yilgan ayrim xatolar ko'zga tashlanadi, ba'zida qaytariqlar va tugallanmay qolgan baytlarni ko'rish mumkin. Shu kunlarda Xorazm viloyatining Bog'ot tumanida Odina Eshonning avlodlari yashamoqda. Odina Eshonning qabri shu tumandagi Dehqonobod qishlog'ida joylashgan bo'lib, katta ziyoratgoh hisoblanadi.

Garchi "Masnaviy" asrlar davomida ko'plab talqinlar, saralashlar va xulosalarni ko'rgan bo'lsa-da, lekin Mavlono Mulla Husayn Voiz Koshifiy hamda Odina Eshonning qilgan ishlar asl va o'zgarmasdir. Va shuning uchun ham o'sha davrdan to hozirgacha masnaviychilarning diqqat markazida bo'lib, doimo Masnaviy bilan birga yonma-yon bo'lishgan. "Lub ul bob masnaviy" kitobi hazrati Rumiyning "Masnaviy"idan parcha bo'lib, uni Mulla Husayn Voiz Hiraviy parcha yozish jarayonida tayyorlagan. Bu kitob besh yuzga yaqin mavzudan iborat bo'lib, uning ostida har bir mavzuga oid she'rlar joylashtirilgan.

Mulla Husayn Voiz Hiraviy bu tanlovni ikki sababga ko'ra qilgan. Avvalo, u yerda cheksiz masnaviydar dengizi borki, undan mo'minlarning barcha xossalari va tasavvurlari uchun foydalanish mumkin. Ikkinchidan, ba'zi do'stlari undan bunday tanlovni tanlashni so'rashdi. Binobarin, "Masnaviy"ning tariqat uchun foydalari hamda do'stlar iltimosiga ko'ra Voiz Haraviy "Lub ul bob masnaviy"ni yaratgan.

Bu kitob "Lub ul bob –ma'naviy fi-intixobi Masnaviy" nomi bilan mashhur. Bu kitob besh asrdan ortiq vaqtdan beri mavjud bo'lgan qimmatli va foydali kitoblardan biridir.

Boblar nomlanishi	
"Lub ul bob ma'naviy"	"Miftoh ul-asror"
	Birinchi fasl: Ushbu kitob Musannifi Holining boshlanishi, ya'ni taviq va tavbaning hosil bo'lishiga ko'z tikishi, haqiqat va martaba navlarining huzul qilinishi bayonida
Birinchi oyna: Shariat turli jamoalar bayonida	Ikkinchi fasl: ilm ul-yaqin va jazba hamda tajalliyotning boshlanishi bayonida
Ikkinchisi oyna: Tariqat sirlarini ifodalash	Uchinchi fasl: Ayn ul-yaqin ra'yini va uni tahqiq qiluvchilar bayonida
Uchinchi oyna: Haqiqat nurini ifodalash haqida	To'rtinchi fasl: soliklar darajasining nihoyati bo'lgan haqqa ul-yaqinning haqiqati bayonida
	Beshinchi fasl: taqlid ahli bayonida va ular bilan bo'ladigan suhbatning ziyoni zikrida
	Oltinchi fasl: kamol ahlining sifati va hazrati xudovandi taologa yaqin bo'lgan ilohiy xos bandalarning visolga yetish tarqi bayonida

(1-jadval. Boblar tarkibining o'xshashliklari berilgan)



Koshifiyning ushbu kitobining tuzilishi juda original va u uchta tamoyilga asoslanadi. Har bir **Oyna** bir nechta **chashmalarni** o‘z ichiga oladi va har bir chashma bir nechta (rashxa) **tomchilarni** o‘z ichiga oladi. Bu tuzilishdan maqsad shariat jabhalarida keng qamrovli bo‘lish, tariqat sirlarini ochib berish va haqiqatga erishishdir. “Lub ul bob -ma’naviy fi-intixobi Masnaviy” Eronda ko‘p marta, jumladan, “Afshari” va “Asatir” nashriyotlarida 330 nusxada, 424 bet qilib nashr etilgan. Ushbu kitobning oxirgi nashri 2006-yilda Sarat madaniyat instituti tomonidan qilingan¹.

Odina Eshonning yozishicha, uni sharhlashga undagan narsa, birinchidan, “Masnaviy”ning eng nozik joylarini hech kim mukammal sharhlab berolmagani bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zidan avvalgi sharhlovchilar sharhlarni juda cho‘zib yuborganliklari, natijada o‘quvchini asosiy maqsaddan chalg‘itib yuborganliklaridir. Odina Eshon baytlarni sodda va lo‘nda sharhlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi².

Yuqorida Voiz Koshifiy kitobni uchta tamoyil asosida: Oyna, chashma, tomchi (rashxa)ga ajratganligini ko‘rib chiqdik. Forsiydan rashxa so‘zini tomchi deb oldik “rashxa” so‘zi yana bir buyuk olim Voiz Koshifiyning o‘g‘li Faxruddin Aliy Safiy bin Husayn Voiz Koshifiyning “Rashahot” asarida kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Uning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Faxruddin Aliy Safiy asarlari, xususan, “Rashahot aynu-l-hayot”da ajdodlarimiz ilmiy merosi orqali yuksak fazilatlariga ega bo‘lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni dinimiz asoslari orqali sog‘lom tafakkur va pok axloqqa targ‘ib qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan³.

“Odina Eshon” va “Voiz Koshifiy” asarlaridagi boblar strukturasida o‘xshashliklar mavjud. Har ikki asar ham o‘z ichki mazmunini yanada chuqurroq tushunishga yordam berish maqsadida boblarga ajratilgan.

Odina Eshon asaridagi boblar aniq va tushunarli bo‘lib, har bir bobda ma’lum bir mavzu yoki g‘oya ko‘tariladi. Bu, o‘quvchiga har bir bobni alohida o‘rganish va tushunish imkonini beradi.

Voiz Koshifiy esa boblarni oyna sifatida ishlatib, ularning ichida yana kichik mavzularni ko‘rsatadi. Bu usul, o‘z navbatida, o‘quvchini har bir bobda ko‘proq tafsilotlarga va chuqurroq ma’nolarga olib boradi. Har bir kichik mavzu, o‘z navbatida, katta mavzular bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa asarning umumiy mazmunini yanada boyitadi.

Bu ikki yondashuv o‘quvchilarni turli darajada fikrlashga, tahlil qilishga va ma’naviy jihatdan rivojlanishga undaydi.

¹ <https://bookroom.ir/book/35890/%D9%84%D8%A8-%D9%84%D8%A8%D8%A7%D8%A8-%D9%85%D8%AB%D9%86%D9%88%DB%8C>

² Shayx Odina Muhammad Xorazmiy. Miftox ul-asror (Sirlar kaliti). Ilmiy-adabiy nashr. “Musiqqa” nashriyoti. Toshkent. 2006-yil.

³ Umurzoqov B. “Aliy Safiy Hiraviyning Toshkent qo‘lyozma fondlarida mavjud asarlari va ijodkor qalamiga mansub yangi topilmalar”. “Sharqshunoslik” jurnali. 2021-yil,3-son. 97-bet.



XULOSA. Odina Eshon va Voiz Koshifiyning "Masnaviyi ma'naviy"ga yozgan sharhlari Mavlononing asarini tahlil qilishda yordam berishi, o'qituvchilar, tadqiqotchilar uchun foydalidir. Bu tahlil va sharhlar orqali asar ustida chuqurroq tushunish va o'zgaras ma'nolarni ko'rish imkoniyati ochiladi. Shuningdek, Mavlononing "Masnaviy"ida Qur'on oyatlari va payg'ambarlik hadislariga qaratilgan murojaatlar va ularning tafsiliy sharhlari ham juda muhimdir. Voiz Koshifiyning "Lub ul bob masnaviy" va Muhammad Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asarlari masnaviy sharhida muhim o'rin tutadi. Ularning tarkibiy jihatlari va uslublaridagi farqlar, o'quvchilarga har ikki asardan turli xil ma'naviy saboqlar olish imkonini beradi. Bu tahlil, shuningdek, masnaviyning boy merosini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. مولانا ملاحسين كاشفي : لب لباب مثنوى
2. Шайх Одина Муҳаммад Хоразмий "Мифтоҳ ул-асрор (сирлар калити) («Маснавийи маънавий» тафсири)
3. Mavlono Jaloliddin Rumi "Masnaviyi ma'naviy"
4. <https://bookroom.ir/book/>
5. Mavlono Jaloliddin Rumi "Masnaviy 40 rivoyatga sharh".

I-Ilova

Birinchi (Oyna) nazariya: Shariat turli jamoalar bayonida.

Birinchi chashma: Iymon va shahodat bayonida.

1. Birinchi tomchi (rashha): Iymon va uning haqiqati bayonida.
2. Ikkinchi tomchi : Shahodat bayonida.
3. Uchinchi tomchi : Ibodat va uning darajalari bayonida.

Ikkinchi chashma: Asllar va ilovalar bayonida.

1. Birinchi tomchi : Tahorat bayonida.
2. Ikkinchi tomchi : Namoz bayonida.
3. Uchinchi tomchi : Ro'za bayonida.
4. To'rtinchi tomchi : Zakot bayonida.
5. Beshinchi tomchi : Haj bayonida.
6. Oltinchi tomchi : Jihod bayonida.

Uchinchi chashma: Qazo va qadar, majburiyat va ixtiyor bayonida.

1. Birinchi tomchi: Qazo va qadar bayonida.
2. Ikkinchi tomchi: Taqdir va iroda erkinligini ifodalash.

To'rtinchi chashma: Ilm va aql haqida.

1. Birinchi tomchi: Ilm haqida.
2. Ikkinchi tomchi: Aql haqida.

Beshinchi chashma: Qo'rquv va umidni ifodalash haqida.



1. Birinchi tomchi: Umid haqida.
2. Ikkinchi tomchi: Qoʻrquv haqida.

Oltinchi chashma: Adolat, adolatsizlik va jazoni ifodalash.

1. Birinchi tomchi: Adolatni ifodalash haqida.
2. Ikkinchi tomchi: Zulmni ifodalash haqida.
3. Uchinchi tomchi: Jazoni ifodalash haqida.

Yettinchi chashma: shoshilish va amallar haqida.

1. Birinchi tomchi: Boshqa dunyoning mavjudligini isbotlashda.
2. Ikkinchi tomchi: Amallar va holatlarning koʻlamini tavsiflash haqida.
3. Uchinchi tomchi: Oʻlim hikmatini tavsiflash haqida.
4. Toʻrtinchi tomchi: Ruhning omon qolishi haqida.
5. Beshinchi tomchi: Shoshilish va amallar haqida.
6. Oltinchi tomchi: Oʻlim ishtiyoqini ifodalash haqida.
7. Yettinchi tomchi: Ixtiyoriy oʻlimni ifodalash haqida.
8. Sakkizinchi tomchi: Jannat va doʻzaxni tasvirlash haqida.

Ikkinchisi nazariya: Tariqat sirlarini ifodalash.

Birinchi chashma: Xulq-atvorning kelib chiqishida ishlatiladi.

1. Birinchi tomchi: Jazo haqida
2. Ikkinchi tomchi: Tavba haqida
3. Uchinchi tomchi: Yaxshi kishilar suhbat haqida
4. Toʻrtinchi tomchi: Talab haqida

Ikkinchi chashma: Pir-u Komilning hidoyatiga murojaat qilib

1. Birinchi tomchi: Tanbeh haqida
2. Ikkinchi tomchi: Tariqat oqsoqollariga (ustozlarga) odobli boʻlishdir

Uchinchi chashma: Xulq-atvorni ifodalashda

1. Birinchi tomchi: Xulq-atvorni ifodalash haqida
2. Ikkinchi tomchi: Rahbarga itoatkorlikni ifodalash haqida
3. Uchinchi tomchi: Qatʼiylik va ehtiyotkorlikni ifodalash
4. Toʻrtinchi tomchi: Ehtiros ifodasi haqida

Toʻrtinchi chashma: marosim turlari

1. Birinchi tomchi: Tarki dunyo etish ifodasida
2. Ikkinchi tomchi: Nafsni tark etish haqida
3. Uchinchi tomchi: Yolgʻizlik va uzlatni ifodalash haqida
4. Toʻrtinchi tomchi: Sukunatni ifodalashda
5. Beshinchi tomchi: Sehr haqida
6. Oltinchi tomchi: Ochlikni ifodalash haqida
7. Yettinchi tomchi: Sabrni ifodalash haqida
8. Sakkizinchi tomchi: Taqliddan voz kechish ifodasida
9. Toʻqqizinchi tomchi: Ehtiyoj va ibodatni bildirishda
10. Oʻninchi tomchi: Depressiyani (letargia – unutish) ifodalash haqida



Beshinchi chashma Xulq-atvor o'rtasida

1. Birinchi tomchi: Yaxshi xulqni ifodalash haqida.
2. Ikkinchi tomchi: Samimiylik va sadoqatni ifodalash
3. Uchinchi tomchi: Kayfiyatni (sifatni ifodalash) haqida
4. To'rtinchi tomchi: Shukrni ifodalashda
5. Beshinchi tomchi: Rozi bo'lish haqida
6. Oltinchi tomchi: Qanoat sharafini ifodalash haqida
7. Yettinchi tomchi: Ishonch bildirish haqida
8. Sakkizinchi tomchi: Qadr va tavozeni ifodalash haqida
9. To'qqizinchi tomchi: Kamtarlik va g'azabni ifodalashda
10. O'ninchi tomchi: Samimiylikni ifodalashning o'ninchi sirlari.

Oltinchi chashma: Izlovchini yakuniy yo'lga olib keldi.

1. Birinchi tomchi: Eshitish haqida
2. Ikkinchi tomchi: Zikr qilish haqida
3. Uchinchi tomchi: Fikrni ifodalash haqida
4. To'rtinchi tomchi: Ishonchni ifodalash haqida
5. Beshinchi tomchi: Inson bilimini ifodalash haqida
6. Oltinchi tomchi: Qalb ilmini izhor qilish haqida
7. Yettinchi tomchi: Inson qalbi bilimini ifodalash haqida
8. Sakkizinchi tomchi: Tasavvuf va faqirlik xususiyatini ifodalash haqida

Uchinchi nazariya

Haqiqat nurini ifodalash haqida

Birinchi chashma: Ishq haqida

1. Birinchi tomchi: Ishq sifatlarini ifodalash
2. Ikkinchi tomchi: Oshiqlarning xususiyatlarini ifodalash
3. Uchinchi tomchi: Ishq zafarlarida oshiq mahbubini ifodalashda
4. To'rtinchi tomchi: Majoziy ishqni ifodalashda
5. Beshinchi tomchi: Oshiqning mavhumligini ifodalashda
6. Oltinchi tomchi: Oshiq bilan mahbuba ittifoqini ifodalashda

Ikkinchi chashma: Faktlar darajasi haqida

1. Birinchi tomchi: Kuzatish ifodasi haqida
2. Ikkinchi tomchi: Shartnoma tuzish va uzaytirish haqida
3. Uchinchi tomchi: Sevgi izhor qilishda
4. To'rtinchi tomchi: Yaqinlikni ifodalash haqida
5. Beshinchi tomchi: Ibodat qilish haqida

Uchinchi chashma: So'ngida xulq-atvor darajalari haqida

1. Birinchi tomchi: Bilimlarni ifodalashda
2. Ikkinchi tomchi: Yo'q bo'lish haqida
3. Uchinchi tomchi: Tavhid (Yakkaxudolik)ni ifoda etish haqida

**NODIRBEK KARIMOV***Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU***Li Munyol Va Xyon Jingonlar ijodida mushtarak mavzu**

Annotatsiya. Annotatsiya: Koreys adabiyotining yangilanishi 1980-1990-yillarda ijtimoiy tanqidiy qarashlar, shubhasiz, adabiyotga yangi shiddat va mantiq olib keldi. Li Munyolning "Omadli kun" hikoyasi, o'ziga xos mantiq va to'liq tasvir bilan insonning ichki ruhiy inqirozini, uning xayolidagi qayg'ularni, omadga bo'lgan ishonchsizlikni aksiyot qilgan asarlardan biridir. Munyol o'z xikayasida shaxsning dunyoviy va axloqiy qadriyatlarining murakkab holatini yoritadi, va bu odamning turmushga bo'lgan qarashlarining shakllanishi va o'zgarishi haqida batafsil yozadi. Li Munyol va Xyon Jingonning "Omadli kun" asarlaridagi xronologik va emotsional elementlar o'xshash, ayniqsa, peyzaj tasvirlarining amalga oshirilishi. Ularning asarlaridagi asosiy personajlar, o'z davridagi ijtimoiy muammolarni yoritish va ulug' inson ruhiyatining to'g'ri badiiy fikrlarda olib borish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, Li Munyol xikoyasining og'irligi va muhimligi shunidaki, u shaxsiy omadga intilishning yozuvchi ko'zlagan falsafiy qimmatini kuchli yoritgan. Yan ismli qizning qahramon bo'lib kirishidan boshlab, adib unga yangi yo'l, yoki faqat o'z nafsini qondirishga intilishlarning yomonligiga ishora qiladi. Yanning aynan shunday qalbiy o'zgarishlari o'quvchining ko'nglida ancha katta gaplarni uyg'otadi. Li Munyolning yozuvchisi sifatida xarakteri, muayyan bir vaqtning qadriyatlariga muhim maqsadda izlanishni tasvirlashga urinishini ko'rsatadi. Bosh qahramonning ko'priqqa tashlagan yoki umumiy qilib xayolidan nima deb o'ylayish kerakligini turmush yo'llarida qo'shilgan shaxslarning xarakterlarini orqali tasvirlash bu asarning asosiy yo'nalishidir.

Tayanch so'zlar: Li Munyol, Xyon Jingon, "Omadli kun", peyzaj, portret, Kim Chxomji, Chxisam.

Аннотация: Возрождение корейской литературы в 1980-х и 1990-х годах с её социально-критическими взглядами, несомненно, привнесло в литературу новую интенсивность и логику. Рассказ Ли Мунёля «Удачный день» — одно из произведений, которое с присущей ему логикой и целостной образностью изображает внутренний духовный кризис человека, его душевные терзания и недоверие к удаче. В своём рассказе Ли Мунёль освещает сложное состояние светских и нравственных ценностей человека, а также подробно описывает формирование и изменение взглядов этого человека на брак. Хронологические и эмоциональные элементы в произведении Ли Мунёля и Хён Джингона «Удачный день» схожи, особенно в использовании пейзажных изображений. Главные герои их произведений играют важную роль в освещении социальных проблем своего времени и передаче глубоких художественных мыслей о человеческом духе. В то же время значимость рассказа Ли Мунёля заключается в том, что он ярко иллюстрирует философскую ценность стремления писателя к личному успеху. Начиная с представления героини, девушки по имени Янь, писатель указывает на её склонность к поиску простого удовлетворения собственных желаний. Именно эти перемены в сердце Янь пробуждают у читателя гораздо более глубокие мысли. Персонаж Ли Мунёля как писателя демонстрирует его попытку изобразить ценности определённого времени



через осмысленный поиск. Основная цель этой работы — показать, о чём думает главный герой или о чём он размышляет ежедневно, общаясь с разными людьми, которых встречает на своём жизненном пути.

Ключевые слова: Ли Муньоль, Сён Джингон, «Удачный день», пейзаж, портрет, Ким Чхонджи, Чкисам.

Abstract: The revival of Korean literature in the 1980s and 1990s, with its socially critical perspectives, undoubtedly brought new intensity and logic to the literary world. Lee Mun-yeol's story *A Lucky Day* is one such work that, with its inherent logic and cohesive imagery, depicts a person's inner spiritual crisis, mental anguish, and distrust of luck. In this story, Lee Mun-yeol explores the complex state of an individual's secular and moral values, while also detailing the formation and transformation of that person's views on marriage. The chronological and emotional elements in *A Lucky Day* by both Lee Mun-yeol and Hyun Jin-gon are similar, particularly in their use of landscape imagery. The protagonists in their works play a crucial role in highlighting the social issues of their time and conveying profound artistic reflections on the human spirit. At the same time, the significance of Lee Mun-yeol's story lies in its vivid illustration of the philosophical value in the writer's pursuit of personal success. Beginning with the introduction of the heroine, a young woman named Yan, the author points to her tendency to seek simple satisfaction of her own desires. It is this shift in Yan's heart that evokes much deeper reflections in the reader's mind. As a writer, Lee Mun-yeol's character illustrates his effort to represent the values of a specific time through a meaningful search. The primary goal of the work is to portray what the protagonist thinks about or reflects on daily, through his interactions with different types of people he encounters along his journey.

Key words: Li Munyol, Xyon Jingon, "A lucky day", landscape, portrait, Kim Chxomji, Chxisam.

1980-yillardan keyingi koreys adabiyoti avvalgi yillar adabiyotidan keskin farq qiladi: XIX asrning so'nggi choragidan boshlab XX asrning 80-yillarigacha davom etgan siyosiy, mafkuraviy tazyiqlar ostida bo'lgan adabiyot nazoratlardan xalos bo'ldi. Adabiyotdagi erkin so'z yangi mazmundagi asarlar yaratilishi uchun turtki berib, yangilanishga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi badiiy adabiyotda aks-sado berdi.

Mumtoz davr koreys adabiyotida olam va odam, hayotga bo'lgan qarashlar ham g'arb, ham zamonaviy koreys adabiyotidan tubdan farq qiladi. Taniqli olim Ibrohim Haqqul ta'biri bilan aytganda: "Sharq mumtoz adabiyoti aslida soflik, ilohiy go'zallik, ruhiy zavq-shavq, ishq va irfon yolqinidan paydo bo'lgan o'ziga xos adabiyotdir"¹.

Hayotga tanqidiy yondashuv kuchaygan davrda inson ruhiyati talqini birinchi o'ringa ko'tarildi. Bu esa voqelikni badiiy tadqiq etishda yangi tamoyillarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu xususiyat 1980-yillar koreys nasrining peshqadam vakili Li Munyol ijodida bo'rtib namoyon bo'ldi. Adib hech bir asarida o'tkinchi mayllarga berilmadi, so'z san'atining azaliy muammosi – inson taqdiri masalasini yoritishda yolg'on gap aytmadi. Shu jihatdan yozuvchining hikoyalari 1980-1990 yillar koreys

¹ Иброҳим Ҳаққул. Тадқиқ, талқин ва тарғиб сарҳисоби. // Истиқлол даври о'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent. 2021.



adabiyotining ilg'or tamoyillari bilan uyg'un, ma'naviy-axloqiy muammolar dadil o'rta qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, XX asrning so'nggi o'nyilligida koreys hikoyalari sujeti, kompozitsion tuzilishi, ifoda yo'sini yanada takomillashdi.

Li Munyolning qator hikoyalari harbiy boshqaruv davri biroz yumshagan, dag'dag'ayu zulmlar biroz ortga chekingan, jamiyatda demokratik harakatlari avj olgan, erkin fikrlarga sekin-asta minbar bo'shatib berilayotgan davrda nashr yuzini ko'rdi. Shunday asarlardan biri – "Omadli kun" hikoyasidir. Hikoya uslubi, kompozitsiyasi hamda obrazlar tizimiga ko'ra, yapon anneksiyasi davrida ijod qilgan Xyon Jingonning aynan shu sarlavhali "Omadli kun" hikoyasiga homahangdir. Har ikki adib ham dolzarb ijtimoiy muammolar girdobida bosh qahramon ruhiyatidagi g'oyat sirli lahzalarni mohirona tasvirlay oldilar. Bu o'rinda adabiyotshunos olim X. Do'stmuhammadning quyidagi fikrlari o'z tasdig'ini topadi:

*"Teatrning mo'jaz sahnasi yoxud gazeta-jurnalning kichkina sahifasi butun dunyoni o'zida jo etish imkoniga ega bo'lganidek, hikoyada ham istalgan mavzuni istalgan qamrovda, istalgan murakkablikda tasvirlash mumkin. Faqat u muallifning mahoratiga bog'liq, ya'ni u har bir hikoyaning o'z makoni, o'z zamoni, o'z badiiy realligini yarata bilishi, mazkur reallikka mos tavsir uslubi, tili, ohangi, o'ziga xos obrazlar silsilasini topishi kerak"*¹.

Hikoyalar o'rtasidagi homahanglik faqat asar kompozitsiyasi va uslubi jihatidan emas, balki unda ko'tarilgan masalaning mohiyati, har ikki hikoyaning milliy adabiyot rivojidadagi ahamiyati, kitobxonlar tomonidan qanday baholanganligi bilan muhimdir. Xyon Jingon koreys adabiyotiga g'arb adabiyoti ta'siri davrida kirib kelgan bo'lsa, Li Munyol ijod maydoniga harbiy boshqaruv davridan keyin kirib kelgan. Har ikki adib hikoyasida yangicha badiiy tasvir uslubi ko'zga tashlanadi. Xyon Jingon rikshi obrazini kiritgan bo'lsa, Li Munyol olibsotar obrazini yaratadi. Har ikki obraz ham o'z davrida yaratilgan asarlarda yangi obraz sifatida gavdalanadi. O'zbek adabiyotshunos olimi A.Rasulov aytganlaridek: *"Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti, insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi"*².

Xyon Jingon hikoyasi qahramoni ma'naviy dunyosi naqadar qashshoqlashib borayotgan, bemor ayoliga zarracha rahmi kelmaydigan, og'ir turmush tarzi sabab ayoliga hatto dori-darmon sotib olib bermaydigan xudbin inson obrazidir. Shuningdek, adibning hikoyasida barcha voqea-hodisalar sovuq yomg'irli kunda sodir bo'ladi. Sovuq yomg'ir hikoyaning fojiali yakuniga ishora qiladi. Li Munyol qahramoni esa ayolini hurmat qiladi, uning oldida turmush qurishdan oldin bergan va'dalarini bajara olmagan uchun vijdoni qiynaladi, hikoya avvalidan yangi libosdagi qahramon so'nggi manzilga ketayotgandek taassurot uyg'otadi.

1980-1990-yillar koreys nasrida adashgan inson fojiasiga bag'ishlangan qator asarlar paydo bo'ldi, ammo ular orasida san'at darajasiga ko'tarilgan asarlar soni kam

¹ X.Дўстмухаммад. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. e-adabiyot.uz. 2014.

² Расулов А. Бадийлик – бу заволя янгилик. – Тошкент.. 2007. –Б. 27.



edi. Mana shunday durdona asarlar qatoridan Li Munyolning “Omadli kun” hikoyasi munosib o‘rin egalladi. Hikoyada adib hayotda ham ma‘nan, ham moddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, vatan oldidagi burchini bajarish paytida qilgan yaxshiliklari evaziga orttirgan do‘sti Yun yordamida endi turmushi o‘nglana boshlagan, ammo endigini eshik qoqqan omadini xudbinligi tufayli yo‘qotgan yigitning ma‘naviy-ruhiy inqirozi samimiy tasvirlangan. Hikoya xotimasidagi kichik bir parcha bosh qahramon Pakning o‘limi oldidagi tasviri asarning leytmotivi singari yangraydi:

“ – Sizlar, razillar, yuribsiz, atrofingizga yomonlik, og‘u urug‘ini sochib. Qiz bola bir marotaba totib ko‘rsin, shu bilan butun umri zaharlanadi. Mazasini bilgach, tez orada o‘zining kimligini unutadi, o‘z rejalari haqida unutadi...qalb va tana ajraladi...tuban, axlatlar...”

Ammo xira miltillagan bo‘shliqda uning xayolida faqat bir fikr g‘ujg‘on uynardi: “Eh, ablah...nega aynan shunday omadi kelgan kunda...”¹.

Hikoyaning so‘nggi satrlarida alam-o‘kinchli ko‘zyoshlar seziladi. Qahramonning omadi kelgan kunda inson umri haqidagi qo‘shiqning so‘nggi nidosida rejalar barbod bo‘ldi. Bu yapon istibdodi davrida yashab ijod qilgan yozuvchi Xyon Jingon qalamiga mansub “Omadli kun” hikoyasida ko‘tarilgan voqelik va badiiy tasvimi yodga soladi. Hikoyada mustamlaka o‘lkada yashayotgan qashshoq bir insonning hayoti aks ettirilgan.

Li Munyol hamda Xyon Jingon hikoya avvalida bosh qahramonning oddiy, ammo bir ish kunida kelgan omadi haqida tanishtiradi. Xyon Jingon hikoyasida ijtimoiy-siyosiy to‘lqinlar, xususan, mustamlaka davrida hayot kechirayotgan oddiy rikshining murakkab va ayanchli taqdiri, fojiali qismati badiiy tasvirlangan. Hikoya shunday boshlanadi:

“Xuddi qor yog‘ayotgandek havoning qovog‘i osildi, biroq qor emas, balki sovuq yomg‘ir yog‘a boshladi”².

Bosh qahramonni o‘rab turgan muhit tabiat tasvirida berilishi kitobxonni oldindan keyingi voqelardan ogoh qiladi. Mumtoz davrdan boshlab hozirgi zamon adabiyotida qadar peyzaj o‘z an‘anasiga ega. Jumladan, bahor uyg‘onish, yasharish, yangi hayot ramziga aylangan bo‘lsa, qish, sovuq baxtsizlik, g‘amginlik yoki biror bir noxush voqea ramzidir. Hikoyaning ham boshlanishida qo‘llanilgan qor, havoning qovog‘i osildi, sovuq yomg‘ir kishini sergaklantiradi. Adabiyotshunos olim M. Sultonova asosli ta‘kidlaganidek:

“Yozuvchi biror tabiat manzarasiga, holati tasviriga murojaat etar ekan, bu qahramonning muayyan holati, qarashlariga mos bo‘lib qolmay, balki kelajak kayfiyatlarini ham belgilaydi”³.

Shu bilan birga hikoyadagi bu peyzaj M. Qo‘shjonov ta‘biri bilan aytganda: “Peyzaj asosan qahramonlar harakat qiladigan muhitni jonlantirish uchun ishlatiladi”,

¹ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 76 쪽.

² 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 43 쪽.

³ Султонова М. Ёзувчи услубига доир (Ойбек, А. Қодирий, А. Қахҳор ва С. Аҳмад прозаси асосида). – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 51.



ya'ni, havo sovuq, kuchli yomg'ir yog'ayotgan kuni uzoq vaqt ishi yurishmayotgan rikshining omadi keldi. Bunday noqulay havoda yo'lovchilar rikshi xizmatidan foydalanishadi. Hatto, xizmat haqi ham oddiy kundagidan yuqori. Ammo shu tasviriy vositada adib rikshi oilasining fojiasini ochib beradi.

Rikshining keyingi paytlarda nimagadir ishi yurishmas, o'n kundan beri uning qo'li pul ko'rmagan edi. Yozuvchi bu muammoni hal qilish uchun sharoit yaratadi:

“Kichik Sharqiy darvoza yaqinida rikshalik qiladigan Kim Chxomji uchun bugun omadli kun bo'ldi. Avval u ro'paradagi uyda yashaydigan ayolni tramvay bekatigacha olib borib qo'ydi – ayol unga shaharga haydashni buyurdi, holbuki ular shundoq ham shaharda yashashar edi, so'ng Kim Chxomji yo'lovchi ushlar ilinjida bekatda tramvaydan tushayotganlarga mo'tirab yana birpas turdi, nihoyat, yevropa usulida kiyingan, ko'rinishidan o'qituvchi bo'lgan bir erkakni Tongvan bilim yurtigacha eltib qo'ydi. Birinchi safar u o'ttiz chon, ikkinchi safar esa ellik chon pul ishladi¹.

Li Munyol esa o'z hikoyasini bosh qahramonni chiroyli kiyintirishdan boshlaydi. Chiroyli libos kunning omadli kelishini sharhlashga yordam beradi:

“Bugungi kun har doimgidan farqli o'laroq, buyurtma asosida tikilgan yangi kostyum sharofati bilan yaxshi boshlandi. Tasodifan Yunning do'konida o'tirib, u qandaydir sintetika ishlab chiqaruvchi fabrikadan qora bozor uchun tashuvchi olib chiqqan matohdan sotib oldi. Tikuvchi Chongudan kostyum tikib berishni iltimos qildi va ish haqiga o'ttiz ming von berdi. Kostyum juda ham chiroyli tikildi: bichimi, rangi – ko'ngildagidek².

Har ikki muallif hikoyasida ilk jumla katta ahamiyat kasb etadi. Chunki muallifning badiiy niyati, asarning mazmun-mohiyati, sarlavhasi, voqealar zanjiri hikoya poetikasiga tegishli ilk jumlada namoyon bo'ladi:

“Badiiy asarda ilk jumla yagona so'z yoki bir nechta gap bilan ham ifodalanishi mumkin. Bu yozuvchining badiiy uslubi bilan bog'liq bo'lib, aksariyat asarlarda birinchi jumlaning muxtasar tasvirlashga urinish seziladi. Ilk jumlaning chegara nuqtasi badiiy asarning semantik qurilishidan anglashiladi. Unga yuklatilgan poetik ma'no esa badiiy matn to'qimasida o'z ifodasini topadi³.

Xyon Jingon o'z hikoyasida ilk jumlaning tabiat tasvirida bersa, Li Munyol ilk jumlada bosh qahramonning yangi libosida uning kayfiyatini ko'rsatishdan boshlaydi. Har ikki muallif hikoyasida ilk jumla asarning tayanch nuqtasidan hisoblangan tugundan boshlanadi. Xyon Jingonning qalamiga mansub barcha hikoyalari shu tarzda boshlanmaydi, Li Munyolning qator hikoyalari esa shu tarzda boshlanadi. Jumladan, adibning “Mavhumlik oroli”, “Sovuq yoz”, “Ikkovlon uchun qo'shiq” kabi hikoyalari bunga misol bo'la oladi. Albatta, bu yozuvchining o'ziga xos uslubi, badiiy niyati va estetik didiga bog'liqdir.

¹ 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 43 쪽.

² 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 49 쪽.

³ Ҳамраев К.Ў. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Филол. фанл. бўйича фалс. докт (PhD) дисс. автореф. – Тошкент. 2018. – Б. 18-19.



Xyon Jingon hikoya bosh qahramoni rikshining og‘ir hayotini ko‘rsatish maqsadida bir oy davomida muttasil yo‘tal tutayotgan bemor ayoliga e‘tibor qaratadi:

“Bir oydan beri ayolining yo‘tali to‘xtamasdi. Biroq yeyishga ovqat qolmagach, ular dori-darmon haqida o‘ylashni unutishgandi. O‘z vaqtida dori sotib olishga ularning qurbi yetardi, biroq Kim Chxomji kasallik degan dushmanni dori bilan boqsang, unga yoqib qoladi va uyingga tanda quradi, deb hisoblardi¹.

Adibning ijtimoiy muhitga tanqidiy qarashlari og‘ir sharoitda yashayotgan rikshi oilasi misolida mazkur davr oddiy koreys xalqining qashshoqligi, kambag‘alligi kabi masalalarga *“...kasallik degan dushmanni dori bilan boqsang, unga yoqib qoladi va uyingga tanda quradi...”* tarzida yondashuvda oydinlashadi. *“Kasallik-dushman, yoqib qolish-tanda qurish”* kabilarda rikshining oila oldidagi burchini bajara olmayapganligi, iztirobga to‘la ko‘ngil izhori ko‘zga tashlanadi. Oila boshlig‘i sifatida ayoli va bolasining qornini ham to‘ydira olmayapgan, hatto kasal ayoliga bir kosa sho‘rva sotib olishga qurbi yetmayotgan erkak aslida o‘z ko‘ngil maylini ochiq-oydin ifoda eta olmaydi. Ilojsizlik, achchiq qismatdan azoblanayotgan rikshi bor alamini ayolidan oladi.

Li Munyol hikoyasi qahramoni Pak yangi kostyumni kiyganida, homilador ayoli ko‘nglida hech qanday g‘arazsiz, unga qarata shunday deydi:

“Xuddi kuyovto‘ralardek”².

Shu ikki og‘iz so‘z orqali yozuvchi ixtiyori bo‘g‘ilgan ayolning taqdiri, qismatiga munosabat bildiradi. Bir vaqtlar hamqishlog‘i uyida ham yashab, ham ishlab yurgan soddadil, mehribon, eng asosiysi katta shahar oqimida *“axloq”* buzilmagan qiz endigina askarlik burchini o‘tab qaytgan Pakning qalbidan joy olishga ulgurgan edi:

“Ikki oy davomida muttasil hujum qildi – yigitlar iborasi bilan aytganda, bosib olingan hududga o‘z bayrog‘ini qaday oldi”³.

O‘zi zabt etgan hududga yetti yil oldin bayroq qadagan bosh qahramonning to‘ydan oldin bergan va‘dalarining bittasini ham amalga oshmaganligi, hatto shu yillar davomida ayoliga loaqal yangi kiyim ham sotib olib bera olmaganligi shu ikki so‘z zamiriga singdirilgan. Mehribon va yoqimtoy, unga ota bo‘lishlik baxtini berishga tayyor ayolining shu ikki og‘iz so‘zi uning uydin shoshib, o‘qdek otilib chiqib ketishiga zamin hozirladi. To‘ydan keyin qiz xo‘jalik ishlariga yordam berib yurgan xonadon egalari ularning hovli etagidagi kichkina hujrada yashashni taklif qilishgan, ammo Pak bir qop va‘dalar bilan bu uyni va ishni tark etgan edi. Homilador ayolining ko‘ngli nima tusayotganini so‘rash o‘rniga uning oldida o‘zining yangi kostyumini ko‘z-ko‘z qilgan bosh qahramonning omadi yurishishda davom etdi:

“Yaxshi narsalar haqida hayol surishga harakat qilib u avtobus bekatiga yetib keldi va tegishli raqamli avtobusga chiqdi. Odatda, bu vaqtda avtobus liq to‘la bo‘ladi, u tiqilinchda o‘zining yangi kostyumi tugmasini yulib olishlaridan xavotirda edi. Hayratlanarli holat, avtobus saloni deyarli bo‘sh edi, u boshdan bu boshga katta-katta

¹현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 44 쪽.

²이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 49 쪽.

³이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 50 쪽.



*qadam tashlab yurish mumkin. Bu bilan uning omadi yurishishdan to'xtamadi. Ikki-uch bekatdan keyin naq burnining tagidagi o'rindiq bo'shadi, atrofda qari kampir-chol ham yo'q edi. U Chananpxyon bekatiga qadar o'ttiz-qirq daqiqani xotirjam bosib o'tdi*¹.

Bir qarashda jo'n ko'ringan, hayotdan olingan, tevarak-atrofdan har kuni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea, ikkinchi tomondan esa, oddiy inson taqdirida o'zak masalani ilgari surgan adib kishini jiddiy o'ylashga majbur qiladi. *Yangi libos, libosga gard yuqtirmasdan ishga borish* – manzil qayerga yetaklamoqda, degan o'rinli savol tug'iladi.

Xyon Jingon hikoyasi qahramoni rikshining omadi yurishishi esa ilk jumlada keltirilgan *sovuq yomg'ir* ostida davom etdi. O'n kundan so'ng qo'lga tushgan sakson chon pul ayoliga va'da qilgan sollontxan sho'rvasi, uch yashar o'g'lga esa suyuq bo'tqa olishiga yetadi. Ammo bo'z ro'molchasi bilan bo'ynidan oqayotgan yomg'ir aralash terni artayotgan rikshi omadi yurishishda davom etayotganidan qo'rqib ketdi:

*“Kim Chxomji bir lahza ikkilanib qoldi. Balki, u yomg'irpo'shsiz bunday uzoq joyga suv kechib kelishni istamagandir? Yoki ikkita yo'lovchining o'zi unga kifoya qildimi? Aslo yo'q...Uydan chiqayotganida ayoli o'zidan nimani iltimos qilgani yodiga tushdi...ayolining kirtaygan ko'zlari g'ussaga to'ldi. Uning terisi ustixoniga yopishgan yuzida faqat ko'zlari hali tirik edi”*².

Xyon Jingon hikoyasi qahramoni rikshi bo'lsa, Li Munyol hikoyasi qahramoni eski mashinalarni olibotish bilan shug'ullanadi. Rikshi o'z aravasida odamlar uzog'ini yaqin qilsa, olibsotar har bir mashinadan qancha foyda ko'rishini oldindan hisoblab yuruvchi, eski mashinalar *ovchisidir* (ta'kid bizniki – K.N.). Har ikki hikoya qahramoni zamon (Xyon Jingon asari qahramoni XX asrning birinchi yarmi, yapon istilosi davri insoni, Li Munyol hikoyasi qahramoni XX asrning 80-yillari insoni) va makon (Koreya)da ro'y berayotgan voqealar ishtirokchisidir.

Li Munyol hikoyasida yangi libosga qayta-qayta urg'u berilishi bejizga emas. Hikoya avvalida yangi libosni olibsotar qay yo'sinda qo'lga kiritgani kitobxonni o'ylantiradi. Chunki o'zi olibsotar, libosni ham olibsotardan oladi. Yangi libosga ayolining munosabati *xuddi kuyovto'ralardek* jumlasida o'z aksini topadi. Yozuvchi yangi libosga ishxonada boshqa vazifa yuklaydi:

“Bugun uning yangi kostyumi nishonga borib tegdi, hatto diler Kvon ham bunga e'tibor qaratdi:

*Hey, janob Pak, siz nima, yana uylanyapsizmi? Nima bayram? Bozordagi barcha. Butun bozor ahli jonlandi”*³.

Hikoyaga bozordagi boshqa olibsotarlardan o'zining jamg'armasi ko'pligi, uddaburonligi bilan ajralib turadigan Kvon obrazining kiritilishi, uning yangi libosga e'tibor qaratishi, hatto, hazillashib qo'yishida bosh qahramonning ishdagi vaziyati oydinlashadi. Hikoyaning mana shu joyidan bosh qahramonning qayerda, kim bo'lib

¹ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 52 쪽.

² 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 48. 쪽.

³ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 52 쪽.



ishlashi ayon bo'ladi. U ishlaydigan idora nomi ham asar nomiga yaqin turadi: "Omad yulduzi". Idora boshlig'i Yun ham yangi libosga o'z munosabatini bildirdi:

*"Pak, nima bo'ldi? Bugun mening o'rnimga direktor bo'lib ishlamoqchimisiz?"*¹.

Yangi kostyum detalida yozuvchi bosh qahramonni taftish qiladi hamda uning xarakterini yanada chuqurroq ochib berishda unumli foydalanadi. Yuqorida keltirilgan parchada bir vaqtlar askarlikda birga xizmat qilgan, yoshi o'zidan katta Yunning hayotda omadi kelib, o'z shaxsiy kompaniyasiga ega ekanligi, mavqei jihatidan ustunligi, ammo u uning qo'l ostida ishlashga majburligi anglashiladi. Pak ochiq-oydin bunga munosabat bildirmaydi. Ammo u tirikchilik vajida ijaraga olgan mashina avtohalokat sababli yaroqsiz holga kelib qolganida Yundan kutgan yordamini ololmadi, shu sabab unga nisbatan adovatini, nafratini yashirib yurishga majbur.

Olibsotarlarda ichida yuqori mavqeiga ega Kvon hamda kompaniya boshlig'i Yun tomonidan hazilomuz tarzida yangi kostyumga bildirilgan munosabat uning ko'nglini ko'tardi. Hikoyada xuddi shu ikki shaxs tomonidan yangi kostyumga bildirilgan tashqi munosabat hamda Pakning ich-ichidan xursandchiligi qorishib ketadi, ya'ni matnda uyg'unlik hosil bo'ladi:

*"Aftidan, yangi kostyum sabab shu kuni unga daromad oqib kela boshladi. Soat o'nlar atrofida. Kecha u foydali (omadli) bitimni yakunlagan, shu sabab bugun xotirjamlik bilan kompaniyaga yaqin joylashgan "Sog'inch" choy kafesi tomon yo'l oldi. Ortga qaytayotgan vaqtda yo'lda sekin harakat qilayotgan, serhasham salonli mashinaga ko'zi tushdi. Bir qarashda, mashina chamberagida o'tirgan xo'jayin emasligini tushunib yetdi, shofer yonidan o'tib ketayotgan edi, ammo nimadir uni to'xtashga majbur qildi"*².

Hikoya tarkibiga kiritilgan erkak obrazlari tasvirida mazkur davrda ko'pchilikning (bu yerda erkaklar nazarda tutilmoqda) jamiyatdagi o'rni anglashiladi. Muallifning obraz yaratish mahorati olibsotarlarda obrazining mukammal ishlanganligida ko'zga tashlanadi. Kvon, Yun, Li, Pak hamda ismi-shariflari keltirilmagan shoferlar, ularning xo'jayinlari va boshqalar tasvirida erkak kishilarning ishlab chiqarish sohasida emas, aynan chetdan keltirilgan mashinalarning qayta savdosi bilan shug'ullanishini ko'rsatishda hikoya kompozitsiyasida o'ziga xos ahamiyatga ega.

Li Munyol hikoyasida ayol obrazlarining statik portreti chizilsa, erkak obrazlarining qiyofasi voqealar davomida, ularning faoliyatida tasvirlab boriladi. Adibning maqsadi erkak obrazlarining suratini ko'rsatish emas, balki ularning ruhiy dunyosini anglashdan iborat:

*"Portret – badiiy asarda personajlarning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi, ya'ni bo'y-basti, angi, yuz-ko'zi, kiyimi, tana holati va harakatlari, qiliqlari tasviridir"*³.

Pakning ayoli portretini adib shunday chizadi:

¹ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 54 쪽.

² 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 54 쪽.

³ Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Фафур Гулом НМИУ, 2018. – Б. 63.



“Ayoli bir qo‘li bilan shishirilgan shardek qornini ushlab, chuqur nafas olar, idishlarni yuvardi”, “U qaddini rostlab, xo‘mrayib qarab turardi, ammo shu zahoti mayin jilmaydi va unga tasalla berdi”, “Tabassum ortidan oniy lahzada uning oldingi, qizlik qiyofasi boqib turardi”, “...did bilan kiyingandi, uydagi barcha: yoshu-qari, o‘g‘ilu-qiz unga xola, deb murojaat qilishardi”, “U nozanday edi, katta shahar loyida bulg‘anmagan...”¹.

Hikoyaga yetti yil davomida o‘zining qizlik latofati, ayollik nazokatini yo‘qotmagan ayol obraziga qarama-qarshi Yan ismli qiz obrazi kiritiladi. Har ikki ayol ham qishloqdan shaharga ish axtarib kelishgan: Pakning ayoli hamqishlog‘ining uyida oddiy xizmatkor bo‘lib ishladi, o‘zining mehribonligi, samimiyligi hamda berilgan ishlarni o‘z vaqtida to‘la-to‘kis ado etgani uchun barchaning hurmatiga sazovor bo‘ldi. Yanning shaharda tanishlari yo‘q, hikoya avvalida adib uni shunday tanishtiradi:

“Yan xonim dahadagi choy kafelarida xo‘randalarga xizmat ko‘rsatadigan ko‘p sonli qizlardan biri edi, ammo u aynan uni xotirasida saqlab qolgan. Boshqa ofitsiantlarga o‘xshab betakalluf emas, shunday kafelarning birida u besh oy davomida ishladi va o‘ziga o‘xshagan ofitsiant qizlar kabi o‘zidan keyin iflos mish-mish va g‘iybatlarga imkon qoldirmadi”².

Ammo katta shahar hayoti qizni o‘z domiga tortdi, pok va sof tuyg‘ular, g‘urur o‘z qiymatini yo‘qotdi. Adabiyotda muhim omilga aylangan qarama-qarshilik unsuri yaxshilik – yomonlik Yanning avvalgi va keyingi hayotida aks etdi. Chunki kishilik jamiyatida ziddiyat hamisha mavjud bo‘lib, azaldan inson tafakkurida u yoki bu ko‘rinishda yuzaga chiqadi. Li Munyol o‘z davrining axloqsizlik ko‘chalariga kirib ketayotgan qiz-juvonlarining umumlashma tipini Yan obrazida ifodalaydi:

“U kafeda ishlaydigan avvalgi sof qiz qiyofasini yo‘qotgan. U faqat pivo haqida gapiradi, ovozi ham ingichkalashib ketgan. Agarda u qizni oddiy hayotda, oddiy holatda uchratganida, balki ehtiyotkorlikni qo‘ldan boy bermagan, beixtiyor qochgan bo‘lardi, ammo bugun, erta tongdan unga omad hamrohlik qilmoqda, u bo‘shashdi va ich-ichidan qizdagi o‘zgarishlardan xursand bo‘ldi”³.

Muallif omad fonida bosh qahramonning zuhurida kechayotgan botiniy sirlaridan voqif qiladi. Hikoyada ko‘tarilayotgan muammoni o‘quvchiga anglata boshlaydi. Hikoyaga kiritilgan Yan yordamchi obrazi bosh qahramonning fe‘l-atvorini, xarakterini ko‘rsatishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur davr hayot manzarasini chizishda adib ishsizlik sabab shaharga kelayotgan yosh qizlarning axloqsizlik ko‘chasiga kirishiga faqat moddiy yetishmovchilik emas, balki o‘z nafsini yo‘lida, yoki hikoya qahramoni tasavvuridagi “omad” ketidan quvganlar ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi. Hikoya avvalida qizning sof, pok, iffatli qiyofasi kitobxonni quvontirsa, syujet rivoji davomida undagi o‘zgarishlar sabab nafrat tuyg‘usi ortadi. Ammo, yozuvchi juda ham mohirlik bilan qizning qalbida kechayotgan sirli holatni berish asnosida Pakning razillik xususiyatini kashf qiladi:

¹ И문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 50 쪽.

² И문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 63 쪽.

³ И문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 67 쪽.



“U (qiz) hech bir sababsiz xavotirlanar, ta’qiblardan qochayotgandek, unga bir insonga ishongandek kuch bilan yopishardi, ammo u buni sezmedi, aksincha taqdir uning quchog’iga umid ham qilib bo’lmaydigan xilqatni o’zi solib qo’ygani yana bir omadim, deb hisobladi”¹.

Shu tariqa bosh qahramonning qallobligi, ayol kishiga nisbatan xiyonati ochiladi. Bu masala Xyon Jingonning “Omadli kun” hikoyasida quyidagicha beriladi:

“Tramvay bekati oldida biror yo’lovchini kutmoqchi bo’ldim. Nihoyat, yomg’ir ostida turgan manto kiygan bir talaba qizga ko’zim tushdi. O’zing bilasan, hozir qiz bolani fohishadan ajratib bo’lmaydi. Men unga ohista yaqinlashdim va “Rikshi xizmatidan foydalanishni istamaysizmi?”, deb so’radim. So’ng qo’lidan sumkasini olmoqchi edim, o’ qo’limni siltab tashladi va menga orqa o’girib: “Hoy, nega menga yopishib olding?!”, dedi. Xuddi zarg’aldoq qushdek sayradi...”².

Xyon Jingon hikoyasidagi “...hozir qiz bolani fohishadan ajratib bo’lmaydi, xuddi zarg’aldoq qushdek sayradi” kabi o’xshatishlar Li Munyol hikoyasida “...avvalgi sof qiz qiyofasini yo’qotgan, ovozi ham ingichkalashib ketgan” tarzida beriladi. Jamiyatdagi adolatsiz ijtimoiy tuzum qizlarni iffatidan, ayollarni sadoqatidan mosuvo qildi, bunga adiblar ongidagi bir dard ham qo’shiladi: yurtni himoya qiluvchi o’g’lonlar, qiz-juvonlarga madad beruvchi, ularni mehr-muhabbat ko’rsatuvchi erkaklar qani, el-yurt ma’naviy sayozlikka yuz burdi.

Xyon Jingon hikoyasi qahramoni kunini ko’rishga zo’r berib urinayotgan, oddiy qorin to’ydirishga ham qurbi yetmaydigan ayanchli taqdir egasi rikshi obrazi har tomonlama mukammal yoritilgan. Shuningdek, rikshining favqulodda omadi kelishi, ammo bu omad unga xursandchilik keltirmasdan, ruhiy zo’riqishiga sabab bo’lishi, uning tabiatida ro’y bergan hissiy o’zgarishlar mahorat bilan ochib berilgan. Jumladan, o’tkir ichimlik sabab rikshining uyuqa – bemor ayoli oldiga borishdan qo’rquvi ta’sirli lavhada beriladi:

“Kulgu kuchaydi. Biroq kulgu tugamasdan Kim Chxomji o’kirib yig’lab yubordi.

Chxisam mast oshnosiga hayron bo’lib tikildi.

– Nima gap? Hozirgina to’polon qilayotgan, xoxolab kulayotgan eding, endi bo’lsa yig’layapsan?

Kim Chxomji burnini tortib:

– Ayolim o’lib qoldi, – dedi.

– Ayoling?...Qachon?

– Qachon bo’lardi...Bugun”³.

Insonning ma’naviy sifatlari hayot o’zanida shakllanadi. Li Munyol hikoyasida bosh qahramonning o’z hayotini moddiy yuksaltirish bilan birga ma’naviy-axloqiy tubanlikka yuz tutishi ko’rsatilgan. U tunu-kun xayolida Yanning yosh yalang’och tanasini quchadi, ayoli homilador bo’lganligi sababli o’zining qabih niyatini amalga oshirish uchun Yan kabi yosh qizlar timsolida “chiroyli ob’ekt”ni axtaradi:

¹ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 68 쪽.

² 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 57. 쪽.

³ 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 60. 쪽.



“Hozir.esa,.kim biladi deysiz, balki uning hirslarini qondirish uchun yana paydo bo‘lgandir. Sababi bugun shunday **omadli kun**-ku. Kutilmaganda u o‘z xayollaridan junbushga keldi. Yan xonim ham xuddi eshitgandek unga yanada yaqinroq kelishga jazm qildi”¹.

Har ikki adib ham inson ruhiyatini ishonarli tasvirlay olgan. Rikshi ruhiyatini ko‘rsatish uchun adib kayfi taroq insonning kulgu va yig‘i aralash holatidan unumli foydalansa, Li Muniyol olis qishloqdan shaharga tirikchilik g‘amida kelgan sodda qizning olibsotardan “panoh istagi”da ko‘rsatadi.

Feodal qoloqlikdan so‘ng unga ulanib ketgan yapon istilosi davrida koreys xalqi hayoti davomiy fojialardan iborat edi. Manbai bir bo‘lgan fojialarning tub ildizini esa jaholat, haq-huquqsizlik hamda ishsizlik tashkil etadi. Rikshi mana shu davr qurboni: u doimiy ishga ega emas, ayolining oddiy talabini ham qondira olmaydi, turmush o‘rtog‘ining dardiga davo topolmaydi, faqat uch jondan iborat oilasini boqishga qurbi yetmaydi. Ijtimoiy hayotga bog‘liq oila fojiasi rikshining shaxsiy xislatlari bilan qorishib ketadi. Bu ayolining bo‘tqadan zaharlanishi lavhasida aniq ko‘zga tashlanadi:

“Bu “ahmoq xotin” chumiza²ni darhol qozonga tashladi va olov yaxshi yonishini kutmasdan, hali pishmagan bo‘tqani, xudi birov undan tortib oladigandek, qoshiqsiz, qo‘lida olib yeya boshladi. O‘sha kuni kechqurun uning qorni qattiq og‘ridi, ichi ketdi va bezgak xuruj qildi.

– Ahmoq xotin! Och qolsang ham kasal bo‘lasan, qorning to‘ysa ham kasal bo‘lasan!...Shunday deb u ayolining yuziga tarsaki tushirdi”³.

Li Muniyol hikoyasini o‘qish jarayonida kitobxon uning yakunini intiqlik bilan kutadi, hikoya fojiaiy tarzda – bosh qahramonning o‘limi bilan tugatiladi. Adib o‘zidan oldin yashab o‘tgan yozuvchi Xyon Jingonning “Omadli kun” hikoyasi motivlaridan foydalangan bo‘lsa-da, hikoyada yozuvchining o‘ziga xos uslubi, mahorati ajralib turadi. Jumladan, u yaratgan *olibsotar* obrazi o‘zining originalligi bilan alohidalik kasb etadi. Adabiyotshunos olim A. Rasulov aytganidek: “Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi”⁴.

Yozuvchining xarakter yaratish mahorati bosh qahramon Pakning sotish uchun qo‘yilgan mashinadan yangi kostyumda o‘zini xo‘jayinlardek tutishida ko‘zga tashlanadi:

“Mashina yarqirardi, u esa yangi kostyumda: balki bu ham rol o‘ynagandir, mashinadan tushishi bilan istirohat bog‘i hududida joylashgan do‘kon egalari unga hurmatli xo‘jayinlardek mulozamat ko‘rsata boshlashdi. Albatta, u biladiki, hozir savdo-sotiq o‘lgan davr”⁵.

¹ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021. – 68 쪽.

² Чумиза – тарикқа ўхшаш ғалла маҳсулоти

³ 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023. – 48. 쪽.

⁴ Расулов А. Бадийлик – бу заволя янгилик. – Тошкент. 2007. – Б. 27.

⁵ 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021.



Xyon Jingon o'z hikoyasida XX asrning 30 yillari, Li Munyol esa XX asrning 90 yillaridagi xalqning ahvolini *rikshi* va *olibsotar* obrazlariga yuklaydi. Har ikki muallif kamchiliklardan xoli bo'lmagan jamiyatdagi muhitni ko'rsatishda insonning tasavvuridagi omad, unga intilib yashashida o'zining qarashlarini ifoda etadilar. Har ikki obraz jamiyatdagi jarayonlarni ochib berishda muhimlik kasb qiladi: Xyon Jingon qahramoni ilmsiz, ma'rifatsiz inson, Li Munyol qahramoni esa savodli, askarlik xizmatini ham o'tagan, ishbilarmon.

Xyon Jingon hikoyasida kambag'allik va nochorlik, qashshoqlik sabab bemor ayoliga bir kosa issiq sho'rva, uch yashar o'g'ligi suyuq bo'tqa olib berishga qurbi yetmaydigan oddiy bir mehnatkashning fojiasi aks ettirilgan. Li Munyol hikoyasida esa Xyon Jingon hikoyasidagi fojia saqlangan holda voqealar mustaqil mamlakat hududida sodir bo'layotganiga urg'u beriladi. Har ikki adibning "Omadli kun" hikoyasidagi g'oyaviy farq har bir hikoyaning alohida qimmatiga ishora qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibrohim Haqqul. Tadqiq, talqin va targ'ib sarhisobi. // Istiqol davri o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent. 2021.
2. X.Do'stmuhammad. Hikoyalarda hayot va xayol haqiqati. e-adabiyot.uz. 2014.
3. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir (Oybek, A. Qodiriy, A. Qahhor va S. Ahmad prozasi asosida). – Toshkent: Fan, 1973.
4. Hamraev K.O'. Hozirgi o'zbek hikoyasida kompozitsiya poetikasi. Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt (PhD) diss. avtoref. – Toshkent. 2018.
5. 현진건. 운수 좋은 날. – 서울: 문학일독, 2023.
6. 이문열, 전야, 혹은 시대의 마지막 밤, 중단편전집, 2021.
7. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2018.
8. Rasulov A. Badiiylik – bu zavol yangilik. – Toshkent. 2007.



TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

BUZAHRO BEGMATOVA

Dotsent, yuridik fanlari nomzodi, TDSHU

SALOXIDDIN QURBONOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi

Annotatsiya. Ushbu maqola islom huquqidagi terminlarning turlari va tasniflarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Fiqh terminlarining mavzulari, ularning klassik va zamonaviy ishlatilish sohalari, leksik-semantik xususiyatlari o'rganilgan. Maqolada islom huquqidagi terminlarni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish, ayniqsa, iqtisodiy va tijorat sohaslariga oid yangi atamalarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqola nafaqat klassik manbalarga, balki zamonaviy terminologiyaga asoslanib, ularning iqtisodiy va tijorat faoliyatida tutgan o'rni bo'yicha ilmiy yondashuvlarni tavsiya qiladi. Bu ish islom huquqiga oid tilshunoslik, iqtisodiyot va huquqiy fanlar chorrahasida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot islom huquqi, lingvistik va iqtisodiy fanlar o'rtasidagi muhim aloqalarni ochib beradi va bu sohalarda o'rganish uchun yangi yo'nalishlarni keltirib chiqaradi. Maqola, shuningdek, zamonaviy terminologiyaning islom huquqi bilan qanday uyg'unlashishini ko'rsatadi. Shuningdek, xorijiy terminologiyaning arab tiliga moslashtirilishi va tasnifi, ayniqsa, islom huquqshunosligi kontekstida muhokama qilinadi. Maqolada arab grammatikachilari tomonidan arab tilining yaxlitligini saqlab qolish uchun yangi, xorijiy atamalarni integratsiyalashgan holda qo'llagan turli klassik usullar yoritilgan. Bu usullarga mavjud arab o'zklari asosida yangi so'zlarni hosil qiluvchi "ishtiqoq" (arabchalashtirish) va xorijiy so'zlarni arabcha fonologik va morfologik qoidalarga moslashtirib qo'yiladigan "ta'rib" (arablashtirish) kiradi. Arablashtirish jarayoni "kalka" (qarz tarjimasini) bilan ham qarama-qarshi qo'yiladi, bu yerda xorijiy atamalar bevosita arab tiliga tarjima qilinadi. Muallif tilning klassik tuzilmalarini saqlab qolish va uning leksikasini zamonaviy ehtiyojlarni, xususan, iqtisodiyot va tijorat kabi sohalarda modernizatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: shariat, fiqh, huquq, termin, terminologiya, leksik-semantik xususiyatlar, mazhablar, jinoyat, sud.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the types and classifications of terms in Islamic law. The topics of fiqh terms, their classical and modern areas of use, and lexical-semantic features are studied. The article considers the issues of adapting terms in Islamic law



to modern needs, especially the development of new terms related to the economic and commercial spheres. The article recommends scientific approaches to their role in economic and commercial activities, based not only on classical sources, but also on modern terminology.

This work is of great importance at the intersection of linguistics, economics, and legal sciences related to Islamic law. The study reveals important connections between Islamic law, linguistics, and economic sciences and gives rise to new directions for study in these areas. The article also shows how modern terminology is combined with Islamic law. In addition, the adaptation and classification of foreign terminology into Arabic is discussed, especially in the context of Islamic jurisprudence. The article examines the various classical methods used by Arabic grammarians to integrate new, foreign terms in order to preserve the integrity of the Arabic language. These methods include "ishtiqaq" (Arabization), which creates new words based on existing Arabic roots, and "ta'rib" (Arabization), which adapts foreign words to Arabic phonological and morphological rules. The process of Arabization is also contrasted with "kalka" (loan translation), where foreign terms are translated directly into Arabic. The author emphasizes the importance of preserving the classical structures of the language and modernizing its lexicon to meet modern needs, particularly in areas such as economics and commerce.

Key words: shari'a, jurisprudence, law, term, terminology, lexical-semantic features, sects, crime, court.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу видов и классификаций терминов исламского права. Изучены тематика терминов фикха, их классические и современные сферы употребления, лексико-семантические особенности. В статье рассматриваются вопросы адаптации терминов исламского права к современным потребностям, особенности разработки новых терминов, касающихся экономической и торговой сферы. В статье рекомендуются научные подходы к их роли в экономической и коммерческой деятельности, основанные не только на классических источниках, но и на современной терминологии. Эта работа важна на стыке лингвистики, экономики и юридических наук, связанных с исламским правом. Исследование раскрывает важные связи между исламским правом, лингвистикой и экономикой и предлагает новые направления для исследований в этих областях. В статье также показано, насколько современная терминология совместима с исламским правом. Также обсуждается адаптация и классификация иностранной терминологии на арабский язык, особенно в контексте исламской юриспруденции. В статье освещаются различные классические методы, используемые арабскими грамматистами для сохранения целостности арабского языка при интеграции новых, иностранных терминов. Эти методы включают истикак (арабизация), который создает новые слова на основе существующих арабских корней, и тариб (арабизация), который адаптирует иностранные слова к арабским фонологическим и морфологическим правилам. Процесс арабизации также противопоставляется «калке» (заемному переводу), когда иностранные термины напрямую переводятся на арабский язык. Автор подчеркивает важность сохранения классических структур языка и модернизации его лексики в соответствии с современными потребностями, особенно в таких сферах, как экономика и торговля.

Ключевые слова: шариат, юриспруденция, право, термин, терминология, лексико-семантические особенности, секты, преступление, суд.



KIRISH. Islom huquqi deganda kompleks shaklda biz ibodat mavzularidan tortib, jinoyat, sud va oila masalalariga doir turkum masalalarning tizimli yoritilishini tushunamiz. Mana shu huquq tizimi masalalari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha boblar va fasllarga bo'linadi va u ham o'ziga xos terminlarga ega.

Islom huquqi qisqa vaqt ichida paydo bo'lib, favqulodda darajada rivojlangan va terminologiyasi ham shunga muvofiq rivojlanib, yetilgan. Shundayki, bu holat, Karaman ta'kidlaganidek, Von Kremer kabi sharqshunos olimlar islom huquqiga Qur'oni karim va hadisdan tashqari, ya'ni vahiy jarayonidan ilgari manba paydo bo'lganini qidirishga¹, ayrimlarini esa islom huquq terminologiyasining o'ziga xosligini savol ostiga olishga olib kelgan². Terminologiyaning o'ziga xoslik masalasi esa alohida tadqiqot mavzusidir³.

Ammo bu yerda qisqacha ta'kidlab o'tish kerakki, tadqiqotlarimizdan ko'rinib turganidek, islom dini faqat tashqi dunyoga qaratilgan bir din sifatida kelmagan, o'ziga xos ijtimoiy loyihagini amalga oshirishda o'z qarshisidagi moddiy va ma'naviy unsurlarga to'la qarshilik ko'rsatmasdan, realistik yondashuv bilan va bosqichma-bosqich joriy etishga harakat qilgan. Bu jarayonda, aslo tasdiqlamagan narsalariga qarshi muqobil yo'l ko'rsatgan, tuzatilishi mumkin bo'lganlarni tuzatib, zarur bo'lganlarni yaratib, o'z tizimi va terminologiyasini shakllantirgan. Biroq, bu huquq dastlab ma'lum bir doira-auditoriyaga qaratilganligi uchun, ular gapiradigan va o'ylaydigan tilda amalga oshirilgan. Keyinchalik islom huquqiga, arab bo'lmagan musulmonlardan va hatto islomdan tashqaridagi unsurlardan ham atamalar kirib kelgan. Shundoq ham asrlar davomida dunyoning katta qismini boshqargan, shaxslar va jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan huquqning o'zaro ta'sirdan xoli bo'lishi mumkin emas edi. Shuning uchun terminologiya masalasida tashqi ta'sirni qabul qilish lozim. Biroq qaysi bosqichda bo'lishidan qat'i nazar, islom huquqi o'z terminologiyasining ruhini tashkil etuvchi tushunchalarni doimo o'z nazoratida saqlab kelgani ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak bo'lgan tarixiy haqiqat sifatida namoyon bo'ladi.

Islom huquqshunosligida terminlarni tasniflashda olimlar, tadqiqotchilar ko'pincha terminlarning mazmuni, dolzarbligi, shuningdek, ularning o'ziga xos huquqiy yoki teologik ahamiyatini hisobga oladilar⁴.

¹ Nesefti, Ebû Hafs Necmeddin Ömer b. Muhammed b. Ahmed, *Tilbetü't-Talebe fi'l-Istulâhâti'l-Fikhiyye*, Mat- baa-i Âmire, İstanbul 1893, s.2. Krş. Pakalın, a.g.e., II, 8.

² Karaman, Hayreddin, *İslam Hukuk Tarihi*, Nesil Yayınları, İstanbul 1989, s.52-53. Ayrıca bk. Köprülü, Fuat, *İslam ve Türk Hukuk Tarihi*, İstanbul 1983, s. 22-23.

³ Biroq, tadqiqotlar davom etgani sari islom huquqining asl ekanligini tan olishga majbur bo'lingan, deydi Yard, Doc.Dr. Osman Sahin. Qarang: Schacht, Joseph, *Islom Huquqiga Kirish*, (Tarj. Mehmet Şener-Mehmet Dağ), Anqara 1977, s.18.

⁴ Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. // *Sharqshunoslik: buguni va ertasi*. Maqolalar to'plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – B. 102.



Tadqiqot usuli: Ilmiy metodologiya va tasniflash qoidalariga tayangan holda, islom huquqi terminlarini tizimli va ilmiy asoslangan holda tasniflashga muvaffaq bo'lingan. Maqolaning muhim jihati shundaki, u turli zamonaviy terminlarni, ayniqsa, iqtisodiy va tijoriy faoliyatga oid atamalarni ham yoritib, islom huquqiy tilining zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda kengayib borayotganini namoyish etadi. Ushbu yondashuv islom huquqi tilini rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratib, terminlarning zamonaviy ijtimoiy tuzumlarda qay tarzda uyg'unlashayotganini o'rganuvchi yangi izlanishlarga zamin yaratadi.

Natijalar va mulohaza:

Islom huquqi terminologiyasi chuqur tarixiy ildizga ega soha bo'lib, u turli jihatlardan tilshunoslik, lug'atshunoslik, aynan huquqiy leksikologik taflama puxta o'rganilgan.

Shu jihatni e'tiborga olib biz fiqhiy terminlarni to'rt qismga ajratgan holda tasniflab chiqamiz.

1. Sohasiga ko'ra ishlatilishi.
2. Klassik yoki zamonaviyligi.
3. Tuzilishi jihatdan tasnifi.
4. Leksik-semantik xususiyati e'tiboridan tasnifi.

Ushbu terminlar ko'pincha bir nechta asosiy sohalarga yoki tasniflarga bo'linadi. Islom huquqiga oid terminlarni to'rtga ajratgan holda tadqiq qilishdan oldin bu huquq tizimi ikki katta – furu'l fiqh va usulul fiqh qismlariga bo'linishi va ularning alohida o'z terminlari borligini aytib o'tishimiz kerak.

Bu yerda islom huquqi terminlarini yuqoridagi tartibda tasniflashdan oldin, avvalo, islom huquqini ikkiga ajratishimiz mumkin. Bunga ko'ra islom huquqi terminlari fiqh va usulul fiqh terminlariga bo'linadi.

Fiqh: Fiqh kesimidagi terminlar. Fiqh olimlari tarafidan ishlatilgan terminlar. Mana shu qismning o'zi (mazhablar tarixi bilan bog'liq) yettitagacha guruhlanishi mumkin. Fiqhiy mazhab – yo'nalishlarning ommalashgani va bugungi kunga yetib kelganini e'tiborga olib tasniflasak, to'rtta guruh bo'ladi. (Bu o'rindagi aksar terminlar mazhablar o'rtasida mushtarak, lekin mazhab kesimida bir termin leksik-semantik jihatdan bir-biridan keskin farqli bo'lishi ham kuzatiladi)¹.

Usulul fiqh: usulul fiqh islomiy manbalardan huquqiy-shar'iy hukmlarni olishda qo'llaniladigan uslub va tamoyillarni anglatadi. Va bu doirada ham sohaviy terminlar shakllangan.

Fiqh terminlarini bob va mavzularidan kelib chiqib, ya'ni sohasiga ko'ra quyidagicha turlarga ajratib chiqamiz.

¹ Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalar to'plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – B. 103.



1. Ibodat masalalariga oid terminlar. Bu turkumga solat (namoz), savm (ro‘za), zakot (sadaqa) va haj kabi ibodatlar bilan bog‘liq so‘zlar kiradi. Bular ichki tasnifga ham ega, masalan, namozga doir terminlarning o‘zini mana bunday tasniflash mumkin:

- “صلاة المريض” [] (*Bemor namozi*)
- “صلاة الخوف” [] (*Xavf namozi*)
- “صلاة المسافر” [] (*Musofir namozi*)
- “صلاة الإستخارة” [] (*Istixora namozi*)

Vaqt kesimida yana alohida taqsimga ega¹.

2. Muamalat (Tranzaksiyalar, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar). Bunda kundalik hayotning turli sohalari va ijtimoiy, iqtisodiy (savdo, shirkat, muzoraba, garov, omonat va hokazo) kabi o‘zaro munosabatlarga oid terminlar ko‘rib chiqiladi. Masalan, shartnomalar, savdo-sotiq, nikoh, taloq-ajrim, xulu’ – taloqni sotib olish kabi terminlarni o‘z ichiga oladi.

3. Sud-qozilik masalalariga doir terminlar. Bunda sud ishi, undagi jarayonlarga tegishli terminlar yoritiladi. Bu qismni ham vazifaviy terminlar (masalan, qozi, xusumatchi, da‘vo ko‘rib chiquvchi, muftiy kabi), jarayonga doir terminlar kabi turkumlarga ajratishimiz mumkin.

4. Jinoyat huquqiga oid masalalar yoritilgan bob terminlari. Bu yerda, suiqasd, moliyaviy, umumiy inson huquqlari, shariat mezonlari buzulishiga oid masalalar yoritiladi va bu mavzu ham o‘ziga xos terminlarga boy.

5. Hadlar – jazolar bobiga doir terminlar. O‘g‘irlik, zino va dindan qaytish kabi muayyan jinoyatlar uchun belgilangan islomiy jazolar haqida so‘z boradigan boblarning terminlari.

6. Davlat boshqaruvi va harbiy boshqaruvga doir masalalar yoritilgan boblardagi terminlar.

7. Fatvolarda ishlatiladigan terminlar. Yuqoridagi barcha qismlarni yakuniy mujassam qilishi mumkin bo‘lgan fatvolarda ishlatiladigan terminlar.

Islom huquqidagi terminlarni klassik yoki zamonaviyligi e‘tiboridan ikki qismga ajratish mumkin.

1. Klassik – asrimizdan avval yashab o‘tgan olimlar kitoblari va fatvolarida mavjud terminlar.

2. Zamonaviy – asrimiz yoki hozirgi kunda soha mutaxassislari tomonidan fatvolarda ishlatilayotgan, zamon rivoji bilan bog‘liq shakllangan terminlar. Bunga yangi raqamli dunyo, bank tizimi, yangilanib borayotgan iqtisodiy mexanizmlar tufayli shakllanayotgan turli huquqiy va ayniqsa, tijoriy – savdo-sotiq bilan bog‘liq terminlarni misol keltirish mumkin.

¹ Islom ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 118–120.



Fiqh terminlarining **leksik-semantik xususiyati** jihatdan tasnifiga to'xtalsak, aytib o'tish kerakki, bunday tasnif bilan terminlarni tadqiq qilish bugungi kunimiz uchun sohaning dolzarb jihatlaridan biri hisoblanadi. Chunki tilda tez o'zgarish xususiyatiga ega jihat—bu uning leksikasi va semantikasi hisoblanadi [5/108-b]. Mana shu sabab fiqh terminlarining tadqiqi jarayonida ularni leksik-semantik tasniflash muhim sanaladi [4/358-b].

Terminlar tuzilishi jihatidan ham quyidagi 3 turga bo'linishi mumkin:

1. Bir o'zakli. “صلاة” [solat] (namoz), “صوم” [savm] (ro'za), zakot, taloq, nikoh, hiba, sadaqa, dam (qon), qasos, tadoxul kabilar.

2. Qo'shma o'zakli terminlar. Kasal namozi, kasalning ro'zasi, fosid savdo, tamattu' haji, qiron haji, umra badal, hajji badal, mahri misl, sahih savdo, iyna savdosi, baytul mol kabilar. Qo'shma o'zaklilarning **o'zi ikki, uch va to'rt o'zakli bo'lishi** mumkin (masalan: asaba ma'a g'oyrihi; xiyoru favatul vasfil mazkur; tafriqus sofqa qoblat tamam).

3. Qisqartma otlar. Hiba masalasida hibani qaytarib olib bo'lmaydigan holatlarni jamlagan termin:

(دَمْعٌ خَرْقُهُ. (فالدال) الزيادة المتصلة كالفرس والبناء والسمن. و (الميم) موت أحد المعتاقدين و (العين) العوض و (الخاء) خروج الموهوب من ملك الموهوب له بالبيع أو الهبة. و (الزاي) الرزقية. و (القاف) القرابة المحرمة بالرحم لا بالمصاهرة و (الهاء) هلاك الموهوب).

Bu fiqhiy terminlarning tuzilishiga ko'ra tasniflanishi bo'lib, xulosa qilish mumkinki, fiqh terminlari bir o'zakli, qo'shma o'zakli (ikki, uch, to'rt o'zakli), qisqartma otlar, izofiy moslashgan aniqlovchi shakllarida birikkan bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, islom huquqiga oid terminlarning asosiy qismini bir va ikkita o'zakdan tuzilgan terminlar tashkil qiladi. Uch va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar kam uchraydi.

Leksik-semantik xususiyatidan kelib chiqib fiqh terminlarining mana bunday sinflarini ham ko'rish mumkin:

1. Tarkibida shaxslarni anglatuvchi qator lug'aviy birliklar. Qozi, mujtahid, muftiy, imom, oshir (ushur – zakot yig'uvchi), shohid (guvoh), kafil, vakil, asil, mukotob (ozodligini ishlab uzishga kelishgan qul), qul, hur, qochoq qul kabi so'zlarni misol qilib keltirish mumkin) [4/358-b].

2. Shar'iy hukmlarning umumiy tavsifini ifoda qiluvchi terminlar. Halol, harom, muboh, fosid, sahih, joiz, nojoiz kabi.

3. Faoliyat-jarayon va harakatni amalga oshirganlikni anglatuvchi terminlar. Qotillik, o'g'irlik, poraxo'rlik, o'ldirish, talon-toroj (g'asb), g'arar (umumiy kelishuvlarda mavhumlik keltirib chiqaradigan ishlar). Tuhmat qilish, jazo tayinlash, sudlash-sudlov, iqror, guvohlik berish, qasam (guvohlik masalasida) [6/263-b].

4. Fiqhiy terminlar qatorida o'rin-joy tushunchasini anglatuvchi terminlar. Masjid, minbar, baytulmol, mahkama, dorul harb, dorul islom, dorus sulh, haram,



miyqot, shahar, shahar fanosi (unga taalluqli joy), vatani iqomat, vatani asliy kabi terminlar.

Shuningdek, fiqh terminlarini neologizm, semantik kengayish kabi tasniflarga ham ajratish mumkin.

Arab grammatikachilari yangi xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng xavfsiz usullaridan foydalangan holda arab tilini saqlab qolishga qattiq harakat qilishgan. Bu holat o'tmish talablaridan kelib chiqqan. Arablarning umumbashariy sivilizatsiyasi arab tilining ilmiy va madaniy terminlarni yaratish va o'ziga moslashtirish qobiliyatini namoyon qilgan. Biz terminologik tushunchalarni arab tiliga moslashimiz, eng munosib yo'llarini o'rganishimiz, eski va zamonaviy arab grammatikachilari qo'llagan uslublar bilan xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng samarali klassik va zamonaviy usullarini ko'rsatishimiz kerak.

Klassik usullar quyidagilardir:

1.1. Al-ishtiqoq. Bu arab tilshunoslari tomonidan boshqa so'zdan yangi so'z yasash uchun ishlatiladigan morfologik tushuncha bo'lib, bunda yangi hosil qilinayotgan so'z bilan asos so'zning o'zak harflari va tub ma'nosi bir xil bo'ladi [3]. Arabcha ishtiqoq-hosila amalda boshqa so'zdan yangi so'z hosil qilishni anglatadi; ikkala so'zning o'zagi bir va umumiy leksik ma'nosi bir bo'lib, lekin morfologik jihatdan bir-biriga o'xshamaydi. Ularning lug'aviy ma'nosi shu ikki so'zda takrorlangan ildizning asl elementlari bilan ifodalanadi. Grammatik ma'nolar yangi hosila so'zlarning fonetik tuzilmalari qofiyalangan qoliplarga ko'ra turlicha bo'ladi, masalan,

(1) “قطع” (qata'a) [kesdi] “قطع” (qat'un)dan olingan va “فعل” (fa'ala) qolipi bilan shakllangan;

2) “قطع” (quti'a) [kesildi] “قطع” (qat'un)dan olingan va “فعل” (fu'ila) qolipi bilan shakllangan;

Xuddi shu o'zakni “فاعل” (faail) vazniga solsak, “قاطع” (qaati') kesuvchi degan so'z hosil bo'ladi; Bu yo'l umumiy yoki kichik ishtiqoq-hosilalanish deyiladi va uning boshqa turlari ham mavjud:

(1) katta ishtiqoq;

(2) eng katta ishtiqoq;

(3) an-naht (aralashtirish). Aytish mumkinki, hosila arab tilining o'ziga xosligini saqlab qolishini ta'minlaydi. Chunki u xorijiy terminlarni arabcha qoliplar to'plamiga muvofiq shakllantirishni talab qiladi. Arablashgan terminlarning arabchaga o'zlashtirilishini tekshirish mezoni sifatida ishtiqoq qoliplari to'plamlari ishlatilgan¹.

Amalda, arab tilining flektiv morfologiyasi tilga mos terminlarni olishning cheksiz imkoniyatlarini taqdim etishga qodir. Bu ajoyib trikonsonant ildiz tizimiga bog'liq. Ildizlar morfologik qolipga ko'ra yuqori flektiv bo'lish qobiliyati tufayli o'ziga xos ma'nolarni olib, ko'plab verbal yoki nominal shakllarni hosil qila oladi, masalan: “درس” (darsun) [o'rganish] ildizidan – “درس” (darasa) [o'rgandi], “درس” (durisa)

¹ Jo'zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: TIU, 2002. – 358 b.



[o‘rganildi], “دارس” (o‘rganuvchi); “درس” (dars) va “دروس” (darslar) kabi so‘zlar hosil bo‘lganiga o‘xshash¹.

Yana bir usul:

1.2. At-ta‘rib (arablashtirish).

Arablashgan terminlar deganda arab tili qoidalarini asosida paydo bo‘lgan yoki arabcha so‘zlarga o‘xshash so‘zlar tushuniladi². Rahem Ali al-Fuadiy arablashtirishni arabcha fonologiya va morfologiya qoidalarini qo‘llash orqali xorijiy so‘zlarni moslashtirish va arab tilida xorijiy terminlarni fonetik moslashtirish metodini qo‘llash jarayoni deb ham ta‘riflash mumkin deya izoh bergan. Masalan, “درهم” (dirham) (forscha diramid) fonetik moslashgan; “صَيْقَل” (sayqal) (burnisher – “فَيْعَل” (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashuvdir; shu vaznga yana bir misol “صَيْرَف” (sayraf) [pul ayirboshlovchi] so‘zi, bu “فَيْعَل” (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashgan so‘zdir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, klassik arab tilshunoslari arablashgan terminlarni boshqa tildan o‘zlashtirilgan – kalka uslubida olingan terminlardan aniq ajratib ko‘rsatishgan. Bunday kalka uslubida qabul qilingan so‘zlarga hozirgi arab tilidan quyidagilarni misol qilish mumkin. Masalan, radio, isitkich, telefon va svetofor kabi so‘zlar kalka yo‘li bilan moslashtirilgan va arabcha “مِيذَاع” (miyzaa) [radio]; “مِدْفَاءٌ” (midfaa) [isitkich]; “هَاتِفٌ” (haatif) [telefon]; “إِشَارَةٌ مُرُورٌ” (ishaarotu muruur) [svetofor] degan ko‘rinishga kelgan.

Bu ta‘riflar arablashtirishga ko‘p asrlar ilgari berilgan, ammo ular arab tilining xorijiy terminlarni o‘z qoidalariga ko‘ra moslash qobiliyatini ko‘rsatadi. Shuning uchun bu hodisaning zamonaviy ta‘riflari klassik arab filologlari tomonidan berilgan ilmiy dalillarga qarshi tura olmaydi yoki ularni inkor eta olmaydi. Arablashtirish deganda xorijiy terminlarni arab tili qoidalariga moslashtirish tushuniladi. Arab tilshunoslari tomonidan shakllantirilgan ushbu qoidalarga ko‘ra, arablashtirish deganda tilning fonologik, morfologik va tizim qoidalarini xorijiy terminlarga qo‘llash orqali arabcha bo‘lmagan terminlarni arab tiliga moslashtirish jarayoni tushuniladi³.

Arablashtirishning eng muhim savollaridan biri arablashgan so‘zlar arabchaga assimillatsiya qilinishi mumkinmi yoki ular arab tilining ishtiqoq tizimiga ko‘ra mavjud bo‘lishi mumkinmi? Klassik arab grammatikachilari bu muammoni o‘rganib, kerakli qoidalarni o‘rnatish orqali hal etishgan. Ibn Jinniy arablashgan so‘zlar faqat arabcha qolip to‘plami orqali iste‘mol qilgandagina tasdiq topishini aytgan [8]. Va u bu fikrini

¹ Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalar to‘plami. – T.: ToshDSHI, 2009. – 102–109-b.

² Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminalogiyasining tasnif masalasi. // CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2022. – 263–271-b.

³ Гринев, С. В. Введение в терминоведение [Текст] / С. В. Гринев. - М.: Московский Лицей, 1993. – С.15–16.



arablar arabchaga qabul qilingan terminlarni vaznga solib qayta ishlatgani bilan isbotlagan. Masalan, dirham soʻzi “mudarham” shaklida ishlatilgan. Oʻn yildan oshiq vaqt davomida arab davlatlarining til akademiyalari klassik usullarga muvofiq xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning qatʼiy mexanizmini oʻrnatishga harakat qilib, standartlashtirilgan yangi terminlarni yaratish va moslashtirishga harakat qildilar. Bu yoʻllar til tadqiqotchilari tomonidan turlicha tasniflanadi, lekin ularning aksariyati mumtoz arab grammatikachilarining ilmiy fikrlarini inobatga olib mazkur klassik uslublarni arab tiliga yangi terminlarni yaratish va moslashtirishning asosiy usuli deb hisoblaganlar, masalan:

1. Ishtiyoq.
2. Istinbot (kashfiyot).
3. Arablashtirish.
4. Tarjima orqali hosil qilish (qarz tarjimasi / kalkalash).

Xorijiy terminlarni arab tiliga oʻzlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun bu yoʻllarning barchasini bir-biri bilan taqqoslaymiz.

Terminlarni arablashtirishga birinchilardan boʻlib – shu asrning boshlarida – nazariya va amaliyotda katta hissa qoʻshgan doktor Ahmad Iso shunday degan edi: “Bizda bu masalada beshta yoʻnalish bor va biz yuzlarimizni oʻsha tarafga buramiz. Vaziyat, zarurat nuqtayi nazaridan kelib chiqib ulardan birin-ketin foydalanamiz. Tilimiz uchun eng ogʻir qarorga faqatgina barcha kuch va imkoniyatlarimizni sarf qilgandan keyingiga yuramiz”¹. Mana shu fikrlarni yoritib, ortidan terminlar yaratishdagi uslub ketma-ketligini bayon qilgan. Unga koʻra:

1. Tarjima uslubi.
2. Ishtiyoq.
3. Majoz. (Mazkur usullar bilan ham imkoni boʻlmasa:)
4. Naht.
5. Taʼrib. (Oʻzlashtirish).

Bagʻdod ilmiy terminlar agentligi (1926 m) terminlar yaratish qoidalari va dasturlari deya nomlagan jamlanmasida yuqorida keltirilgan ikki ishtiyoq va taʼrib uslubini kiritgan. Iroq ilmiy kengashi ham shu yoʻnalishdan yurib termin yaratish uslublarini ishtiyoq, taʼrib va naht deya keltirgan.

Quyidagi jadval bizga yana ham aniqroq koʻrsatadi:

Tasnif asosi	Tasnif kategoriyalari	Izohlar
1. Manbalariga koʻra:	Qurʻon, Sunnat, Faqihlar, Mahalliy urf-odatlar	Qurʻon va Sunnatda kelgan asosiy atamalar, faqihlar tomonidan ishlab chiqilgan terminlar.

¹ د. أحمد عيسى: التهذيب في أصول التعريب. مصر: مطبعة مصر: - 2017. ص. - 113.

2. Qo'llanilishiga ko'ra:	Ibodot, Muomalot, Jinoyat huquqi, Sud ishlari	Har bir bo'lim huquqiy mavzularni yoritadi: ibodat (namoz, ro'za), muomalot (savdo, qarz), jinoyat va sud.
3. Zamonaviyligi bo'yicha:	Klassik terminlar, Zamonaviy terminlar	Klassik: fiqh kitoblaridagi istilohlar. Zamonaviy: yangi iqtisodiy va texnologik faoliyatlarga oid.
4. Mazhablariga ko'ra:	Hanafiy, Shofei, Malikiya, Hanbaliya	Har bir mazhabda terminlarning o'ziga xos ma'nolari va tafsilotlari mavjud.
5. Tuzilishi bo'yicha:	Bir o'zakli, Qo'shma o'zakli, Qisqartma shaklidagi terminlar	Masalan, salot (bir o'zakli), salot ul-xavf (qo'shma o'zakli), qisqartmalar (qa'zi – qozi).
6. Leksik-semantik xususiyat:	Shaxslar: qozi, mufti, imom; Shar'iy hukmlar: halol, harom; Faoliyat: o'g'irlik, talon-toroj, g'arar	Atamalarning lug'aviy hamda ma'noviy o'zgarishi va jarayonlarga moslashishi.
7. Soha va mavzulariga ko'ra:	Ibodot (namoz, ro'za), Muomalot (shartnoma, nikoh), Jazolar (hadlar, jinoyatlar), Fatvolar	Har bir mavzu doirasida alohida ishlatiladigan terminlar.
8. Yasalish uslubiga ko'ra:	Ta'rib, ishtiqoq, daxil, naht	Soha vakillari va tilshunoslik akademiyalari

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, fiqh terminlarining tasnifi kunimizning muhim masalalaridan biri bo'lib, bunday tasniflar soha doirasida qilinayotgan ilmiy ish va tadqiqotlarning sifati oshishiga, terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish, o'zlashtirish kabi masalalarda soha egalari ko'makchi bo'ladi. Bu o'rinda biz qilgan tasnif o'z mazmuni doirasiga cheklangan bo'lib, umumiy va fiqh terminologiyasini ochib berishga qaratilgan. Unga ko'ra fiqhiy terminlar umumiy suratda *manbasi; bob va mavzularda ishlatilishi; klassik yoki zamonaviyligi hamda leksik-semantik xususiyatlaridan* kelib chiqib tasniflandi.

Yasalishi va tuzilishiga ko'ra **bir o'zakli, qo'shma o'zakli, qisqartma ot** shaklidagi terminlar borligi aniqlandi.

Leksik-semantik xususiyatidan kelib chiqib esa: *tarkibida shaxslarni anglatuvchi qator lug'aviy birliklar; faoliyat-jarayon va harakatni amalga oshirganlikni anglatuvchi terminlar; shar'iy hukmlarning umumiy tavsifini ifoda qiluvchi terminlar* kabi ko'rinishda sinflarga ajratildi.



Aytib o'tish lozimki, mavzu o'rganish va tadqiqot yuzasidan yakunini kutib turgan masalalar sirasiga kiradi va bizning ishimiz o'sha bo'shliqni to'ldirishdagi qadamlardan biri, xolos!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 118–120-b.
2. Burhonuddin Marg'iloniy, Al-Hidoya asari. (Abdumajid Shannor tahqiqi, Bayrut).
3. Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Nasafiy. Tilbatu-t-tolibati fi-l-istilohati-l-fiqhiya. – London, 1988. – 491-b.
4. Jo'zjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: TIU, 2002. – 358 b.
5. Begmatova B.M. Islom huquqiga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. // Sharqshunoslik: buguni va ertasi. Maqolalar to'plami. –T.: ToshDSHI, 2009. – 102–109-b.
6. Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminalogiyasining tasnif masalasi. //CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2| ISSUE 1| 2022. –263–271-b.
7. Гринев, С. В. Введение в терминоведение [Текст] / С. В. Гринев. – М.: Московский Лицей, 1993. – С.15–16.
8. Татаринов, В. А. Общее терминоведение: Энциклопедический словарь [Текст] / В. А. Татаринов / Российское терминологическое общество РоссТерм. - М.: Московский Лицей, 2006. – С.127.
9. Rahmonov A. Islom huquqi. –T.: "Adolat", 2007. – B.124.
10. Begmatova B. Sharqshunoslik masalalari ilmiy maqolalar to'plami. Islom huquqiga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. –T., 2009. – B.51–52.
11. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: "Fan", 1996. – B.75.
12. Nurmonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "Sharq", 2002. – B.62–63.
13. Даниленко В.П.Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – В.157.
14. Воджно Л.И. Научнотехническая терминология из объектов изучения закономерностей развитие языка // Филологическая наука. 1971. – С. 103.
15. سناني سناني معاجم المصطلحات الفقهية المصباح المنير في غريب الشرح الكبير للفيومي أنموذجاً. دراسة . 400 لغوية أطروحة لنيل درجة الدكتوراه. الجزائر 2009. – ص
16. <https://www.habous.gov.ma/daouat-alhaq/item/7897>
17. <https://resources.ials.sas.ac.uk/ukcle/78.158.56.101/archive/law/projects/current-projects/ali/index.html>



SHUHRAT MIRZIYATOV

Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

“Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot arab tili grammatikasi va leksikografiyasi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, arab tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishida Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining o'rni va ta'sirini atroflicha yoritadi. Tadqiqotda arab tilshunoslarining grammatika haqidagi qarashlari, lug'atshunoslar tomonidan tuzilgan lug'atlar, xususan, Zamaxshariyning “Mufassal fi-n-nahv” va “Muqaddamatu-l-adab” asarlari asosida olib borilgan tahlillar muhim o'rin egallaydi. Tatar tilshunoslari R.R. Safiullina va A.M. Salaxov tomonidan “Unmuzaj fi-n-nahv” asarining tatar madrasalaridagi o'rni yoritilgan bo'lsa, D.N. Gulidova esa Ibn Ya'ish tomonidan yozilgan “Sharh al-Mufassal” asarida atoqli otlar va ularning grammatik jihatlari qanday sharhlangani ustida to'xtaladi.

Gruzin olimi N.I. Robakidze esa Zamaxshariyning fonetik konsepsiyasini chuqur o'rgangan va uning “Mufassal” asarining mushtarak holatlarga oid bo'limini tahlil qilib, til hodisalari tasnifini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, “Muqaddamatu-l-adab” asarining turli xalqlar va tillar, xususan, fors-tojik, turkiy va mo'g'ul tillari bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilib, uning ko'p tilli va madaniyatlararo muloqotga xizmat qilgan manba sifatida ahamiyati ko'rsatiladi. Mo'g'ulshunos N.N. Poppe asarning mo'g'ulcha leksik materiallarini fonetik va morfologik jihatdan o'rganib, ularni alohida lug'at shaklida tahlil etgan. V.E. Radnayevev mo'g'ul leksikografiyasi tarixida Zamaxshariy asarining tutgan o'rnini aniqlab, bu lug'atning Yevropa va Osiyo leksikografik an'analari orasidagi aloqadorligini tahlil qilgan.

Shuningdek, turk olimi Nuri Yuje “Muqaddamatu-l-adab”ning Shushtar nusxasi asosida olib borgan tadqiqotida ushbu nusxaning boshqa qo'lyozmalardan afzallik jihatlari ko'rsatgan hamda asarning turkiy tiliga oid jihatlari fonetik, morfologik va etimologik nuqtai nazardan tahlil qilgan. Ushbu tadqiqot arab tilining grammatika va leksikografiyasiga oid yirik manbalarni ko'p tarmoqli ilmiy yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Mahmud Zamaxshariy merosining Sharq va G'arb tilshunoslik an'analari ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Arab tili grammatikasi, leksikografiya, Mahmud Zamaxshariy, Al-Mufassal, Muqaddimat al-Adab, tilshunoslik merosi, turk tillari, mongol tili materiallari, Sharq va G'arb tilshunosligi, multimadaniy yondashuv

Abstract. This research is devoted to issues of Arabic grammar and lexicography, thoroughly examining the role and influence of Mahmud Zamakhshari's scholarly heritage in the formation and development of Arabic linguistics. The study places particular emphasis on the grammatical views of Arabic linguists and the dictionaries compiled by lexicographers, especially analyzing Zamakhshari's works "Al-Mufassal fi an-Nahw" and "Muqaddimat al-



Adab". Tatar linguists R.R. Safiullina and A.M. Salakhov have explored the role of "Unmuzaj fi an-Nahw" in Tatar madrasas, while D.N. Gulidova examined how proper nouns and their grammatical aspects were interpreted in Ibn Ya'ish's commentary "Sharh al-Mufassal."

Georgian scholar N.I. Robakidze conducted in-depth analysis of Zamakhshari's phonetic concepts, particularly examining the section on participles in "Al-Mufassal", providing a scientifically grounded classification of linguistic phenomena. Furthermore, the multilingual and intercultural significance of "Muqaddimat al-Adab" is investigated through its connections with Persian-Tajik, Turkic, and Mongolic languages. Mongolist N.N. Poppe analyzed the Mongolic lexical materials from the work, studying them from phonetic and morphological perspectives and presenting them as a separate glossary. V.E. Radnaev highlighted the importance of Zamakhshari's work in the history of Mongolian lexicography, revealing its links between European and Asian lexicographic traditions.

Moreover, Turkish scholar Nuri Yüce, based on the Shushtar manuscript of "Muqaddimat al-Adab", emphasized its advantages over other manuscripts and analyzed its aspects related to the Turkic language from phonetic, morphological, and etymological perspectives. This research, therefore, represents a multi-disciplinary approach to studying significant sources on Arabic grammar and lexicography, demonstrating the influence of Mahmud Zamakhshari's legacy on both Eastern and Western linguistic traditions.

Keywords: Arabic grammar, lexicography, Mahmud al-Zamakhshari, Al-Mufassal, Muqaddimat al-Adab, linguistic heritage, Turkic languages, Mongolic lexical materials, Eastern and Western linguistics, multicultural approach

Аннотация. Данное исследование посвящено вопросам арабской грамматики и лексикографии, подробно освещая роль и влияние научного наследия Махмуда Замахшари в становлении и развитии арабского языкознания. В работе особое внимание уделяется грамматическим взглядам арабских лингвистов и составленным лексикографами словарям, в частности, анализируются труды Замахшари — «Аль-Муфассаль фи-н-нахв» и «Мукаддима аль-Адаб». Татарские лингвисты Р.Р. Сафиуллина и А.М. Салахов рассмотрели значение произведения «Унмузадж фи-н-нахв» в татарских медресе, а Д.Н. Гулидова проанализировала интерпретацию имен собственных и их грамматических характеристик в комментарии Ибн Йаиша «Шарх аль-Муфассаль».

Грузинский учёный Н.И. Робакидзе глубоко исследовал фонетическую концепцию Замахшари, проанализировав раздел о причастиях в «Аль-Муфассаль», и на научной основе классифицировал языковые явления. Также рассматривается многоязыковой и межкультурный характер «Мукаддима аль-Адаб» через его связь с персидско-таджикским, тюркским и монгольским языками. Монголовед Н.Н. Поппе изучил монгольский лексический материал произведения с фонетической и морфологической точек зрения и представил его в форме отдельного словаря. В.Э. Раднаев определил значение работы Замахшари в истории монгольской лексикографии, выявив её связь между европейскими и азиатскими лексикографическими традициями.

Кроме того, турецкий учёный Нури Юдже, исследуя иуитарскую рукопись «Мукаддима аль-Адаб», указал на её преимущества перед другими версиями и провел анализ тюркского языкового материала с фонетической, морфологической и этимологической точек зрения. Таким образом, исследование представляет собой



многопрофильный научный подход к изучению крупных источников по арабской грамматике и лексикографии, демонстрируя влияние наследия Махмуда Замахшари на восточные и западные лингвистические традиции.

Ключевые слова: Арабская грамматика, лексикография, Махмуд Замахшари, Аль-Муфассаль, Мукаддима аль-Адаб, языковое наследие, тюркские языки, монгольский лексический материал, восточное и западное языкознание, мультикультурный подход

Arab tili grammatikasi masalalari, xususan, arab leksikografiyasining yuzaga kelishi va shakllanishi masalalari butun jahon sharqshunosligi ilmida olimlar diqqatini jalb etib kelgan. Ayni chogʻda arab tilshunoslarining grammatikaga oid qarashlari, arab lugʻatshunoslari tomonidan tartib berilgan lugʻatlar tadqiqotlar diqqat markazida turgan. Ishning avvalgi faslida qayd etib oʻtilganidek, arab lugʻatshunosligining shakllanishida asosiy boʻlgan yoʻnalishlardan biriga asos solgan Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan tadqiq etilgan. Zotan, V.M.Belkinning eʼtiroficha¹, arab lugʻatshunoslari grammatika masalalari bilan alohida shugʻullanishmagan, faqatgina Zamaxshariy ham grammatika sohasida, ham leksikografiya sohasida original asarlarni yaratgan². Hattoki, umuman, arab tiliga oid ilmiy tadqiqotlarga eʼtibor qilsak, Mahmud Zamaxshariyning ismini tilga olmaslik, uning arab tili grammatikasi va lugʻatshunosligi rivojidadagi xizmatini qayd etmasdan oʻtish mumkin emas.

Tatar tilshunosi R.R.Safiullina arab tilshunoslik anʼanalari va uning tatar tilshunosligi tarixidagi taʼsiri masalasiga toʻxtalar ekan, tatar madrasalarida arab tilini oʻrganishda eng mashhur hisoblangan, Mahmud Zamaxshariyning “Mufassal fi-n-nahv” asarining qisqartirilgan shakli boʻlgan “Unmuzaj fi-n-nahv”ni ham tilga oladi³.

A.M.Salaxov XIX asr va XX asr boshlarida tatar madrasalarida arab tili grammatikasi boʻyicha qoʻllanilgan asarlar haqida maʼlumot berar ekan, Mahmud Zamaxshariyning “Unmuzaj” asariga alohida toʻxtaladi. Maqolada eʼtirof etilishicha, “Unmuzaj” asari nafaqat Volga–Ural mintaqasi tatarlari, balki umuman, turkiy xalqlar orasida eng mashhur boʻlgan darslik boʻlgan. Maqolada asarning tuzilishi va tarkibi haqida qisqacha maʼlumot keltiriladi. A.M.Salaxov arab tili grammatikasiga oid materiallarning tizimlashtirilgan va aniq bayonini qamrab olgan asar sifatida taʼriflaydi⁴.

D.N.Gulidovanning maqolalari Mahmud Zamaxshariyning “Mufassal” asariga yozilgan izohlarni qamrab olgan Ibn Yaʼish muallifligidagi “Sharh al-Mufassal”

¹ Белкин В.М. Арабская лексикология. Изд-во Московского университета. 1975. –С. 162.

² Oʻsha asar – S. 164.

³ Сафиуллина Р.Р. Арабская лингвистическая традиция и ее отражение в истории татарского языкознания / Культурные традиции в Евразии. Из серии Восток-Запад: Диалог культур. Вып. 4. - Казань: Фэн, 2003. –С. 103.

⁴ Салахов А.М. Трактат по грамматике арабского языка средневековых восточных авторов, использовавшиеся в татарских медресе в XIX-начале XX вв. // Научный Татаристан. 2012. - № 2. –С. 263–266.



asarini tanishtirish hamda unda atoqli ismlarni tavsiflash aspektlarini yoritishga qaratilgan¹, maqolada qayd etilishicha, 10 jilddan iborat “Sharh al-Mufassal” Zamaxshariy asarining tuzilishiga mutanosib tartiblangan. Uning birinchidan oltinchi jildigacha ism, yettinchi jildi fe’l, sakkizinchi jild va to‘qqizinchi jildning birinchi qismi yordamchi so‘z turkumiga bag‘ishlangan. Umumiy masalalar o‘ninchi jildda ko‘rib chiqilgan. D.N.Gulidovanning yozishicha, Ibn Ya‘ish sharhida Zamaxshariy asaridan ma‘lum bir lavhani keltiradi, lavha bo‘lib-bo‘lib sharhlanadi, zarur o‘rinlarda alohida so‘zlar, grammatik qoida va konstruksiyalar tushuntiriladi. Asar boshida Ibn Ya‘ish asarda uchraydigan atamalarni izohlaydi. Bunda ayni atamaga berilgan ta‘riflarni keltiradi va ularga o‘z munosabatini bildiradi. U yoki bu qarashni asoslash uchun Ibn Ya‘ish mavjud barcha qarama-qarshiliklarni ko‘rib chiqadi va ularni tahlil qiladi. Ba‘zi o‘rinlarda o‘quvchi yetarli bilimga ega, deb hisoblagani uchun qisqa sharhlar bilan chegaralanadi. Sharhda Zamaxshariy fikrlari bilan bahsga kirishilgan o‘rinlar ham mavjud.

D.N.Gulidovanning atoqli otlarga oid maqolasida “Sharh al-Mufassal” asari birinchi jildining alohida bo‘limi arab tilidagi atoqli otlarga bag‘ishlanganligi, atoqli otlar morfologik tarkibiga ko‘ra ikki guruhga–sodda (mufrad) va murakkab (murakkab)ga ajratilganligi qayd etiladi. Murakkab atoqli otlar, o‘z navbatida, uch guruhga bo‘linadi: 1) ism-gaplar; 2) bitishuv yo‘li bilan birikkan qo‘shma so‘zlar; 3) genitiv konstruksiya bo‘lgan ismlar (idafa). Muallif atoqli otlarning nominatsiyasi masalasiga to‘xtalar ekan, Ibn Ya‘ish atoqli otlarning ko‘pchiligi ma‘no ko‘chishi yo‘li bilan hosil bo‘lgan, deb fikr bildirganini bayon etadi. Shuningdek, transpozitsiya (manqul) va improvizatsiya (murtajal) usullarini ham qayd etadi. Muallif Ibn Ya‘ish asarida onimizatsiya (turdosh otning atoqli otga o‘tishi) bilan bir qatorda qarama-qarshi vaziyat – apellativizatsiya hodisasiga ham diqqat qaratadi. Asarda otlarning kelishik shakllari tahlili ham berilgan bo‘lib, unda ismlarning to‘liq (munsarif) va noto‘liq paradigmasi (g‘ayru-l-munsarif) sabablari izohlangan.

Gruzin tilshunosi N.I.Robakidze Mahmud Zamaxshariyning fonetik konsepsiyasini tadqiq etishga oid nomzodlik dissertasiyasida Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid 10 ta kitobi mavjudligini e‘tirof etadi². Shu o‘rinda, Sibavayhiyning “Kitab”idan keyingi arab tili grammatikasiga oid eng muhim asar sifatida “Mufassal”ni tilga oladi. Bu kitobning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida avval hech bir muallif tomonidan tatbiq etilmagan ish – kirish qismining kiritilganligida deb

¹ Гулидова Д.Н. «Sharh al-Mufassal» Ибн Йаъиша как памятник средневековой арабской грамматической мысли // «Письменные памятники Востока. Проблемы перевода и интерпретации». Москва, ИВ РАН, 27–29.10.2014 (тезисы конференции); Д.Н.Гулидова. Аспекты описания имени собственного в арабской языковедческой традиции (на материале трактата Ибн Йаиша «Sharh al-Mufassal») / Конференция «Ломоносов 2014». Секция «Востковедение, афганистика». – М., 2014.

² Робакидзе, Нуну Ивановна. Фонетическая концепция Аз-Замахшари (XII) : дис. ... канд. фил. наук. – Тбилиси, 1984. 124 с.



ko‘rsatadi. Kirishda muallif kitobning yozilish sabablari va usullarini bayon etadi. Xususan, Mahmud Zamaxshariy arab tili grammatikasining asosiy tushunchasi bo‘lgan i‘rab – (*fleksiya*) haqida kitob yozish vazifasini topshirishganini yozadi. Natijada to‘rt qismdan iborat (ot, fe‘l, harf, umumiy holatlar – mushtarak) “Mufassal” asarining to‘rtinchi qismi N.I.Robakidzening ilmiy ishi uchun tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Mazkur qismda fonetika masalalari, talaffuzning asosiy qoidalari, fonetik hodisalar, tovushlarning ketma-ket joylashish tartiblari kabi masalalar ko‘tariladi. Ushbu qismni tahlil etish va o‘rganish XII asr buyuk tilshunosining fonetik konsepsiyasini shakllantirish imkonini beradi. N.I.Robakidzening ta’kidlashicha, Zamaxshariy birinchi bo‘lib barcha so‘z turkumlari uchun mushtarak bo‘lgan va alohida tadqiqni talab etuvchi til hodisalari mavjudligiga e’tibor qaratgan. Tadqiqotchi nemis olimi Vayl “Mufassal”ning ayni bo‘limini shu qadar muhim¹, deb hisoblaganki, uni “zeb-ziynatlar solingan quticha”ga tenglashtirganini qayd etib o‘tadi. Monografiyaning birinchi bobi nutq tovushlarining hosil bo‘lishi (unli va undosh tovushlar), ikkinchi bobi nutq tovushlarining o‘zgarishi bo‘lishi, uchinchi bobi bo‘g‘inning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

“Muqaddamatu-l-adab” asari yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar e’tiborini jalb etib kelmoqda. Asar birinchi marta 1706-yilda Xo‘ja Is’hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan. So‘ngra Yevropaning fransuz, nemis tillariga ag‘darilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta nashr bo‘lgan. Nemis olimlaridan Vetshteyn “Muqaddamatu-l-adab” asarining Yevropa qo‘lyozma fondlaridagi yettita qo‘lyozmasini jiddiy o‘rganib, 1859-yilda Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnini nashr ettirdi. Shuningdek, Vetshteyn bu mukammal nashrni fihrist bilan birgalikda chop qilganligi sababidan mazkur nashr qimmatli manbalardan hisoblanadi².

Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari arab tili uchungina emas, balki boshqa tillar uchun ham muhimdir. Binobarin, “Muqaddamatu-l-adab”dagi fors-tojik va xorazmcha so‘zlar eronshunoslarni qiziqtirsa, turkiy so‘zlari turkiyshunoslarni, mo‘g‘ul so‘zlari mo‘g‘ulshunoslarni ham qiziqtirib kelmoqda³.

Mo‘g‘ulshunos olim N.N.Poppe maxsus tadqiqotida «Muqaddamatu-l-adab» asarini aynan mo‘g‘ul tilshunosligi nuqtayi nazaridan o‘rgangan. Olimning «Mongolskiy slovar» «Muqaddamatu-l-adab» kitobi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida lug‘atda keltirilgan mo‘g‘ul tiliga oid materiallarning fonetik va

¹ Veil G., Die Behandlung des Iamza-Alif im Arabischen besonders nach der Lehre von az-ZarnahsarI und VI.n al-AnbarI, Munchen, 1905. R. 147.

² Абу-л Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар (Шарҳлар муаллифи ва таржимон У.Уватов). –Т.: Камалак, 1992. Б. 37–38.

³ Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. (Маҳмуд Замахшарий. “Олтин шодалар” китоби сўз бошиси). –Т.: EXTREMUM PRESS, 2010. Б.15.



morfologik belgilari tadqiq etilgan bo'lsa, ikkinchi qismda mo'g'ulcha-turkiycha lug'at keltirilgan¹. N.N.Poppe to'rt tili "Muqaddamatu-l-adab" lug'atining mo'g'ul tili materiallarinigina tahlil qilgan, turkiy til so'zligini yordamchi material sifatida tadqiqotning ikkinchi qismida keltirgan. Ish uchun Darvesh Muhammad tomonidan 898/1492-yilda ko'chirilgan nusxasi manba sifatida olingan bo'lib, bu nusxada asarning faqat birinchi ikki qismi mavjud bo'lib, qolgan uch qismi yo'q. Mazkur nusxada arabcha so'zlarning forscha, turkiycha, mo'g'ulcha izohlari berilgan. Olimning e'tirofiga ko'ra, asardagi mo'g'ulcha leksik material muallif tomonidan kiritilmagan, lekin, har holda 1492-yilgacha kiritilgan.

V.E.Radnayeving Rossiyada XIX asrning birinchi yarmida mo'g'ul tilshunosligi tarixining o'rganilishi masalasiga doir monografiyasida grammatik nazariya, tarixiy leksikologiya va leksikografiya kabi muhim yo'nalishlar tahlilga tortilgan². Kitobda XIX asrda ishlab chiqilgan mo'g'ul tilining tarixiy leksikologiyasi mo'g'ul xalqlarining milliy ongi, mo'g'ul davlatchiligining shakl va mazmuni bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilgan. XIV asrdan XIX asrgacha bo'lgan mo'g'ul leksikografiyasining yuzaga kelishi va shakllanishi G'arb bilan Sharqning dixotomik aloqasi, vorisiylik va o'zaro ta'sir doirasida tadqiq etilgan.

Olimning ta'kidlashicha, mo'g'ul leksikografiyasi XIV asrda yuzaga kelgan bo'lib, ilk ikki va ko'p lug'atli lug'atlar arab hamda fors olimlari tomonidan tuzilgan. Arman va gruzin tarixchilari ham mo'g'ul tiliga qiziqish bildirib, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab lug'atlar tuzishgan. Keyinchalik mo'g'ul tilshunosligi Xitoyda yuzaga kelgan, Tibet va Mo'g'ulistonda rivojlangan³. V.E. Radnayevev mo'g'ul leksikografiyasida muhim o'rin egallovchi qo'lyozmalar orasida Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asarini ham tilga oladi. Mo'g'ulshunos olim N.Poppe Buxoro amiri kutubxonasidagi Fitrat tomonidan 1920-yillarning boshida aniqlangan mazkur qo'lyozmaning 898–hijriy yilda Darvesh Muhammad tomonidan ko'chirilgan nusxasini Leningradda qo'lga kiritgan.

Bundan tashqari, turk olimi Nuri Yuje "Muqaddamatu-l-adab" asarining xorazmcha tarjimasini mavjud bo'lgan Shushtar nusxasi⁴ asosida maxsus tadqiqot olib

¹ Поппе Н.Н. Монгольский словарь Мукаддимат ал-адаб. – М. – Л.: АН СССР, 1938. С. 171.

² Раднаев В.Э. Монгольское языкознание в России в 1-половине XIXв.: проблемы наследия. –Улан-Удэ: Изд-во БНЦ СО РАН, 2012. 392 с.

³ Veil G., Die Behandlung des Iamza-Alif im Arabischen besonders nach der Lehre von az-ZarnahsarI undVI.n al-AnbarI, Munchen, 1905. P. 283.

⁴ Olimning ta'kidlashicha, mazkur nusxa Eronning Shushter shaharchasida Shayx Muhammad Takiyning shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda. 1967 yilda bu nusxa O'rxan Bilgin tomonidan Istanbul kutubxonasiga olib kelingan va mikrofilm shaklida fondga qo'yilgan. Asarning uchdan bir qismi – 100–120-sahifalari yo'q. Shu sababli asarning nomi, muallifi, kotib, ko'chirilgan sanasi va joyi ma'lum emas. Ammo til xususiyatlari, yozuvi va qog'ozidan XIII asrga oidligini taxmin qilish mumkin.



borgan¹. Olim tadqiqotda Xorazm mintaqasining islomdan oldingi va keyingi vaziyat, Zamaxshariyning hayoti va asarlari haqida umumiy, xususan, “Muqaddamatu-l-adab” asari, uning Shushtar nusxasi haqida ma’lumot beradi. Nuri Yuje asarning Toshkent, Buyuk Britaniya muzeyi hamda Rampur Saroy nusxalaridan tashqari barcha nusxalarini jiddiy o’rganib chiqqanligini e’tirof etadi va Shushtar nusxasining afzalligini quyidagilar bilan izohlaydi 1. Shushtar nusxasida har bir arabcha soʻzning turkiy tarjimai keltirilgan boʻlib, ba’zida soʻz ma’nosining bir necha muqobillari qayd etilgan. 2. Asarning bu nusxasida soʻzlarning forscha tarjimalari ham koʻp keltirilgan. 3. Boshqa nusxalarda asl arabcha va forschadan oʻzlashgan soʻzlar turkiycha tarjima sifatida keltirilgan, Shushtar nusxasida bu holat kam kuzatiladi.

4. Shushtar nusxasida boshqa nusxalarda mavjud boʻlmagan holat, ya’ni oʻrta turk tili davriga oid soʻzlar ham uchraydi. N. Yuje tadqiqotining ma’lum bir qismi asarning til xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, unda unlilar va undoshlarning yozilishi hamda talaffuzi bilan bogʻliq masalalar, matndagi soʻzlarning ayrim morfologik belgilari, soʻzlarning etimologiyasiga oid fikrlarni oʻz ichiga olgan². Muallif asosiy e’tiborni matnning transliteratsiyasiga hamda soʻzlarning qoʻllanilish shakli va chastotasini belgilashga yoʻnaltirgan.

N. B. Badmasirenova “Muqaddamatu-l-adab” asarini moʻgʻul lugʻati, deb ataydi va undagi frazeologik oʻzlashmalarning oʻziga xosligi masalalariga e’tibor qaratadi. Tadqiqotchi frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga oʻzlashtirish masalalarini tahlil etar ekan, Zamaxshariyning asarida oʻzlashma moʻgʻulcha iboralarning sanoqli ekanini ta’kidlaydi, buning sababi sifatida muallifni asarni arab tilida yaratganligi bois, arab tilining ta’sirida, deb hisoblaydi³.

Qozoq tilshunosi R. S. Muxitdinov Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari hamda arab leksikografiyasining tarixiy negizlari va nazariy tamoyillarini tadqiq etar ekan, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarini ham tilga olib oʻtadi, ammo bu lugʻatning tarkibi, tuzilishi haqida ma’lumot berish bilangina cheklanadi⁴.

Mahmud Zamaxshariy hayotlik chogʻidayoq oʻz zamonasining olimlari tomonidan “Jorulloh” – “*Allohning qoʻshnisi*”, “Ustozu-l-arab va-l-ajam” – “*Arab va arab boʻlmagan millatlarning ustoz*”, “Raisu-l-afozil” – “*Fozillarning raisi*”, “Ka’batu-l-udabo” – “*Adiblarning ka’basi*”, “Faxri Xorazm” – “*Xorazm faxri*” kabi

¹ Yüce N. Mukaddimetü’l-edeb. Giriş, dil özellikleri: metin, indeks. – Ankara: TDK, 1988. S. 79.

² Yüce N. Mukaddimetü’l-edeb. Giriş, Dil Özellikleri, Metin, İndeks. S.15-18.

³ Бадмацыренова Н.Б. Специфика фразеологического калькирования в монгольском словаре «Мукаддимат ал-Адаб» / «Письменные памятники Востока. Проблемы перевода и интерпретации». Москва, ИВ РАН, 27–29.10.2014 (тезисы конференции).

⁴ Мухитдинов Р.С. «Диуан луғат эт-турк» және араб лексикографиясы: тарихи негіздері мен теориялық принциптері: Филол. ғыл. канд. ... дис. автореф. - Алматы, 2010. С. 69.



unvon va taxalluslar bilan sharaflanganligi ham bejiz emas¹. Akademik Alibek Rustamiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday degan edi: “Zamaxshariy buyuk tilshunos edi va u arab tilshunosligining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Buni o‘rta asr adiblarigina emas, hozirgi arabshunoslar ham e‘tirof qiladilar”². Mahmud Zamaxshariy arab tilshunosligi va lug‘atshunosligining rivojlanishida katta xizmat qilgan. Xususan, V.Girgas ta’kidlaganidek, bu davrga, ya’ni “X asrga kelib ko‘pchilik tilshunos olimlar nahvni o‘rganishda faqat Basra maktabining yoki faqat Kufa maktabining fikrlariga ergashib qolmaganlar, balki ular har ikkala maktabning ham xulosalaridan o‘zlari asosliroq, deb bilganlarini o‘zlashtirganlar. Shu tariqa keyingi asrlardagi tilshunoslarning hammasi uchun asos bo‘lib qolgan grammatik sistemani ishlab chiqib, umumiy bitta maktabning shakllanishiga hissa qo‘shdilar”³. Bunday olimlardan Abu Ali Forisiiy, Sayrofiy Naxbiy, Abdu-l-Qohir Jurjoniy, Mahmud Zamaxshariylarni aytib o‘tish mumkin. Zamaxshariyning davridan boshlab grammatika so‘zlarning turkumga bo‘linishi asosida, (ya’ni, ism-fe‘l-harf) talqin qilindigan bo‘ldi. Shu bilan birga, arab grammatikasining an’anaviy talqinidan ham voz kechilmadi, ushbu yo‘nalish hozirda ham mavjud.

Eng so‘nggi tadqiqotlar olimning yetmishga yaqin asarlari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu ulkan ma’naviy meros ichida “Dunyo xazinasiga teng asar” sanalmish “Muqaddamatu-l-adab” (“Adab ilmiga kirish”) asarining alohida o‘rni bor. Hozirgi kunda ushbu muhim asarning XIII–XVI asrlarda ko‘chirilgan yetmishdan ortiq nodir qo‘lyozmalari aniqlangan. Ular orasida ko‘chirilish tarixi ko‘rsatilgan, yurtimiz hududida kitobat qilingan, turkiy so‘zlik kiritilgan nodir nusxa – Xorazm qo‘lyozmasi alohida ahamiyatga ega.

Demak, rus va jahon sharqshunosligida Zamaxshariy ilmiy merosining o‘rganilishiga e‘tibor kuchli bo‘lib, shartli ravishda asarning alohida qo‘lyozma nusxalari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar, lug‘atning so‘zlik qismiga oid tahlillarni qamrab olgan tadqiqotlar, asarning grammatikaga oid qismidagi olim qarashlari o‘rganilishiga oid ilmiy izlanishlarni ajratish mumkin. Xususan, arab tilshunosligi, arab lug‘atshunosligiga taalluqli ilmiy ishlarda ham Zamaxshariyning beqiyos xizmati albatta e‘tirof etib o‘tilgan. Biroq Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarining eng qadimiy nusxasi hisoblangan Xorazm nusxasi hali maxsus tadqiq etilmagan.

¹ “Muqaddimat al-Adab” Abu al-Qosim Makhmud Zamakhshariy Khorazmiy. From the 1843 Leipzig Edition. Persian in Tradukction by M.Mohagh. Tehron, 2007.

² Рустамов А. Замахшарий меросининг таълимий аҳамияти // Шарқ машъали. 1996. №1–2. Б. 2.

³ Гиргас В.Ф. Очерк грамматической системы арабовъ. – СПб, 1873. 147 с.



O'G'ILJON ABDUVALIYEVA

O'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU
ORCID ID: 0009-0009-0045-4110

Afg'oniston va Pokiston tilshunoslarining qo'shma so'zlar va kopulyativ qo'shma so'zlarga oid tadqiqotlari tahlili

Annotatsiya: Jahon tilshunosligida qo'shma so'zlar bo'yicha tarixdan hozirgacha jiddiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, kopulyativ qo'shma so'zlar G'arb va Sharq tilshunoslarining qator ishlarida ko'zga tashlanadi. Ammo, bu hodisaning mohiyati shu vaqtga qadar aniq belgilangani, bu masalada bir fikrga kelingani yo'q. Albatta, tasniflashdagi turlicha yondashuvlar, terminologik muammolar, foydalaniladigan mezonlarning bir xil emasligi kabi muammolar o'rganilayotgan til tabiati tufaylidir. Tilshunoslikda, ayniqsa, afg'on tilshunosligida kopulyativ qo'shma so'zlar masalasi ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir. Pashtu tilida qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning tarkibi, tasniflanishi, kopulyativ qo'shma so'zlar masalalari, Afg'oniston va Pokiston tilshunoslari tomonidan ham qator izlanishlar olib borilgan. Bunga Afg'oniston va Pokistonda chop etilgan pashtu tili grammatikasiga oid qator asarlar, darslik va qo'llanmalardagi so'z yasalishi masalalaridagi tegishli qismlarni misol qilib keltirish mumkin. Ammo bu masalada nazariy izchillik, maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q. Mazkur masalalar ba'zi sharqshunos olimlarning grammatik ocherklarida qisqacha ma'lumot sifatida uchraydi, lekin ular orasida mazkur mavzuning tahlili qisqa va o'ta umumiy tarzda qayd etiladi. Bu esa, o'z o'rnida, mazkur mavzuni alohida o'rganish zaruratini taqozo etdi. Mazkur maqolada mavzuga oid nazariy qarashlar tahlili va to'plangan faktik materiallar tasnifi asosida pashtushunoslar ilmiy asarlari hamda grammatik ocherklarida so'z yasalishining grammatika bilan o'zaro bog'liqligi, eng avvalo, yangi so'zlar yasashda va ba'zi bir grammatik shakllarni yasashda, aynan bir xil vositalardan foydalanilishi kuzatildi. Chunonchi, pashtu tilida old yoki ort ko'makchilar (predlog va postleloglar) – ham kelishik, ham affiks¹, ham kopulyativ bog'lovchi elementi vazifasini bajarmoqda. *ʼ*aw teng bog'lovchisi bir vaqtning o'zida kopulyativ element sifatida rol o'ynayapti. Ushbu hodisa so'z yasalishi va grammatika o'rtasidagi aloqalarni murakkablashtiradi. Fikrimizcha, bog'lovchilar va ular bilan takrorlanib kelayotgan komponentlar alohida bir guruh sifatida o'rganilishi yoki takror so'zlarning bir turi sifatida kiritilishi kerak.

Kalit so'zlar: qo'shma so'zlar, kopulyativ qo'shma so'zlar, interfiks, bog'lovchi element, takror so'z, model, lug'aviy bog'lama, sinonimik va antonimik xarakter.

Abstract: In world linguistics, serious research has been conducted on compound words from history to the present. In particular, copulative compound words are highlighted in a number of works by Western and Eastern linguists. However, the essence of this phenomenon has not yet been clearly defined, and there is no consensus on this issue. Of course, problems

¹ <https://morpashto.org/pashto-language/>



such as different approaches to classification, terminological problems, and the lack of uniformity in the criteria used are due to the nature of the language being studied. In linguistics, and especially in Afghan linguistics, the issue of copulative compound words is of both scientific and practical importance. The formation of compound words in Pashto, their composition, classification, and copulative compound words have also been the subject of a number of studies by linguists from Afghanistan and Pakistan. Examples include the relevant sections on word formation in a number of works on Pashto grammar published in Afghanistan and Pakistan, as well as textbooks and manuals. However, there is almost no theoretical consistency and special research on this issue. These issues are briefly mentioned in the grammatical essays of some orientalists, but among them the analysis of this topic is recorded briefly and in a very general way. This necessitated the need to study this topic separately in its place. This article, based on an analysis of theoretical views on the topic and a classification of the collected factual materials, has observed the interrelation of word formation with grammar in the scientific works and grammatical essays of Pashto scholars, first of all, the use of a variety of means in the formation of new words and the formation of certain grammatical forms. For example, in Pashto, prepositions and postpositions are both affixes and copulative connectives. Equal Connector *aw* also acts as a copulative element. This complicates the relationship between word formation and grammar. In our opinion, conjunctions and their recurring components should be studied as a separate group, or introduced as a type of repeated words (reduplicatives).

Key words: compound words, copulative compound words, interfix, connecting element, reduplicatives, model, lexical connection, synonymous and antonymic character.

Аннотация: В мировой лингвистике серьезные исследования сложных слов проводились с момента истории и до наших дней. В частности, копулятивные сложные слова освещаются в ряде работ западных и восточных лингвистов. Однако сущность этого явления до сих пор четко не определена, и единого мнения по этому вопросу нет. Конечно, такие проблемы, как разные подходы к классификации, терминологические проблемы, отсутствие единообразия в используемых критериях, обусловлены спецификой изучаемого языка. В лингвистике, и особенно в афганской лингвистике, вопрос копулятивных сложных слов имеет как научное, так и практическое значение. Образование сложных слов в пушту, их состав, классификация и копулятивные сложные слова также стали предметом ряда исследований лингвистов Афганистана и Пакистана. Примерами могут служить соответствующие разделы по словообразованию в ряде работ по грамматике пушту, изданных в Афганистане и Пакистане, а также учебников и пособий. Однако теоретической последовательности и специальных исследований по этому вопросу почти нет. Эти вопросы кратко упоминаются в грамматических очерках некоторых востоковедов, но среди них анализ этой темы зафиксирован кратко и в самом общем виде. Это вызвало необходимость отдельного изучения этой темы в своем месте. В данной статье на основе анализа теоретических взглядов на тему и классификации собранных фактических материалов прослеживается взаимосвязь словообразования с грамматикой в научных трудах и грамматических очерках пуштуистов, прежде всего, использование разнообразных средств при образовании новых слов и образовании определенных грамматических форм. Например, в пушту предлоги и послелоги являются как аффиксами, так и копулятивными связками. Равный



соединительный элемент *aw* также выступает в качестве копулятивного элемента. Это усложняет связь между словообразованием и грамматикой. По нашему мнению, союзы и их повторяющиеся компоненты следует изучать как отдельную группу, или вводить как тип повторяющихся слов (редупликативов).

Ключевые слова: сложные слова, копулятивные сложные слова, интерфикс, соединительный элемент, редупликации, модель, лексическая связь, синонимический и антонимический характер.

Pashtu tilida qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning tarkibi, tasniflanishi, kopulyativ qo'shma so'zlar masalalari, Afg'oniston va Pokiston tilshunoslari tomonidan ham qator izlanishlar olib borilgan. Bunga Afg'oniston va Pokistonda chop etilgan pashtu tili grammatikasiga oid qator asarlar, darslik va qo'llanmalardagi so'z yasalishi masalalaridagi tegishli qismlarni misol qilib keltirish mumkin. Ammo bu masalada nazariy izchillik, maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q. Masalan, pokistonlik pashtu tili olimi Sayid Taqvimul Haqning قواعِد پښتو *qawāido pašto* "Pashtu tili grammatikasi"¹ yoki Xiyol Buxoriyning د پښتو صرف او نحو *də pašto sarf aw nahw* "Pashtu tili morfologiyasi va sintaksisi"² kabi qo'llanmalarida garchi so'z yasalishi masalalariga e'tibor berilsada, ammo kopulyativ qo'shma so'zlar haqida hech qanday kuzatish ko'rinmaydi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash joizki, pashtu tilining ilmiy-nazariy grammatikasini birinchilardan bo'lib yaratgan olim Sidiqullo Rishtin Afg'oniston tilshunosligida ilk bor pashtu tilidagi qo'shma so'zlarning ta'rifi va tasnifini tegishli misollar asosida izohlashga harakat qilgan edi. Bu olim 1948-yilda yozilgan د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه *də pašto ištiqāquna aw tarkibuna* "Pashtu tilida so'z yasalishi va ularning tarkiblari" nomli asarida arab, fors, urdu, qisman Yevropa tilshunosligida so'z yasalishi masalalariga doir nazariy qarashlar asosida birinchilardan bo'lib pashtu tili lug'ati tarkibi, tub va yasama so'zlar, o'zlashmalar va juftlashgan so'zlar haqida fikr yuritgan edi. Uning bu asari Afg'onistonda Kobul universitetining pashtu tili va adabiyoti bo'limi talabalari uchun pashtu tilida so'z yasalishi bo'yicha asosiy o'quv qo'llanma sifatida uzoq yillar amalda qo'llanilib kelingan va u bir necha bor qayta nashr ham etilgan³. Rus olimi R.R. Sikoyev S. Rishtinning bu asarini garchi yetarlicha va keng miqyosdagi tadqiqiy monografik asar darajasiga yetib bormaganligini eslatib o'tsa-da, lekin uni juda boy faktik til materiallarini qamrab olganligini ta'kidlagan edi⁴. S.Rishtin ushbu qatorda urdu va fors olimlarining fikrlariga asoslanib pashtu tilidagi so'z birikmalari yasalishi, ularning morfologik, sintaktik, leksik-semantik xususiyatlari haqida qator nazariy fikrlarni o'rtaga tashlaydi. Jumladan, S. Rishtin Abdulhaqning قواعِد اردو *qawāido urdu* "Urdu tili grammatikasi" nomli qo'llanmasini o'rganar ekan, qo'shma so'zlar urdu

1. سيد تقويم الحق. قواعد پښتو. پېشاور، ۱۹۵۳.

2. خيل بخارى. د پښتو صرف او نحو. پېشاور، ۳۵۸ ص.

3. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه. کابل، ۲۰۰۴.

4. Р.Р. Сикоев, Именное словообразование в современном литературном языке пушту, Автореферат диссертации, – М., 1967. – С.3.



tilida ikki turdan iborat ekanligini keltirib o'tadi: 1) bog'lovchi element boshqa so'zga qo'shilishi va o'ziga xos ma'no hosil qilishi mumkin; 2) ikki alohida ot yoki biri ot ikkinchisi sifat, yoki biri ot ikkinchisi fe'l, sifat + fe'l bilan qo'shilishi orqali qo'shma so'z hosil bo'lishi izohlanadi¹.

Shuningdek, olim, fors tilida qo'shma so'zlar qay darajada yasalişida ham to'xtalib o'tadi va bunda Mirzo Alirizo Sheroziyning مخزن القواعد *makhzanul qawāid* "Grammatika xazinası" kitobida qo'shma otlar yasalişini keltirib o'tadi: 1) ikki xil ot turkumiga tegishli so'z qo'shilishidan (شېنم، خارپشت); 2) ikkinchi ma'nosini nomidan kelib chiqqan holda (مرز و بوم – زیب و زینت); 3) ikki alohida otlar bog'lovchi vositasida qo'shilishi natijasida (آب و هوا); 4) ismdan oldin son kelsa (هزار پا، چار پا)².

Ammo S.Rishtin so'z yasalişiga doir ta'rif har bir tilning grammatikasida turlicha berilganligini, xususan, arab, somi va yana bir qancha tillarda ta'riflarda biroz farq borligini kuzatadi³ va umumiy qilib oriy tili grammatikasida qo'shma so'zlar haqida quyidagi nazariy fikrni bayon etadi: "Oriy tillarida ba'zi harf va elementlar borki, ular so'z yasash yuklamalari hisoblanadi hamda ularning vositasida so'zlarning qismlari va ma'nolari o'zgaradi"⁴.

S.Rishtin pashtu tilida ikki mustaqil so'z o'rtasida bog'lovchi elementining kelishi uchun *aw* orttirilishi kerak⁵, deb hisoblaydi. Shuningdek, u qo'shma ot bo'limida pashtu tilidagi so'zlarning qo'shilish tartibi strukturasi ikki turi borligiga izoh keltirgan. Birinchi katta guruhda ikki alohida otning qo'shilishi ikki xil usulda yasaliş talqin etilgan: 1) ikki so'z o'rtasida *da* izofali bog'lovchisi (اضافي ارتباط *izāfi irtibot*) mavjud bo'ladi yoki tushib qoladi (masalan: *da čərg bang* «xo'rozning qichqirishi», «tong», «sahar» ma'nolarida; *budey tal* «qariya arg'imchog'i», «kamalak» ma'nolarida); 2) ikkala so'zning o'rtasida *da atfi irtibāt* «bitishuv munosabat» bo'ladi va u *atfi murakab* deb nomlanadi. Bu yasaliş usuli ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi: *brinçhisida* ikki komponent o'rtasidagi *da atfi tori* «bog'lovchi harf» – tushib qoladi⁶: *şna zarğuna* «kamalak» (so'zma-so'z: *şna* «ko'k», *zarğuna* «yashil»), *marg jwak* «tirik» (so'zma-so'z: *marg* «o'lik», *jwak* «tirik»). Ushbu misollardagi komponentlar orasida aslida "aw bog'lovchisi" bo'lgan, lekin vaqt o'tib leksikalizatsiya natijasida tushib qolgan⁷. Ikkinchi guruhda esa olim quyidagi misollarni keltirish bilan cheklanadi: *nar-u-şadza* "barcha" (so'zma-so'z: *nar* "erkak", *şadza* "ayol"), *sar-u-sāmān* "mulk" (so'zma-so'z: *sar* "bosh", *sāmān* "narsalar"), *şpa-u-wradz* "tun-u kun", "sutka" (*şpa* "tun",

1. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۴۶.

2. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۴۶.

3. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۴۷.

4. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۴۹.

5. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۴۵.

6. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۱۴۰.

7. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص. ۱۴۱.



ورخ *wradz* 'kun'). Uning fikricha, ikkinchi katta guruh esa bir komponenti ot, ikkinchi komponenti sifatdan tashkil topgan qo'shma so'zlardir¹.

S.Rishtinning qo'shma ot bo'limida pashtu tilidagi qo'shma otlar ma'no munosabatiga ko'ra turli turlarga, ya'ni possessiv, kopulyativ va determinativ tiplarga bo'linganligini kuzatish mumkin. Ammo bu olim ham zikr etilgan terminlarning hech birini ishlatmagan. Lekin uning keltirgan misollarida aynan determinativ, kopulyativ, possessiv qo'shma so'zlar aniq kuzatiladi.

S.Rishtin qo'shma fe'llar va ularning yasalishi bo'limida qo'shma fe'llarni 8 turga bo'lib o'rgangan, bunda qo'shma fe'llar *kawəl* «qilmoq», «bajarmoq» yoki *kedəl* «bo'lmoq» yordamida tuzilishi talqin etilgan².

Ushbu turlardan 5-turiga bizning ishimizga taalluqli bo'lganligi uchun qolgan turlarga to'xtalib o'tishni lozim topmadik. 5-turda olim *kawəl* va *kedəl* modellariga aloqador misollarni keltirish bilan cheklangan. Jumladan, u *kawəl* «qilmoq», «bajarmoq» fe'llari ishtirokida yasalgan qo'shma birikmalar, shu jumladan fe'liy kopulyativ frazeologik birikmalarga misol qilib quyidagilarni keltiradi:

مخه بنه كول، تور بر پيش كول، راشه در شه كول، لپ پلپ كول، خواره واره كول، بي پردې كول، بي لاری كول، خوابدی كول، بيخونده كول، نا پوهي كول، تر لاسه كول، پر خای كول، ترمخ كول، ترمي ترمي كول، دري دري كېدل، په يوه خوله كېدل.

Shuningdek, *kedəl* masdarlaridan oldin ikkidan ortiq komponent ishtirok etishi holatlari bilan bog'liq quyidagi misollarni keltiradi:

تار پتار كېدل، پوري راپوري كېدل، پس پس كول، را په زره كول، لاندې باندې كېدل، هغه دغه كول.

Ushbu misollardagi *kawəl* yoki *kedəl* masdarlaridan oldin ikki komponent o'rtasida possessiv, kopulyativ va determinativ munosabatlardan tashqari, bir komponentning takrorlanishini ham kuzatish mumkin.

Qo'shma sifatlar esa 4 guruhga bo'lib o'rganilgan bo'lib, manbada keltirilgan misollar orasida possessiv va determinativ munosabatli qo'shma sifatlar sermahsulligi kuzatiladi, ammo kopulyativ aloqaga ega qo'shma sifatlarning esa bu qo'llanmada uchramadi³.

So'zlarning takrorlanishi (*takrāri kalime*, ya'ni reduplikativ hodisasi) bo'limida komponentlar *ā*, *tār*, *pə*, *nā*, *rā* kabi bog'lovchilar bilan bog'lanib, ba'zida bir ma'no uchun, ba'zida yangi ma'no uchun xizmat qilishi kuzatildi, jumladan, quyidagi takroriy birikmalarda⁴:

پت راپت، مات رامات، ورك را ورك، تله راتله، تگ راتگ، پيش را پيش، بنه نا بنه، جور نا جور، روغ ناروغ، مېلمه نا مېلمه، تېل نا تېل، بلد نا بلد، تير په تير، هير په هير، شا په شا، خوا په خوا، خنگ په خنگ، سر په سر، لاس په لاس، تار په تار، خوله په خوله، لور په لور، مخ په مخ، غير په غير، خوله تر خوله، لاس پر لاس، مخامخ، شواشو، د بادب.

1. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص- ۱۴۳.

2. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص- ۱۴۵.

3. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص- ۱۴۸.

4. ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او تركيبونه. كابل، ۲۰۰۴. ص- ۱۶۱.



Ushbu misollardan ma'lum bo'ladiki, oldingi faslda ko'rib o'tilgan ingliz olimi E.Trumppning (کوراکور *kōr-ā-kōr* «uyma uy», *šār-pə-šār* «shaharma shahar») ¹ komponentlar takrori orqali keltirgan misollari kopulyativ qo'shma so'zlar emas, balki takror so'zlardir. Z.M. Kalininaning (مخا مخا *məḵ-xā-məḵh* “yuzma-yuz”, “ro'parasida”, “qarshisida”, رنگارنگ *rang-ā-rāng* “turli-tuman”) ² keltirgan misollarida esa aksincha, yangi ma'no hosil bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu masalaga batafsil ikkinchi bobda alohida to'xtalib o'tamiz. So'zlarning takrori masalasi S.Rishtinning «Pashtu tili grammatikasi» ³ nomli kitobida keng yoritilgan.

Afg'onistonda purizmga intilish asosan affiksatsiya va qo'shma so'z yasash usuli bilan pashtu tilida kopulyativ xarakterga ega bo'lgan katta miqdordagi neologizmlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi ⁴.

N.A. Dvoryankovning ta'kidlashicha, puristik tendensiya, ayniqsa, Lal Muhammad Kokar va Abdulhay Xabibining سپیڅیلی پښتو *specile pašto* “Sof pashtu” va Muhammad Gul Momandning پښتو سیند *pašto sind* “Pashtu ummoni” kabi Afg'onistonda chop etilgan leksikografik qo'llanma va lug'atlarda o'z aksini topgan. Masalan: لاس لیک *laslik* “imzo” (fors. دست خط, arab. امضا) ⁵.

Bunday neologizmlarga misol sifatida eroniy va arab tillaridan kirib kelgan so'zlarni birin-ketin siqib chiqarayotgan: روغتون *roġtun* “shifoxona”, مېلمندزای *melmāndzay* “mehmonxona”, پالنه او روزنه *pālāna aw rōzāna* “ta'lim va tarbiya” so'zlarini ko'rsatish mumkin.

Demak, hozirgi paytda, ikkita tendensiya aniq kuzatiladi: bir tomondan, bir qator neologizmlarni yaratib, pashtu tilini chet el o'zlashmalaridan, asosan, arabiy o'zlashmalardan tozalashga harakat bo'lsa, ikkinchi tomondan, pashtu tilini G'arbiy Yevropa tillaridan o'zlashmalar–o'ziga xos terminlar, yangi tushunchalar va voqeliklar bilan bog'liq bo'lgan atamalar bilan tinimsiz boyib borish jarayoni kuzatilmoqda ⁶.

Purizmni yoqlovchi afg'on tilshunoslaridan biri Mujovir Ahmad Ziyodir. Ziyor barcha chetdan kirib kelgan terminlarni o'zi o'ylab topgan terminlarga o'zgartiradi, pashtunlashtiradi ⁷. Professorning yangi terminlari iliq qarshi olinmadi va bu haqda uning o'zi quyidagicha fikr bildiradi: “sinovdan o'tgan usuldan voz kechish va yangi

¹ E. Trumpp., Grammar of the Pashto or language of the Afghan. – London, 1873. – P.52.

² Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – Москва, 1972. – С.75.

³ ص. رښتین. پښتو ګرامر. پېښور، ۱۹۹۴. ص- ۷۱

⁴ Abduvaliyeva O'.Sh. Theoretical Approaches of Afghan Linguists on the Classification of Compounds and Copulative Compound Words. Texas Journal of Philology, Culture and History (TJPC). Publishers Impact factor (SJIF) = 6.956. <https://zienjournals.com>. ISSN NO: 2770-8608. Peer Reviewed International Journal. Volume 16, – Texas, USA. 2023. – P.3.

⁵ Дворянков Н.А. Язык пушту. – М., 1960. – С.30.

⁶ А. Маннонов, А. Куронбеков., Ҳозирги пушту тили лексикологияси, (Ў.Қ) – Т., 2013. – 142 б.

⁷ Мерганов С. Новые слова в современном литературном языке пашту 60–80 гг. – Душанбе, 1995. – С.86.



yo'l tanlash, oson emas, ayniqsa, eski atamalardan voz kechib, tadqiqotning yangi usullari va qoidalaridan foydalanadigan yagona shaxs – ya'ni men uchun!"¹.

M.A. Ziyorning 2005-yilda Oksfordda chop etilgan pashtu tili grammatikasiga bag'ishlangan kitobi afg'on tilshunosligida terminlarning yangilanganligi, mushkulligi sababli iliq qarshi olinmasa-da, tasniflashda, yangi terminlar qo'llanilishi va ularni pashtu tili grammatikasiga olib kirishi diqqatga sazovordir. Buni birgina qo'shma so'zlarning tasnifida ko'rishning o'zi yetarli. M.Ziyor qo'shma so'zlarni 3 turga ajratib (*karwalgunduna jora* "kopulyativ", *karwalgunduna jakand* "determinativ" va *gabargun* "reduplikativ"), ushbu turlarga izohsiz misollar berib ketish bilan kifoyalanadi². Xususan, uning asarida keltirilgan kopulyativ turga oid misollaridan (نن سیا، نن پرون، لاندې باندې، وړاندې ووروسته، مخ وخت، غاره غری، دلته) هلته، دلي هلي، لري نژدي، لروبر، سبا بېگا، سهار ماينام، شپه او ورځ، اوړی او ژمی، لور و ژور/خور، كېنټه پورته، دننه د باندې، وخت نا وخت، ارت و بېرت، توند و تيز، لرو دېر، كورټ و سكوت، ټينگ و تړينگ، خواربېوزله (ستړی ستومان، زور زهير، خواربېوزله) quyidagicha xulosaga kelish mumkin, ya'ni:

- kopulyativ qo'shma so'zlar bog'lovchili va bog'lovchisiz turlarga bo'linadi;
- ikkala turning tarkibiy qismlari antonimik va sinonimik xarakterga ega;
- misollarda ravish + ravish modeli ustunlik qiladi;
- misollarda *o* interfiksidan tashqari *aw*, *da*, *na* kabi kopulyativ elementlarni ham uchratish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, M.Ziyor kopulyativ qo'shma so'zlar, kopulyativ frazeologik birliklar va erkin kopulyativ so'z birikmalarini aralash holda bir guruh ichida keltiradi va aniq tasnifini bermaydi.

Ushbu modeldagi misollar 1981-yilda M.Ziyor tomonidan *jora*³ *tarhibuna* "juft bog'lanishlar" nomi ostida keltirilgan, bunda ot+ot=ot modeli boshqa modellarga (sifat+sifat=sifat, ravish+ravish=ravish) qaraganda ancha ustunlikka ega ekanligini kuzatish mumkin.

M.Ziyor pashtu tilida kopulyativlar *tarali* "bog'lovchili" (عظفي) va *natrali* *natarali* "bog'lovchisiz" (ناعظفي) turlariga ega ekanligi haqida aytib o'tadi⁴. S.Rishtin kabi u ham ikki komponent o'rtasida ishtirok etadigan bog'lovchilarga yuklamalar (*adwat* ادوات) bo'limida to'xtalib o'tadi va quyidagi izohni keltiradi: "Arab va fors tillariga ko'ra "حروف عطف" *huruf atf* deb nomlanuvchi bog'lovchi elementni pashtu tilida mos ravishda "تروييكي (د عطف توري)" *tarwiki* deb nomladik, bunda ikki komponent *aw* yoki *u*, *o* bilan birga qo'shiladi"⁵.

1. مجاور احمد زیار. پښتو پښویه. کابل، ۱۹۷۳.

2. مجاور احمد زیار. پښتو پښویه، اکسفرد، ۲۰۰۵. ص. ۲۴۰.

3. مجاور احمد زیار. وېي پوهنه، کابل، ۱۹۸۱. ص. ۲۷۸.

4. مجاور احمد زیار. پښتو پښویه، اکسفرد، ۲۰۰۵. ص. ۲۵۷.

5. مجاور احمد زیار. پښتو پښویه، اکسفرد، ۲۰۰۵. ص. ۲۰۲.



M.Ziyorga ko'ra, *aw* yoki *u*, *o* bog'lovchilari sinonimlardir. Fonetik jihatidan *aw* ikki komponent o'rtasida kelganda zaif bo'lsa, *u*, *o* unlisi (vokalizatsiya) shaklida jaranglaydi: *mor-u-plār* "ota-ona", *khōr-u-wrōr* "qarindoshlar".

aw zaif emas, kuchli bo'lsa, unda komponentlarni bog'lashda quyidagicha ko'rinishda bo'ladi: *kākā aw māmā* "amaki va tog'a", *šə aw bad* "yaxshi va yomon".

Shuningdek, *aw* sintaktik aloqaga ega *u*, *o* esa, bir lug'aviy bog'lama.

Qo'shma so'zlarga qisman to'xtalib o'tgan afg'on tilshunoslaridan Qozi Rahimullaxon pashtu tilidagi qo'shma fe'llar *kawəl* yoki *kedəl* fe'llariga sifat va otlar qo'shish orqali yasalishiga to'xtalib o'tadi va shu modellarga doir bir qancha misollar keltiradi¹.

Qo'shma so'zlar bo'yicha qator ma'lumotlarni Akbar Ali, Muhammad Yasir Khan, Bilal Khanning ingliz tilida chop etilgan "Pashtu tilida qo'shma so'zlar: qo'shma so'zlar tahlili va murakkab qo'shma sifat" mavzusiga bag'ishlangan maqolasida kuzatish mumkin. Chunonchi, ushbu maqolada pashtu tili grammatikasida standart yetishmasligi, bir qancha olimlar tadqiqot olib borgan bo'lsalar-da, ayniqsa morfologiya qismi keng ko'lamda o'rganilmaganligi haqida fikr yuritiladi². Qo'shma so'zlar borasida esa ikki va undan ortiq elementdan tashkil topgan so'z ta'rifi keltiriladi. Shuningdek, sintetik birikmaga yangi qo'shma so'z hosil qilishda bir vaqtning o'zida qo'shma so'z va derivatsional morfologiyadan foydalanish deb qaralishi aytib o'tilgan va bunda ular ingliz olimlari G. Booij³, I. Plag⁴ ning ingliz tili grammatikasiga doir tadqiqot ishlariga havola berishgan. Qo'shma sifatlar bo'limida esa quyidagi modellar tahlilga tortilgan⁵: ot+sifat=sifat; sifat+sifat=sifat; ot+ot=sifat; ot+fe'l=sifat kabi.

Pashtushunoslar ilmiy asarlari hamda grammatik ocherklarida so'z yasalishining grammatika bilan o'zaro bog'liqligi, eng avvalo, yangi so'zlar yasashda va ba'zi bir grammatik shakllarni yasashda, aynan bir xil vositalardan foydalanilishlari kuzatildi. Chunonchi, pashtu tilida old yoki ort ko'makchilar (predlog va posleloglar) – ham kelishik, ham affiks⁶, ham kopulyativ bog'lovchi elementi vazifasini bajarimoqda. *aw* teng bog'lovchisi bir vaqtning o'zida kopulyativ element sifatida rol o'ynayapti. Ushbu hodisa so'z yasalishi va grammatika o'rtasidagi aloqalarni murakkablashtiradi.

¹ Qazi Rahimullah Khan., Introduction to pushtu. New York. 2002. – P.70.

² Akbar Ali, Muhammad Yasir Khan, Bilal Khan. Compounding in Pashto: An Analysis of Compound and Compound-Complex Adjectives. Global Language Review (GLR). Vol: II (2017). DOI: 10.31703/glr.2017(II-I).08. – P.107.

³ G. Booij. The grammar of words: An introduction to linguistic morphology, 2nd edition. Oxford University press. Oxford. 2007. – P.90.

⁴ I. Plag. Word formation in English. New York: Cambridge University Press. 2003.

⁵ Akbar Ali, Muhammad Yasir Khan, Bilal Khan. Compounding in Pashto: An Analysis of Compound and Compound-Complex Adjectives. Global Language Review (GLR). Vol: II (2017). DOI: 10.31703/glr.2017(II-I).08. – P.108.

⁶ <https://morpashto.org/pashto-language/>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akbar Ali, Muhammad Yasir Khan, Bilal Khan. Compounding in Pashto: An Analysis of Compound and Compound-Complex Adjectives. Global Language Review (GLR). Vol: II (2017). DOI: 10.31703/glr.2017(II-I).08. – P.108.
2. E. Trumpp., Grammar of the Pashto or language of the Afghan. – London, 1873. – P.52.
3. G. Booij. The grammar of words: An introduction to linguistic morphology, 2nd edition. Oxford University press. Oxford. 2007. – P.90.
I. Plag. Word formation in English. New York: Cambridge University Press. 2003.
4. Qazi Rahimullah Khan., Introduction to pushtu. New York. 2002. – P.70.
5. Abduvaliyeva O‘.Sh. Theoretical Approaches of Afghan Linguists on the Classification of Compounds and Copulative Compound Words. Texas Journal of Philology, Culture and History (TJPCH). Publishers Impact factor (SJIF) = 6.956. <https://zienjournals.com>. ISSN NO: 2770-8608. Peer Reviewed International Journal. Volume 16, – Texas, USA. 2023. – P.3.
6. А. Маннонов, А. Куронбеков., Ҳозирги пушту тили лексикологияси, (ў.к) – Т., 2013. – 142 б.
7. Дворянков Н.А. Язык пушту. – М., 1960. – С.30.
8. Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – Москва, 1972. – С.75.
9. Мерганов С. Новые слова в современном литературном языке пашту 60–80 гг. – Душанбе, 1995. – С.86.
10. سيد تقويم الحق. قواعد پښتو. پېشاور، ۱۹۵۳.
11. خیل بخاری. د پښتو صرف او نحو. پېشاور، ۳۵۸ ص.
12. ص. رښتین. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه. کابل، ۲۰۰۴.
13. ص. رښتین. پښتو ګرامر. پېښور، ۱۹۹۴. ص- ۷۱
14. مجاور احمد زیار. پښتو پښویه. کابل، ۱۹۷۳.
15. ۲۰۰۵. ۲۴۰ ص اکسفر د، احمد زیار. پښتو پښویه مجاور
16. مجاور احمد زیار. وېي پوهنه. کابل، ۱۹۸۱. ص-۲۷۸.
17. <https://morpashto.org/pashto-language/>

САОДАТ АХМЕДОВА

Свободный соискатель, ТГУВ

Семантическая классификация слова «любовь»
в арабском языке

Annotatsiya. Maqolada arab tilidagi “sevgi” so‘zining semantik tasnifi ko‘rib chiqiladi, kontekstga qarab uning turli ma’no va ma’nolari tahlil qilinadi. Madaniy va ijtimoiy jihatlar ushbu so‘zni idrok etish va ishlatishga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Mualliflar asosiy semantik sohalarni, jumladan, romantik, platonik, oilaviy va do‘stona sevgini ajratib ko‘rsatishadi, shuningdek, so‘zning semantik maydonini boyitgan sinonim va antonimlarni



ko'rib chiqadilar. Bu sohada arab lug'at boyligini ko'rsatish uchun adabiyot va so'zlashuv nutqidan misollar keltiriladi. Asar arab tilidagi "sevgi" so'zining ma'nosini va uning turli ko'rinishlarini chuqur anglash uchun madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.

Maqolada, shuningdek, asarlar mualliflarining sevgi bilan bog'liq his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini yetkazishning uslubiy va ritorik usullari tahlil qilinadi. Mintaqaviy lahjalar va ijtimoiy guruhlardagi farqlar so'zni idrok etish va qo'llash, shuningdek, uning hissiy ma'nosiga qanday ta'sir qilishni tasvirlaydi. Bundan tashqari, arab tilidagi ishq semantikasiga diniy-falsafiy tushunchalarning ta'siri o'rganilib, ishqni ma'naviy hodisa sifatida tushunish va uning rahm-shafqat, tushunchalari bilan bog'liqligi o'rganiladi. Xulosa qilib aytganda, mualliflar "sevgi" so'zi arab madaniyatidagi insoniy his-tuyg'ular va munosabatlarning xilma-xilligini qanday aks ettirishini yaxshiroq tushunish uchun ushbu sohada keyingi tadqiqotlar muhimligini ta'kidlaydilar. Maqola arab tilidagi asosiy tushunchalarni chuqurroq anglash orqali leksikologiya va madaniyatshunoslikka hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: semantika, tasnif, sevgi, kontekst, madaniy jihatlar, his-tuyg'ular, mintaqaviy shevalar, hislar, madaniyatlararo muloqot.

Husayn Boyqaro portreti	<i>Yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'x tabiatini ham ifodalalar edi...</i>	<i>Şahin gözleri oldukça çekikti. Bu gözler güçlü bir irâde ve zeka sahibi olduğunu gösterecek şekilde yuvaları içinde sürekli oynuyordu.</i>	<i>İri, çekik, keskin bakışlı gözleri irade ve ince bir hilekârlıkla beraber mütereddit ve şuh tabiatını da ifade ediyordu.</i>
To'g'onbek portreti	<i>Qisiq ko'zlari ayyorcha beqaror</i>	<i>Çekik gözleri oldukça kararsızdı</i>	<i>Kısıq hilekar gözleri hareketli</i>

Asarda Alisher Navoiyni ijobiy qahramon sifatida ta'riflagan muallif shoirga nisbatan "qiyg'och ko'zlar", Husayin Boyqaroni sho'h tabiat ekanligini ta'riflash uchun "qiyiq ko'zlar", To'g'onbekni ayyor, hiylakor ekanligini ta'riflash uchun "qisiq ko'zlar" bilan sifatlagan. Turkcha tarjimada esa birinchi tarjimon barcha qahramonlarga xoh u salbiy bo'lsin, xoh ijobiy barchasiga bir xil "çekik", ya'ni "qiyiq" so'zini qo'llagan. Ikkinchi tarjimon SH. Qoraqosh esa "çekik" va "kısıq" so'zlaridan o'rinli foydalangan.

Qahramonlar portret-tavsiflari tasvirining tarjimada talqini tarjimashunoslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. Badiiy asarlarda yaratilgan portret-xarakteristikalarda personajlarning birgina tashqi ko'rinishi, kiyinishi orqali uning qaysi millatga, tabaqaga, jinsga mansubligi ifodalanishi bilan birga qahramonning asarda tasvirlanayotgan voqelikka munosabati, kayfiyati botiniy olamida kechayotgan sokinlik yoki qarama-qarshiliklar tug'yoni, kurashi o'z aksini topadi. Oybekning "Navoiy" romanida

¹ Qiyg'och ko'z – qisiq yoki suzuk ko'z.



asarning badiiy-spesifik xususiyatlari talablaridan kelib chiqilgan holda portret-xarakteristikalariga keng o‘rin berilgan.

M: *“Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib borgan, qoboriq ko‘krakli, keng yog‘rinli, miqti gavdali edi. Yirik, qiyiq, o‘tkir qarovchi ko‘zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho‘x tabiatini ham ifodalar edi, boshida yirik gavharlar qadalgan qorako‘l qalpoq, egnida yoqasi oltin gullar, qimmatbaho toshlar, rang-barang porlagan qizil abrishim to‘n, enlik kamarida oltin qubbachalar, yirik gavharlar, Badaxshonning asl la‘li yoqutlari olovlanar edi”* [Na, 49].

A.Botur tarjiması: *Hüseyin Baykara belden üst tarafı biraz fazla gelişmiş, geniş omuzlu ve oldukça adaleli tıknaz biriydi. Şahin gözleri oldukça çekikti. Bu gözler güçlü bir irâde ve zeka sahibi olduğunu gösterecek şekilde yuvaları içinde sürekli oynuyordu. Baykara bundan başka rahat ve yakışıklı bir simaya sahipti. Başına parlak mücevherlerle süslü karakul kalpak giymiş, sırtında ise yakası altın güller, kıymetli taşlarla rengarenk parıldayan kırmızı ibrişim bir don vardı. Enli kemerinde altın kubbecikler, kesme cevherler ve Badahşan’ın hakiki la‘l ve yakutları parlayıp duruyordu* [Ne1, 41].

Sh.Qoraqosh tarjiması: *Hüseyin Baykara belinden yukarısı genişleyen kabarık göğüslü, geniş omuzlu, tıknaz vücutlu biriydi. İri, çekik, keskin bakışlı gözleri irade ve ince bir hilekârlıkla beraber mütereddit ve şuh tabiatını da ifade ediyordu. Başında ir mücevherler kakılmış Karaköl kalpak, sırtında yakası altın güller ve kıymetli rengarenk taşlar parlayan kızıl ibrişim kaftan. Enli kemerinde altın kabaralar, iri mücevherler, Bedehşan’ın asil la‘l ve yakutları alevleniyordu* [Ne2, 62-63].

M. Salye tarjiması: *“В глубине комнаты на престоле восседал Хусейн Байкара. Это был широкоплечий, плотно сложенный человек с выпуклой грудью и расширявшейся кверху фигурой. В больших раскосых глазах, наряду с силой воли, отражались непостоянство, живость и веселость характера. На голове у хакана была каракулевая шапка, унизанная крупным жемчугам, на плечах – красный парчевый халат с воротником, расшитым золотом и ярко сверкающими драгоценными камнями. На широком поясе горели золотые вышивки, крупные жемчужины, бесценные бадахшанские рубины яхонты”* [Ha1, 44].

P. Slyotov tarjiması: *“Хусейн Байкара был широкоплечий, плотно сложенный человек с выпуклой грудью и расширявшимся кверху станом. В больших раскосых глазах, поразительно смотревших глазах наряду с силой воли и лукавством, читалось непостоянство, живость и веселость характера. На голове султана была каракулевая шапка, унизанная крупным жемчугам, на плечах – красный парчевый халат с воротником, расшитым золотыми цветами и ярко сверкающими драгоценными камнями. Широкий пояс горел золотой вышивкой, крупными жемчугами, бесценными бадахшанскими рубинами и яхонтами”* [Ha2, 32].



Tarjimalarning tahlili: Asarda Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro portretlari muhim o‘rin egallaydi. Muallif bunga alohida e‘tibor bergan. Husayn Boyqaro portretini yaratgan ekan, uni bir tarixiy shaxs sifatida tarixiy faktlarga tayangan holda tasvirlaydi. Rus tarjimonlari tarjima matnida Husayn Boyqaro nomini qayta-qayta takrorlashni istamagan holda matnda uni turlicha berishga harakat qiladilar. Masalan, M. Salye Husayn Boyqaroni *хакан* deb atasa, P. Slyotov *султан* deb o‘giradi. Turk tarjimonlari A. Botur bir tasvirning o‘zida bir yerda “*Şah*”, yana bir yerda “*Baykara*” so‘zlaridan foydalanishni ma’qul ko‘rgan bo‘lsa, aksincha Sh. Qoraqosh esa, katta jumlada faqatgina bir bora Husayn Boyqaro ismini keltirgan. Shoh Temuriy shahzodalarga xos jasorat, mardlik, g‘urur va kibr yaqqol seziladi. Qolaversa, unda kayfu-safoga moyillik yuqori. Masalan, uning portreti: “Yirik, qiyiq, o‘tkir qarovchi ko‘zlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho‘x tabiatini ham ifodalar edi” jumlasida biroz yengil tabiatga moyil qilib tasvirlagan. Muallif sultonning portretida uning egnida “rang-barang porlagan qizil abrishim to‘n” deb ta‘rif bergan. Badiiy tarjimada milliylikni berishda tarjimonlarning katta muammosi ularni turli yo‘llar bilan tarjima qilishga yo‘l izlashlaridadir: biri xos so‘zlar bilan tarjima qilsa, boshqasi transliteratsiya yo‘li bilan berib, izoh qoldiradi, yana boshqasi esa muvaffaqiyatsiz tarjimani amalga oshirib qo‘yadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *abrishim* – *ipak, ipak gazlama, shoyi; shu gazlamadan tikilgan kiyim*¹, deb yozilgan. Turk tarjimonlari “Abrishim” so‘ziga nisbatan “ibrişim” so‘zini qo‘llagan. Tarjimonlar yuqoridagi fors tilidan kirib kelgan “abrishim” so‘zining ekvivalentini qo‘llagan holda o‘rinli tarjima qilgan.

Ukrain yozuvchisi va tarjimoni Aleksey Kudzich² ta‘kidlaganidek: “Tarjimon o‘zga milliy olam ichiga qorishib ketishi, uni o‘ziga singdirib olishi, o‘z qalbidan joy olgan san‘at asarini yaratgan yurt muhibiga aylanishi kerak. Tarjimon o‘z xalqini boshqa bir xalq bilan tanishtirar ekan, uning o‘zi ham o‘sha xalqning vakili bo‘lib qoladi, aks holda, muallif unga o‘zining barcha hislari, fikrlarini, asl nusxada o‘z ifodasini topgan yuksak ruh va jo‘shqinlikni ishonib topshirmasligi mumkin”.

Xulosa. Badiiy asar tarjimasida personaj portretini bera olish tarjimonning mahoratiga tayanadi. Chunki qahramonga berilayotgan ta‘rif shu obrazning tashqi ko‘rinishi haqida ma‘lumot berib, qisman ularning fe‘l-atvorini ham sifatlashga qaratilgan bo‘ladi. “Navoiy” romanida adib qahramon portretini chizar ekan, ularning tashqi qiyofasiga, liboslariga jiddiy qaraydi. Personaj portretini yaratgan muallif, o‘sha qahramonga nisbatan ijobiy yoki salbiy obraz yaratishga harakat qiladi. Tarjimada portretning to‘laqonli aks ettirilmasligi esa milliylikning noto‘g‘ri talqin etilishiga sabab bo‘ladi.

Qayta yaratilgan portret tasvirining milliy-madaniy vazifasi tashqi ko‘rinishi orqali personajlarning milliy xarakteri, qaysi millatga mansubligini ochib beradi. Portretning badiiy vazifasi turli tasvir vositalari orqali aslyat tilining badiiy xususiyatlarini namoyish etadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти 2006 й. – Б. 28.

² Кудзич О. Слова и образ. М.: СП.1973. – С. 55.

**SHARTLI QISQARTMALAR**

[Na] – Oybek, Navoiy, roman, / “Asr oshgan asarlar” turkumi// Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: “Sharq”, 2004, – 496 b.

[Ne1] – Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995.

[Ne2] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.

[H1] – Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского М. А. Салье, стихи в переводе В.А.Липко. Худож. А.Гуламов. –Ташкент: Ёш гвардия, 1984. –376 с.

[H2] – Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского под ред. П.Слетова. –Л.: Советский писатель. 1946. – 376 с.

MANSUR JUMANIYAZOV

Tayanch doktorant, TDSHU

0009-0009-0267-6462

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida keltirilgan she’riy baytlar va maqollar

Anotatsiya. Arab tili grammatikasida mashhur asarlardan hisoblangan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asari o’zgacha uslubda yozilgan bo’lib, ta’rif va qoidalarni dalillashda avval murakkab bo’lmagan ot kesimli yoki fe’l kesimli gaplardan foydalangan. Qoidalarning ma’lum qismi oydinlashgandan keyin Qur’oni karim oyatlari misol sifatida keltirila boshlagan. Mavzuning boshqa murakkab yoki nozik taraflarini yoritishda she’riy baytlar va arab maqollaridan foydalangan. Olim she’riy baytlarni ko’pincha tilshunoslar orasida bahsli bo’lgan qoidalarni tushuntirishda keltirgan. Asarda umumiy uchta qismda 143 ta o’rinda arab mumtoz she’rlaridan va arab maqollaridan foydalangan.

Olim mavzularni yoritishda arab maqollaridan kam foydalangan bo’lsa ham, eng dolzarb va muhim bo’lgan o’rinlarda yuksak mahorat bilan qo’llagan. Maqolaning “Ism bobi”da ega va kesimning turli xil holatlarda tushib qolishi va moslashmagan aniqlovchilarning kelishiklari va oddiy datajadagi sifatlar va ortirma darajadagi sifatlar hattoki ko’rsatish olmoshlarining xususiyatlarini ochib berishda she’riy baytlardan foydalangan. “Fe’l bobi”da yordamchi fe’llar va gumonni ifoda qiluvchi fe’llarning gapda otlarni tushim kelishigida boshqarishiga doir masalalarni yoritishda she’riy baytlar o’z o’rinda qo’llanilgan. “Old ko’makchilar” qismida, asosan, ko’makchilarning qaysi ma’noda kelishi she’riy baytlar asosida ochib berilgan. Maqollarga kelsak, ular murakkab gaplar mavzusida ko’proq qo’llanilganligini ko’rish mumkin. Umuman olganda, olim boshqa tilshunoslardan farqli ravishda barcha mavzularda she’riy baytlardan foydalangan.

Kalit so’zlar. she’riy baytlar, maqollar, ega va kesim, moslashmagan aniqlovchi, sifatning oddiy va ortirma darajasi, izohlovchi, yordamchi fe’llar, old ko’makchilar.



Аннотация. Произведение Зиявудина Макки Хорезми “Кифаяту-н-нахв фи илми-л-Эраб”, считающееся одним из самых известных произведений по грамматике арабского языка, было написано в особом стиле и в доказательстве определений и правил использовало ранее несложные предложения со сказуемыми, выраженными именами существительными или глаголами. После разъяснения определенной части правил в качестве примеров стали приводить аяты Корана. Чтобы осветить другие сложные или тонкие аспекты темы он использовал поэтические строфы и арабские пословицы. В объяснении правил, которые вызывают споры среди лингвистов ученый часто цитировал поэтические стихи. В произведении всего в 143 местах в трех частях использованы арабские классические стихи и арабские пословицы.

Ученый, хотя и редко, использовал арабские пословицы в освещении наиболее актуальных и важных тем. В статье «Глава о существительном» рассматриваются надежи притяжательных прилагательных, причастий и склонение несогласованных определений, а также прилагательных простой сравнительной и превосходной степеней, для раскрытия свойств указательных местоимений использовал даже поэтические строфы. В «Главе о глаголах» поэтические строфы использовались для того, чтобы осветить вопросы о том, как вспомогательные глаголы и глаголы, выражающие сомнения, управляют существительными в винительном надеже. В разделе «Предлоги» на основе стихотворных строк раскрывается смысловое употребление предлогов. Что касается пословиц, то можно увидеть, что они чаще используются в теме о сложных предложениях. Кроме того, в теме предлогов и в освещении сложных свойств вспомогательных глаголов, пословицы были умело использованы в последовательности. Вообще ученый, в отличие от других лингвистов, использовал поэтические строфы на все темы.

Ключевые слова. Стихотворные строфы, пословицы, притяжательное прилагательное, причастие, несогласованное определение, сравнительная и превосходная степень прилагательного, пояснительные, вспомогательные глаголы, предлоги.

Annotation. The work “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb” by Ziyaviddin Makki Khorazmi, which is considered one of the famous works in Arabic language grammar, is written in a special style. He used participle sentences. After a certain part of the rules was clarified, the verses of the Holy Qur'an began to be cited as examples. He used poetic verses and Arabic proverbs to illuminate other complex or delicate aspects of the subject. The scholar used poetic verses to explain rules that are often disputed among linguists. In the work, he used classic Arabic poems and Arabic proverbs in 143 places in three parts.

Even though the scientist rarely used Arabic proverbs in explaining topics, he used them with great skill in the most interesting and important places. In the article “Chapter of Nouns”, he used poetic stanzas to reveal the features of possessive and participles in different cases and the agreement of non-matching determiners and adjectives in simple data and adjectives and even demonstrative pronouns. In the “Chapter of Verbs”, poetic stanzas are used instead of auxiliary verbs and verbs expressing suspicion to cover the issues related to controlling nouns in the sentence. In the “Prepositions” section, the meaning of assistants is mainly revealed on the basis of poetic verses. As for proverbs, it can be seen that they are used more in complex sentences. In general, unlike other linguists, the scientist used poetic verses on all topics.



Key words: poetic stanzas, proverbs, possessive and participle, non-adaptive determiner, common and superlative degree of comparison in adjectives, explanatory, auxiliary verbs, prepositions.

VIII–IX asrlarda klassik adabiy arab tili to‘la shakllanib bo‘ldi. Bu davrga kelib Qur‘oni karim, qadimiy nazm va quraysh lahjasi ta‘sirida arab yozuvi, sarf va nahvi shakllandi. Qur‘oni karimning nozil bo‘lishi va kitobat qilinishi bilan klassik arab tili badiiyati yanada go‘zallashdi va grammatik me‘yorlar mukammallashdi. Qur‘oni karim islomning asosiy matni birinchi arab kitobi bo‘lganligidan arab tilining rivojida asosiy qoidalarni dalillashda eng ishonchli manba sifatida asos bo‘ldi. Qur‘on va hadislardagi noyob va g‘ayrioddiy iboralarni tushunish va undagi grammatik tuzilmalarga oydinlik kiritish uchun arab she‘riyatiga ehtiyoj sezildi. Natijada arab she‘riyati Qur‘on bilan hamnafas holda rivojlana boshladi. Arab tilida so‘zlashadigan she‘riyat eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Arab tili rivojlanishi asnosida ko‘plab grammatik asarlar yaratila boshlandi. Nahvshunoslar o‘z kitoblarida grammatik masalalarni dalillashda Qur‘oni karim va hadisi shariflardan olingan misollarni tahlilga tortgan. Chunki Qur‘oni karim va hadisi shariflardagi jumalarning tuzilishi va ulardagi iboralarning ishlatilishi va so‘zlarning ma‘nosi asos qilib olinib, shu qoidalar asosida arab tili grammatikasi ishlab chiqilgan. Bulardan farqli ravishda O‘rta Osiyo olimlari, shu jumladan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» asarida oyat va hadislardan tashqari arab she‘riyat namunalarni ko‘proq tahlilga tortgan. Bu xuddi Mahmud Kashqariyning turkiy til grammatikasini yozganda turkiy xalqlarning folklorlaridan keng foydalanganiga juda o‘xshash. Shu yo‘l bilan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy manbaning tilshunoslik hamda adabiy nuqtayi nazardan keng qamrovligini ta‘minlagan.

Biz asarda arab mumtoz she‘riyatining grammatik qoidalarni dalillashda yoki inkor qilishda qo‘llanilishini o‘rganish orqali grammatik qoidalarni tushunish bilan birga klassik arab adabiyoti she‘riyatini o‘rganishga muvaffaq bo‘lamiz.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» asarida 250 ta o‘rinda Qur‘oni karim oyatlaridan, 7 ta o‘rinda hadisi shariflardan, 143 ta o‘rinda arab mumtoz she‘rlaridan va arab maqollaridan foydalangan. Darhaqiqat, musannif arab maqollaridan ko‘proq foydalangan nodir nahvshunoslaridan hisoblanadi. Asarda muallif arab mumtoz she‘rlari asosida qoidalarni dalillash va xulosalar chiqarish yoki inkor qilish usulini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, avval birinchi qismda keltirilgan mavzulardan boshlaymiz.

Mubtado xabar bobida muallif ot kesimli gapda mubtado yoki xabar turli xil sabablarga ko‘ra tushib qolishi mumkinligini ta‘kidlaydi. *إما ان يكون المبتدأ محذوفاً أو يكون الخبر*. محذوفاً، مما حذف منه الخبر «Gapda yoki mubtado yoki xabar tushib qolishi mumkin, unda xabarning tushib qolishiga misol» deb, quyidagi she‘rni dalil o‘laroq keltiradi. She‘r umaviylar davrida yashagan G‘aylon bin Uqbagaga tegishli.

فيا ظبية الوعاء بين جلال



ويبين النقا أنت أم سالم

«Tog‘lar va qum tepaliklardagi ey ohu sen(ohu)misan yoki Ummu Salimmi».

Bu jumlaning tahlil qiladigan bo‘lsak undalmadan keyingi jumlada «sen» so‘zi muftado bo‘lib, uning xabari ظبية «ohu» so‘zi tushib qolgan. She‘rning to‘liq ma‘nosi: Sen ohumisan yoki Ummu Salim. Bu yerda oshiq ikki mavze orasidagi ohuni go‘zal ayolga o‘xshatyapti. Boshqa sharhda ohu so‘zi o‘rniga أجمل «chiroyliroq» so‘zini ishlatadi. Shunda tarjima quyidagicha bo‘ladi. Ey tog‘lar va qumtepalliklar orasidagi ohu sen chiroyliroqmi yoki Ummu Salim. Bu she‘r xuddi shu qoidaga misol qilib Anbariyning «Insof» kitobida ham keltiriladi. Musannif tavil bahrida yozilgan she‘r orqali jumlada xabarning tushib qolish hodisasini dalillaydi. Baytdagi bosh nuqtada turgan go‘zallik timsoli bo‘lgan ohuning zikri undalmadan keyin kelganligi sababidan keyingi jumlada takrorlanmagan. Bu she‘riy baytlar xalq og‘zaki ijodida ko‘p ishlatilganligi va shoirlar tomonidan uzliksiz mutolaa qilinishi sababli ulardagi ma‘no–mazmun va tarkiblari har bir o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan.

Keyingi she‘riy bayt «tushim kelishigidagi ismlar» mavzusida باب المفعول المطلق «Mutlaq masdar bobida» keltirilgan. Muallif mutlaq masdar turlarini zikr qilib, masdarlarning gaplarda turli xil holatda kelishini izohlaydi. و تنصب المصادر بأفعال مضمرة هي في ذلك على ثلاثة الأنواع: أحدها: ما يستعمل إظهار فعله و إضماره. و ثانيها ما لا يستعمل إظهار فعله و يلزم ثالثها: ما لا فعل له أصلا. «Masdarlar yashiringan fe‘llar bilan tushim kelishigida bo‘ladi. Ular uch turdan iborat. 1. Masdarning fe‘li ko‘rsatiladi yoki ko‘rsatilmaydi. 2. Masdarning fe‘li ko‘rsatilmaydi, balki uni berkitish lozim bo‘ladi. 3. Unda umuman fe‘l yo‘q, ishlatilmaydi. Olim ikkinchi qoidani dalillash uchun quyidagi she‘riy baytni misol qilib keltiradi.

إني لأمنحك الصدود و إنني
قسما إليك مع الصدود أميل

«Darhaqiqat men sendan yuz o‘giryapman, qasamki, yuz o‘girishimga qaramasdan senga eng rag‘batliman»².

Bu she‘r kamil bahrida yozilgan bo‘lib, umaviylar davrida yashagan Al-Ahvos laqabli Abdullah ibn Muhammadga tegishli. Bu she‘rda shoir dushmanlar sababidan o‘z joyini tashlab ketayotgan insonning hasratini ifoda qilyapti. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy bu baytda ta‘kidlovchi masdarning fe‘li tushib qolishi mumkin bo‘lgan o‘rinda zikr qilgan. قسما masdarining أقسم «men qasam ichaman» fe‘li tushirib qoldirilgan. Chunki gap boshida qasamga ishora qiluvchi ta‘kid bor. «Sharhu-r-Rizo» kitobida ham xuddi shu bayt keltirilib, الكلام السابق الجملة في الكلام السابق، «qasam

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» qo‘lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 23-A.

² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» qo‘lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 31-b.



so‘zi avvalgi gapdagi jumlaning ma‘nosini ta‘kidlaydi» deydi.¹ Muallif qisqa uslubni ixtiyor qilganligi sababli bu baytda tafsilotlarga kirishmasdan faqat tushirib qoldirilgan fe‘lni zikr qiladi.

«Tushim kelishigidagi ismlar» mavzusida shu uslubda keltirilgan yana bir she‘rni uchratishimiz mumkin. Bunda ham fe‘lning baytda tushib qolish hodisasini ifodalaydi. Muallif «Vositasiz to‘ldiruvchi» bobida shunday deydi. يجيء المفعول به منصوبا بفعل مضمر و هو على ضربين: أحدهما ما يستعمل إظهاره. الثاني ما لا يستعمل إظهاره. «Vositasiz to‘ldiruvchi yashiringan fe‘l bilan tushum kelishigida keladi va u ikki xil bo‘ladi. 1. Fe‘lni ko‘rsatish joiz bo‘ladi. 2. Fe‘lni ko‘rsatish joiz bo‘lmaydi»². Musannif bu qoidaga ba‘zi sharh va oddiy jummalarni misol qilib keltirgandan keyin bevosita she‘rni keltiradi.

لن تراها و إن تأملت إلا
و لها في مفارق الرأس طيبا

«Tikilib qarashingga qaramasdan sen uni ko‘ra olmassan, faqat undagi sochlarning ajralgan joyidagi xushbo‘ylikni (ko‘rasan)»³.

Bu she‘r xafif vaznida yozilgan bo‘lib, umaviylar davrida yashagan shoir Ubaydulloh ibn Qays al-Ruqayyatga tegishli (694-yil). Baytning umumiy ma‘nosi “Sen o‘sha ayolni ko‘ra olmaysan, faqat sochidagi xushbo‘ylikni his qilasan”. Shoir birinchi baytda unga dalolat qiladigan fe‘l bo‘lganidan keyingi baytda o‘timli fe‘lni zikr qilmagan. Musannif aynan zikr qilinmagan ترى أو تبصر «ko‘rmoq yoki his qilmoq» ma‘nosidagi fe‘lning tushib qoldirilishini qoidaga misol sifatida keltiradi. «sen his qilasan yoki ko‘rasan» o‘timli fe‘lni jumlada keltiradigan bo‘lsak، طيبا «xushbo‘ylik» so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib، fe‘lga «vositasiz to‘ldiruvchi» bo‘ladi. Shunda she‘rning lug‘aviy tarjimasi «garchi tikilib qarasang ham, uni ko‘ra olmassan, faqatgina undagi sochlarning ajralgan joyidagi xushbo‘ylikni his qilasan». Musannif qoida sharhiga ko‘p to‘xtalmay, keyingi misollarga o‘tadi.

Sibavayh shu baytni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiydan farqli ravishda boshqa mavzuda «Ko‘p ishlatilganidan fe‘lning tushirib qoldirilishi» bobida zikr qilgan. «الطيب إن الطيب دخل في الرؤية و أنه اشتمل على ما بعده في المعنى»⁴ xushbo‘ylik so‘zi ko‘rishning tarkibiy qismi bo‘lib، o‘zidan oldingi so‘zning ma‘nosini qamrab olgan» deb، baytni sharhlaydi.

Arab tilida yirik mavzulardan hisoblangan «Qaratqich kelishigidagi ismlar» mavzusidan ba‘zi she‘riy baytlarni keltiramiz. باب الإضافة «Moslashmagan aniqlovchi bobi»da muallif izofaga bog‘liq ko‘plab qoida va sharhlarni keltirib، bobning yettinchi

¹ محمد بن الحسن الإسترابادي السمناني النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م. ص 377.

² O‘sha asar. 33-b.

³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi، 34-A.

⁴ أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه في النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص 285.



قد يحذف مضاف «aniqlanmish»ning tushirib qoldirilish qoidasini bayon qiladi. «Ba'zida aniqlanmish tushib qoladi. المضاف و يقام المضاف إليه مقامه إذا لم يكن في الكلام التباس. Agar jumlada noaniqlik bo'lmaydigan bo'lsa, aniqlovchi uning o'rnini egallaydi». Musannif qoidani keltirib, to'g'ri she'riy baytni taqdim qiladi.

أكل إمري تحسبين امراء
¹ و نار توقد بالليل نارا

«Har bir erkakni erkak hisoblaysanmi va kechasi alangalangan (har bir) olovni olov hisoblaysanmi».

Bu she'riy bayt mutaqorib bahrida yozilgan bo'lib, johiliyat shoiri Abu Duaad al-Ayadiy (480–545-y)ga tegishli. Baytda ayol tilidan boshqa bir ayolga xitob qilinyapti. She'rning umumiy ma'nosi quyidagicha: «Har bir ko'rgan erkakni komil erkak deb o'ylayverasanmi. Har bir alanga olgan narsani olov deb gumon qilaverasanmi». Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy bu bayt orqali izofa qoidasidagi muzofning tushib qolishi hodisasini dalillaydi. Ikkinchi jumlada كل «har bir» so'zi tushib qoldirilgan bo'lib, u gapda المضاف hisoblanadi. Muallif bu jumlagaga قرى «qishloqlar» so'zini izofa zanjiri ko'rinishida ham beradi. Shunda baytning lug'aviy ma'nosi; «Har bir erkakni erkak deb, kechasi alanga oladigan qishloqlarning har bir olovini olov deb hisoblayverasanmi». «Sharhi Ibn Aqiyl» kitobida ham bu bayt keltirilgan. Jumladan, Ibn Aqiyl bu bahsni quyidagicha tahlil qiladi. يحذف المضاف و يبقى المضاف إليه مجرورا بشرط. «Muzof tushib qoladi va muzof ilayhi qaratqich kelishigida bo'ladi. Sharti shuki; tushirib qoldirilgan muzof oldingi jumlada zikr qilingan muzofga o'xshash bo'lishi kerak»². U ham baytdagi tushirib qoldirilgan muzofni كل «har bir» so'zi deb ta'kidlab, uning gapda to'ldiruvchi bo'lib ham kelganligini grammatik sharhlaydi.

Arab tilida barcha mavzularga bog'liq bo'lgan التوايح «Ergashuvchilar» mavzusi uchala kelishikda o'zidan oldingi so'zga moslashuvi sababidan juda ko'p ishlatiladi. Olim bu mavzuni yoritishda ham she'riy baytlardan uddaburonlik bilan foydalangan. Olim bu mavzuni yoritishda ham she'riy baytlardan uddaburonlik bilan foydalangan. التوايح «Ergashuvchilar» mavzusidagi باب الصفة «Sifat bobi»da quyidagi tushunchalarni keltiradi. «Ot kesimli gap noaniq ismga sifat bo'lib keladi»³. Musannif ikkita oyatdan keyin qoidaga quyidagi she'riy baytni keltiradi.

حتى إذا جن الظلام و اختلط
 جاعوا بمذق هل رأيت الذئب قط

«Hatto kech botib qorong'i bo'lganida ular bo'rini ko'rdingmi? – Suv aralashgan sutni olib keldi».

¹ O'sha asar.80A.

² القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمن ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد ، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك ، مركز الرسالة للدراسات و تحقيق التراث، الجزء الثالث، صفحة 67.

³Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi,88-b.



Bu she'r rajaz vaznida yozilgan bo'lib, muallif shoirning ismini keltirmagan. She'ring ma'nosi shuki, baxil qavm haqida bo'lib, ular kech qorong'isida mehmonlarga bo'rining rangiga o'xshab ketgan suv aralashgan sutni keltiradi¹. هل رأيت الذئب قط، جملة وقعت صفة لمذق و التقدير: جاؤوا بمذق مقول عند هذا القول، أي: يقال عنده: هل رأيت الذئب قط «Bo'rini ko'rdingmi iborasi suv aralashgan sut so'ziga sifat bo'ladi. Jumlaning asli; uning oldida bo'rini ko'rdingmi deb aytiladigan suv aralashgan sutni olib keldilar». Tugallangan ma'noni ifoda qiluvchi jumla qaratqich kelishigida turgan noaniq so'zga sifat bo'lyapti.

“Alfiya”ning sharhida ham bu she'r keltirilgan. Unda shoirning nomi Ujaj bin Ruba deb qayt qilingan. Sharhlovchi النعت «Sifat» mavzusida bu bayt orqali qoida va she'ni keng qamrovda tushuntiradi. هل رأيت الذئب نعتا للنكرة، أصل الكلام: جاؤوا بمذق مقول عند. رؤيته هل رأيت الذئب. Jumlaning asli: unga qaraganda, bo'rini ko'rdingmi deyiladigan suv aralashgan sutni keltirdilar². Tahlildan keyingi baytning lug'aviy ma'nosi: «Hatto kech botib qorong'u bo'lganida, unga qaraganda bo'rini ko'rdingmi? deyiladigan suv aralashgan sutni keltirdilar». “Alfiya” bilan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarlarida berilgan sharhlar bir-biriga o'xshash tarzda bayon etilgan. Biroq, Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy qisqa uslub bilan ham baytni, ham qoidani sharhlagan. Zerikarli bo'lmasligi uchun tafsilotlarga ko'p kirishmagan.

Arab tilida ko'rsatish olmoshlari ko'rsatilgan shaxs yoki predmet bilan jinsda sonda kelishikda moslashadi. Shu sababdan bu olmoshlar nahv kitoblarida keng yoritiladi. Keyingi she'riy baytimiz mana shu mavzuda bo'lib, unda ko'rsatish olmoshi qoidasiga mos keladigan olmosh berilgan. «Ko'rsatish olmoshining ko'pligi bittasi alif bilan, bittasi alif maqsura bilan keladi».

ذم المنازل بعد منزلة اللوى
و العيش بعد أولئك الأيام

«O'sha manzildan keyingi manzillarni va o'sha kunlardan keyingi hayotni mazammat qil».

Bu she'r kamil vaznida yozilgan bo'lib, umaviylar davrida yashagan hijo san'atida mashhur bo'lgan shoir Jarir bin Atiya (728–653)ga tegishli. She'ring ma'nosi: نم كل موضع تنزل فيه بعد هذا الموضع الذي لقيت فيه أنواع المسرة و ذم أيام الحياة التي تقضيها بعد هذه الأيام التي

¹ الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 109.

² عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الثالث، المكتبة العصرية بيروت، 2008م، صفحة 310.



kunlaringdan keyingi o'tkazayotgan kunlaringni yomonla».¹ Keyingi ikkinchi baytdagi ko'rsatish olmoshi bo'lib, ko'plikdagi ismga ishora qilyapti. Faxriddin Xorazmiy bilan ishora qilishda muzakkar va muannasning ko'pligi bir xil bo'ladi» deb, o'z kitobida zikr qiladi². Muallif bu bayt bilan ko'rsatish olmoshini dalillashiga qaramasdan, unga sharh bermagan. Biroq oddiy qoidani murakkab bayt bilan dalillashi olimning barcha mavzularga daqiq nazar bilan qaraganligidandir. Alloma bu she'riy baytlar orqali ba'zida qoidalarni isbotlash va uni osonlashtirish u asosida misollar keltirish va she'rlarda kelgan holatlar, shakllar yuzasidan xulosa berib grammatik qoidalarga hukm chiqarib yakuniy qarorni taqdim qilish bo'lgan.

Alloma sifatning darajalarini keltirib, uning turlarini o'z o'rniga ko'ra sharhlagan. Sifatning qiyosiy darajasini tushuntirish asnosida quyidagi qoidani taqdim qiladi. قد يكون «Sifatning qiyosiy darajasi ifoda qilinganda (من) ko'makchisi tushirib qoldirilgan bo'ladi, lekin uning ma'nosi qoladi»³. She'rdan misol;

إن الذى سمك السماء بنى لنا
بيتاً دعائمه أعز و أطول

«Samoni ko'targan Zot ustunlari mustahkam va uzun uyni bino qildi».

Bu she'r kamil vaznida yozilgan bo'lib, umaviylar davrida yashagan basralik shoir Hammam ibn G'olib ibn Sa'sa' ad-Darimiya tegishli. Bu shoir Farazdaq nomi bilan mashhur.

Bu baytda tushirib qoldirilgan ko'makchi quyidagi ko'rinishda bo'ladi. أي: أعز من كل «Har bir narsadan mustahkamroq va har bir narsadan uzunroq». Shunda she'rning to'liq ma'nosi; «Samoni ko'targan Zot har bir narsadan mustahkamroq va har bir narsadan uzunroq uyni bino qildi». «Taxmin» kitobida ham baytda tushirib qoldirilgan ko'makchiga shunga yaqin ma'noni beradi. دعائمه أعز و أطول «Uning ustunlari har bir ustundan mustahkamroq va uzunroq»⁴. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy keyingi baytni فصل فى اسم الزمان و المكان «O'rin va payt nomlari» faslida keltiradi.

كأن مجر الرامسات ذبولها
عليه قضيم نمقته الصوانع

1 عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف فى المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. - القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 135

2 الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 520

3 Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 162A.

4 صدر الأفاضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمان بن سليمان العثيمين، شرح المفصل فى صنعة الإعراب بالتخمين، الجزء الثالث، دار الغرب الإسلامى، بيروت بلبنان، 1990م. صفحة 130.



«Uning ustiga chang-to‘zonga to‘ldiradigan kuchli shamolning shabadasi teggan joyning izi hunarmandlar chizib to‘qigan bo‘yra kabi»¹.

Bu she‘riy bayt tovil vaznida yozilgan bo‘lib, johiliyat davrida yashagan iroqlik shoir Ziyad ibn Muaviyaga tegishli. Bu shoir she‘riy balog‘atda yetuk bo‘lganligi sababli “An-Nabig‘a” laqabini olgan.

Bu baytning ma‘nosi kitoblarda turli xil ko‘rinishda keladi. Shulardan biri «Kashshof» tafsirining sharhida juda mukammal tarzda berilgan. Jumladan, unda shunday deyiladi; «Bu baytdagi shamolni yerga sudralib yuradigan uzun etakli kiyim kiyib olgan ayollarga o‘xshatish mumkin»². Bu sharh asosida baytning ma‘nosi quyidagicha bo‘ladi. «Yerga sudralib yuradigan uzun etakli kiyim kiyib olgan ayollarning ko‘ylagi teggan joyning izi hunarmandlar chizib to‘qigan bo‘yra kabi». «Shavahid Mufassal» kitobida quyidagi fikrni ilgari suradi; «شبه آثار جر الرياح بالخطوط في القضم أو موضعها التي هبت عليه بالقضم المنمق – زينته بالكتابة النساء الحادقات للكتابة. Shoir shamolning teggan joylarining izini bo‘yraning chiziqclariga yoki shamol ta‘sir qilgan o‘rnini mohir to‘quvchi ayollar yozish bilan ziynatlab nAQSHlagan bo‘yraga o‘xshatgan»³. Ikkita holatda ham ma‘no bir-birini inkor qilmaydi. Faqat birinchi sharhda shamolni ayolga o‘xshatishda birmuncha farqlanish bor.

Bu baytning grammatik xususiyati shundaki, unda birinchi baytda «o‘rin nomi» kelgan. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy «اسم الزمان و المكان» gapda biror-bir sintaktik vazifa bajarmasligini ta‘kidlaydi. Bunga baytdan misol keltirib, uni quyidagicha sharhlaydi; «فإنما نصب ذيولها ب(مجر): لأنه مصدر بمعنى الجر و التقدير: كأن أثر أو موضع «جر الرامسات» «shabadalar» yoki «etaklar» so‘zi ta‘sirida نوبل «o‘rin nomi» so‘zi tushim kelishigida kelgan. Chunki «o‘rin nomi» so‘zi masdar “ish harakat” ma‘nosida. Baytning bu birikmadagi ma‘nosi bo‘ronli shamolning izi yoki teggan joyi shaklida bo‘ladi». Gapdagi «o‘rin nomi» ma‘nosida emas, balki masdar ma‘nosida kelib, gapda sintaktik vazifani bajaryapti. Chunki, agar «o‘rin nomi» ma‘nosida kelganda نوبل so‘zi tushum kelishigida bo‘lmasdi yoki jumlada kelmas edi. Baytda «o‘rin nomi» ma‘nosida emas, balki masdar ma‘nosida kelganligi xususida nahvshunoslar o‘rtasida ixtilof yo‘q, lekin baytning ma‘nosida ular o‘rtasida ma‘lum farqlanishlar bor.

Arab tilida shunday fe‘llar borki, ular ikki yoki undan ortiq so‘zlarni tushum kelishigida boshqaradi. Alloma mavzuga doir quyidagi baytni keltiradi.

أبأالأراجيز يا ابن اللؤم توعدنى
و فى الأراجيز خلت اللؤم و الخور

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi, 166A.

² العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشاف عن حقائق غوامض التنزيل و عيون الأقاويل فى وجوه التأويل، الجزء الثالث، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 612، الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 354



«Shohsiz sigirlar kabi uchta oppoq ayollar eruvchi do'lga o'xshagan tishlari bilan kularlar»¹.

Ibn Yaish bu baytni lug'at jihatidan quyidagicha sharhlaydi; نعجة so'zi neja so'zining ko'pligi bo'lib, qo'yning urg'ochisiga nisbatan ishlatiladi. Arablar نعجة urg'ochi qo'y so'zi bilan ayollarga kinoya qiladi. جم so'zi shohsiz qo'ylar, برد so'zi do'l, منهم so'zi eruvchi ma'nosida ekanligini ta'kidlaydi.

Baytning umumiy ma'nosi quyidagicha kelgan; تبدو أسنانهن عندما «Uchta quvnoq ayollar, ular kulganida tishlari eriyotgan do'l kabi ko'rinadi»². «Sharh-u Tasrih» kitobida ham bu bayt va unga bog'liq masalalar kelgan bo'lib, baytning lug'aviy ma'nosi Ibn Yaish keltirgan qarashlar bilan bir xil. Umumiy ma'no esa biroz farq qiladi; النسوة يضحكن عن أسنان مثل البرد الذائب لطافة و نظافة «Ayollar latofat va pokizaligidan eriyotgan do'lga o'xshagan tishlarini ko'rsatib kuladilar»³.

Alloma grammatik qoidani quyidagicha taqdim qiladi: الكاف معناه التشبيه نحو: الذي كزيد: الكاف معناه التشبيه نحو: الكاف harfi o'xshatish ma'nosida bo'ladi. Masalan; sening akang Zayd kabidir. Shoiming baytida کاف harfi ism ma'nosida ishlatilgan. Baytda كالبرد so'zi oldidan kelgan کاف harfi ism bo'lib مثل «o'xshagan-o'xshash» ma'nosida kelgan. shaklida izofa ko'rinishida bo'ladi. Baytdagi isbot dalil qoidani bitta so'zni almashtirish bilan ifoda qilib, u bilan baytning ma'nosini ham ochib bergan.

Bu fikrni Abdurahmon Jomiy ham ilgari surgan; مثل کاف «o'xshagan-o'xshash» ma'nosidagi ism bo'lishi mumkin deb, mazkur baytni keltirgan. Baytdagi birikmaning asl ko'rinishi مثل البرد الذائب shaklida bo'lishi kerak. Bunda کاف harfi ochiq-oydin ism bilan xoslangan⁴. Baytdagi bu grammatik qoida juda muhim masala bo'lib, ikkita old ko'makchi ketma-ket bir so'z oldidan kelmasligiga va ba'zida old ko'makchi ism ma'nosida yoki boshqa ma'nolarda kelishini anglatadi.

کاف harfi bilan bog'liq bo'lgan boshqa mavzuda ham shunga o'xshash she'riy bayt keltiriladi.

نحر مشرق اللون

كان ثدياه حقان

«Porloq yuzli qizning ikki ko'kragi go'yoki ikki idish kabi»⁵.

Sibavayh نحر «bo'yin-ko'krakning yuqori qismi» so'zi o'rniga «yuz» so'zini ishlatadi¹.

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozma nusxasi 10518-raqam-216A.

² العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الرابع، صفحة 502

³ خالد بن عبد الله بن أبي بكر بن محمد الجرجاوي الأزهرى تحقيق محمد باسل عيون السود شرح التصريح على التوضيح في النحو، دار الكتب العلمية، لبنان بيروت، صفحة 659. 2000م.

⁴ العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 194

⁵ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qo'lyozma nusxasi 10518-raqam, 223A.



Baytning ma'nosini Faxriddin Xorazmiy quyidagicha bayon qilgan: جعل النحر مشرقا: «Bo'yin qismini oqligi uchun yorqin deb atagan, ko'kragingning dumaloqligi va to'laligi uchun ikki ko'kragini ikkita idishga o'xshatgan»².

Jurjoniy bu baytni quyidagicha bayon qiladi; و ثدياه كالحقنين في: «Rangi yarqiragan bo'yin sohibi uning ikkita ko'kragi dumaloqlikdan va kichkinaligidan ikkita idish kabi»³.

Alloma bu baytni quyidagi qoidani isbotlash uchun keltirgan; كأن زيدا: كأن للتشبيه نحو: كأن زيدا: إن زيدا كالأسد، فركبت الكاف مع (إن) و فتحت الهمزة، و تخفف أيضا فيبطل عملها. كأن o'xshatish uchun ishlatiladi. Masalan: go'yoki Zayd arslon, aslida; Zayd arslon kabidir. harfi kaf (إن) bilan birikib, hamza harfi fathaga o'zgaradi va keyingi harf ikkilantirmasdan o'qiladi. Bu holatda (إن) harfining keyingi so'zga ta'siri bo'lmaydi». She'rdagi كأن ثدياه حقان «ikki ko'kragi go'yoki ikki idish kabi» bayti mazkur qoidaga guvoh sifatida kelgan. (إن) harfi sukun holatida bo'lganligi sababli o'zidan keyingi kelgan كأن so'zining tushum kelishigida kelishiga ta'sir qilmayapti.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy كأن harfidan keyin fe'l kelishi mumkin deydi. Masalan: كأن قد كان shaklida bo'ladi.

Jaloliddin Suyutiy o'z kitobida baytdagi grammatik tahlilga tortgan so'zni tushum kelishigida تشبيه shaklida bergan⁴. Anbariy «Insof» kitobida ham shu shaklda keltirgan⁵. Unda so'zining tushum kelishigida keltirganligining sababini lafzda كأن harfi o'z vazifasini bajaradi deb tushuntiradi. Biroq, ba'zi nahvshunoslar كأن harfidan keyin tushirib qoldirilgan olmoshni sabab qilib ko'rsatib، so'zining bosh kelishikda kelishini bayon qiladi. Jaloliddin Suyutiy va Anbariy baytdagi so'zni tushum kelishigidagi shaklini keltirgan bo'lsa ham, ikkita holatni bayon qilib, bosh kelishikda kelishini ham inkor qilmagan. Zamaxshariy so'zining bosh kelishik shaklini beradi⁶. Bunda Zamaxshariy va Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy qarashlari mutlaqo bir xilligi ko'rinadi.

Maqollar va hikmatlar grammatik masalalar yoritilishida Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflardan keyingi uchinchi yordamchi vosita bo'lib, musannif ulardan foydalanishda kamyob nahvshunoslardan hisoblanadi. Alloma ko'plab o'rinlarda bu qisqa

القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك، الجزء الأول، مركز الرسالة للدراسات وتحقيق التراث، صفحة 355

الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، الجزء الثاني، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 870.

علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف او السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 299

الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 187

عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأتباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. - القاهرة، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 197

أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 304



iboralardan unumli foydalanib, kitobning ahamiyatini va uning ko'p qirraligini oshirgan.

Birinchi maqolni muftado va xabar bobida uchramiz. Jumladan, unda shunday deydi. «من حق المبتدأ أن يكون معرفة وقد يجيء نكرة. Muftado aniq holatda bo'ladi, ba'zida noaniq holatda kelishi mumkin»¹. Bu qoidaga dalil sifatida quyidagi maqolni keltiradi. «Itni yomonlik vovullatadi». Alloma bu masalni quyidagicha sharhlaydi. أحدهما: أن يكون شرا فاعلا من المعنى على تقدير: ما أهر ذا ناب إلا شر. والثاني: أن يكون موصوفاً و صفة شر أهر ذا ناب. «Bu masalning ma'nosida ikki xil qarash bor: birinchi, "itni yomonlikdan boshqa narsa vovullatmaydi" ma'nosida bo'lib, شر "yomonlik" so'zi ega bo'lib kelyapti. Ikkinchi, "itni qattiq yomonlik vovullatadi" ma'nosida bo'lib, شر "yomonlik" so'zi sifatlanmish hisoblanib, uning sifati بليغ "qattiq" so'zi bo'lib u gapda tushirib qoldirilgan». Bu masalda qoidaga muvofiq شر "yomonlik" so'zi noaniq holatda muftado bo'lib kelyapti. «Kofiya» kitobida ham bu masalga xuddi shunday munosabat bildirilgan. Faqat unda muftado شر "yomonlik" so'zi xoslash ma'nosida noaniq holatda kelgan bo'lib, uning sifati بليغ "qattiq" so'zi o'ziga "katta" so'zi ishlatilgan, shu jihati bilan farq qiladi.²

Keyingi maqolni izofa mavzusida muzofning tushib qolishi qoidasini yoritishda keltirgan. Alloma qoidani keltirib, undan keyin to'g'ri maqolni dalil sifatida taqdim qiladi. «Ba'zida aniqlanmish قد يحذف المضاف ويقام المضاف إليه مقامه إذا لم يكن في الكلام التباس. Ba'zida aniqlanmish tushib qoladi va agar jumlada noaniqlik bo'lmaydigan bo'lsa, aniqlovchi uning o'rnini egallaydi»³. «Har bir qora narsa xurmo emas va (har bir) oq narsa yog' emas». Muallif bu maqolda ikkinchi jumlada muzof aniqlanmish bo'lgan كل so'zi tushib qolganligini va uning asliy ko'rinishi كل بيضاء "har bir oq narsa" ma'nosida bo'lishini ta'kidlaydi. Ibn Yaish ham bu maqolda كل so'zi tushib qolganligini ta'kidlab, go'yoki sen uni gapda talaffuz qilgandek bo'lib, gapda بيضاء "oq narsa" so'zi aniqlanmish, كل so'zi unga aniqlovchi bo'lib, u gapda tushib qolgan⁴.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy mavzuning ahamiyatiga qarab ba'zi fasllarda bir nechta maqollar keltirgan. Shunday mavzulardan biri المركبات «murakkab ismlar» mavzusi bo'lib, alloma bu faslda oltita maqoldan foydalangan. المركبات «Murakkab ismlar» qisqa qilib ifodalash maqsadida ikki kalima orasidagi teng bog'lovchi "vov" harfi tushirib qoldirilib, bitta ma'nodagi so'z qilinadi va harf (yordamchi so'z) ma'nosida ham keladi. Maqollardan misollar: «Ular qiyin vaziyatga tushib qoldi»⁵. Alloma bu maqolning ma'nosini quyidagicha bayon qiladi: أي: في فتنة «O'z ahlini oqizib ketadigan fitna sinovga tushish» ma'nosida kelganligini

¹ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» qolyozma nusxasi 10518-raqam, 23B.

² العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ماوراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 41

³ O'sha asar. 81a.

⁴ العلامة ابن يعيش شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الثاني، صفحة 197.

⁵ O'sha asar. 122B.



avval murakkab bo'lmagan ot kesimli yoki fe'l kesimli gaplardan foydalangan. Qoidalarning ma'lum qismi oydinlashgandan keyin Qur'oni karim oyatlari misol sifatida keltirila boshlagan. Mavzuning boshqa murakkab yoki nozik taraflarini yoritishda she'riy baytlar va arab maqollaridan foydalangan. Olim she'riy baytlarni ko'pincha tilshunoslar orasida bahsli bo'lgan qoidalarni tushuntirishda keltirgan. Asarda umumiy uchta qismda 143 ta o'rinda arab mumtoz she'rlaridan va arab maqollaridan foydalangan.

Olim mavzularni yoritishda arab maqollaridan kam foydalangan bo'lsa ham, eng dolzarb va muhim bo'lgan o'rinlarda yuksak mahorat bilan qo'llagan. Maqolaning "Ism bobida" ega va kesimning turli xil holatlarda tushib qolishi hamda moslashmagan aniqlovchilarning kelishiklari va oddiy darajadagi sifatlar, va ortirma darajadagi sifatlar, hattoki ko'rsatish olmoshlarining xususiyatlarini ochib berishda she'riy baytlardan foydalangan. "Fe'l bobida" yordamchi fe'llar va gumonni ifoda qiluvchi fe'llarning gapda otlarni tushum kelishigida boshqarishiga doir masalalarni yoritishda she'riy baytlar o'z o'rnida qo'llanilgan. "Old ko'makchilar" qismida, asosan, ko'makchilarning qaysi ma'noda kelishi she'riy baytlar asosida ochib berilgan. Maqollarga kelsak, ular murakkab gaplar mavzusida ko'proq qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, olim boshqa tilshunoslardan farqli ravishda barcha mavzularda she'riy baytlardan foydalangan. Ba'zida bitta she'riy bayt bilan ikkita yoki uchta qoida ochib berilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, ko'plab keltirilgan she'riy baytlarning aniqlanmagan noaniq jihatlari boshqa iboralar qo'llash orqali tushuntirgan. She'rdagi qoidaga doir so'zlar ajratilib, grammatik tahlil qilinganligi o'quvchidagi tushunchani yanada orttirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdujabbor Qahhorov, Malika Nosirova. Gap sintaksisi arab tilshunoslari talqinida. - Toshkent, 2013. 163-b.
2. Malika Nosirova. O'rta asr arab nahvidan namunalari. Toshkent, 2004. 71-b.
3. Qosimova S.S. Klassik arab nahvidan ma'lumotlar. Toshkent, 2011. 88-b.
4. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.
5. محمد بن الحسن الإستراباذي السمناي النجفي. شرح الرضى على الكافية. سلسلة نشر الرسائل الجامعية بالسعودية 1996م. ص1222.
6. أبو بشر سيبويه إمام النحاة. كتاب سيبويه في النحو. مكتبة الخانجي بالقاهرة. 1988م. ص439.
7. القاضي بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان ابن عقيل بتحقيق العلامة محمد محيي الدين عبد الحميد، شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك، مركز الرسالة للدراسات وتحقيق التراث، صفحة 292.
8. عبد الله بن يوسف بن أحمد ابن هشام، أوضح المسالك إلى ألفية ابن مالك، الجزء الأول، المكتبة العصرية بيروت، 2008م، صفحة 384.
9. الإمام فخر الدين الخوارزمي، تحقيق يوسف محمد فجال، شرح شواهد المفصل، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 2012م، صفحة 607.
10. العلامة ابن الحاجب الكافية في النحو. مكتبة ما وراء النهر 2018 بمدينة طشقند صفحة 217



11. العلامة ابن يعيش. شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية ببيروت، 2001م، الجزء الثاني، صفحة 462.
12. العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشف عن حقائق غوامض التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل، الجزء الثالث، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.
13. صدر الأفاضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمان بن سليمان العثيمين، شرح المفصل في صناعة الإعراب بالتخمين، الجزء الثالث، دار الغرب الإسلامي، بيروت بلبنان، 1990م، صفحة 358.
14. علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف أو السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 346.
15. خالد بن عبد الله بن أبي بكر بن محمد الجرجاوي الأزهرى تحقيق محمد باسل عيون السود شرح التصريح على التوضيح في النحو، دار الكتب العلمية، لبنان بيروت، صفحة 744. 2000م.
16. الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 289.
17. عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. -القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 880
18. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دارعمار -الأردن. 2003. صفحة 565

UMIDBEK SAIDOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar

Annotatsiya. Hozirgi kunda kognitiv tadqiqotlar gumanitar fanlarning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Sensorik signallardagi ma'lumotlarning transformatsiyasi (qayta shakllanishi) natijasida inson tafakkurida kechadigan turli: psixik, mantiqiy, evristik, perseptiv jarayonlar olimlarning diqqat markazida. Shunga ham qaramasdan tarjimashunoslik sohasida asliyat matnidagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamlari tarjimada aks etishi bilan bog'liq tadqiqotlarda sustkashlik bor. Kognitiv tahlil asli tilshunoslik mahsuli bo'lgani sabab, bu metodni tarjimashunoslikdagi masalalarni hal qilish uchun badiiy matnga nisbatan qo'llash yangicha yondashuv hisoblanadi.

Har qanday badiiy matn kommunikativ maqsadni ko'zlashi sir emas. Bunday maqsad asliyat matnida ham, tarjima matnida ham mavjud. Asliyat matnidagi kommunikativ maqsad tarjima matnida saqlab qolinganni yoki yo'q degan masala, ayni tarjimashunoslik doirasidagi masalalardan biri. Bunday masalaga javob topish uchun asliyat matnini chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konsept nima ekanligi bilish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Asosiysi esa, badiiy konsept lingvomadaniy konseptdan qanday farqlanishining tamoyillarini bilish kerak degani.

Ushbu maqolada XXI asrdan boshlab filologik yo'nalishlarda, xususan tilshunoslik sohasida aktual bo'lib kelayotgan badiiy matnning kognitiv tahlil metodi va badiiy matndagi



muallif konsepti, ya'ni badiiy konsept tushunchalari tahlil qilingan. Shu masala bilan bog'liq Askoldov (1928), Olshanskiy (1974), Lotman (1998), Miller (2000), Kazakova (2002), Tarasova (2010), Mileyko (2016), Safarov (2019), Danilenko (2022), G'aniyeva (2023), Xalimova (2023), Karimova (2023) kabi tadqiqotchilarning fikrlari o'rganilib, tizimlashtirishirildi va natijalar xulosa qismida tartib bilan umumlashtirildi. Va yana kognitsiya, kognitiv tahlil, badiiy matn, olamning badiiy manzarasi, matnning semantik strukturasi kabi muhim bo'lgan kalit tushunchalar tahlilga berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, kognitiv tahlil, kognitsiya, olamning badiiy manzarasi, badiiy konsept, lingvomadaniy konsept, matnning semantik strukturasi.

Аннотация. В настоящее время когнитивные исследования стали частью всех гуманитарных направлений. Одним из центральных вопросов, интересующие учёных являются процессы, протекающие в сознании человека в результате трансформации сенсорно-сигнальных информации; психических, логических, эвристических, перцептивных и т.д. Не смотря активный рост интереса к таким исследованиям, в переводоведении эти вопросы всё ещё привлекают к себе мало внимания. Так как, когнитивный анализ исконно развился в лингвистике, то применение такого метода анализа для решения переводоведческих задач изобретение новое.

То, что каждый текст преследует коммуникативную цель не является секретом. Подобная цель присуща и в тексте оригинала, и в тексте перевода. Вопрос сохранности коммуникативной цели оригинала в тексте перевода один из вопросов, изучаемых в рамках переводоведения. Чтобы понять, сохранён ли коммуникативная цель оригинала в переводе, сначала требует когнитивного анализа текст оригинала. Чтобы провести такой анализ, необходимо понимать, что такое когнитивный анализ художественного текста и художественный концепт. И не мало важно понимать принципы различия лингвокультурного и художественного концепта.

В данной статье проанализированы такие понятия как когнитивный анализ художественного текста и индивидуальные концепты в художественном тексте, именуемые художественным концептом, которые стали актуальные для филологических исследований, в частности в лингвистике с начала XXI века. Также по данному вопросу были изучены, структурированы и были обобщены в заключении мнение таких исследователей как Аскольдов (1928), Ольшанский (1974), Лотман (1998), Миллер (2000), Казакова (2002), Тарасова (2010), Милейко (2016), Сафаров (2019), Даниленко (2022), Ганиева (2023), Халимова (2023), Каримова (2023). Также проанализированы такие ключевые понятия как когниция, когнитивный анализ, художественный текст, художественная картина мира.

Ключевые понятия. Художественный текст, когнитивный анализ, когниция, художественная картина мира, художественный концепт, лингвокультурный концепт, сематическая структура текста.

Abstract. In recent years, cognitive research has become an integral part of all fields of the humanities. One of the key questions engaging scholars concerns the processes occurring in human consciousness as a result of transforming sensory-signal information—whether mental, logical, heuristic or perceptual, among others. Despite the growing interest in such studies, these questions have attracted limited attention in translation studies. Since cognitive analysis



initially developed within linguistics, applying this method to address translation-related issues is a relatively new approach.

It is widely recognized that every text pursues a communicative goal, which applies both to the original text and its translation. The question of whether the communicative goal of the original is preserved in translation is one of the core issues studied within translation studies. To determine whether the communicative goal of the original has been retained in translation, the original text must first undergo cognitive analysis. Conducting such an analysis requires a clear understanding of cognitive analysis in literary texts and the concept of artistic conceptualization. It is equally important to grasp the distinction between linguistic-cultural and artistic concepts.

This article explores the notions of cognitive analysis in literary texts and individual concepts within them, referred to as artistic concepts, which have gained significance in philological research, particularly in linguistics, since the early 21st century. The study also examines, structures, and summarizes the views of researchers such as Askoldov (1928), Olshansky (1974), Lotman (1998), Miller (2000), Kazakova (2002), Tarasova (2010), Mileiko (2016), Safarov (2019), Danilenko (2022), Ganieva (2023), Khalimova (2023), and Karimova (2023). Key concepts such as cognition, cognitive analysis, literary text, and artistic worldview are also analyzed.

Key notions: Literary text, cognitive analysis, cognition, literary picture of the world, literary concept, linguacultural concept, semantic structure of the text.

Kirish. Badiiy matnning tahlil metodlari keng tushuncha bo‘lib, stilistik, pragmatik, funksional, lingvopoetik, kognitiv kabi tahlillarni o‘z ichiga oladi. Har bir tahlil metodining o‘z masalalari, maqsadlari va vazifalari mavjud. Biz ko‘rib chiqadiganimiz kognitiv tahlil metodi bo‘lib, u matndagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamiga kirib borish va muallifning tafakkuriga nazar solish imkonini beradi. Bunday nazar esa, asiyat matnidagi mazmun tarjimada qanday aks etganini ko‘rish va tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Shahriyor Safarov “Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari” nomli monografiyasida kognitiv yondashuv haqida shunday yozadi: “Kognitiv yondashuv hozirgi paytda tushunish, o‘ylash, xotirlash, muammo yechimini izlash va tildan foydalanish kabi mental jarayonlar tadqiqi bilan qiziquvchi barcha fanlarda keng miqyosda joriy qilinmoqda. Tarjimashunoslik ham bundan chetda qolishni istamasligi shubhasiz”¹.

Filologik masalalar chorrahasida yuzaga kelgan tarjimashunoslik nazariyasi, ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik masalalarini o‘z ichiga oladi. Va tabiiyki, kognitiv masalalar bu sohani chetlab o‘ta olmaydi, ayniqsa, masala badiiy matn tahlili bilan bog‘liq bo‘lsa. Badiiy matn, birinchi navbatda, kognitiv jarayonning mahsuli bo‘lib, unda ijodkorning olam talqini ifodalangan bo‘ladi. Shuning uchun ham, tarjimon badiiy tarjimaga qo‘l urishdan avval muallifning biografiyasi, motivatsiyasi, madaniy muhiti va asarning mazmuni bilan tanshib chiqishi tarjima sohasida keng tarqalgan amaliyot.

¹ Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019, 300 b.



Bu haqida Raima Shirinova atroflicha fikr bildirgan: “Tarjimon tarjimaga kirishishdan avval o‘zi tarjima qilmoqchi bo‘lgan asar yozuvchisining ijod yo‘nalishi, adabiy merosi bilan yaqindan tanishishi, uning adabiy uslubi, ruhiyati, maqsadi va barcha ichki hamda tashqi kechinmalarini his qila olishi lozim. Mabodo, yozuvchi bilan tarjimonning uslubi, adabiy, estetik didi va o‘y-xayollari bir-biriga mos kelmasa, unda tarjimon bu ishga qo‘l urmagan ma‘qul. Chunki tarjimon tarjima jarayonida adibning g‘oyaviy badiiy maqsadini yoki individual uslubini tushunmasligi oqibatida ham u tarjima qilgan asarda kognitiv unsurlar paydo bo‘lib qolishi mumkin”¹.

Demak, zamonaviy tarjimashunoslikning oldida turgan masalalardan biri bu badiiy tarjimalardagi matnning kognitiv tahlil nazariyasi va metodologiyasiga e‘tibor qaratishdir. Bunda esa, markaziy masalalardan biri asliyatdagi badiiy matnning kognitiv tahlili desak, adashmaymiz. Bunday tahlil metodi quyidagi *maqsadlarni* ko‘zlaydi:

1. Ijodrok matnda aks etirilgan badiiy olam manzarasini tushunish,
2. Badiiy olamning qurilishida asos bo‘lgan individual tizimli-mazmun birliklarini aniqlash.
3. Matnning sintagmatik darajasidagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamlarni o‘rganish.

Qo‘yilgan maqsadga yetish uchun quyidagi bajarilishi kerak bo‘lgan *vazifalar*:

1. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi nima ekanligini tushunish.
2. Badiiy konsept tushunchasiga izoh berish.
3. Lingvomadaniy va badiiy konseptlar o‘rtasidagi tafovutni aniqlash.

Ushbu maqolani yozishda *qiyosiy tahlil* va *deskriptiv tahlil usullaridan* foydalanilgan. Qiyosiy tahlil mavjud manbalardagi ma‘lumotlarni qiyoslash va umumiy xulosaga kelishga qaratilgan. Deskriptiv tahlil esa mavjud manbalardagi ma‘lumotlarni tushunish va ulardagi mazmunni yuzaga chiqarishga qaratilgan. Bunday tahlil usullari badiiy matnning kognitiv tahlilli va badiiy konsept bilan bog‘liq tadqiqotlarda mavjud bilimlarni o‘rganish, tizimlash va umumlashtirish imkonini beradi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq avval badiiy matnning kognitiv tahlili nima ekanligini tushunishdan boshlaymiz. Uning uchun to‘rt bosqichli tahlilni amalga oshiramiz:

1. Kognitsiya nima ekanligini bilish.
2. Kognitsiya terminining izohi asosida kognitiv tahlil nima ekanligini belgilash.
3. Kognitiv tahlil tushunchasi badiiy matnga nisbatan qanday qo‘llanilish tamoyilini asoslab berish.

Birinchi qadamni esa, kognitsiya terminini izohlashdan boshlaymiz. Buning uchun Kubryakovaning “Краткий словарь когнитивных терминов” nomli lug‘atini asos qilib olamiz. Manbaga ko‘ra, kognitsiya termini tashqi va ichki olamdan axborot

¹ Shirinova R. [Xorijiy filologiya, №1] Tarjimada kognitiv dissonans. – Samarqand, 2019, 24–38-b.



signallari sifatida “kirib keluvchi” sensorik (sezgi, hissiyot, tuyg‘u) ma’lumotlarni qayta shakillantiruvchi miyadagi barcha jarayonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Kirib keluvchi barcha sensorik ma’lumotlar qayta ishlanish uchun markaziy nerv sistemasiga, ya’ni miyaga kelib, obraz, propozitsiya, freym, skript, ssenariy kabi turli turdagi mental (ham psixik, ham aqliy) namoyon bo‘luvchi birliklarga o‘zgaradi va ehtiyoj paydo bo‘lganda ulardan foydalanish uchun xotirada ushlab turiladi. Kognitiv yoki kognitsiya jarayonlari sifatida nafaqat tafakkur va nutqni, balki olam bilan aloqaga kirgandagi perseptual (olam haqidagi barcha ma’lumotlarni aks ettiruvchi) jarayonlarni, sensorik tajribani ham ko‘rish mumkin¹. Ya’ni, kognitsiya – ichki yoki tashqi dunyodan kelgan har qanday ma’lumotni qayta ishlash, sistemalashtirish, sturkturalashtirish, mazmun berish kabi inson tafakkuridagi bir qancha murakkab jarayonlarni ifodalagan termin deb hisoblash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumot asosida kognitiv tahlilni kognitiv jarayonlar natijasida yuzaga kelgan dunyoni anglashdagi tajribani tushunishga qaratilgan analitik metod deb xulosa qilsa bo‘ladi. Bu esa, kognitiv tahlil metodini badiiy matnga nisbatan qo‘llash, undagi ijodkor matnda aks ettirgan kognitiv jarayonlar natijasida yuzaga kelgan tajribani bilish imkonini beradi degani. Bu haqida batafsil quyida ko‘rib chiqsak.

Lotman, har qanday badiiy matn–bu shunchaki ikki chegara² orasidagi belgilar ketma-ketligi emas. Badiiy matnga ichki yaxlitlik xos. Bunday yaxlitlik sintagmatik darajada semantik maydonni hosil qiluvchi struktur birlikni shakillantiradi, deb fikrlaydi³. Ya’ni, matn badiiy deb atalishi uchun, u sintegmatik darajada yaxlit semantik maydonni hosil qiluvchi ichki struktur birlikka ega bo‘lishi kerak. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi aynan shunday ichki yaxlitlikni tashkil etgan semantik maydonni, matn strukturasi aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Natijada asardagi muallifning individual badiiy olamiga nazar solish imkoni paydo bo‘ladi. Bunday tahlil metodi matnning nafaqat mazmunini, balki, mazmun ortida yotgan mental modellarni; bosh qahramonlar dunyoni qanday tushunishi, qanday konseptlar aks etgani, o‘quvchi matnni qanday qabul qilib qanday talqin qilishi mumkinligini tushunish imkonini beradi. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodining asosiy jihatlaridan biri–bu matnda mavjud konseptlarni yoki konseptual metaforalarni o‘rganishdir. Bu esa, badiiy matnning chuqur qatlamini ochishga yordam beribgina qolmay, uni tarjima matnida kommunikativ maqsadga muvofiqlik doirasida tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Ushbu tahlil til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, matn orqali berilayotgan konseptlarning tarjimada qanchalik samarali aks etganini baholash imkonini beradi.

¹ Кубрякова Й.С. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Москва, 1997, 197 стр.

² Ikki chegara – matnning boshlanishi va yakuni nazarda tutilgan.

³ Лотман Й.М. Структура художественного текста. [Искусство – СПб]. Санкт – Петербург, 1998, 285 стр.



Demak, badiiy matnlarning kognitiv tahlil birliklaridan biri—bu badiiy matn aks etgan konseptlar, aniqrog‘i badiiy konseptlardir.

Konseptlar yoki meta tushunchalar insonning kognitiv qobilyati uchun ham hissiy, ham aqliy resus birligi sifatida xizmat qilib, bunday resurs birliklari insonning dunyo haqidagi tajribasini tizimlashtirishga yordam beribgina qolmay, tafakkurning tizimli-mazmun resurs birligi sifatida idrok obyektini haqidagi barcha bilim, tajriba va fikrlarni o‘zida jamlagan bo‘lishi haqida avval ham yozgan edik. Konseptlarning bunday xususiyati tilda namoyon bo‘lishi, ushbu tilda so‘zlashuvchilarning dunyo haqidagi tasavvurini tushunish imkonini beradi. Bunday hodisa o‘zbek tilshunosligida “olamning lisoniy manzarasi” termini bilan ifodalanadi. Konseptlarga berilgan bunday ta’rif ma’lum bir til madaniyatida mavjud “umumiy meta tushunchalar”ni, yoki Askoldov (1928) so‘zi bilan aytganda, “idrok konseptlari”ni ifodalash uchun mos keladi. Lekin, bunday umumiylikka qarshi keladigan yana bir hodisa borki, u til madaniyatida mavjud umumiy meta tushunchalarni ifodalash uchun emas, individual (shaxs) tafakkurini ifodalash uchun tizimli-mazmun resurs birliklari sifatida xizmat qiladi. Bunday hodisa zamonaviy filologiyada “badiiy konsept” termini bilan ifodalanadi.

Badiiy konsept haqida birinchilardan bo‘lib yozgan filolog, shubhasiz, Askoldov bo‘ladi. “So‘z va konsept” nomli maqolasida konseptlar haqida fikr yurita turib ularni ikki qarama-qarshi guruhga ajratadi: “концепты познания” (idrok konseptlari) va “концепты художественные” (badiiy konseptlar). Idrok konseptlariga hissiyotlar, istaklar, umuman, irratsionallik (aniq bir qonuniyat doirasida aql bilan izohlab bo‘lmalik) xos emas. Badiiy konseptlar esa, o‘z ichiga ham ratsionallik va irratsionallikni, ya’ni tushunchalar, tasavvurlar, hissiyotlar, tuyg‘ular, ba’zida, hattoki irodani qamrab olgan bo‘lishi mumkin deb yozadi. Shu sababdan ham, badiiy konseptlar idrok konseptlaridan psixologik murakkabligi bilan ham farqlanib turishini aytadi. Askoldovning fikricha, psixologik kategoriyalarni badiiy konseptlar uchun yod deb hisoblash xato, aksincha, badiiy sezgining rivojlanishi ruhiy rivojlanish bilan birga ketishini ta’kidlaydi. Badiiy va idrok konseptlarining o‘rtasidagi sezilarni farqlardan biri—bu badiiy konseptlar imkoniyatlar jihatdan cheksiz bo‘lishini aytadi. U buni quyidagicha izohlaydi: “Badiiy konseptlardan farqli idrok konseptlari voqelik qonuniyatlarida mavjud talablarga yoki mantiqiy qonuniyatlarga bo‘ysungan bo‘ladi, badiiy konseptdagi elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlik esa, idrok konseptlariga umuman yod bo‘lgan mantiqqa va badiiy assotsiatsiyalardagi real pragmatikaga bo‘ysungan bo‘ladi. Tog‘ri badiiy konseptlar butunlay mantiq yoki voqelik qonuniyatlarini rad etadi deb bo‘lmaydi, shunday bo‘lsa-da, ularni hech qanday umumiy qoidalar bilan izohlab bo‘lmaydi va aynan shu jihat ulardagi individuallikni belgilab beradi”¹.

Askoldov aytmog‘chi bo‘lgan fikrni umumiyashtiradigan bo‘lsak, badiiy konseptlarni tushunish uchun biz ijodkor, shaxs tafakkuri bilan ishlashimiz kerak. Sababi, idrok konseptlaridagi elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlik til madaniyatida mavjud

¹ Асколдов С.А. Концепт и слово // “Русская речь” to‘plami, 2-nashr, 1928, 28–44 str.



ratsionallikka bo'ysungan bo'lsa, badiiy konseptlardagi elementlar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab psixologik va idrok jarayonlaridagi ham ratsionallik va irratsionallikka bo'ysungan bo'ladi. Aynan shu jihat ulardagi individuallikni belgilab beradi.

Olshanskiy Igor Grigoyevich badiiy matnlarda konseptning o'rni haqida shunday yozadi: "Har qanday badiiy matn ma'lumotni o'ziga xos uslubda berishi bilan ajralib turadi. Matn tabiatiga ko'ra biosemiotik "ikki karra kodlangan" bo'ladi: agar til holatni tasvirlab berish uchun, ya'ni xabarni kodlash uchun ishlatilsa, metatil esa o'sha kodlangan xabarni talqin qilish uchun ishlatiladi. Konsept esa badiiy matni lingvokulturologik ta'riflash uchun "dekodlash" (kodni yechish) kaliti bo'lib xizmat qiladi"¹.

Olshanskiy aytgan fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Aslida ham, badiiy konseptlar matndagi metamazmunni, ya'ni birlamchi matndagi begilarda emas, ularning semantik qatlamida yotgan metasemiotik qatlanmi tushunishga yordam beradi. Badiiy matndagi metasemiotik qatlanmi tushunish esa, matn yaralish jayonidagi muallifning motivini, tafakkurida kechgan jarayonlarni ochib beradi.

Badiiy konseptlarni filologik nuqtayi nazardan o'rgangan yana bir tadqiqotchi Lyudmila Vladimerovna Miller bo'ladi. Askoldov kabi konseptlarni ikki guruhga ajratadi: lingvomadaniy konseptlar va badiiy konseptlar. Faqat, Askoldov idrok konseptlari deb e'tirof etgan hodisani Miller lingvomadaniy konseptlar deb nomlaydi. Bizningcha ham, tildagi konseptlarni aynan Miller taklif qilgan termin atash ushbu hodisani tabiatini aniqroq ifodalaydi. Miller uchun badiiy konseptlar – ijodkorning o'ziga xos universal badiiy tajribasidir. Bunday tajriba madaniy xotirada muhrlangan bo'lib, yangi badiiy mazmunni yaratish uchun resurs sifatida xizmat qiladi. deb hisoblaydi. Miller "Художественная картина мира (ХКМ)" (Olamning badiiy manzarasi) degan tushunchani kiritadi. Millelarning fikricha, OBM – tabiati jihatdan ideal (xayoliy mukammal) jism. Badiiy muloqot uchun estetik asos bo'lib xizmat qiladi. O'ziga xos intensional (tushunchaning mazmunini ifodalagan) tizimdan iborat bo'lib, ham individual, ham jamoaviy ongsiz tafakkurda aks etgan bo'ladi. Bunday tizim matnda qat'iy bir shakldagi belgilar sifatida namoyon bo'lmaydi, ammo ular ma'lum bir etnomadaniy jamiyatning tafakkurida estetik-intension (estetik tushunchalarning mazmunini ifodalagan) "fayl" sifatida mavjud bo'ladi. Va mana shu "fayl" ichida estetik mazmunni ifodalagan barcha tushunchalar passiv holatda mavjud bo'lib, badiiy asarlar bilan tanishish jarayonida yuzaga chiqadi. Bunday xayoliy mukammal tushunchalar yig'indisi o'z negizida badiiy konseptlar degan hodisani tashkil etadi. Bunday turdagi konseptlar betakror bo'lgan emotsional-intellektual (ham hissiy, ham aqliy) maydonni shakllantiradi. O'quvchi badiiy asar bilan tanishish jarayonida assotsativ va kanotativ mexanizmlarning ishga tushishi sabab, ana shu maydondagi ma'lumotlarni talqin qilish va asardagi yashirin mazmunni ochish hamda estetik obyektini ajratib olish imkoni bo'ladi. Har bir badiiy konseptlardagi mazmun madaniy

¹ Олшанский Г. И. Текст как единство элементов и отношений // Лингвистика текста: материалы научной конференции. –М., 1974. Ч. 1. С. 12–14.



konseptlardagi ma'lumotlarga mos bo'lib, retsepiyent (qabul qiluvchi) ma'lumotlarni qanday qabul qilishini va qanday estetik reaksiya bildirshini belgilab beradi. Shu sababdan ham OBM milliy mental o'ziga xoslikni aks ettirgan bo'ladi, deyish mumkin¹.

Badiiy tarjimalar va ularning xususilayatlari haqida yozgan yana bir filolog Kazakova Tamara Anatolyevna bo'ladi. Kazakova badiiy matnda uchraydigan konseptlar haqida shunday deydi: "Badiiy matn real yoki xayoliy dunyo haqida qandaydir xabar beradi. Agar bu xabarni mantiqiy tahlil terminlarida baholaydigan bo'lsak, badiiy matnda ma'no hosil qiluvchi komponentlarning o'ziga xos turdagi tushunchalari, ya'ni obrazli konseptlar bo'lib chiqadi". Kazakova konsept termini ostida real yoki xayoliy dunyodagi obyektning muhim yoki xususiy belgilari haqidagi tasavvur yoki idrok sistemasini nazarda tutishini yozadi. Uning yozishicha badiiy matndagi mantiq shundayki, undagi konsept mantiqiy xulosalar yig'indisida ko'rinishda ochiq holatda bo'lmaydi, aksincha, yaxlit bir badiiy obraz shaklida yopiq shaklda ifodalangan bo'ladi. Aynan mana shunday yaxlit bir obrazga bog'lanib, matnda yopiq (oshkor bo'lmagan) holatda mavjud ma'no hosil qiluvchi tushunchalar obrazli konsept deyiladi. Odatda, obrazli konsept badiiy matnda yaxlit bir shaklda qabul qilinadi, ammo badiiy tarjimada esa bunday obraz, hech bo'lmaganda, ikki bosqichli: konseptual tahlilga va emotiv bahoga beriladi deb yozadi. Konseptual tahlilni u shunday tariflaydi: "Konseptual tahlilning asosiy jihati badiiy obrazni aniqlashdagi birlamchi obrazli konseptning eng muhim subyektiv-predikat xususiyatlarini va ularni ifodalash uslublarini aniqlab olishdan iborat bo'ladi"².

Tarasova Irina Anatolyevna badiiy konseptlarni ikki xil talqin qilish mumkin deb hisoblaydi. Birinchisi, muallifning individual ruhiy dunyosini aks ettirgan birlik sifatida. Ikkinchisi, milliy badiiy an'ananing, aniqrog'i milliy badiiy olam manzarasining bir elementi sifatida. Birinchi yondashuv ko'proq lingvostilistik, kognitiv poetik va kommunikativ stilistika rumumiga xos qarash deb fikrlaydi. Misol tariqasida O.V. Bepalova o'z dissertatsiyasida badiiy konseptga nisbatan bergan izohini keltiradi: "Badiiy konsept—bu shoir yoki yozuvchining tafakkur birligi bo'lib, badiiy asarda yoki badiiy asarlar to'plamida namoyon bo'lgan bo'ladi". Ikkinchi yodashuv esa, badiiy konseptning shu tilda shakllangan badiiy madaniyatning xususiy realizatsiyasi sifatida ko'rilishini yozadi va misol tariqasida yuqorida ko'rib chiqilgan Millerning fikrini keltiradi³.

Yana ikki tadqiqotchi Mileyko Yelena Vladimirovna va Rus-Bryushinina Ines Valentina hamkorlikda yozgan maqolalarida badiiy konseptlarni muallifning individual olam manzarasi deb izohlashadi. Ularning fikricha, badiiy konseptlar badiiy matn,

¹ Миллер Л. В. [Мир русского слова] Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория. – Санкт-Петербург, 2000., № 4., с. 39–45.

² Казакова Т.А. Художественный перевод: о'quv qo'lanma. – Санкт-Петербург, 2002, 109стр.

³ Тарасова И.А. [Вестник Нижегородского университета] Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения: Саратовский государственный педагогический университет, Саратов, 2010. № 4 (2), с. 742–745.



olamning badiiy manzarasi degan tushunchalar bilan chanbarchas bog‘liq. Shu sababdan ham, badiiy konseptlar lingvomadaniy, lingvomamlakatshunoslik, madaniy, psixologik va bosh shu turdagi kognitiv yo‘nalishlar bilan kompleks o‘rganilishi kerak. Har qanday badiiy konsept muallifning individual tafakkurini aks ettiribgina qolmay, butun etnomadaniy jamoaning tafakkurini ham aks ettirgan bo‘ladi. Badiiy konseptlarning aynan shu jihati ulardagi ham individuallikni, ham milliylikni o‘rganish imkonini beradi, deb hisoblashadi. Badiiy konseptlar idiositilining¹ markaziy kategoriyasi bo‘lib, badiiy matnda aks etgan lisoniy tizimidagi muallifning dunyoqarashini ifodalagan bo‘ladi, deb yozishadi. Shu sababdan ham, har qanday badiiy asar yaratilgan sotsiumning bir qismi bo‘lsa-da, lekin baribir muallifning tafakkurida shakllangan individual olam manzarasini ifodalagan bo‘ladi, deb xulosa qilishadi².

Mohinurxon Ilyasxonova Xurramovna o‘z maqolasida badiiy konseptlar haqida bir necha muhim fikrlarni bildirib o‘tgan. Masalan, badiiy asarlarda uchraydigan tushunchalarning tabiati haqida shunday deydi: “Badiiy adabiyotdagi tushunchalar, bir tomondan, umuminsoniy va lingvomadaniy g‘oyalarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular o‘zlarining konseptual dunyosini, qoida tariqasida, hissiy va obrazli yaratadilar”. Bu kabi badiiy konseptlarning tabiatiga nisbatan berilgan ta’rif rus filologlari tomonidan ham aytilgan. Badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo‘lishi mumkin deb yozadi. Xurramova badiiy asarda uchraydigan asosiy g‘oyani “global konsepsiya” deb nomlaydi. Bunday atama biz yuqorida keltirgan “meta tushuncha” degan ta’rifga mos keladi. Badiiy asarda uchraydigan konseptlarning funksional vazifasi sifatida quyidagicha fikr bildiradi: “Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash usuli bo‘lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san’at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rnini hamda o‘quvchilar ommasiga ta’sir etish darajasini belgilaydi”. Xurramovaning fikricha, badiiy matnlarda ifodalangan konseptlarni o‘rganish matn muallifi dunyosining individual tasvirini tushunishga yordam beradi. Muallifning individual tasvirini tushunish esa, o‘sha madaniyatda rivojlangan go‘yalarning jamoaviy tizimini qanday aks ettirishi va unga ta’sir qilishini aniqlashga yordam berishini ta’kidlaydi³.

Badiiy konseptlarga nisbatan o‘z fikrini bildirgan yana bir tadqiqotchi G‘aniyeva Nigora Olimbekovna ushbu hodisani o‘z fikrini quyidagicha tarzda bildiradi: “Badiiy konseptni o‘rganish kognitalogiyaga doir bo‘lgan tadqiqotlar bilan bog‘liq. Badiiy

¹ Idiositil – filologiyada birinchi bo‘lib Grigoyev V.P. tomonidan kiritilgan termin bo‘lib, yozuvchi yoki shoirning individual mualliflik uslubini nazarda tutadi.

² Mlieyko Y.V., Rus-Bryushina I.V. [Филологические науки. Вопросы теории и практики] Художественный концепт как объект лингвистического исследования. Тамбов, 2016, №11(65), –с. 128-130. <http://www.gramota.net/materials/2/2016/11-3/36.html>

³ Xurramova M.I. [Science and education jurnali, volume 5, issue 11] Badiiy adabiyotlarda konsept tushuncha, Samarqand:Samarqand davlat chet tillari universiteti, 2023, 413–417-b. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-adabiyotlarda-konsept-tushunchasi>



konseptning lingvistik ifodasini o'rganish badiiy matnning g'oyaviy ma'nosini o'rganishga va yozuvchining ijodiy uslubini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy konsept umumbashariy madaniy va muallifning individual dunyoqarashini o'z ichiga oladi va shu tarzda butun asarning obrazli tizimida badiiy timsolni yaratadi". G'aniyeva badiiy konseptlarning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritadi: tasvir, obrazlilik, hissiylik, simvolizm, semantik mazmunning o'rgaruvchanligi va ma'noning boyishi. G'aniyeva badiiy konseptlarni o'rganishga doir yondashuvlarni ikki guruhga ajratish mumkinligini qayd qiladi:

1. Badiiy konseptni muallifning individual fikrlash birligi sifatida tahlil qilish.
2. Badiiy konseptni dunyoning badiiy tasviri sifatida tahlil qilish.

Badiiy matn ijodiy jarayon mahsuli bo'lganligi sabab, muayyan konsept birinchi o'rinda o'brazlilik va individuallikka ega bo'lishini yozadi. G'aniyeva ham xuddi Xurramova kabi konseptlarni ikki turga asosiy hamda madaniyga ajratadi va ularga shunday ta'rif beradi:

“Asosiy konseptlarga muayyan tarixiy davrda yoki ma'lum bir ijtimoiy-madaniy makonda shakllangan jamiyatning ma'naviy hayotini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar kiradi. Ular axloqiy atamalar, ma'naviy fikrlar sifatida shakllanib, adabiy asarda asosiy badiiy konsept sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy badiiy tushunchalar esa semiologik shakllanishlar bo'lib, dunyoning etnik madaniy qarashlarini shakllantiradi, ular ma'lum bir madaniyatni, aks ettiruvchi tushunchalardir. Madaniy konseptlar xalq ruhini aks ettiruvchi tushunchadir va uning eng dominant qiymati unda xalqning milliy qadriyatlariga bog'liqligidir”¹.

Ushbu aytilgan fikrga albatta e'tiroz bor. Sababi, asosiy konseptlarga berilgan ta'rif bilan madaniy konseptlarga berilgan ta'rifda hech qanday farq yo'q. Ikkisi ham madaniy hodisa sifatida izohlanyapti. Aslida konseptlarni ikki guruhga ajratishda Millerning izohidan kelib chiqqan maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni, konseptlar yoki lingvomadaniy, yoki badiiy (ijodga tegishli ma'nosida) bo'ladi. Agar lingvomadaniy konseptlar tarixiy-ijtimoiy jarayonlarda yuzaga kelsa, badiiy konseptlar ijodkorning ham aqliy, ham hissiy jarayonlarining natijasidir. Albatta, har qanday badiiy konseptlarda lingvomadaniy izlarni topish mumkin, lekin bu ulardagi individuallikni yo'qqa chiqarmaydi, aksincha, ulardagi semantik qatlamni ham madaniy, ham individual nuqtayi nazardan ochib berish imkonini beradi.

Badiiy konseptlarga tipologik nuqtayi nazardan baho bergan yana bir tadqiqotchi Xalimova Furuza Rustamovna. Xalimova ham, xuddi G'aniyeva va Xurramova kabi “asosiy” va “madaniy” turga ajraladigan konseptlar haqida yozadi, bunday yondashuv konsept hodisasiga surunkali noto'g'ri baho berish hisobiga yuzaga kelgan, degan xulosaga kelish mumkin deb fikrlaymiz. Xurramova badiiy konseptlarning turlari haqida shunday yozadi: “Badiiy nutqda ifodalanishiga ko'ra badiiy konseptlar quyidagi

¹ G'aniyeva N.O. [Ta'lim fidoyilari elektron jurnal] Konsept va badiiy konsept tushunchasi. 2023, -b.150–155, <https://doi.org/10.5281/zenodo.8384384>



turlarga bo‘linadi: individual, mikroguruhli, milliy, sivilizatsion, umumbashariy”¹. U badiiy konseptlarning tabiatini lingvomadaniy konseptlarga qiyoslash orqali tushunish mumkinligi haqida yozadi. Ya’ni, lingvomadaniy konseptlarda mavjud barcha xususiyatlar badiiy konseptlarda ham bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Bu jihatdan esa, Xurramova ham, xuddi rus filologlarai kabi, muallif tafakkurida shakllangan konsept madaniyatda mavjud konseptning aks etishi degan fikrni takrorlayapti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi deb hisoblaymiz. Ammo, rus filologlarida uchramaydigan bir fikr borki, u lingvomadaniy badiiy konsept tushunchasi. Ya’ni, Xurramova uchun lingvomadaniy konsept va badiiy konsept o‘rtasidagi tafovut mavjud emas, shu sababdan ham bu ikki termini birlashtirishda hech qanday muammo ko‘rmagan. Vaholanki, muammo yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Avval ham aytilganidek, har qanday badiiy asar o‘zi yozilgan til madaniyati ta’sirida bo‘ladi. Lekin bu degani, ijodkor ta’riflagan konsept madaniyatdagi konseptga ekvivalent bo‘la oladi degani emas, sababi, ijodkor tafakkurida shaxsiy tajriba etnik tajribadan ustunroq turadi. Va shuning uchun ham unda betakror o‘ziga xoslik, individuallik sezilib turadi. Badiiy konseptlar esa, aynan shunday o‘ziga xosligi bilan madaniy konseptlardan farqlanib turadi. Badiiy konseptlarni o‘rgana turib, unda tildagi madaniy izlarni uchratishimiz mumkin, ammo ular muallifning individual olam manzarasining oqimida qolib ketadi.

Karimova Safo Sayfullayevna badiiy konseptlarning tabiatini tushunish uchun ularni kognitiv (mantiqiy) oppozitsiyada tahlil qilish bilan beradi. Agar kognitiv konseptlarning asosi obyektivlik bo‘lsa, badiiy konseptlarning asosi subyektivlik bo‘ladi. Agar kognitiv konseptlar umuminsoniy tasavvurlarni ifodalagan bo‘lsa, badiiy konsept individuallik belgilariga asoslangan bo‘ladi, deb hisoblaydi. Karimova badiiy konseptlarga shunday ta’rif beradi: “Badiiy konsept tafakkur birligi, alohida ijodkor yaratgan matnda lisoniy voqealangan hodisa sifatida tushinish lozim. Badiiy konseptning mazkur ko‘rinishidagi talqini kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika doirasida taklif etilgan ta’riflar bilan o‘xshashligi yaqqol ko‘rinib turadi”. Til birliklarini, badiiy tasvir vositalarini badiiy matnning shakli sifatida ko‘rilsa, uning ruhini anglash, asardagi konseptlarni to‘g‘ri tushinishni shoirning ichki olamiga kirib borishga qiyoslaydi².

Xulosa. Bizda mavjud manbalar asosida badiiy matnning konseptaul tahlil metodi va badiiy konsept haqida muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

¹ Xalimova F.R. [Far DU ilmiy xabarlar ilmiy jurnali] Badiiy konseptlar tipologiyasi: Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, 2023, 490–493-b.
<https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/470>

² Karimova S.S. “Baxt” konseptning badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasini misolida) Phd dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023, 54-b.



1. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi matndagi ichki yaxlitlikni tashkil etgan semantik maydonni, matn strukturasi aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

2. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi matnning ham lingvosemantik, ham metasemiotik qatlamini ochishga va undagi mental modellarni; bosh qahramonlar dunyoni qanday tushunishi, qanday konseptlar aks etgani, o'quvchi matnni qanday qabul qilib, qanday talqin qilishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

3. Badiiy konsept – ijodkor yaratgan asarning sistemligini ta'minlab beruvchi tizimli-mazmum birligi bo'lib, uning tafakkuridagi olamning individual manzarasini aks ettirgan bo'ladi. Ijodkorlar yaratgan san'at asarlari misolida buni osongina tushinib olish mumkin. Masalan, istalgan bir badiiy asarni xayol qilib olaylik. Bir qaraganda tartibsizdek tuyilgan jarayonlar, voqealar, bosh qahramonlar obrazi, aslida ijodkor tafakkurida tasavvur etgan yaxlit "surat" bo'ladi. Fikrimizcha, har qanday badiiy asarni, bir yoki bir necha konseptni ifodalagan, yaxlit struktura sifatida ko'rish mumkin.

4. Badiiy konseptlar shu tilda mavjud madaniy badiiy qarashlarni ifodalagan yoki ularning natijasida shakllangan bo'ladi, degan fikrlar ham qayta-qaytda uchradi. Va bu qisman to'g'ri deb hisoblasak bo'ladi. Sababi, badiiy konseptlar, lingvomadaniy konseptlardan farqli ijodkor tafakkuridagina mavjud bo'lib, o'zi ijod qilgan til madaniyatidagi umumiy meta tushucha (lar)dagi mazmunga mos kelmasligi, ayrim holatlarda qarshi qo'yilgan ham bo'lishi mumkin. To'g'ri, ijodkor ma'lum bir til madaniyati doirasida shakllanadi va uning asarlarida buning izlarini aniqlash mumkin. Lekin bu degani, uning asarlari o'zi ijod qiladigan til madaniyatidagi umumiy qarashlarni ask ettirishga mahkum degani emas. Til madaniyatidagi umumiy meta tushunchalarni emas, aksincha, individual yondashuv asosida shakllangan ijod konseptlariga nisbatan "badiiy konsept" termini qo'llaniladi. Badiiy konseptlar – biron-bir shaxsning tafakkuridagi dunyoning individual lisoniy manzarasini nazarda tutgan termin.

5. Badiiy konseptlar ham huddi lingvomadaniy konseptlar kabi barcha falsafiy, estetik, obyektiv xususiyatlarga, Askoldovning so'zi bilan aytganda, ratsionallikka ega bo'ladi. Biroq, ularda, irratsionallik ham mavjud bo'ladi. Badiiy konseptlar obyektivlik voqelik bilan bir qatorda ijodkorning subyektiv voqeligini ham ifodalashi sabab, olamning lingvomadaniy manzarasi va olamning individual manzarasi bir tafakkurda qorishgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Askoldov S.A., Концепт и слово // "Русская речь" сборник, 2-е издание, 1928, стр. 28–44.
2. Danilenko I.A. [Вестник Московского государственного областного университета (электронный журнал)] Выявление концептов-доминант в художественном тексте: Belgorod davlat universiteti, Belgorod, 2022. №3



- www.evestnik-mgou.ruSafarov SH. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashiryoti, 2019, 300 b.
3. Kazakova T.A., Художественный перевод: учебник - Санкт-Петербург, стр. 2002, 109.
 4. Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida) Phd dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023, 54b.
 5. Kubryakova Y.S. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Moskva, 1997, 197 стр.
 6. Lotman Y.M. Структура художественного текста. [Искусство – СПб]. Санкт-Петербург, 1998, 285 стр.
 7. Miller L. V. [Мир русского слова] Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория. – Санкт-Петербург, 2000., № 4., стр. 39–45.
 8. Mlieyko Y.V., Rus-Bryushina I.V. [Филологические науки. Вопросы теории и практики] Художественный концепт как объект лингвистического исследования. Tambov, 2016, №11(65). стр. 128–130.
<http://www.gramota.net/materials/2/2016/11-3/36.html>
 9. Olshanskiy G. I., Текст как единство элементов и отношений // Лингвистика текста: материалы научной конференции. М., 1974. Ч. 1. –С. 12–14.
 10. Shirinova R. [Xorijiy filologiya, №1] Tarjimada kognitiv dissonans. – Samarqand, 2019, 24–38-b.
 11. Tarasova I.A. [Вестник Нижегородского университета] Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения: Саратовский государственный педагогический университет, Саратов, 2010. № 4 (2). 742–745. Стр.
 12. Xurramova M.I. [Science and education jurnali, volume 5, issue 11] Badiiy adabiyotlarda konsept tushunchasi, Samarqandi: Samarqand davlat chet tillari universiteti, 2023, 413–417-b. Yuklab olingan web-manzil:
<https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-adabiyotlarda-konsept-tushunchasi>
 13. Xalimova F.R. [FarDU ilmiy xabarlar ilmiy jurnali] Badiiy konseptlar tipologiyasi:Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, 2023, 490–493-b
<https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/470>
 14. G‘aniyeva N.O. [Ta‘lim fidoyilari (elektron jurnal)] Konsept va badiiy konsept tushunchasi. 2023, 150–155-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8384384>



MAHMUDAXON SAYDUMAROVA

Tadqiqotchi, Amir Sulton Universiteti, Ar-Riyod,

“O‘tkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarini arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek romanchiligi shakllanishidagi dastlabki asarlardan biri bo‘lgan Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘TKAN KUNLAR” romanining chet tillarga tarjimalari o‘zbek adabiyotini va o‘zbek madaniyatini dunyoga tanishtirishda beqiyos xizmat qilishini e‘tiborga olgan holda, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim masala – ushbu asarda qo‘llanilgan o‘zbek madaniyatiga xos nutqiy etiket birliklarining xorijiy tillarga tarjima qilinishini bir necha tillar – arab va ingliz tillari misolida tadqiq etiladi. Romandagi o‘zbek zehniyatiga xos jihatlarni xorijiy tillarga tarjima qilishdagi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, mazkur tarjimalarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar, ularning sabablari, tarjimalardagi vositachi til roli o‘rganiladi va mazkur xatolarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, o‘tkan kunlar, badiiy tarjima, asliyat, tarjimashunoslik, nutqiy etiket birliklari.

Аннотация. В статье рассматривается один из важных вопросов как с точки зрения сравнительного языкознания, так и переводоведения - перевод на иностранные языки лингвистических единиц речевого этикета в романе “Минувшие дни” - одного из первых произведений в становлении узбекской романистики, написанное Абдуллой Кадыри, подчеркивая несравнимую роль перевода в ознакомлении иностранных читателей с произведением узбекской литературы, на примере их перевода на арабский и английский языки. Помимо положительных сторон перевода узбекской ментальности в романе на иностранные языки, изучаются допущенные в этих переводах ошибки и упущения, их причины, роль языка-посредника при переводе, а также даются рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: абдулла кадыри, минувшие дни, художественный перевод, оригинал, переводоведение, лингвистические единицы речевого этикета

Abstract. The article examines one of the important issues from the perspective of both comparative linguistics and translation studies - translation into foreign languages of linguistic units of speech etiquette in the novel "Bygone Days" - one of the first works in the formation of Uzbek novels, written by Abdulla Kadiri, emphasizing the incomparable role of translation in familiarizing foreign readers with the work of Uzbek literature, using the example of their translation into Arabic and English. In addition to the positive aspects of translating the Uzbek mentality in the novel into foreign languages, the errors and omissions made in these translations, their causes, the role of the intermediary language in translation are studied, and recommendations are given for their elimination.



Keywords: *abdullah kadiri, bygone days, literary translation, original, translation studies, linguistic units of speech etiquette*

KIRISH. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romanining chet tillarga tarjimalari, shubhasizki, o‘zbek adabiyotini va o‘zbek madaniyatini dunyoga tanishtirishda beqiyos xizmat qiladi. Ayni paytda mazkur roman o‘zbek madaniyatida nutqiy etiket birliklarining badiiy asarda qo‘llanishi bo‘yicha klassik namunalardan biridir. Badiiy asarda qo‘llanilgan nutqiy etiket birliklarining boshqa tillarga tarjima qilinishi bir necha tillar misolida tadqiq etilishi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham, tarjima-shunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Maqsad va vazifa: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsad va vazifasi o‘zbek adabiyotining sara asarlaridan biri bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanini arab va ingliz tillariga badiiy tarjima qilishda muallif uslubining qayta yaratilishi muammosini ko‘rib chiqish, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilishdagi xususiyatlarini o‘rganish, tarjima va asliyatdagi uyg‘unlikni aniqlash, ayniqsa, arab tilidagi tarjima to‘liq ruscha tarjimaga, inglizcha tarjima esa qisman asliyatga va qisman ruscha tarjimaga asoslanganini e‘tiborga olgan holda ushbu tarjimalarning asliyatga muvofiqligini tadqiq etish hamda mulohazalar yuzaga kelgan holda, ularning sabablarini aniqlash va aniqlangan muammoni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Usullar: Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy, tahliliy va tahliliy-qiyosiy usullardan foydalanildi. Ushbu maqola uchun material sifatida tanlangan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani arab tiliga misrlik tarjimon Muhammad Nasriddin al-Jibaliy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi 2024-yili Qohirada nashr etilgan¹, inglizcha tarjima esa amerikalik tarjimon Mark Riz tomonidan uzoq yillar davomida amalga oshirilgan bo‘lib, u AQSHda 2018-yili nashr etilgan². Arabcha va inglizcha tarjimalar asliyat bilan qiyosiy tadqiq etish barobarida ushbu tarjimalar uchun asos qilib olingan ruscha tarjimalar bilan qiyoslanib, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining tarjimasidagi nutqiy etiket birliklarining milliylikni aks ettiruvchi jihatlari predmet sifatida olingan tadqiqot jarayonida asliyat va tarjima matnlari tahlil qilinib qiyoslanar ekan, arab va rus tillarining izohli lug‘atlaridan hamda ensiklopedik lug‘atlardan foydalanildi³. Shuningdek, tarjimalardan keltirilgan misollar asarning asl nusxasidan keltirilgan

¹ Abdullab Qadiri, Al-Ayyam al-Khawali. Tarjamat dr. Muhammad Nasr al-Gebaly. “Dar al-Ma’arif li-n-nashr”, al-Qahira. 2024. 420 p.

² O‘tkan kunlar. Bygone Days by Abdullab Qodiriy. Translated by Mark Reese. Nashville TN, USA. 2018. 456 p.

³ Русско-узбекский словарь в 2-х томах. Главная редакция Узбекской Советской Энциклопедии. Т., 1983–1984. Т 1-й. 808 стр., Т 2-й, 800 стр. Al-Maajeem al-arabiyya <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>



misollar bilan berildi, lozim topilgan o‘rinlarda muallif taklif etgan tarjima variantlari ham berib o‘tildi.

Natijalar va mulohazalar. Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar jahon adabiyotining eng sara asarlari o‘zbek tiliga ko‘pincha rus tili orqali yoki rus tiliga tarjima qilingandan so‘ng amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyoti namunalari xorijiy tillarga rus tili orqali tarjima qilingan. “O‘tkan kunlar”ning L.Bat va V.Smirnova tomonidan 1958-yili rus tiliga qilingan tarjimasi, qariyb yigirma besh yil davomida bir necha bor tahrir qilingan va 1983-yilgi nashrida avvalgi nashrlardagi ba’zi xato va kamchiliklar tuzatilib, qayta nashr qilingan. Mazkur nashrga bir qator jiddiy tuzatishlar kiritilishiga qaramay, ushbu tarjima aslyatga mos kelishi to‘liq emasligi haqida fikrlar bildirilgan¹. Keyinchalik rus tiliga Muhammadnodir Safarov tomonidan qilingan tarjima annotatsiyasida birinchi tarjimaning to‘liq emasligi va unda haqqoniylik va muallifning asl ohangi tushib qolganligi ta’kidlanadi². Yangi tarjimada esa muallif matning to‘liq berilganligi va rus o‘quvchisi o‘zbek adabiyotining bu noyob asari bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘lganligi ta’kidlansa-da, mazkur tarjima bir qator jiddiy kamchilik va xatolardan xoli emas edi³. O‘zbek romannavisligidagi dastlabki asar hisoblangan ushbu romanning mazkur tarjimasi orqali asarni ingliz va arab tillariga o‘g‘irishda rus tili vositachi til rolini bajardi.

Amerikalik tarjimon Mark Riz (Mark Reese) tomonidan “O‘tkan kunlar”ning ingliz tiliga tarjima qilinishi o‘zbek ziyolilari tomonidan juda iliq qabul qilindi.

“O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimoni Mark Riz o‘zbek tilidan tarjima qilganini ta’kidlasa-da, tarjimoni asarning aslyati bilan qiyoslar ekanmiz, tarjimon ba’zi o‘rinlarda aslyatga, ba’zi o‘rinlarda esa ruscha tarjimaga asoslanganligi ham ayon bo‘ladi. Tarjimon ushbu badiiy tarjima jarayonida bir qator o‘zbekcha so‘zlar va istilohlarni transliteratsiya usulida bergan hamda o‘zbek romanining amerikalik o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun 400 dan ortiq izohlar yozgan.

Birinchi o‘zbek romanining arab tiliga tarjima qilinishi adabiyotimizning arab dunyosiga tanitish borasida tarixiy bir voqea bo‘lib qoladi. Ushbu tarjima muallifi ham adiblarimiz va adabiyotshunoslarimiz, ham adabiyotimiz muxlislari tomonidan iliq qarshi olinishiga ishonchimiz komil.

Asarning arab tiliga tarjimasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, tarjimon professor Muhammad Nasriddin al-Jibaliyning “Ayn Shams” universiteti tillar fakultetida, Podsho Saud Universitetining tillar va tarjima fakultetida rus tili ustozi sifatida ilmiy-pedagogik faoliyati hamda Misrning Moskvadagi Madaniyat markazidagi diplomatik faoliyati davrida hamda badiiy tarjima sohasidagi orttirgan katta tajribasini ta’kidlagan holda, tarjimon ushbu asarni arab adabiy tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilishga harakat qilganini aytib o‘tmoqchimiz.

¹ Касымова, З. О переводе роман «Минувшие дни». В журнале «Преподавание языка и литературы». № 6, 2006 г. Ташкент, стр. 67–78.

² А. Кадыри. Минувшие дни. Роман. Перевод с узбекского Мухаммаднодира Сафарова.– Т.: Главная редакция издательско-полиграфической компании «Шарк». 2009. 430 с.

³ Dilmurod Quronov, Feruza Habibullayeva. “O‘tkan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2018-yil, 7-son.



Tarjimon romanning arab tilida ravon o‘qilishini ta’minlash uchun o‘z imkoniyatlarini ishga solgan va muvaffaqiyatga erishishga astoydil harakat qilgan, deb aytish mumkin. Jumalalar arab adabiy tilida chiroyli tuzilgan. Adabiy tarjima talablaridan kelib chiqqan holda ushbu adabiy asarda Abdulla Qodiriy tomonidan qo‘llanilgan nutqiy etiket birliklari, o‘zbek maqollari va frazeologizmlarning rus tilidagi tarjimasi orqali bo‘lsa ham, arabcha ekvivalentlarini muvaffaqiyatli qo‘llashga erishgan. Masalan, “Yurgan daryo, o‘tirgan buryo (bo‘yra)” (ruscha: Идущий подобен реке, сидящий же – циновке”), (inglizcha: “Those who walk are a river, those who sit are a reed mat”) maqolining arab tilidagi ekvivalenti sifatida “الحركة بركة” (“Harakat barakadir”), “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan” (ruscha: “Ровня к ровне, а кизяку место в мешке”), (inglizcha: “Equal to equal, type with type, dung in its very own bag”) maqoli arabchaga “كل إناء على قدر غطائه” (“Har bir idish o‘z qopqog‘iga mos”) deb tarjima qilingan bo‘lsa, “Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa boshqaga” (ruscha: “Ударь ножом сначала себя, и если не будет больно, ударь другого”), (inglizcha: “Cut yourself first with knife; and if it not hurt, then cut another with it”) maqoli “لا ترض لا تبرك ما لا ترضاه لنفسك” (“O‘zingga munosib ko‘rmagan narsani boshqaga munosib ko‘rma”) kabi arabcha maqollarni berish orqali amalga oshirgan.

Shu bilan bir qatorda, har qanday ijodiy ishda kamchilik va nuqsonlar uchrashi tabiiy hol bo‘lganidek, ushbu tarjimalar avvalo asliyatdan emas, balki ruschadan amalga oshirilganligi sababli bo‘lsa kerak, bir qator jiddiy xatolardan xoli emas. Ular haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Arabcha tarjimada asar qahramonlarining ismlari Oybadog‘ (أبيدق، أبيدك), Homid (حميد، حامد), Sayfi (صافي، صايفي، صايفي) kabi ismlar turli o‘rinlarda turlicha yozilgan. Normuhammad (نورمحمد) ismi esa Nurmuhammad (نورمحمد) deb berilgan¹. Olim va Alim ismlari bir-biridan farqlanmay, har ikki ism ham (عليم) tarzida berilgan. Geografik joylar nomlari: Qo‘qon (قوكان، قوقان، قوقند), Andijon (أنديجون)، Farg‘ona (فرغانة، خوجة معاذ، الحاج موعوظ، “Xo‘ja Ma‘oz (خوجة معوز) turli o‘rinlarda turlicha shakllarida berilgan. Lavozimlar: “qushbegi” (قورباشي، رئيس الشرطة، صاحب الشرطة) kabi so‘zlar va urug‘ nomi “qorachopon” so‘zi (القاره تشوبان، القاره تشابان) tarjimasi ham bir xil berilmagan.. Qarindoshlikni bildiruvchi “opa” so‘zi bir necha o‘rinda “xola” deb, “tog‘a” so‘zi “amaki” deb, “xola” so‘zi esa “amma” deb tarjima qilingan. Inglizcha tarjimada esa ismlar va joy nomlarini yozishda bunday kamchiliklar kuzatilmaydi. Bir asar doirasida bir qahramonning ismi turli o‘rinlarda turlicha yozilishi, xuddi shu kabi geografik nomlar – shaharlarning nomlari ham turli o‘rinlarda turlicha yozilishi, bir xil lavozimning ham turli o‘rinda turlicha yozilishi ham badiiy asarning, ham tarjimaning qiymatini tushirib yuboradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu badiiy asardagi qo‘llanilgan nutqiy etiket birliklarining xorijiy tillarga to‘g‘ri tarjima qilinishi o‘zbek zehniyatini, jamiyatdagi urf-

¹ Ehtimol, tarjimada “Normuhammad” (نورمحمد) dan ko‘ra “Nurmuhammad” (نورمحمد) deb berilishdan maqsad arabcha “نار” so‘zidan qochish bo‘lsa kerak Lekin fikrimizcha, ismni tarjimada o‘zgartirmay, balki sharh yozish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.



odatlar va o‘zaro xushmuomalalik munosabatlarini ko‘rsatib berishda o‘ta muhimdir. Ana shunday holatlardan biri Otabek tijorat maqsadida Marg‘ilonga kelganida uni ikki kishi – Rahmat va Homid ko‘rgani, ziyorat qilgani kelgani epizodini ko‘rib chiqaylik. Bu bir tomondan tijorat maqsadida kelgan Otabek bilan savdo masalalarida suhbatlashish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Toshkentdan kelgan mehmonga nisbatan hurmat ko‘rsatish belgisidir. Suhbat davomida Rahmat Otabekka karvonsaroydan ularning uyiga ko‘chib o‘tishni va ularning mehmoni bo‘lishni taklif etadi. Otabek esa, o‘z o‘rnida, unga ham hurmat ko‘rsatib, “ko‘chib o‘tish uning uchun og‘ir (yoki qiyin)” ekanligini aytib, chiroyli tarzda uzr so‘raydi.

“Bu saroydan sizlarnikiga ko‘chishim og‘ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishga har qachon hozirman”.

“Мне не хотелось бы переезжать из этого караван-сарая, – ответил Атабек, – а вот посетить вашего отца я готов в любое время” (с.13).

“It is inconvenient for me to leave this serai at this moment,” said Otabek, “but I am ready to visit your father anytime” (p. 28).

“لا أرغب في الانتقال من هذا النزل، لكنني مسنعد لزيارة والدك في أي وقت”.

Ushbu holatda suhbatdoshning taklifiga nisbatan bildirilgan rad javobi uslubi arab tiliga o‘g‘irishda vositachi til bo‘lgan rus tilidagi tarjimada yo‘l qo‘yilgan xato tufayli nutqiy etiket birligiga xos bo‘lgan ma‘no yetkazib berilmagan. Suhbatdoshning “Mehmonxonadan biznikiga ko‘chib o‘ting” degan taklifiga “Men buni xohlamayman” deb javob berish qo‘pol muomala hisoblanadi. Aynan ana shunday holat rus tilidagi “Мне не хотелось” iborasi sababli arab tiliga “لا أرغب” deb tarjima qilingan. Ingliz tiliga qilingan tarjima ma‘no jihatidan ham, uslub jihatidan ham o‘zbekcha nutqiy etiket birligiga mos keladi.

Arabcha tarjimada bir qator so‘zlarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi sababli ba‘zi o‘rinlar o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan. Masalan. “Olovni qo‘yaturib, qudalarga dasturxon olib chiqingiz” jumlasini rus tiliga “Бросьте возитесь, Несите скорее дастархан для **святых**” deb o‘g‘irilgan. Natijada ushbu jumladagi “qudalar” so‘zining arabchaga tarjima qilishda ruscha “святые” (ruscha ma‘nosi: 1) sovchilar, 2) qudalar) so‘zining 1-ma‘nosi olinganligi sababli arab tiliga “sovchilar” (الخطاب) deb tarjima qilingan va asarning arabcha tarjimasida Mirzakarim qutidor Ziyoz shohichi va Hasanali tashrifi maqsadini “Olovni qo‘yaturib, sovchilarga dasturxon olib chiqingiz” jumlasidan tushunmayotganligi bayon etiladi. Bu esa o‘quvchida savol tug‘dirishi mumkin.

Inglizcha tarjimada esa aynan shu jumla asliyatga zid ravishda, asl matnda mavjud bo‘lmagan o‘zbekcha so‘z transliteratsiya tarzida qo‘llanilgan: “Leave off with building your fire and prepare the tablecloth for your newly arrived **sovchi**” (p. 62). Asliyatdagi “qudalar” so‘zi o‘rniga inglizcha tarjimada “sovchi” so‘zi o‘zbekcha berilgan.

“Poyabzal rastasi” so‘z birikmasi ham arab tilida turlicha: “poyabzal do‘koni” (محل الأحنية), “poyabzal do‘konlari” (محلات الأحنية), “etikdo‘z yo‘lagi” (درب الإسكافي), “etikdo‘z yamoqchi mintaqasi” (منطقة الإسكافي) tarzida berilgan.



“To‘ybeka o‘zining sovub qolg‘an oshini yemak uchun ... o‘lturdi” jumlasini ham arabchaga “جلست بالقرب من أفتاب أيم لتأكل مما تبقى من طعام الضيوف” – “To‘ybeka mehmonlardan qolgan ovqatdan yemak uchun ... o‘lturdi” deb tarjima qilingan.

Asardagi ba‘zi jumlar mutlaqo qarama-qarshi ma‘noda tarjima qilinishi ham Qodiriy uslubini, Qodiriy qalamini buzib talqin qilishdir. “Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir” jumlasini “إن القيام بدور المستشار عندما يتخذ “حكامنا قرارًا ليس مهمة مستحيلة bo‘lmoq imkonsiz emas” deb aksincha ma‘noda tarjima qilingan.

Asarning asl matnida mavjud bo‘lmagan, lekin ruscha tarjimada tarjimon tomonidan kiritilgan ba‘zi iboralar ham arabcha, ham inglizcha matnda paydo bo‘lgan:

–... ikki darichalik bir uy...

– домишко, ... с двумя низкими окошками, ... что служили одновременно и дверями.

“the hovel, perhaps recently built, with two low-set windows and locked shutters that also served the dubious function of doors”, (p. 215)

الكوخ، الذي ربما بُني مؤخرًا، به نافذتان منخفضتان ومصاريع مقللة تخدم أيضًا وظيفة الأبواب

Rus tiliga qilingan tarjimadagi bunday xato natijasida ham rus o‘quvchisida, ham ingliz o‘quvchisida, ham arab o‘quvchisida ba‘zi o‘zbek uylarida eshik o‘rnida derazadan foydalanar ekanlar degan tushuncha hosil bo‘lishi mumkin.

Arabcha tarjimada aslyatda bo‘lmagan “ikki kabutar kabi” (مثل زوجين من الحمام)، “tuxum qo‘ymoqchi bo‘lib, joy topolmay pitillagan tovuqdek” (فأصبحت كالدجاجة التي تريد (أن تضع البيضة ولا تجد مكانًا، ولم تهدأ kabi Qodiriy qalamiga mansub bo‘lmagan iboralar va jumlar arab tarjimoni tomonidan kiritilgan.

Yuqoridagi misolning aksi o‘laroq, quyidagi misolda obrazlilik tizimini yaratishdagi muallif uslubini buzgan holda ruscha va arabcha tarjimada o‘xshatish so‘zi tushirib qoldirilgan:

“Kumush baqadek qotib o‘lturgan Zaynabga qaradi”.

“Кумуш взглянула на застывшую Зайнаб”.

“نظرت كوموش إلى وينب التي تجمدت”

“Kumush looked at Zainab, who sat motionless like a frog”.

Inglizcha tarjimada bu o‘rinda aslyatga to‘liq mos ravishda berilgan.

“Maydon ikki tanob kenglikda edi” jumlasini (كانت مساحة الفناء تبلغ مترين تقريبًا) deb, ya‘ni “Hovli maydoni taxminan ikki metr edi” deb tarjima qilingan. Bu o‘rinda arab tarjimoni ruscha tarjimadan foydalanmagan. Chunki rus tiliga qilingan tarjimada “Двор занимал около двух танатов земли” deb tarjima qilingan va “tanob” (“танат”) so‘ziga “turli mintaqalarda turlicha bo‘lgan, 0,15 dan 0,5 ga gacha bo‘lgan maydon o‘lchovi” deb izoh berilgan. Ma‘lumki, o‘zbekcha “tanob” so‘zi uzunlik o‘lchovi sifatida 39,9 metrni, maydon o‘lchovi sifatida 900 kvadrat metrni ifodalaydi. Shu sababdan ham “ikki tanob”ni “ikki metr” deb tarjima qilish qo‘pol xatodir. Agar arab tarjimoni shu o‘rinda ruscha tarjimaga e‘tiborliroq qaraganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘lchovlarga nisbatan e‘tiborsizlikka yana bir misolni ko‘rib chiqsak:

“Bu kungi besh daqiqa orasida bo‘lib o‘tgan voqeani hech bir yo‘sun bilan miyasiga sig‘dira olmas”.



“То, что произошло с ним нынче вечером, в течение каких-нибудь пяти секунд, никак не укладывалось у него в голове”.

As for Otabek, attempted to review his situation. He could only process event five seconds at a time. He felt uncertain about what in fact had occurred and what might be a trick of the mind.

فكل ما وقع له في مساء ذلك اليوم لا يمكن أن يستوعبه خلال خمس ثوان

Ko‘rib turganimizdek, ruscha tarjima xato sababli inglizcha va arabcha tarjimalarda xatoga yo‘l qo‘yilgan va ma‘no o‘zgarishiga olib kelgan. Arabchada esa “O‘sha kuni bo‘lib o‘tgan voqeani besh soniya ichida miyasiga sig‘dira olmas” degan ma‘no aks ettirilgan.

Quyidagi jummalarni ko‘rib chiqaylik:

“Mayli, bisotdan u-buni sotib pul qilib beraman”.

“Ладно, продам что-нибудь из дорогих нарядов, соберу денег”.

“I will sell one of my expensive dresses and pay the money.”

“سأبيع شيئاً من ثيابي الثمينة، وسأدير المال اللازم”.

O‘zbek tilidagi asli arab tilidan o‘zlashtirilgan “bisot” so‘zi faqatgina qimmatbaho kiyimlarni emas, balki insonga tegishli bo‘lgan har qanday mol-mulkni anglatadi. Bu o‘rinda esa ingliz va arab tiliga qilingan tarjimalarning har ikkisida ham rus tiliga qilingan noto‘g‘ri tarjima (chto-nibud iz dorogix naryadov) asosida O‘zbek oyimning “bisotdan u-bu” degan iborasi “qimmatbaho ko‘ylaklarimdan biri”ni sotib pul qilib beraman deb talqin qilingan.

“Rafiqam Saodat chin sa‘ida edi”.

“Жена моя – недаром ее звали Саодат – действительно сделала меня счастливым”.

“Saodat, my wife, indeed made me happy”.

“جعلتني سعادتي، زوجتي، سعيداً بالفعل”.

Bu o‘rinda ham inglizcha va arabcha tarjimalar rus tilidagi jumlagi muqobil keladi, lekin asliyatdagi ma‘noni bildirmaydi.

Quyidagi iboradagi “chiqqan” so‘zi ruschaga “chaqqan” deb tarjima qilinishi natijasida “ilon chiqqan ko‘cha”ni ruscha xato ta‘sirida ingliz tarjimoni ham, arab tarjimoni ham “ilon chaqqan joy” deb tarjima qilgan.

“onalar ta‘biricha, «ilon chiqq‘an» bu ko‘cha”,

“те места, где, как говорят наши матери, «ужалила гадюка»,

“the place where, as our mothers say, he “was bitten by snake”,

المكان الذي، كما نقول أمهاتنا "الدغته فيه الأفعى

Ba‘zi o‘rinlarda ham ingliz tiliga, ham arab tiliga ruscha xato tufayli asliyatdagi ma‘noga mutlaqo qarama-qarshi ma‘no tarjima qilingan.

“Siz fотиha bersangiz va Otabek amr bersa, men xudo haqqi yomonning boshini olishdan qaytsam”.

“Пусть отдаст мне приказ, а вы все благословите меня, и я, ей-богу, сниму головы мерзавцам!”

“Otabek give the order, I would not refuse the removal of an evildoer’s head!” he exclaimed”.



“فليعطني الأمر، ولتباركوني جميعاً، والله لأقطعن رؤوس الأوغاد”

Yana bir misol:

Musulmonqul O‘tabboyga qaradi, undan xabarsizlik javobini olg‘ach, so‘zida davom etdi;

Утаббай ответил, что осведомлен о происходящем. Мусульманкул продолжал ... said Musulmanqul turning to Utaboi.

Perceiving his unresponsiveness as indifference, he continued to divulge the new information.

“فأجابه أوتاباي بأنه على علم بما يحدث هناك، ثم تابع مسلمان قل”

Ko‘rib turganimizdek, vositachi tildagi xato tufayli, asliyatdagi ushbu jumla bundan avvalgi misoldagi kabi arab tiliga mutlaqo zid ravishda tarjima qilingan, ingliz tilidagi tarjima esa tushunarsiz bo‘lgan.

Muayyan bir jamiyatda qo‘llanilayotgan nutqiy etiket birligi ana shu jamiyat a‘zosiga nisbatan munosabatning salbiy yoki ijobiy ekanligini ko‘rsatadi. Ana shunday so‘zlar noto‘g‘ri tarjima qilinishi sababli o‘ta qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, Sodiqni ko‘chada turgan paytida o‘tib ketayotgan do‘stlari bir bazmga majburlab olib ketishadi va ulardan biri unga “Yur, yur, itbachcha, jinni-minni bo‘ldingmi?” deydi, tarjimada esa bu jumla (“هيا، سري، انطلق، أيتها العاهرة. هل فقدت عقلك؟”) shaklida berilgan, ya‘ni “itvachcha” so‘zi “fohisha” deb tarjima qilingan va buning ustiga Sodiqqa nisbatan muannas jinsda murojaat shakli qo‘llanilgan.

Vositachi tildagi tarjimada yo‘l qo‘yilgan xato tufayli quyidagi jumla ham arab o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘ladi va o‘zbek xalqi zehniyati haqida noto‘g‘ri tushuncha hosil bo‘lishiga olib keladi. Mana shunday xatolarga misollar keltiramiz:

“Usta Alim o‘z uyiga do‘kon [to‘quvchilik dastgohi] qurg‘an ekan, gilalab (ginalab) yurmasin deb fohishaga kelgan edim”.

“Уста Алим построил себе мастерскую, я и приходил к нему помолиться, чтоб она не покосилась”.

“Usta Alim finished building a workshop in his house, and I came to bless it for him so that did not lean to the side.”

ya‘ni, ushbu jumlaning ruscha, inglizcha va arabcha ma‘nolariga ko‘ra “Usta Farfi usta Alimning uyiga u qurgan do‘kon – to‘quvchilik dastgohi “qiyshayib ketmasligi uchun” (чтоб она не покосилась) (so that did not lean to the side) (حتى لا تميل إلى الجانب) duo-fotiha qilgani kelgan ekan”.

Asardagi “Xudo yomong‘a jazo beratrgan bo‘lsa, shundoq bo‘lar ekan” jumlasini rus tiliga “Значит, сам бог помог мне покарать дурных людей” deb o‘girilgan. Inglizcha tarjima ham asliyatga deyarli mos kelmaydi: “I was alone. One is enough if God wishes to punish the wicked. (p. 305)”. Arabchaga ham ruscha jumla asosida o‘girilgan: “وهذا يعني أن الله وحده من ساعدني على معاقبة الأشرار”. Bu o‘rinda asarning bosh qahramoni bo‘lgan so‘zlovchi o‘z jasoratini (uch jinoyatchiga nisbatan bir o‘zi qarshi turishini) muallifning bayon etishi bo‘yicha kamtarlik qilib, bu “Xudo yomonga jazo beradigan bo‘lsa, shunday bo‘larkan” degan iborasi vositachi tildagi xato tufayli ham ingliz tiliga, ham arab tiliga tarjima qilishda o‘z ma‘no xususiyatini yo‘qotgan.



Suhbatdoshga nisbatan qoʻllanilayotgan frazeologizm yoki maqollarning tarjimasidagi ekvivalentlik nutqiy etiketdagi salbiylik yoki ijobiylik koʻrsatkichidir. Asarda muallif tomonidan bir suhbatdoshning ikkinchisiga nisbatan qoʻllagan “Egasini siylagan itiga suyak tashlar, qilmoqchisiz-da, barakalla!” jumlasini ham rus tiliga: “Молодец, вы поступили как преданный пес”, deb qoʻpol ravishda notoʻgʻri tarjima qilingan. Ushbu jumla inglizchaga ham “Well done! Your act like a faithful dog” (p. 350), arabchaga ham “أحسن، لقد تصرفت مثل كلب وفي مخلص” asliyatga emas, balki ruscha tarjimaga mos ravishda notoʻgʻri tarjima qilingan va “Barakalla, siz vafodor it kabi ish qildingiz” degan maʼnoni anglatadi. Albatta, bu oʻrinda ushbu jumla arab tiliga “أحسن، تصرفت مثل ما يقولون، يكرم صاحبه من يرمي عظامًا لكلبه” deb oʻgirilsa, asliyatga uygʻun boʻlar edi.

Oʻzbek jamiyati haqida, oʻzbek jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarga doir tushunchalarni adabiy asar orqali chet tilida oʻquvchilarga toʻgʻri yetkazib berish muhimdir. Shu oʻrinda arab tarjimonining yoʻl qoʻygan xatolari tufayli oʻzbek urfodatlarini haqida notoʻgʻri tushuncha hosil boʻlishi haqida ikki holatni koʻrib chiqamiz.

Usta Alim Otabekka oʻz hayoti haqida soʻzlab berar ekan, u asli qoʻqonlik boʻlib, oʻn yetti yoshga kirganida Margʻilonga kelib, toʻquvchi ustaga shogird tushganini, keyin esa toʻquvchi usta boʻlganini bayon etadi. Asardagi “Toʻquvchilik hunariga shogird tushdim” arab tiliga “وتدربت في محل خياط” deb, yaʼni “tikuvchilik hunariga shogird tushdim” deb tarjima qilingan. Bu xato bir necha bor takrorlanadi va hatto “mato” soʻzi ham arab tiliga “koʻylak” deb tarjima qilinadi. Margʻilon shahri qadimdan toʻquvchilik hunari bilan mashhur boʻlgan, qadimdan erkaklar toʻquvchilik dastgohlarida atlas va adras kabi matolar toʻqiganlar, lekin erkaklar ayollar uchun koʻylak tikmaganlar va tikuvchi boʻlib ishlamaganlar. Ushbu xato keyingi bir qator jumladan “أخونا الأسطى الخياط” va “أخوك الأسطى الخياط” kabi iboralarda “tikuvchi usta akamiz”, “tikuvchi usta akang” kabi iboralarda ham takrorlangan.

Oʻzbek jamiyatidagi toʻy marosimini bayon etishni arab tiliga bayon etishda notoʻgʻri tushunchaga sabab boʻladigan xatoga yana bir misol koʻrib chiqamiz. Toʻy marosimida odatlarni bayon etishdagi “yangalar kuyav soʻradilar” jumlasini arab tiliga “جاء أصهاره يدعونه” deb, yaʼni “uning qudalari / qaynogʻalari (yaʼni, erkaklar) kelib, uni chaqirdilar” maʼnosida tarjima qilingan. Bu yerdagi arabcha “صهر” (“أصهار”) turmush qurish orqali oʻrnatilgan qarindoshlikni anglatadi va “نسب” (“أنساب”) soʻzi kabi “qayinota, qayinogʻa, qayinuka, kuyov, pochcha” maʼnolarida qoʻllanilishi mumkin. Ruscha tarjimaga murojaat qilsak, bu jumla “за женихом явились янга – свахи” deb tarjima qilinganini koʻramiz. Ingliz tilida esa ushbu jumla “the yangas asked the groom” shaklida berilgan. Rus tilida “yanga” soʻzi oʻzidan keyin kelayotgan “свахи” soʻzi bilan tushuntirilsa, ingliz tilida berilgan “yangas” bundan oldingi oʻrinlarda sharhlab berilgan. Ammo arabcha tarjimada qoʻllanilgan “أصهار” soʻzi esa erkaklarni ifodalaydi. Buni keyingi oʻrinlarda kelayotgan jumlar orqali ham shunday tushunish mumkin. “Soʻng Otabek ichkariga uzatildi”, “И Атабека повели в ичкари”, “and they brought Atabek to Ich Kari”. Bu arab tilida “واصطحبوا أتابك إلى الداخل” deb berilgan. Davomi: “Otabek yangalar kutib turgʻan tarafka yurdi”, “Атабек двинулся за свахами”, “Otabek walked toward to yangas”. Arab tilida “سار أتابك معهم إلى عروسه”. Arabcha tarjimadagi soʻnggi ikki jumladan qoʻllanilgan soʻzlar “اصطحبوا” (“olib bordilar,



hamrohlik qildilar”) fe’l shakli va “معهم” (“ular bilan”) birikmasidagi qo’shilib yoziluvchi olmosh III shaxs, ko’plik, erkak jinsini ifodalaydi. Natijada, ushbu jumla orqali o’zbek jamiyatiga ham, arab jamiyatiga ham xos bo’lmagan vaziyat yuzaga keladi. Go’yoki bu yerda kuyovni kelinning xonasiga erkaklar boshlab kiradilar degan ma’noni anglatadi. Bunday holat esa bizning o’zbek to’ylariga ham, arab to’ylariga ham xos bo’lmagan holatdir.

Noto’g’ri tarjimaga Otabek va Ali suhbatidan bir misol keltiramiz.

“– *Marg’ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir? / – Yo’q... / – [Bola] Bo’lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha yil bo’lg’an shekillik? / – Turmadi”.*

Ruscha: “– *От маргиланской жены у вас уже, наверное, есть дети? / – Нет... / – Ведь вы уже несколько лет как женаты... Не живут, что ли? / – Не живут..”*

– “أظن أن لديك أبناء من زوجتك في مرغلان؟ / – كلا. / – حقًا؟ أنت متزوج منذ عدة سنوات. ألا تعيشان معًا، أم ماذا؟ / – لا نعيش سوياً.”

Bu arabcha jumlaning o’zbek tiliga qayta tarjima qilsak:

“–*Marg’ilonliq xotiningizdan bolalaringiz bor deb o’ylayman? / – Yo’q... / – Rostdanmi? Uylanganingizga ancha yil bo’lg’an-ku. Birga yashamaysizlarmi yoki nima? / – Birga yashamaymiz”.*

Inglizcha tarjimini ko’ramiz:

“*Have you had a child with your Margilani wife? / “No..” / “You have been married for several years now. Did they perish young?” / “That’s right, they passed away.”*

Ko’rib turganimizdek, bu o’rindagi jumlaning arab tiliga tarjimasi asliyatga ham, ruscha tarjimaga ham muvofiq kelmaydi. Inglizcha tarjimada esa ma’no to’g’ri yetkazib berilgan.

Asli arab tilidan o’zlashtirilgan bir qator so’zlar, masalan, “astag’firulloh” (أستغفر الله) so’zi “Alloh seni kechirsin” (سامحك الله), “subxonolloh” (سبحان الله) bir o’rinda “ey xudo” (يا الهي), boshqa joyda esa “ajabo” (يا للعجب) tarzida, “barakalla” (بارك الله) so’zi esa “senga rahmat” (شكرا لك) tarzida noto’g’ri o’girilgan.

Tarjimada bir qator aqidaviy qo’pol xatolarning yo’l qo’yilishiga ham noto’g’ri qilingan ruscha tarjima sabab bo’lgan. Asarda keltirilgan “gumbazga ro’baro’ qilib soling’an ayvon-ziyora-xona bor” jumlasini arab tiliga “بُنِيَتْ شَرَفَةٌ مَنفَصَلَةٌ لِلْحَجَّاجِ مَقَابِلَ الْقُبَّةِ”, ya’ni “gumbazga ro’baro’ qilib hojilar uchun alohida ayvon soling’an” deb tarjima qilingan va ushbu tarjimadan Qodiriyning yozishi bo’yicha, “o’zbek xalqi qabristonni haj qilgan ekan” degan ma’no kelib chiqadi. Qiyoslang:

“Gunbazga ro’baro’ qilib soling’an ayvon-ziyora-xona bor”.

“Напротив мазара стоял айван-приют для паломников”.

“A separate veranda for pilgrims was built opposite the cupola”, (p. 269).

“بُنِيَتْ شَرَفَةٌ مَنفَصَلَةٌ لِلْحَجَّاجِ مَقَابِلَ الْقُبَّةِ”

Asardagi 2-bo’limning “2. Qorong’i kunlar” qismida Abdulla Qodiriy O’zbekoyim tilidan Otabek haqida gapirib, uning haqiga “har nuchukda duodan qolmayliq”, deb Zaynabni domlanikiga qistar edi” deb yozadi. Ushbu jumla rus tiliga “Во всяком



случае, надо продолжать **ворожбу**», – думала она и заставляла Зайнаб ходить к гадальщикам и колдунам” deb, arab tiliga esa:

على أية حال، يجب أن نكمل في طريق العرافة والسحر، هكذا كانت تفكر، لذا دفعت زينب هي الأخرى إلى الذهاب للعرافين والسحرة

deb o‘girilgan, ya’ni: “Har holda folbinlik i sehr-jodu yo‘lini davom ettirish kerak, deb o‘ylardi va shuning uchun ham Zaynabni folbinlar va sehrgarlarga borishga undardi”. Bu o‘rinda Qodiriy tomonidan qo‘llangan “domla” so‘zi ruscha “гадальщик” va “колдун” so‘ziga ko‘ra, arab tiliga (العرافين والسحرة) “folbinlar” va “sehrgarlar” deb tarjima qilingan.

Asardagi 2-bo‘limning “16. Oy-kuni yaqin edi” qismida Kumushning onasiga yozgan maktubida “Bu kun beshinchi kundan beri rahmatli buvim arvohiq‘a atab Qur‘on boshladim, xatim qilib bag‘ishlayman” jumlasini arab tiliga *اليوم هو اليوم الخامس منذ* deb, ya’ni “Bugun marhum buvimning ruhiga atab namoz o‘qishni boshlaganimning beshinchi kuni” deb tarjima qilingan. Bunday qo‘pol xatoning sababi yana o‘sha ruscha “*начала молиться*” iborasi bo‘lib, ushbu jumlaning arab tiliga

اليوم هو اليوم الخامس منذ أن بدأت تلاوة القرآن على روح جنتي الراحلة، وأريد أن أقوم بختمه

deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shu o‘rinda yana bir jumla tarjimasida bir so‘z tarjimada tushib qolishi, ma’noni o‘zgartirib yuborishga olib kelganligini ta’kidlamoqchimiz: “chillalik uyga kechasi ko‘chadan kelib kirish yaxshi emas” jumlasini arab tiliga:

يجب ألا يدخل أحد على المرأة بعد الولادة خلال الأربعين يومًا الأولى، وخاصة إذا كان قادمًا من الشارع مباشرة

deb tarjima qilingan, ya’ni, “ayol yoniga tuqqanidan so‘ng birinchi qirq kun ichida hech kim kirmasligi kerak, ayniqsa u to‘g‘ri ko‘chadan kelgan bo‘lsa”. Bu yerda birgina “kechasi” so‘zining tushirib qoldirilishi ma’no o‘zgarishiga olib kelgan.

Badiiy asar tarjimasida muallifning uslubini saqlab qolish o‘quvchiga o‘sha jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida tushuncha beradi. “O‘kan kunlar” romanida asar voqealari yuz bergan davrdagi oilaviy munosabatlar Mirzakarim qutidor tilidan uning Oftob oyimga murojaatida va Kumush tilidan uning Otabek va Zaynab bilan birgalikdagi suhbatida Qodiriy tomonidan ochib berilgan.

“Men senga aytib qo‘yay, Kumush, – dedi turar ekan qutidor Oftob oyimg‘a”. E’tibor berilsa, bu yerda Mirzakarim qutidor xotinig uning ismini emas, balki qizining ismini aytib murojaat qilyapti.

Xuddi shu kabi misolni Qodiriyning yana bir asari “Mehrobdan chayon” romanida ham ko‘ramiz:

“Nigor oyim yugurib erining orqasidan chiqdi:

– Hay, Ra‘no! – dedi havlida ketib borg‘an maxdumga, – nonlarimizning suvi qochqan, xatir qilishg‘a vaqt oz, bozordan issig‘ non oldirasizmi?”¹

«Нигор-аим окликнула мужа.

¹ Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent. 1994.



- vaqt va o'lchov birliklarini tarjima qilishda xatolarga yo'l qo'yilgan;
- asardagi ba'zi jumlar mutlaqo teskari ma'noda tarjima qilingan;
- asliyatda mavjud bo'lgan ba'zi jumlar tarjima qilinmay, tushirib qoldirilgan;
- inglizcha va arabcha tarjimalarda vositachi tilda yo'l qo'yilgan xatolar tufayli asliyatda mavjud bo'lmagan jumlar kiritilgan;
- o'zbek madaniyatiga xos nutqiy etiket birliklarini arab va ingliz tiliga tarjima qilishda o'zbek zehniyatiga xos xususiyatlar to'liq yetkazib berilmagan;
- asliyatda mavjud bo'lgan jumalarning tushirib qoldirilishi yoki asliyatda mavjud bo'lmagan jumalarning tarjimonlar tomonidan kiritilishi muallif uslubining buzilishiga sabab bo'lgan.

Badiiy tarjima orqali xalqlar o'zaro bir-birlari bilan tanishishlari, bir jamiyatning madaniyati, urf-odatlar va zehniyatini hamda ana shu xalqlar tilidagi nutqiy etiket birliklarini o'rganishlari muhim ekanligini ta'kidlagan holda, har qanday badiiy asar tarjimasini amalga oshirishda, ularni nashr qilishda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlik qilish hayotiy zarurat ekanligini ta'kidlaymiz.

Shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan xato va kamchiliklarni mazkur asarlarning keyingi tarjimalarida yoki ushbu tarjimalarning keyingi nashrlarida bartaraf etilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. А.Кадыри. Минувшие дни. Роман. Перевод с узбекского Мухаммаднодира Сафарова.– Т.; Главная редакция издательско-полиграфической компании «Шарк». 2009. 430 с
2. "O'tkan kunlar". Bygone Days by Abdullah Qodiriy. Translated by Mark Reese. Nashville TN, USA. 2018.
3. Abdullah Qadiri, al-Ayyam al-Khavali. Tarjamat dr. Muhammad Nasr al-Gebaly. "Dar al-Ma'arif li-n-nashr", al-Qahira. 2024.
4. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1994.
5. А.Кадыри. Скорпион из алтаря. Перевод с узбекского Л. Бать и В. Смирновой. Издательство «Художественная литература». Москва. 1964
6. عبدالله قادري. عقرب في المحراب. رواية. تجمة سيد محمود كاساني. دار "كريو برنت غروب" للنشر، طشقند، 2024.
7. Касымова, З. О переводе роман «Минувшие дни». В журнале «Преподавание языка и литературы». № 6, 2006 г. Ташкент, стр. 67- 78.
9. Dilmurod Quronov, Feruza Habibullayeva. "O'tkan kunlar" tarjimasini: tahlil va tavsiyalar. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2018-yil, 7-son.
10. Русско-узбекский словарь в 2-х томах. Главная редакция Узбекской Советской Энциклопедии. Т., 1983-1984. Т 1-й. 808 стр. , Т 2-й, 800 стр. .
11. Al-Maajeem al-arabiyya <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>



NURJAHON ABDULLAYEVA

Magistratura talabasi, TDSHU

Dunyo tilshunosligida o‘zlashgan so‘zlar masalasi. Ularni o‘zlashtirish qoida va tamoyillari

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlar masalasi, uning mohiyati va ahamiyati, tilshunoslar tomonidan o‘rganilganligi, shuningdek, o‘zlashma so‘zlarning tilga kirib kelishi, o‘zlashishi va o‘zlashtirilishi borasidagi muayyan qoida va tamoyillar atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro tillar hisoblanuvchi ingliz va rus tillari leksik sathidagi o‘zlashma so‘zlar, ularning tilga kirib kelish va singish jarayonlari tadqiq ostiga olinadi. O‘zlashmalarning ushbu tillar taraqqiyoti va rivojlanishi borasidagi ahamiyati, ijobiy va salbiy jihatlari atroflicha misollar orqali o‘rganiladi, tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zlashma so‘zlar, tilning lug‘at sathi, muloqot fenomenlari, til softligi, ichki va tashqi manbalar, qarz so‘zlar, yangi realiya, muqobil so‘zlar (alternativalar), til genofondi, tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasi.

Абстракт. В данной статье подробно анализируется вопрос заимствованных слов в мировой лингвистике, его сущность и значение, изучаемые лингвистами, а также некоторые правила и принципы, касающиеся входа, усвоения и усвоения заимствованных слов в язык. В частности, изучаются заимствованные слова на лексическом уровне английского и русского языков, которые считаются международными языками, и процессы их внедрения и ассимиляции в язык. На подробных примерах изучаются и анализируются важность, положительные и отрицательные стороны приобретений с точки зрения прогресса и развития этих языков.

Ключевые слова: Собственные слова, словарный запас языка, явления общения, чистота языка, внутренние и внешние источники, заимствованные слова, новая реальность, альтернативные слова (альтернативы), языковой генофонд, уровень генетической и структурной близости языков.

Annotation. This article analyzes in detail the issue of borrowed words in world linguistics, its essence and meaning as studied by linguists, as well as some rules and principles regarding the entry, acquisition and assimilation of borrowed words into a language. In particular, borrowed words are studied at the lexical level of English and Russian, which are considered international languages, and the processes of their introduction and assimilation into the language. Using detailed examples, the importance, positive and negative aspects of acquisitions are studied and analyzed from the point of view of the progress and development of these languages.

Key words: Borrowed words, vocabulary of a language, communication phenomena, purity of language, internal and external sources, borrowed words, new reality, alternative words (alternatives), linguistic gene pool, level of genetic and structural similarity of languages.

Har bir til o‘z taraqqiyoti davomida turli tillardan so‘z oladi, ichki va tashqi manbalarga ko‘ra boyiydi, lug‘at sathi tadrijiy ravishda kengayib, takomillashadi va shunga ko‘ra o‘z iste‘molchisiga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim qilish



salohiyatiga ega bo'lib boradi. Va bu har qanday rivojlanayotgan til uchun normal holatdir. Dunyoda biror til yo'qki, boshqa tillardan so'z olmagan, o'zlashmalar hisobiga o'z lug'at sathini boyitmagan bo'lsa.

“Ўзбек тили лексикологияси” kitobida mashhur tilshunoslardan L.P. Krisin, N.M. Shanskiy, A.V. Kalinin, M.I. Fomina, V.V. Akulenko va N. Sharopovlarning ishlariga tayangan holda so'z o'zlashtirish tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: “O'zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma'lum til elementlarining ko'chishi, kirishidir”¹. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar esa so'zlarning o'zlashishi deb², bir tildagi so'zning ikkinchi tilga kirib kelishini, ularning o'zlashish natijasi va ushbu jarayonning umumiy majmuini tushunadilar³. Ma'lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so'z tabiiy ravishda o'zlashayotgan tilning fonetik, orfografik, grammatik chig'irig'idan o'tadi. Bunda so'z o'qilishi, yozilishi va tuzilishi bo'yicha o'zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta'siri ostida qator o'zgarishlarni boshidan kechiradi, qaysidir ma'noda qabul qilinayotgan til tizimi qonuniyatlariga, mazkur til tabiatiga ma'lum darajada bo'ysunishiga to'g'ri keladi. Bunda o'zlashgan so'zlar aslidan farqlanishi, talaffuzi, imlosi tamomila tafovutlanishi ham mumkin. O'zbek tilshunosligida ushbu xususiyatlar turlicha tasniflanadi. Manbalarga⁴ asosan so'z o'zlashish jarayonida quyidagi 7 xususiyat namoyon bo'lishi lozim:

1. O'zlashma so'z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi.
2. Chet so'z o'zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.
3. So'z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.
4. Chet so'z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.
5. Chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida faol ishtirok etishi.
6. Chet so'z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

¹ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – 6.83.

² Muallif izohi: manbada “so'zlarning assimilyatsiyasi” atamasi ostida kelgan.

³ Kosimova M. “The history of word borrowing process in the uzbek and english languages”// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581–4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.

⁴ Muallif izohi: aslida, ushbu ma'lumotlarni yozishda xalqaro va respublika miqyosidagi jurnal va konferensiya to'plamlarida chop etilgan qator maqolalarga murojaat qilingan edi. Xususan, E.Xolmatova va M. Amonovlarning “O'zlashma so'zlarning o'rganilishining tarixi va shu yo'nalishda ish olib borgan olimlar” nomli

<https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/13435/9401>;

U.Qodirovaning “O'zbek tilida so'z o'zlashuvi masalalarining o'rganilishi tarixi” nomli <https://wordlyknowledge.uz/index.php/PPSM/article/download/2733/4096/5069> maqolalarga.

Ammo izlanishlarimiz natijasida ushbu maqolalarning 1981-yilda chop etilgan “Ўзбек тили лексикологияси” kitobidan asl manbani ko'rsatmasdan olinganligining guvohi bo'lgach, ma'lumotning asl manbasini keltirishni ilmiy etiket nuqtayi nazaridan to'g'ri deb topdik.



- a) o‘zlashma so‘z ma’nosi aniq bo‘lishi;
 b) o‘zlashma so‘z ma’nosi uni qabul qilgan tilda differentsiatsiya qilingan bo‘lishi.

7. Chet so‘z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak¹.

“Ўзбек тили лексикологияси” (1981-yilgi nashr) kitobida mualliflar so‘z o‘zlashayotgan tilga kirgan bo‘lishi, ya’ni o‘sha tilga singishi uchun quyidagi xususiyatlarni o‘zida namoyon qilishi kerakligini aytadilar.

Bular:

1. O‘zlashgan so‘z uni qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunadi.
2. So‘z qabul qiluvchi til leksik-semantik sistemasiga bog‘langan, unga singishgan bo‘ladi.
3. O‘zlashgan so‘z xuddi o‘z so‘zdek tabiiy va aniq bo‘ladi, undan shubhalanish, uni boshqa so‘zlar bilan qorishtirish xavfi yo‘qoladi.
4. So‘z qabul qiluvchi til egasi bo‘lgan xalqqa xuddi o‘z so‘zidek tuyuladi. Uning yot element ekanligi sezilmaydi.
5. So‘z o‘zlashgan bo‘lsa, bu so‘zning tildan tezda chiqib ketish ehtimoli bo‘lmaydi. Bunday so‘zning “keraksizligi” haqida, uni tildan “chiqarish” haqida o‘rinsiz munozaralar bo‘lmaydi va boshqalar².

Aynan ushbu fikr e’tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan eng muhim nuqtadir. Demak, muallifning fikriga ko‘ra, tilga allaqachon singib ketgan, til mulkiga aylangan, tilning ichki qonuniyatlariga bo‘ysungan so‘zlarga “o‘zlashma so‘zlar” deyiladi va bunday so‘zlarni yot so‘z sifatida farqlash, uning tildagi muqobilini topish, uni tilning milliylikiga rahna soluvchi yot unsur sifatida lug‘at sathidan chiqarish zaruriyati tug‘ilmaydi.

Lekin shu o‘rinda savol tug‘iladi, o‘zlashmalar tilning ichki qonuniyatiga batamom bo‘ysunadi deyilganda nima nazarda tutilmoqda? Turkiy tillar qonuniyatiga qaraydigan bo‘lsak, so‘z boshida qator undoshlar kelishi mumkin emas. Vaholanki, *stakan, stol, stul, skotch, trolleybus, tramvay, traktor, krossovka, prorektor, professor, programma, grafika, grant, skripka, klassika* va h.k. kabi bir necha yuzlab o‘zlashma so‘zlar borki, bu qonuniyatga bo‘ysungan bo‘lsin. Umumturkiy tillar uchun eng xos jihat bo‘lgan singarmonizm hodisasi, aynan shu “quloqsiz” o‘zlashmalar hisobiga bugun deyarli tilimizda o‘z aksini topolmayapti, bizningcha. Shunday ekan, olimning ushbu fikrlari biroz so‘roq ostida turibdi, deb ayta olamiz.

Rus tilshunosligida o‘zlashgan so‘zlar tushunchasi “*займствование*”, ya’ni “*qarz olish, o‘zlashtirish*” atamasi otida keladi va rus tilidagi “qarz so‘zlar” rus adabiy tilining lug‘at tarkibini to‘ldirish vositasi sifatida, shuningdek, yangi obyekt va hodisalarni nomlash uchun ishlatilishi mumkinligi aytiladi³.

¹ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – б.85.

² “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – б.84.

³ Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-



“Лингвистик энциклопедик луғат”да “so‘z o‘zlashtirish” tushunchasining ta’rifi quyidagicha keltiriladi: so‘z o‘zlashtirish – bu “chet tilning elementi (so‘z, morfema, sintaktik qurilma va boshqalar)ning bir tildan ikkinchi bir tilga til aloqalari natijasida ko‘chishidir, shuningdek, bir til elementlarining boshqa bir tilga o‘tish jarayoni hamdir”¹ deyiladi.

“Лингвистик атамалар луғати”да esa so‘z o‘zlashtirishning quyidagi ta’rifini uchratish mumkin: “Bu fransuz atamasi bo‘lib, bir tilning boshqa tilning elementini olish harakatini ham, olingan elementning o‘zini ham anglatadi. So‘z o‘zlashtirish og‘zaki – eshitish yoki fonetik so‘z o‘zlashtirish yoki yozma – kitob yoki grafik so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Leksik so‘z o‘zlashtirish (o‘zlashtirish) eng keng tarqalgan usul bo‘lib, sintaksisdagi, shuningdek, fleksiya va talaffuzdagi bilvosita o‘zlashtirish kamdan-kam uchraydigan va biroz bahsli hodisadir”².

Ushbu ta’riflarga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, so‘z o‘zlashtirish – bu iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turdagi o‘zaro aloqalar natijasida bir tildan boshqa bir tilga til elementlarining ko‘chishidir. O‘zlashtirish og‘zaki yoki yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin. Leksema o‘zi o‘zlashayotgan tilga kirib borgach, uning fonetik tuzilishiga, morfologik va grammatik tizimiga moslashib, leksik-semantik ishlovdan o‘tadi. Boshqa tillardan nafaqat alohida so‘zlar, balki sintaktik va frazeologik iboralarni ham o‘zlashtirish mumkin.

O‘zlashmaning nutqda keng qo‘llanishi, ayniqsa, kollektiv nutqda qo‘llanishi prinsipial belgilardan biridir. So‘z kollektiv nutqda ishlatilmasa, kollektiv tomonidan tan olinmasa, U norma bo‘la olmaydi. Norma bo‘lmagan so‘zni o‘zlashma deb hisoblash mumkin emas³:

Avvalo, olinma so‘zlar va neologizmlarni o‘zlashma so‘zlardan farqlab olish lozim. Olinma so‘zlar, shuningdek, yangilik bo‘yog‘i sezilib turuvchi, fan-taraqqiyotning yangi sohalari va kashfiyotlari sabab til sathiga kirib keluvchi yangi so‘zlar (neologizmlar) har doim ham o‘zlashma so‘z bo‘lavermaydi. U qachonki, til iste’molchilari tomonidan birdek ma’qullanib, jamoaviy bir tarzda qo‘llanila boshlangach, jamiyat tomonidan muayyan vaqt ichida uzluksiz ravishda qo‘llanilsagina, u o‘zlashgan so‘z maqomini oladi.

O‘zlashmalar xususiyatlari va ularning o‘zlashayotgan tilga qabul qilinib, unda mustahkam o‘rnashib, singishib ketishi borasidagi talablar tilshunoslar tomonidan deyarli yakdil bir tarzda ifodalanganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ammo chet so‘zlarning ular o‘zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik

zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya, – С. 1–2.

¹ В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. –М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 685.

² Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов: Пер. с фр./ Предисл.В.А.Звегинцева. М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 104.

³ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – б.85.



birliklarning qo‘llanilishi nazarda tutilib, ushbu obyektiv va zaruriy omil o‘rganiladigan bo‘linsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet so‘zlar turlicha terminlar, differenziatsiyalar ostida tahlil qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan o‘zaro muloqotimiz jarayonida juda ko‘plab, zamonaviy fan kashfiyotlar va texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki, bu texnologiyalarning aksariyatini chet tili so‘zlari tashkil qiladi. Bu paytda esa biz albatta o‘zlashma so‘zlarni qo‘llashga majbur bo‘lamiz. Ma‘lumki, har bir tilning lug‘at tarkibi boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud. Ana shunday yo‘llarning biri bu boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan o‘tkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Ma‘lum bir tilning hozirgi davr rivojida, avvalo, boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli bo‘lgan so‘zlar o‘zlashishi kuzatilmoqda. Har bir tilning o‘z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi kuzatilgan. Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi so‘zlarning kirib kelishi o‘sha tillarning lug‘ati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligida tilning lug‘at tarkibining boyib borishining bir qancha yo‘llari mavjud.

1. Yangi so‘zlar yasalishi orqali (*so‘z yasalishi*).
2. Boshqa tillardan so‘z kirib kelishi orqali (*o‘zlashmalar*).
3. Mavjud so‘zlarning ma‘nosi o‘zgarishi orqali (*ma‘no ko‘chishi*).
4. Frazologik birikmalarning yasalishi orqali (*frazologizmlar*).

Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘zlarning boshqa tillardan kirib kelishi lug‘at tarkibini boyishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zlashmalar shunday jarayonni anglatadiki, unda so‘zlarning bir qismi yoki butun fraza bo‘lgan so‘zlar o‘zi boshqa tildan boshqasiga ko‘chib o‘tadi. Bunday so‘zlarning tilshunoslikda uchrashi, bir tomondan, “muloqot fenomenlarida”, ya‘ni biron, bir xalqning uzoq vaqtlar davomida til va madaniy aloqalarida ko‘rinsa, ikkinchi tomondan, avlodlarning davomiy muhim iqtisodiy va madaniy guruhlariga qarab intilishida yoki ularning hududiy chegarada ikki yoki ko‘p tilligida ko‘rinadi.

Ingliz tilida so‘z o‘zlashuvi xususiyati. XV asrda ingliz tili qo‘lyozmalarida uni boshqa bir necha tillar, xususan, lotin tili, fransuz va eski skandinavian tillari bilan aloqada bo‘lganligi haqida yozilgan. Bu manbalardan so‘z qo‘shilishi bir necha tarixiy sabablardan dalolat beradi. Rim sivilizatsiyasining katta ta‘siri tufayli lotin tili Angliyada ta‘lim va din tili sifatida uzoq vaqt foydalanilgan. Eski skandinavian tili IX–X asrlar va XI asrning birinchi yarmida mahalliy aholiga tezda singishib ketgan, shuningdek, o‘zlari bilan ilg‘or feodalizm, ya‘ni yuqori ijtimoiy tizim haqidagi yangi tushunchalarni olib kelgan mustamlakachilar tili edi.

Boshqa mustamlakachilarning tili bo‘lgan fransuz tili XI asrning o‘rtalaridan XIV asrning oxirigacha yuqori tabaqa vakillari, maktab ta‘limi va rasmiy hujjatlarning asosiy tili edi. Ingliz tilida o‘zlashma elementlarni o‘rganishda asosiy urg‘u o‘rta asrlar



ingliz davrida mavjud bo'lgan qoidaga asoslandi. Keyingi davrlarda o'zlashmalar faqat yaqin yillardagi tadqiqotlarning maqsadi bo'ldi. O'zlashmalar oqimi uzluksiz va davomli bo'ldi. O'zlashmalarning eng katta miqdori fransuz tilidan kirib kelgan. Ular ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi turli sohalarni tasvirlaydi.

O'zlashmalarning katta qismi ilmiy va texnik atamalardir. Ko'pchilik o'zlashma so'zlar odamlar o'rtasidagi aloqalar va ularning madaniyat darajasi haqida bizga xabar beradi. U shunga sabab bo'ladiki, o'zlashmalar tez-tez tarixning muhim hodisasi deb nomlanadi. Agar biz ingliz tilidagi o'zlashmalar ro'yxatini tekshirsak, ular ma'nosiga qarab guruhlanadi, shunda biz Angliyaning boshqa millatlar bilan aloqasi haqida ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kirita olamiz. Ba'zi bir o'zlashmalar aniq tarixiy holatlarning to'g'ri ta'sirini tushuntirib bera olmaydi, ular yangi narsa va g'oya bo'la olmaydi. Masalan, *air – havo, place – joy, brave – jasur* so'zlari fransuz tilidan o'zlashgan. Shuni ta'kidlash kerakki, sof lingvistik xususiyatlarni ahamiyatli darajalari bilan o'rganilgan turli tillardan o'zlashmaning umumiy tarixiy sabablari haligacha tadqiq qilinmoqda.

Ko'pgina o'zlashmalar faqat tarixiy hodisaga bog'liq emas, balki aloqa-munosabatlar xarakterining davomiyligi, shuningdek, tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasiga aloqador. Tillar qanchalik yaqin va aniq bo'lsa, ta'sir shunchalik chuqur bo'ladi. Ingliz tilida skandinavian va fransuz tili o'rtasidagi ta'sirni taqqoslash yaxshi baholangan. Eski ingliz tiliga yaqindan bog'langan skandinavian tillarini ta'siri ostida ba'zi guruh so'zlari bog'langan yoki bog'lanmagan tillardan o'zlashgan (*they, their, them* kabi olmoshlar); bir qancha skandinavian o'zlashmalari milliy so'zlardan yasalgandek tuyuladi (ularning o'zagi bir xil bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi bog'liqlik osonlik bilan ko'rinadi), masalan, *drop – drip (scand), true – tryst (scand)*; ingliz tilining grammatik tuzilishining rivojlanishida skandinavian so'zlarining ta'sir darajasi tezlashdi.

O'zlashmalar tilga ikki yo'l orqali kirib keladi: og'zaki nutq orqali (odamlar o'rtasidagi tez aloqa orqali) va yozma nutq orqali (kitoblar orasidagi bilvosita aloqa orqali). Og'zaki o'zlashmalar asosan tarixning dastlabki davrlarida sodir bo'lgan. Yaqin yillarda yozma o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etdi, og'zaki o'zlashgan so'zlar, odatda, qisqa bo'ladi (*inch, mill, street*) va ular foydalanish jarayonida katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Yozma o'zlashmalar o'zlarining talaffuzi, tovush shakllarining ba'zi xususiyatlarini saqlab qoladi va ularning assimillatsiyasi uzoq va qiyin jarayondir¹.

Rus tilida so'z o'zlashuvi xususiyati.

So'z o'zlashtirish rus tilida juda keng tarqalgan hodisadir. Uzoq vaqtlar mobaynida yangi hodisa va tushuncha nomlarini bildiruvchi chet so'zlar rus tiliga kirib, lug'atda muhim qatlamni tashkil etib bordi. Manbalarda rus tili lug'at tarkibidagi ilk xorijiy so'zlar eng qadimgi yozma yodgorliklarda qayd etilgani va yunon tiliga mansub

¹ Ermetova J, Bahodirova F. "Leksikologiya fanidan o'quv-uslubiy majmua" Urganch. 2014. – B. 114.



bo'lganligi aytiladi. Chet tillaridan qabul qilingan (o'zlashgan) so'zlar doimiy ravishda adabiy matnlarda, ommaviy axborot vositalarida va turli matbuot nashrlarida uchraydi. Shuningdek, ushbu so'zlar zamonaviy yoshlar slengi va professional lug'atning ajralmas qismidir. Zamonaviy rus tilida, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, o'zlashgan so'zlarning ulushi 4% dan 22% gacha yetadi¹.

M.A.Breiter o'z tadqiqotida chet tillaridan olingan so'zlarning paydo bo'lishining quyidagi sabablarini ta'kidlab o'tadi:

- rus tilida yangi tushuncha nomining yo'qligi (yangi realiya): *спонсор, дайджест, топ модел* va boshqalar;
- rus tilining kognitiv bazasida tegishli nomning yo'qligi: *бренд, сканер, ноутбук* va boshqalar;
- stilistik ta'sirni ta'minlash zaruriyati;
- ilgari olmoshlar yordamida ifodalangan tushuncha (konsepsiya)ni yangi chet tilidagi so'z bilan almashtirish: *рейтинг – kompaniyaning o'ziga xos turdagi ro'yxatdagi o'rni*².

L.P.Krisinning ta'kidlashicha, so'z o'zlashtirish bir qator tashqi va ichki sabablarga ko'ra kechadigan murakkab jarayondir. Turli xalqlar o'rtasidagi yaqin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni olim tashqi sabab sifatida keltiradi.

L.P. Krisin tomonidan chet tildan o'zlashgan so'zlarning paydo bo'lishining ichki sabablari quyidagicha izohlanadi:

- tushunchani yanada oydinlashtirish, ma'noviy tuslanish (semantik ottenka)larni farqlash, tushunchaning semantik tuzilishini soddalashtirish;
- so'z oluvchi tilda tuzilish jihatdan o'xshash so'zlarning mavjudligi;
- ifodalanayotgan tushunchaning bo'linmasligi bilan belgining bo'linmasligiga moslashish tendensiyasi³.

Rus tilidagi birinchi o'zlashmalar VIII–XII asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, slavyan bo'lmagan tillardan, xususan, skandinaviya (*вира, ябеда, клеймо, тун, варяг, кнут, канерство*), fin-ugor (*навага, салака, акула, сиг, пурга, пельмени*) tillaridan kirgan edi. Ushbu o'zlashmalarning aksariyati dengizchilik, baliqchilik va savdo aloqalari, shuningdek, shimoliy xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va bevosita davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirgan.

Oltin O'rda davri ta'siri rus tiliga turkiy so'zlarning jadal ravishda kirib kelishiga yordam berdi: xususan, *тюрьма, хан, башка, казна, караул* va h.k. so'zlar kirib keldi.

¹ Дай И. “Заемствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya, – С 3.

² Брейтер, М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-ру-систов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.

³ Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27–34.



Turkiy soʻzlarning aksariyati rus tiliga shu darajada mustahkam kirib borganki, bugungi kunga kelib ular xorijiy soʻz sifatida qabul qilinmaydi ham hatto.

Pan-slavyan birligi davrida yunon tilidan (gresizm) soʻzlar rus tiliga faol kirib kela boshlagan. Shunday qilib, uy-roʻzgʻor buyumlarining baʼzi nomlari: *скатерть, фонарь, тетрадь, сахар*; diniy mazmundagi soʻzlar: *лампада, демон, икона, ангел, епископ* va boshqalar; ayrim ilmiy atamalar: *грамматика, алфавит, философия, математика, диалект* va boshqalar; hayvon va oʻsimliklarning nomlari: *свёкла, фасоль, буйвол* va shu kabi boshqa soʻzlar yunon tilidan olingan. Keyinchalik yunon tilidan olingan oʻzlashmalar, asosan, fan va sanʼat sohasida (*логика, комедия, аналогия, хорей, психология, лексикон* va boshqalar) qoʻllanilgan¹.

Keyingi davrlarda esa lotin soʻzlari (lotinizmlar) rus tiliga katta taʼsir koʻrsatdi. Lotin soʻzlarining rus tiliga kirib borishi XVII asrdan boshlab qayd etilgan. Aksariyat lotinizmlar hayotning huquqiy, siyosiy va tibbiy sohalarida bogʻliq edi: *диктатура, республика, революция, конституция, зоология, медицина* va boshqalar shular jumlasidandir.

Rus tilining leksik tarkibiga Yevropa tillari ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi, bu ayniqsa, XVIII asrda Pyotr I davrida sezilarli darajada boʻldi. Bunga sabab aynan shu davrdan boshlab jamiyatning turli sohalarida ilm-fanning faol rivojlanganligi va koʻplab yangi kashfiyot va islohotlarning jadal surʼat olganligida edi. Bu esa, oʻz navbatida, rus tilining leksik tarkibini yanada boyitishga yordam berdi. Xususan:

– nemis tilidan olingan soʻzlar: *прейскурант, бухгалтер, агент, лагерь, вексель, офицер, штраф* va boshqalar;

– golland tilidan olingan soʻzlar: *флот, флаг, рейд* va boshqalar;

– ingliz tilidan olingan soʻzlar: *мичман, ихуна, баржа, бриг* va boshqalar;

– fransuz tilidan olingan soʻzlar: *аксессуары, жабо, вуаль, беже, тюре, майонез, гурман, бисквит* va boshqalar;

– italyan tilidan olingan soʻzlar: *браво, аллегро, пианино, вилла, макаронны* va boshqalar;

– ispan tilidan olingan soʻzlar: *серенада, гитара, мантилья* va boshqalar.

XX asrda fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot va ishlab chiqarish munosabatlariga oid xorijiy soʻzlar rus tilining leksik tarkibiga mustahkam kirdi: *анархизм, буржуазия, демократ, социалист, космонавт, губернатор, планетарий* va boshqalar shular jumlasidandir.

XX–XXI asrlar oxirida oʻz ona tilida soʻzlashuvchilar nutqida begona tildagi oʻzlashmalar sonining koʻpayishiga sabab boʻluvchi qator omillar, jumladan: mamlakatlar oʻrtasidagi savdo va madaniy aloqalarning koʻpayishi, xorijiy turizmning gullab-yashnashi, fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, kino sanoati va musiqa madaniyati ommalashishi kabi holatlar yanada jadallashdi. Bu davr juda koʻp

¹ Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.



professional (*printer, fayl, interfeys, dizayn, biznesmen* va boshqalar), iqtisodiy (*супермаркет, тендер, трейдер, менеджер, билборд* va boshqalar), sport (*бейсбол, бита, виндсёрфинг, армрестлинг* va boshqalar) atamalar. XX asrdagi barcha o'zlashmalarning to'rtidan uch qismidan ko'prog'i anglitsizmlar va amerikanizmlardan kelgan¹.

XXI asrda biz kompyuter texnologiyalari va Internet rivojlanishi bilan bog'liq yangi xorijiy tillar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar: *блогер, ангрейд, логин, чат, роуминг, хакер, таргет, гуглит, дедлайн, фейк, коуч, копирайтер* va boshqalar.

Ko'pgina o'zlashtirilgan so'zlar rus tilining leksik tarkibiga uzoq va mustahkam kirgan, shuning uchun uning so'zlovchilari tomonidan xorijiy sifatida qabul qilinmaydi, masalan: *враг, время, сахар, шоколад, танк, модель, кенгуру, спутник* va boshqalar. Ularning aksariyati ko'rsatilgan tushunchalarni (yoki hodisalarni) ifodalovchi yagona so'zlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, qarzga olingan so'zlar orasida nafaqat chet ellik sifatida qabul qilinadigan, balki ularning ma'nosi rus tilida so'zlashuvchilar uchun har doim ham tushunarli bo'lmagan ko'plab so'zlar mavjud, masalan: *генезис, квота, эксклюзивный, оффшор, саммит, холдинг* va boshqalar.

Ko'p sonli xorijiy so'zlarning rus tiliga kirib borishi ham tilshunolar, ham ona tilida so'zlashuvchilarni tashvishga solmoqda. Bu nutqda o'zlashmalarni qo'llash har doim ham o'rinli emasligi bilan izohlanadi. Ularning ko'pchiligi haqiqiy so'zlar va iboralarni almashtiradi va keraksiz ishlatadi. Bu muammo, ayniqsa, yoshlar orasida keskin. Yoshlar yangi xorijiy so'zlarni tezda o'zlashtirib olishadi va ularni kundalik nutqda doimiy ravishda ishlatishni boshlaydilar, garchi rus tilida bu so'zlarning sinonimlari mavjud va bu holatlarda qarz olish mutlaqo oqlanmasa ham. Masalan, *меседж (message) – сообщение; уикенд (weekend) – выходной; кринж (cringe) – стесняться, смущаться, испытывать неловкость, «испанский стыд»; краш (crush) – любимый, возлюбленный; лол (lol) – смех, смешной, ха-ха-ха, бугага; дэнсить (dance) – танцевать; фейк (fake) – подделка, фальшивка; тренд (trend) – тенденция, направление.*

Shunday qilib, xorijiy so'zlarni olish jarayoni rus va ingliz tilining butun tarixiy rivojlanishi davomida doimiy ravishda sodir bo'lishini ko'rish mumkin. So'nggi o'n yilliklarda so'z o'zlashtirish quyidagi sohalarda, ayniqsa, faol qo'llanilmoqda: siyosat, iqtisodiyot, texnologiya va ommaviy madaniyat. Xorijiy so'zlarni ishlatganda, ona tilida so'zlashuvchilar nutq xatolariga yo'l qo'ymaslik uchun ularning leksik ma'nosi va stilistik ranglanishini hisobga olishlari kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy so'zlarni qo'llash ona tilida nomlanayotgan yangi konsepsiya uchun nom bo'lmagandagina o'rinli bo'lishi kerak. Ona tilining o'ziga xosligi va sofligini saqlab qolish uchun asossiz so'z o'zlashtirishdan qochish lozim.

¹ Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304–307.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ermetova J, Bahodirova F. “Leksikologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua” Urganch. 2014. – B. 114.
2. Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023. – С. 8.
3. Брейтер, М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-русистов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.
4. Kosimova M. “The history of word borrowing process in the uzbek and english languages”// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.
5. Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27–34.
6. Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.
7. Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304–307.
8. “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – Б. 476.



MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

FAYZULLO FAROMARZI

*Kichik ilmiy xodimi, o'qituvchi, O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti, Oriental universiteti
ORCID ID: 0009-0009-5173-2088*

**Hofizi Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya
kutubxonasida saqlanadigan qo‘lyozmasi haqida**

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davri tarixnavisligining taniqli vakili Hofizi Abru qalamiga mansub “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida №4370/I – ashyo raqami ostida saqlanadigan qo‘lyozmasi tahlil qilingan. Zero, ushbu qo‘lyozma asar muallifning hayotlik chog‘idayoq Mirzo Shohrux kutubxonasi uchun ko‘chirilgan nusxasi hisoblanadi. Qo‘lyozma “Zubdat at-tavorix” asarining matnlarini to‘liq qamrab olgan fanda ma‘lum ikki qo‘lyozma nusxaning biridir. Shuning uchun mazkur qo‘lyozmaning Temuriylar davri tarixnavisligi va kitobat san‘atining nodir namunalaridan biri sifatida kodikologik tahlilini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Negaki “Zubdat at-tavorix” asarining mazkur qo‘lyozmasi Temuriylar davridagi ilm-fan rivojini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarni to‘ldirishga xizmat qiluvchi muhim ma‘lumotlarga egadir. Ushbu qo‘lyozmaning manbashunoslik tahlili asarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati va ishonchlilik darajasini ochib berishga xizmat qiladi.

Maqolada mavzu doirasidagi tadqiqotlar ham yordamchi manba sifatida jalb qilinib, ushbu qo‘lyozmaning manbaviy ahamiyati yoritib berildi. Shu asosda, musulmon tarixnavisligida, xususan, tarixga doir bilimlar rivojida “Zubdat at-tavorix” asarining o‘rni katta ekanligi ochib berildi.

***Kalit so‘zlar:** Hofizi Abru, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, tarixnavislik, qo‘lyozma, Shohrux Mirzo kutubxonasi, Sulaymoniya kutubxonasi, Movarounnahr, Xuroson, Temuriylar, Usmoniylar.*

***Аннотация.** В статье анализируется рукопись произведения «Зубдат ат-таварих» известного представителя историографии периода Тимуридов Хафиз-и Абру, хранящаяся в библиотеке Сулеймани под номером № 4370/I. Потому что эта рукопись была переписана при жизни автора для библиотеки Мирзо Шахруха. Эта рукопись является одной из двух известных в науке рукописей, охватывающих весь текст «Зубдата ат-тавариха». Поэтому важно провести кодикологический анализ данной рукописи как одного из редких образцов историографии и книжного искусства*



периода Тимуридов. Потому что эта рукопись труда «Зубдат ат-таварих» содержит важные сведения, служащие дополнением исследований развития науки в период Тимуридов. Источниковедческий анализ данной рукописи призван выявить важность и уровень достоверности произведения как исторического источника.

В статье исследование по теме также было привлечено в качестве вспомогательного источника и подчеркнуто источниковое значение данного рукописи. На основании этого выявлено, что произведение «Зубдат ат-таварих» занимает большое место в мусульманской историографии, особенно в развитии знаний об истории.

Ключевые слова: Хафизу Абру, Амир Темуру, Мирза Шахрух, Мирза Бойсунгур, историография, рукопис, Библиотека Мирза Шохруха, Библиотека Сулеймания, Маверааннахр, Хурасан, Тимуриди, Асманиди.

Annotation. The article analyzes the manuscript of the work “Zubdat at-tawarikh” by the famous representative of the historiography of the Timurid period, Hafiz-i Abru, stored in the Sulaymaniyah library under number 4370/1. Because this manuscript was rewritten during the author’s lifetime for the library of Mirzo Shahrukh. This manuscript is one of two manuscripts known to science that cover the entire text of “Zubdat at-tawarikh”. Therefore, it is important to conduct a codicological analysis of this manuscript as one of the rare examples of historiography and book art of the Timurid period. Because this manuscript of the work “Zubdat at-tawarikh” contains important information that serves as a supplement to the research on the development of science during the Timurid period. The source analysis of this manuscript is intended to reveal the importance and level of reliability of the work as a historical source.

The article also used research on the topic as a supporting source and emphasized the source significance of this manuscript. Based on this, it was revealed that the work “Zubdat at-tawarikh” occupies a large place in Muslim historiography, especially in the development of knowledge about history.

Key words: Hafizi Abru, Amir Temur, Shokhrukh Mirza, Baysunghur Mirza, historiography, manuscript, Library of Shokhrukh Mirza, Library of Sulaymaniya Mavaraunnahr, Khurasan, Timurids, Usmanids.

Hofizi Abru (1361-1430) nomi bilan tanilgan Temuriylar davrining mashhur tarixchi va geograf olimi Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurrashid al-Bihdodiniy¹ Xuroson markazi Hirotga qarashli Xavof viloyatining Behdodin mavzesida taxminan 1361-yilda dunyoga kelgan². Hamadonda tahsil olib, yoshligidan Qur'on, hadis,

¹ Hofizi Abruning ismi o'z asarlarida shu tarzda keltirilgan. Bu haqda qarang: Xoфиз Абру. Шомийнинг “Зафарномаи шохий” асарига илова. // Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” китобида. – Тошкент, 1996. – Б. 380–404.

² Hofizi Abruning aniq tug'ilgan sanasi ma'lum emas, ammo ayrim tadqiqotchilar u vafot etgan vaqtida 70 yoshda bo'lgan va taxminan hijriy 763 (m.1361–1362)-yilda tug'ilgan deya xulosa berganlar. Bu haqida yana qarang: Bayoniy. X. Sharh-e hol va zindagi va osor va ta'lefot-e Hofiz-i Abru // Hofiz-i Abru. Zayl-e Jome' at-tavorix-e Rashidiy. – Tehron. Donishgoh, 1949. – B. 12. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан, История.



tafsir, tarix, jugʻrofiya, adabiyot ilmlari va husnixat hamda muhandislik sohalarini egallagan. Amir Temur (1336–1405) va uning oʻgʻli Mirzo Shohrux (1377–1447) davrida turli lavozimlarda (asosan, devon va kotiblik ishlarida) ishlab, tarixiy va tarixiy-geografik mavzularda oʻndan ortiq asar yozgan. Hijriy 833-yil shavvol oyining uchinchi (mil. 1430-yil 24-iyun) kunida¹ Saricham mavzesida vafot etgan. Uning mayyiti Zinjondagi Shayx Faraj al-Zinjoniy mozori yonida dafn qilingan².

Hofizi Abruning tarixiy asarlari orasida eng yirigi va muallif hayotining soʻnggi yillarida yozib tugatilgani bu – 4 jilddan iborat “Majmaʼ at-tavorixi Sultoniya” boʻlib, uning toʻrtinchi jildi “Zubdat at-tavorixi Boysungʻuriy” deb nomlanadi³. “Zubdat at-tavorix” manbashunoslikda alohida asar sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Zero, XV asr tarixchilarining aksariyati Hofizi Abruni “Zubdat at-tavorixi Boysungʻuriy” asarining muallifi sifatida qayd etganlar⁴.

Bugungi kunda dunyoning koʻplab kutubxonalari va qoʻlyozma fondlarida Hofizi Abru asarlarining qoʻlyozmalari mavjud. Xususan, “Majmaʼ at-tavorix” asari qoʻlyozmalarining xorijiy mamlakatlar (Eron, Turkiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya, AQSH, Pokiston va hokazo) qoʻlyozma fond va kutubxonalarda yuzdan ortiq nusxalari saqlanishi koʻpgina tadqiqotlar va kataloglarda qayd etilgan⁵. Biroq ularda keltirilgan tavsiflar tarqoq va ayrim oʻrinlarda xatoliklar bilan keltirilgan. Mazkur qoʻlyozmalarning ilmiy tavsiflarini amalga oshirish va ularni tadqiqotlarga jalb etish fanning dolzarb mavzularidan biri boʻlib qolmoqda. Ularning barchasini bir ilmiy maqolada tahlil qilish imkonsiz. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada “Zubdat at-tavorix” asarining Mirzo Shohrux kutubxonasi uchun koʻchirilgan va bugungi kunda Turkiya Jumhuriyatining Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondida saqlanadigan №4370/I – ashyo raqamli qoʻlyozmasi manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarda yoritilgan tarixiy voqealarni tahlil qilish

Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент, 1998. – Б. 40; Shaforudiy M.R. Hofiz-i Abru // [https://rch.ac.ir/article/Details/9351.\(10.02.2020\)](https://rch.ac.ir/article/Details/9351.(10.02.2020));

¹ Qarang: Фасих Хавофий. Мужмали Фасихий. – Тошкент, 2018. – Б. 281.

² Oʻsha joyda.

³ Bu haqida yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qoʻlyozmasi. 4071/1. 2b varaq.

⁴ Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн II жилд, биринчи қисм. – Тошкент, 2008. 631б. – Б. 483.

⁵ Bu haqida qarang: Tauer F. Les manuscrits persans historiques des bibliothèques de Stamboul. // Archiv Orientalni, Vol III. – Prague, 1931, – pp. 462–470; Bayoniy X. Yek nusxa-ye az Majmaʼ ai-tavorix-e Hofiz-i Abru. // Majalla-ye Yodgor. Shumore-ye nuhum va dehum. – Tehron, 1949. – B. 174–176; Стори Ч.А. Персидская литература (Библиографический обзор, перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Е. Брегель). Т. I. – Москва, 1972. – С. 341–349; SVR, tarix. – B. 42; Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан, История. Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент, 1998. – Б. 40; Fehristgone nushaho-ye xatti-ye Iyon (fanojo). Jelde 28, (45 jild). – Tehron, 2014. – B. 240–244; <http://yazmalar.gov.tr/katalog-tarama>.



alohida tadqiqotni talab qiladi, shuning uchun ishning hajm chegarasini inobatga olib, “Zubdat at-tavorix”ning qayd etilgan qo‘lyozmasining ayrim kodikologik xususiyatlari tahlili bilan cheklanamiz.

“Zubdat at-tavorix”ning muallif davrida ko‘chirilgan asosiy qo‘lyozmalaridan biri Turkiyaning Sulaymoniya yozma asarlar qurumi Fotih kolleksiyasida №4370/I – raqami ostida saqlanadi (bibl. №242949). Mazkur qo‘lyozma maxsus muqaddima (kirish so‘z) va ikki bob (2 qism – Amir Temur va Mirzo Shohruxga bag‘ishlangan qismlar)dan iborat. Asarning **muqaddima** qismi, musulmon tarixnavisligi an‘anasiga muvofiq basmala, Allohga hamd va Muhammad (s.a.v.)ga salovat bilan boshlanib, unda kitobning yozilish va nomlanish sabablari, asarning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda Hofizi Abruga valine‘matlik qilgan uch hukmdor – Amir Temur, Mirzo Shohrux va Mirzo Boysung‘urlarning madhi keltiriladi¹. Elxoniy Sulton Abu Said vafoti voqealaridan (1335f.yil) keyin, Xuroson va Eronda avj olgan feodal kurashlar va uning oqibatlarini haqida ham qisqacha ma‘lumot berilgan bo‘lib, bu mavzu XV asr tarixchilari orasida faqat Hofizi Abru tomonidan yoritilgan². Undan so‘ng, muqaddimada Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kelishi bilan, ushbu hududlarning yagona markazga birlashtirilishi, Amir Temur davlatining qamrab olgan hududlari chegarasi, uning hukmdorlik davri ta‘rifi, so‘ngra Mirzo Shohrux hukmronligining qisqacha bayoni hamda muallifning kitobxonlardan duo talabida yozgan jumalari keltiriladi³. Muallif asar muqaddimasida uning Mirzo Boysung‘urga bag‘ishlagani va shu sabab unga “Zubdat at-tavorix-i Boysung‘uriy” deb nom berganligini o‘z so‘zi bilan qayd qilib o‘tadi⁴.

Asarning Amir Temur saltanati tarixiga bag‘ishlangan birinchi bobi 72 fasl va 314 maqolani, Mirzo Shohrux hukmronligi tarixini o‘z ichiga olgan ikkinchi bobi esa, 24 fasl va 188 maqoladan iborat. Ko‘rinib turibdiki, ikki bobning fasllari va maqolalari orasida tafovut katta, ularda berilgan matn hajmida ham (ya‘ni, qo‘lyozmada asarning birinchi bobi 362, ikkinchisi esa 243 varaqni tashkil qiladi). Bu nomutanosiblikning asosiy sababi, xronologik davr qamrovi jihatidan asarning birinchi qismi 70 yillik tarixni, Mirzo Shohrux davriga oid ikkinchi qismi esa 22 yillik tarixiy voqealarni o‘z ichiga olganligidir.

Qo‘lyozma nasx xatida, chiroyli husnixat bilan, qora siyohda Sharq qog‘ozida Mirzo Shohrux kutubxonasi uchun ko‘chirilgan⁵. Sarlavhalar, Qur‘on oyatlari, hadis namunalari, ayrim ismlar (Amir Temur, Mirzo Shohrux, Mirzo Boysung‘ur kabi),

¹ Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo‘lyozmasi. 4071/1. 1b–2b varaqlar.

² Qarang: O‘sha asar, 1b-2a varaqlar.

³ Qarang: O‘sha asar, 2a varaq.


⁴ Qarang: O‘sha asar, 2b varaq.

⁵ Bu haqida Feliks Tauer ham qayd etgan. Yana qarang: Tauer F. Vorbericht über die Edition des Zafarnama von Nizām Šāmi und der wichtigsten Teile der Geshchichtstwerke Ḥāfiẓ-i Abrū’s. // Archiv Orientální, № IV/2. – Praha, August 1932, – pp. 462–470.



she'rlarning sarlavhasi (misra, bayt, qasida kabi) va boshqa muhim jumlar qizil siyohda yozilgan. Ayrim holatlarda kotib tomonidan sarlavhalar qorada yozilib, ustidan qizil siyoh yugurtirilgan holatlar ham kuzatiladi¹. Qo'lyozmaning hajmi 605 varaqdan (1210 bet) iborat bo'lib, qatorlar soni 21 satr (18x23,5cm), kitob o'lchami 26,5x35scmni tashkil qiladi. Qo'lyozmaning ayrim varaqlarida hoshiyalar mavjud. Hoshiyalar bir so'z (5a, 16a, 42a varaqlar va h.k.), bir jumla (3a, 9a, 13a varaqlar va h.k.), butun hoshiya atrofiga sig'dirilgan matn (177b–178a, 300b–301a, 537b–536a, 540b–541a, 554a, 554b–555a, 555b–556a, 573b–574a varaqlar) va hatto qo'shimcha varaqda (362b, 532a varaqlar) o'z aksini topgan.

Qo'lyozma matni asosan bir ustundan iborat bo'lib, ayrim sahifalarda ba'zi she'riy matnlar ikki ustunli (46a, 45b, 54b, 55a, 71b, 89a-b, 96a, 111a, 121b varaqlar va h.k.), uch ustunli (120b–121a, 362a, 520b, 600a) va to'rt ustunli (520a, 604b) holatda, asosan, jadavlli va ba'zan jadvalsiz ko'rinishda ko'chirilgan. Asar tarkibidagi maqolalar (mavzular) ikki satrdan (147b varaq) o'n-o'n besh sahifagacha (3a–10b varaqlar) matlardan iborat. Ayrim jumlar, qizil siyohda yozilgan sarlavhalar ustidan qora siyoh tortilib o'chirilgan yoki isloh qilingan holatlar ham (148a, 275b, 276a, 277b, 283a, 559a va boshqa varaqlar) ko'zga tashlanadi. Bu mazkur qo'lyozmaning Hofizi Abruni asl qoralamasidan ko'chirilganligini bildiradi. Zero, mazkur chiziqlar va hoshiyalar kotibning asl nusxadagi holatni asliyatdagidek saqlashga harakat qilganligini bildiradi. Qo'lyozmada sarlavhalar asosiy matndan ajralib turishi uchun alohida jadaval ichiga yozilgan. Ba'zi sarlavhalar maxsus nAQSHlar bilan bezatilgan (152a-b, 153a varaqlar), ayrimlari esa, jadvalsiz yozilgan holat ham (285b,) kuzatiladi.








1-rasm: “Zubdat at-tavorix” asarining unvoni.

¹ Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo'lyozmasi. 4071/1. 20b varaq.



XV asrning birinchi choragiga doir Hirot kitobat san'ati maktabining nodir namunalaridan biri bo'lgan ushbu qo'lyozma, o'zida Mirzo Shohrux kutubxonasi uchun ko'chirilgani to'g'risida bir qancha belgilarga ega: birinchidan, uning chiroyli va noyob unvoni (*1-rasm*) aynan Mirzo Shohrux va Mirzo Boysung'ur davridagi Hirot kitobat maktabiga xos; ikkinchidan esa, qo'lyozmaning Ia, 94a, 343a, 605a varaqlarida Mirzo Shohrux kutubxonasiga tegishli ekanligini bildiruvchi muhr mavjud (*2-rasm*). Mazkur muhrlardagi yozuvlarning ayrimlarini to'liq o'qishning imkoni yo'q. Ular orasida faqatgina qo'lyozmaning 94a varag'idagi muhr yozuvlari birmuncha o'qishga yaroqli. Mazkur muhr tarixchining "Majmuayi Hofizi Abru" asarining To'pqopi saroy kutubxonasida saqlanadigan №282 raqamli qo'lyozmasining 1a varag'i¹ va "Majma' at-tavorixi Sultoniya"ning Sulaymoniya kutubxonasi Ayosofiya kolleksiyasida saqlanadigan №3035 raqamli qo'lyozmasiga² hamda Mirzo Shohrux kutubxonasiga tegishli bo'lgan boshqa kitoblarga ham bosilgan³.

□ Mirzo Shohrux muhrlari				
□ Zubdat at-tavorix Fotih fondi №4371/I				□ Majmuayi Hofizi Abru, To'pkapi №282
Ia varaq	94a	343a,	605a	1a varaq.
				
Muhr matni: برسم خزانه كتب الساطان الاعظم الاكرم شاهرخ سلطان بهادر - خلد ملكه				
Matn mazmuni: Buyuk va qudratli sulton Shohrux bahodir – saltanati bardavom bo'lsin – kutubxonasi xazinasiga tegishli				

2-rasm : "Zubdat at-tavorix" asarida keltirilgan Mirzo Shohrux muhrlari.

Ko'rinib turibdiki qo'lyozmaning Ia varag'idagi muhr yozuvlari o'qishga yaroqsiz, 94a varaqdagi muhrdan esa, uning ichki matnini tiklash mumkin va nihoyat 343a va 605a varaqlardagi muhrlar qisman o'chganligini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, "Zubdat at-tavorix"ning mazkur qo'lyozmasiga bosilgan Mirzo Shohrux

¹ Bu haqida yana qarang: Makhmudjonova. G. Tarih geleneğinin önemli bir örneği: hâfiz-i ebrû, *külliyyat-i tarih. Diss. doktora tezi.* – Ankara, 2021. – B. 102.

² Qarang: Bayoniy. X. Sharh-e hol va zindagi va osor va ta'lefo-e Hofiz-i Abru // Hofiz-i Abru. Zayl-e Jome' at-tavorix-e Rashidiy. – Tehron: Donishgoh, 1949. – B. 43.

³ Mirzo Shohrux kutubxonasiga tegishli kitoblar haqida qarang: Makhmudjonova. G. Tarih geleneğinin önemli bir örneği: Hâfiz-i Ebrû, *Külliyyat-i tarih. Diss. doktora tezi.* – Ankara, 2021. – B. 273–286.



muhrlarining o‘chishi turk sultonlarining qo‘liga yetib borish jarayonida yuz bergan bo‘lishi mumkin. Yana muhrlar solishtirilganda Fotih №3470/I qo‘lyozmasiga bosilgan muhr matnidagi ayrim so‘zlar joylashuvi va yozilish shaklida biroz farq ko‘zga tashlanadi, biroq ularda aynan bir xil jumlar qayd etilgan. Bu mazkur muhrning yangilanib turilganligi yoki Mirzo Shohrux kitobdorlarida uning bir nechta nusxasi mavjud bo‘lganligini bildiradi.

Mazkur qo‘lyozmaning Mirzo Shohrux davridan keyingi Hirot bilan bog‘liq taqdiri va uning qanday qilib Usmonli turk sultonlari kutubxonasiga yetib borganligi noma‘lum. Biroq, kitobning quyidagi qaydlari shuni ko‘rsatadiki, u Sulton Mahmudxon I ga (1696/1730–1754) qadar Konstantinopulda hijriy 909 (mil. 1503-1504-yy)-yilda Abdurahmon bin Ali bin Muayyad ismli shaxs qo‘lida bo‘lgan: “استعارة من الزمان العبد الفقير الى مغفرة رابه الصمد عبدالرحمن بن على ابن المؤيد – عفاالله تعالى عنهم – ” (Zamondan or qilib (uyalib), As-Somad ismli Robbisining mag‘firatidan [umidvor] faqir banda Abdurahmon b. Ali b. al-Muayyid Buyuk Alloh ularni afv qilsin, Jumodulavvalning boshlanishida, 909-hijriy yilda, himoyaga olingan Qustantiniyada)¹.

Qo‘lyozmaning mazkur varag‘ida Sulton Mahmudxon I (1696/1730–1754) muhri va vaqf ishlari bo‘yicha Madina mufattishi Darvesh Mustafo tasdiqnomasi hamda tug‘rosi ham o‘rin olgan (3-rasm). Ayrim tadqiqotlarda yangilish ravishda mazkur kitobni vaqf qiluvchi shaxs sifatida Sulton Mahmudxon II (1785/1808–1839) ko‘rsatilgan². Biroq bu ikki hukmdorning tug‘rolari qiyosiy tekshirilganda, mazkur muhr Sulton Mahmudxon I ga tegishligi ma‘lum bo‘ldi³.

T /r	□ Sulton Mahmudxon I muhri va tug‘rosi (№4371/I raqamli qo‘lyozma 1a varaq)		
1.	Sulton Mahmudxon I muhri	Sulton Mahmudxon I tug‘rosi	Sulton Mahmudxon II tug‘rosi

¹ Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo‘lyozmasi. 4071/1. 1a varaq.

² Yana qarang: Said Kamol Javodiy. Muqaddima. // Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. – Tehron, 2001. – B. 27.

³ Mahmud, Mehmed, Ahmad kabi ismlarning arab tilidagi o‘zagi bir bo‘lganligi sabab, shu nomdagi Usmonli turk sultonlarining ismi arab grafikasidagi tug‘rolarida ham bir-biriga o‘xshash holatda aks ettirilgan. Biroq mazkur tug‘rolarda o‘zaro farqlar mavjud. Solishtirish uchun yana qarang:

https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA_%D1%81%D1%83%D0%BB%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2_%D0%9E%D1%81%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9_%D0%B8%D0%BC%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%B8.

2.			
3.	Muhr matni: الحمد لله الذي هدانا لهذا وما كنا لنهتدي لو لا أن هدانا الله وقف محمود خان بن مصطفى شاه المظفر		
4.	Tarjimasi: “Bizlarni shunga hidoyat qilgan Allohga hamdalar bo‘lsin, agar Alloh bizni hidoyat qilmaganda, o‘zimiz yo‘l topa olmas edik.” ¹ Doimo g‘olib Mustafo Shohning o‘g‘li Mahmudxon vaqfi.		

3-rasm: “Zubdat at-tavorix” asariga bosilgan Sulton Mahmudxon I muhri va tug‘rosi.

Sulton Mahmudxon I tomonidan vaqf qilingani, qo‘lyozma haramayn² vaqf ishlari nazoratchisi Darvesh Mustafoning quyidagi qaydnomasi bilan tasdiqlangan: “وقف هذا الكتب العجائب³ والسعر⁴ المستطاب حضرت الاعصم⁵ ظل الله في العلم غياث الاسلام و مغيث الامم السلطان ابن السلطان المظفر الغازي محمودخان ادم الله تعالى دولته الياخر الزمان. - وفقا صحيحا على من فهم ما فيه و اعتبر بما يحتويه. حرره الفقير – اليه عز شانه – درويش مصطفى المفتش باوقاف الحرمین غفر له (Bu vaqfni, (ya’ni) ajoyib, yaxshi narxdagi kitobni, pok hazrat – Alloh bu dunyoda soyasiga olsin – islom homiysi, ummat yordamchisi Sulton b. Sulton, b. Sulton Muzaffar, G‘oziy Mahmudxon – Alloh uning davlatini qiyomatgacha davomli qilsin – undagi (kitobdagi) bor narsalarni tushunadigan va ichidagilarga e’tibor beradiganlar uchun (shariatga) muvofiq tarzda vaqf qildi. Buni sha’ni buyuk

¹ Qur’oni karim, A’rof surasi 43 oyatdan. Курьони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: «Hilol-Nashr» нашриёт-матбааси, 2022. – 632 б. (“Zubdat at-tavorix” asarida uchraydigan Qur’oni karim oyatlarining o‘zbekcha tarjimasi mazkur nashrdan olindi).

² Haramayn – (ikki haram) Madina va Makka shaharlari nazarda tutilmoqda.

³ Al-ajab – (العجائب – ajoib) so‘zi Said Kamol Javodiy tomonidan al-hijab (الحجاب – parda, to’siq) deb o‘qilgan. Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. – Tehron, 2001. –B. 27.

⁴ As-si’r – (السعر – narx, baho) so‘zi Javodiyda as-safar (السفر – safar) shaklida qayd etilgan. Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. – Tehron, 2001. –B. 27.

⁵ Al-asam – (الاعصم – pok) so‘zi Javodiyda al-a’zam (الاعظم) shaklida qayd etilgan. Bu shakl matn mazmuniga mos emas. Negaki, al-a’zam so‘zi aslida lug‘atda (الاعظم) shaklida yoziladi. Shu ma’noda yuqoridagi matndagi jumlagi al-a’zam (الاعظم) so‘zini qo‘yib, “buyuk hazrat” deb o‘qisa ham bo‘ladi. Zero, mufattish “ظ” harfini ustidagi chiziq va nuqtasiz “ص” ko‘rinishida yozgan bo‘lishi mumkin. Qiyoslash uchun qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniy kutubxonasi Fotih fondi qo‘lyozmasi. 4071/1. 1a varaq; Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. – Tehron, 2001. – B. 27.



(Allohga) faqir [banda], ikki haram vaqflari nazoratchisi Darvesh Mustafo tahrir qildi, (Alloh) uni mag'firat qilsin)¹. Demak, o'rnatilgan nizomga muvofiq, podshoh vaqfi taftishchilar tomonidan nazorat qilib turilgan. Shulardan ma'lum bo'ladiki, har bir tarixiy qo'lyozma, xususan, uning qaydlari ilm-fan uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, uning bizgacha yetib kelishi jarayoni ham ma'lum bir tarixni o'zida mujassam qilgan.

Mazkur qo'lyozmada uning kotibining ismi va ko'chirilgan yili qayd etilmagan. Tadqiqotlarda, qo'lyozmada qayd etilgan oxirgi sana (830-yil 23-Rabi ul-oxir/1427-yil 21-fevral), uning tugatilgan vaqti sifatida qabul qilingan. Abdurrazzoq Samarqandiy (1413–1482) ham uni 1427 yilda yozib tugatilganligiga ishora qilib o'tgan. U o'zining "Matlai sa'dayn" asarida "Zubdat at-tavorix"ni asosiy manba sifatida kiritib, ayni mana shu 1427-yil voqealari bayonida, "Shu yerda ... Hofizi Abru (laqabi) bilan mashhur bo'lgan (Nuriddin) Lutfullohning "Zubdat at-tavorix al-Boysung'uriy" nomli asari tugadi". jumlasini bilan, "Zubdat at-tavorix"ning ham yozib tugatilgan yili va ham tugash qismiga ishora qiladi².

Hofizi Abru "Zubdat at-tavorix" asarining 736-yil voqealari bayonida ham mauarrix kitob rejasi haqida qisqacha to'xtalib, unga Amir Temur tavalludidan to'zi yashab turgan kuniga qadar bo'lgan tarixiy voqealarni kiritmoqchi bo'lganiga ishora qilib, hijriy 829-yil (milodiy 1425–1426-yy.) sanasini keltiradi³. Biroq, asarda 830-yil voqealari ham kiritilgan, shundan muallif keyingi (1427) yilda ham asarni yozishni davom ettirgani ma'lum bo'ladi. Asar maxsus xotima qismiga ega emasligidan, uni noma'lum sabablarga ko'ra nihoyasiga yetmay qolgan deb xulosa qilish mumkin. Negaki, XV asr tarixnomalarining ko'pchiligi maxsus xulosa va xotima qismlariga ega. Shuningdek, ko'pchilik dalillar asarning 1427-yilda yozilganini ko'rsatsa-da, uning muallifi 1430-yilda vafot etgan. Demak, "Zubdat at-tavorix"da tarixiy voqealar 1430-yilga qadar yoritilishi mumkin edi. Biroq, bunga Hofizi Abruning shaxsiy hayoti (bemorlik yoki boshqa biron yumush bilan band bo'lish) yoki shu davr siyosiy vaziyati bilan bog'liq holda sodir bo'lgan noma'lum voqelik to'sqinlik qilgan bo'lishi mumkin. Fotih fondi qo'lyozmasi "Zubdat at-tavorix"ning asosiy nusxalaridan biri bo'lganligi sabab, uning fotokopiya va mikrofilm nusxalari ko'plab kutubxona va qo'lyozma fondlarga tarqalgan⁴.

¹ Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo'lyozmasi. 4071/1. 1a varaq.

² Qarang: Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд, биринчи қисм. –Тошкент, 2008. –В. 483.

³ Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo'lyozmasi. 4071/1. 3a varaq.

⁴ Eron Milliy Universitetida uning №294-F, №295-F va №296-F raqamli 3 dona mikrofilm nusxalari mavjud Yana qarang: Fehristgon-e nusxaho-ye xatti-ye Iyron (fanojo). Jelde 28, (45-jild). – Tehron, 2014. –В. 240–244.



4-rasm. №4371/I raqamli qo‘lyozma, 1a varaq: Muhrlar va qaydlar qismi.

Bugungi kunda “Zubdat at-tavorix” asarining mazkur qo‘lyozmasidan (№4371/I raqamli qo‘lyozma) tashqari, Mirzo Shohrux kutubxonasi uchun ko‘chirilgan yana ikki qo‘lyozmasi ma‘lum. Ularning biri Eron Islom Respublikasining Malik kutubxonasida №4166¹ ashyo raqami ostida saqlanadi. Ikkinchisi esa, Eron Milliy kutubxonasida saqlanadigan №2527/F ashyo raqamli qo‘lyozma bo‘lib, u bevosita “Zubdat at-tavorix”ning qo‘lyozmasi emas, bali “Majma’ at-tavorix”ning III jildining qo‘lyozmasi hisoblanadi.

“Zubdat at-tavorix” asarining muhim jihati shundaki, muallif Hofizi Abru uni yozishda Amir Temur va Temuriylar davri tarixnavisligining yirik vakillaridan biri o‘laroq, ko‘pgina yozma va og‘zaki manbalarni jalb qilgan. Muallif garchi asarning Amir Temur qismini yozishda Nizomiddin Shomiyning (vaf. 1412) “Zafarnoma”sidan foydalangan bo‘lsa-da, bu asarni o‘z guvohligidagi ko‘plab faktlar lahlili vositasida qayta to‘ldirish, tuzatish va xronologik jihatdan tartibga solish orqali “Zubdat at-tavorix”ga kiritadi.

G‘iyosiddin Naqqoshning (XIV–XV asrlar) “Xitoy safari kundaligi” (“Ro‘zno-mayi safari Chin”) matnlarining “Zubdat at-tavorix” tarkibida kelishi, bu asarni ham Hofizi Abru foydalangan yana bir manba bo‘lganligiga dalolat beradi. Zero, bugungi kunda mazkur asarning alohida nusxasi fanda aniqlanmagan, u aynan “Zubdat at-

¹ Mazkur qo‘lyozmaning Eron Doirat al-maorif Islom tadqiqotlari markazida 364 raqamli fotokopiya nusxasi mavjud.



tavorix” asari orqali yetib kelgan. Abdurazzoq Samarqandiy kabi keyingi mualliflar ham mazkur asar matnlarini “Zubdat at-tavorix”dan ko‘chirganlar¹.

Shuningdek, asrda (Shohnoma) Mavloni Ali Badri Hiraviy (XIV asr) va Mavloni Bahovuddin Hojilarning (XIV asr) nazmiy asarlari qatorida fors va arab shoirlari ijodi namunalari ham manba sifatida foydalangan².

Tadqiqotlarda Mavloni Sa‘dulloh Kirmoniyning (XIV asr) yo‘qolgan “Futuhot-e Mironshohiy”, Muiniddin Muhammad Yazdiyning (XIV asr) “Mavohib-i Ilohi”³, Nosiriddin Umarning (XIV–XV asrlar) “Ro‘znomayi futuhot-i Hind” G‘iyosiddin Alining (XIV asr) o‘gli Mavloni Shihobiddin Muhammad Munshiy (XIV–XV asrlar) tomonidan yozilganligi taxmin qilinadigan “Futuhot-i bilod-e Shom-u Rum” asarlari hamda muallifi noma‘lum “Ro‘znomaye Futuhot-i Dasht” asarlari ham “Zubdat at-tavorix”ga manba vazifasini o‘taganligi qayd etib o‘tilgan⁴.

Hofizi Abru Nizomiddin Shomiy kabi XIV asr voqealarining asosiy qismini qayd etishda ularning hijriy sanalari qatorida turk-mo‘g‘ul oy nomlarini ham keltirib o‘tgan. Bu muarrixning shu davr voqealarini yozishda, foydalangan manbalari qatorida Muiniddin Natanziyning (XIV–XV asrlar) “Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy” hamda uyg‘ur baxshilarining bitiklaridan tashqari yana bir qancha turkiy manbalar va solnomalar ham bo‘lganligini bildiradi.

Hofizi Abru Amir Temur davrida bevosita yashagan va uning topshirig‘i bilan fathnomalar yozgan G‘iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy kabi tarixchilar qatorida turadi. U Amir Temur devoni vakili sifatida rasmiy hujjatlardan ham manba sifatida keng foydalangan. Bunga “Zubdat at-tavorix”da keltirilgan rasmiy yozishmalardan ko‘plab ko‘chirmalarning keltirilishi misol tariqasida aytib o‘tiladi. Shuningdek, tarixchi Amir Temur va Mirzo Shohrux bilan bo‘lgan safarlarni esdaliklarida qayd etib, ulardan keyinchalik asarlarida manba sifatida keng foydalangan.

Tarixchi Hofizi Abruning XV asr tarixnavisligidagi salmoqli xizmatlariga havas qilib, Fasih Xavofiy (1375–1442), Abdurazzoq Samarqandiy, Mahmud ibn Xovandshoh – Mirxond (1433–1498) va G‘iyosiddin Xondamir (1475–1535) kabi muarrixlar o‘z asarlarini yozishda uning tarixnomalaridan birlamchi manba sifatida foydalanganlar⁵ va uning uslubiyatiga ergashganlar. Ayniqsa, “Ravzat us-safo” va

¹ Yana qarang: Гиёсиддин Наққош. Хитой сафари кундалиги (Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Омонулло Бўриев (ўзбек, рус ва инглиз тилларида). – Тошкент: “MASHHUR-PRESS”, 2017. –В. 13.

² Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. (مقدمه تصحيح و تعليقات: سيد كمال حاج سيد جوادى. حافظ ابرو. زبدة التواريخ. ج. 1). - تهران 1379/2001. ص. 1034.

³ Qarang: Резаголизадех Н.В. Особенности исторических взглядов Хафиза Абру. // Дисс. На соискание учен. степени канд. истор. наук. – Душанбе, 2015. – С. 86.

⁴ Yana qarang: Woods. J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies (The university of Chicago ss journals) Vol. 46, No. 2 (Apr., 1987). Published by: The University of Chicago Press. Apr., 1987. – pp. 99.

⁵ Bu haqda yana qarang: Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн.



“Habib us-siyar” asarlarida Hofizi Abruning tarixiy asarlaridan manba sifatida foydalanish bilan birgalikda ularda mazkur muarrixning “Jug‘rofiya” asari geografik fasl sifatida kiritilganini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida fanning turli sohalari qatorida tarixnavislik sohasi ham rivojlandi. Bu davrda yozilgan tarixiy asarlarning har biri yuzlab qo‘lyozma nusxalar shaklida bizgacha yetib kelgan. Bu borada eng muhimi esa, mazkur asarlarning bevosita mualliflar hayotligi chog‘ida ko‘chirilgan va o‘z davri hukmdorlarining kutubxonasi uchun tayyorlangan nodir qo‘lyozmalar shaklida saqlanib qolganligidadir. Zero, bu omil Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayoti, ilm-fan rivoji, kitobat san‘ati va kutubxonalari borasida keng ma‘lumotlarga ega bo‘lishga xizmat qiladi. Zero, bu masalani Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asarining bugungi kunda Sulaymoniya yozma asarlar kutubxonasida saqlanadigan qo‘lyozmasi misolida ko‘rib o‘tdik. Shu jihatdan har bir tarixiy asar qo‘lyozmasining birlamchi nusxalarini o‘rganish tadqiqotchilardan, o‘z navbatida soha bo‘yicha jiddiy izlanish va tadqiqotlar olib borishni talab etiladi. Pirovard natijada esa o‘tmishning bo‘sh sahifalari to‘ldiriladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн [Matlayi Sa‘dayn va majmayi bahrayn]. II жилд, биринчи қисм. –Тошкент, 2008. – 630 б.
2. Резаголизадех Н.В. Особенности исторических взглядов Хафиза Абру [Особенности исторических взгляд Хафиза Абру]. // Дисс. На соискание учен. степени канд. истор. наук. –Душанбе, 2015. – С. 166.
3. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан, История [Собирание восточних рукописей академии наук Республики Узбекистан. История]. Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. – Ташкент, 1998. – Б. 40;
4. Стори Ч.А. Персидская литература (Биобиблиографический обзор, перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Е. Брегель). Т. I. – Москва, 1972. – С. 341–349.
5. Фасих Хавофий. Мужмали Фасихий [Mujmali Fasihiy]. –Тошкент, 2018.
6. –541 б.
7. Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар [Habib us-siyar]. – Тошкент, 2013. –1270 б.

II жилд, биринчи қисм. – Тошкент, 2008. – Б. 4; Фасих Хавофий. Мужмали Фасихий. – Тошкент, 2018. – Б. 18; Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. – Тошкент, 2013. – Б. 24.



8. Гиёсиддин Наққош. Хитой сафари кундалиги [Xitoy safari kundaligi] (Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Омонулло Бўриев (ўзбек, русс ва инглиз тилларида). –Тошкент: “MASHHUR-PRESS”, 2017. –158 б.
9. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси [Qur’oni karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasasi]. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. – Тошкент: «Hilol-Nashr» нашриёт-матбааси, 2022. – 632 б.
10. Ҳофизи Абру. Шомийнинг “Зафарномаи шоҳий” асарига илова [Shomiyning “Zafarnomayi shohiy” asariga ilova]. //Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” китобида. – Тошкент, 1996. – Б. 380–404.
11. Bayoniy. X. Sharh-e hol va zindagi va osor va ta’lefot-e Hofiz-i Abru // Hofiz-i Abru. Zayl-e Jome’ at-tavorix-e Rashidiy. Tehron: Donishgoh, 1949. – B. 6–51.
12. Bayoniy X. Yek nusxa-ye az Majma’ ai-tavorix-e Hofiz-i Abru. // Majalla-ye Yodgor. Shumore-ye nuhum va dehum. – Tehron, 1949. – B. 174–176:
13. Fehristgon-e nusxaho-ye xatti-ye Iyron (fanojo). Jelde 28, (45 jild). – Tehron, 2014. – B. 240–244;
14. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo’lyozmasi. № 4071.
15. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix (Muqaddime, tashah va taleqot, Sayid Kamol Hoji Sayid Javodiy). –Tehron, 2001. –1264 s.
16. Hâfiz-i Ebrû // <https://islamansiklopedisi.org>. (17.02.2020).
17. Makhmudjonova. G. Tarih geleneğinin önemli bir örneği: Hâfiz-i Ebrû, Külliyyat-i tarih. Diss. doktora tezi. – Ankara, 2021. – B. 273–286.
18. Tauer F. Vorbericht über die Edition des Zafarnama von Nizâm Šâmi und der wichtigsten Teile der Geshchichtswerke Hâfiz-i Abrû’s. // Archiv Orientalni, № IV/2. – Praha, August 1932, – pp. 462-470.
19. Tauer F. Les manuscrits persans historiques des bibliotheques de Stamboul. // Archiv Orientalni, Vol III. – Prague, 1931, – pp. 462–470;
20. Shaforudiy M.R. Hofiz-i Abru //
21. <https://rch.ac.ir/article/Details/9351>.(10.02.2020);
22. Woods. J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies (The university of Chikago ss journals) Vol. 46, No. 2 (Apr., 1987). Published by: The University of Chicago Press. Apr., 1987, – pp. 81-108.
23. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%BA_%D1%81%D1%83%D0%BB%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2_%D0%9E%D1%81%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9_%D0%B8%D0%BC%D0%BF%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%B8.
24. <http://yazmalar.gov.tr/katalog-tarama>.



Dr. SAYED MOHAMED AHMED KORAYEM

Associate Professor, Department of Arabic language for Theoretical and practical translation, Faculty of Oriental philology, UzSWLU

Literary heritage of Ali-shir Nava'i: (a study on his influence and contribution to world civilization)

Abstract. *Alisher Navoi was a great uzbek poet and thinker, statesman who lived from 1441 to 1501. He was born in Herat, present-day Afghanistan, and lived and received a tehsil in Samarkand. He is considered one of the greatest poets in the history of Central Asia. Alisher Navoi wrote beautiful poems in ancient uzbek (chigatoy) and Persian. His poems have acquired a romantic, philosophical, humanitarian tone.*

Alisher Navoi was not only a talented poet, he also held large political positions. He was an advisor to several rulers and became prime minister in the Temurian dynasty. During his time as minister, the poet worked hard to promote education and culture.

Alisher Navoi considered personal growth and improvement in education very important for social progress. He established schools, libraries, and educational centers throughout the state. His efforts helped spread knowledge and enlightenment among the people.

Although Alisher Navoi died many centuries ago, his literary heritage and contribution to the Enlightenment continue to live. Today he is celebrated as a national hero in Uzbekistan and continues to inspire people with his wise words.

Keywords: *Alisher Navoi, Chigatai language, great poet, thinker, statesman, mysticism*

Annotatsiya *Alisher Navoiy 1441—1501 yillar yashagan buyuk o'zbek shoiri va mutafakkir, davlat arbobidir. U hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot shahrida tug'ilgan va Samarqandda yashab, tahsil olgan. O'rta Osiyo tarixidagi eng buyuk shoirlardan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy qadimgi o'zbek (chig'atoy) va fors tillarida go'zal she'rilar yaratgan. Uning ijodi ishqiy, falsafiy va insonparvarlik g'oyalari bilan boyitilgan.*

Alisher Navoiy nafaqat iste'dodli shoir, balki yuksak siyosiy lavozimlarni egallagan arbob ham edi. U bir necha hukmdorlarning maslahatchisi bo'lib, Temuriylar saltanatida bosh vazirlik darajasiga ko'tarilgan. Shoir o'z faoliyati davomida ta'lim, ma'rifat va madaniyatni rivojlantirish yo'lida katta hissa qo'shgan.

Alisher Navoiy ta'lim olish, shaxsiy kamolot va o'sishni ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb bilgan. U butun mamlakat bo'ylab maktablar, kutubxonalar va ta'lim markazlarini tashkil etgan. Uning sa'y-harakatlari natijasida xalq orasida bilim va ma'rifat keng tarqalgan.

Alisher Navoiy ko'p asrlar avval vafot etgan bo'lsa-da, uning boy adabiy merosi va ma'rifatparvarlik faoliyati hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi kunda u O'zbekistonda milliy qahramon sifatida ulug'lanadi va o'zining hikmatli so'zlari bilan xalqni ilhomlantirishda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Chig'atoy tili, buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi, tasavvuf*

الملخص. *كان علي شير نوائي شاعرا ومفكرا أوزبكيا عظيما ورجل دولة عاش من 1441 إلى 1501. ولد في هرات، أفغانستان الحالية، وعاش وحصل على تهسيل في سمرقند. يعتبر من أعظم الشعراء في تاريخ آسيا الوسطى. كتب*



علي شير نوائي قصائد جميلة باللغة الأوزبكية القديمة (تشيغاتوي) والفارسية. اكتسبت قصائده نغمة رومانسية وفلسفية وإنسانية لم يكن علي شير نوائي شاعرا موهوبا فحسب ، بل شغل أيضا مناصب سياسية كبيرة. كان مستشارا للعديد من الحكام وأصبح رئيسا للوزراء في السلالة التيمورية. خلال فترة عمله كوزير ، عمل الشاعر بجد لتعزيز التعليم والثقافة. اعتبر علي شير نوائي أن النمو الشخصي والتحسين في التعليم مهمان للغاية للتقدم الاجتماعي. أسس المدارس والمكتبات والمراكز التعليمية في جميع أنحاء الولاية. ساعدت جهوده في نشر المعرفة والتنوير بين الناس. بالرغم من وفاة علي شير نوائي منذ عدة قرون، فإن تراثه الأدبي ومساهمته في عصر التنوير لا يزالا يعيشان إلى الآن. واليوم يتم الاحتفال به كبطل قومي في أوزبكستان ويستمر في إلهام الناس بكلماته الحكيمة.

الكلمات المفتاحية: علي شير نوائي ، لغة تشيغاتاي ، شاعر عظيم ، مفكر ، رجل دولة ، تصوف

His birth:

Nava'i was born in the city of Herat belonging to Khorasan in the year 9/2/1441 AD in the family of Ghiyath al-Din Kajik Bakhshi⁽¹⁾. He died on 3/1/1501 in the city of Herat at the age of sixty years. Ali Shir Nava'i was one of the children of the calligrapher-Bakhshi Uyghurs who left for the new city of Herat after the destruction wrought by Genghis Khan in the heart of Asia⁽²⁾

His original home:

There are various opinions in the original home of ghiyathuddin Bakhshi⁽³⁾:

First: Ghiyath al-Din could have been a close relative of the karakhanid Uyghurs who lived in Ferghana.

Second: Ghiyath al-Din may have traveled to the Ferghana Grove from Kashgar with scholars such as Sayyid al-Din al-Kashgari because of the misfortunes that befell Prince Timur and his children to moghulistan (Turkestan).

Third: the surname "Bakhshi" of Ghiyath al-Din was a common surname among the Uyghurs in Turfan and in the city of Kashgar as well, and it is possible that Ghiyath al-Din was one of the children of the Uyghurs of the idyghut in Turfan.

The word "Bakhshi" means writers who edit documents in Uyghur letters.

In any case, depending on the information contained in the book "history of Rashidi" Ali-Shir Nava'i was attributed to the Uyghurs for sure⁽⁴⁾:

The famous historian and statesman al-Saidi(1500-1551) Mirza Muhammad Haidar mentioned in his book (Rashidi history):"the origin of Ali Shir is Nava'i from the Uyghur Bakhshi family, and his father was called kajkaneh Bakhshi"⁽⁵⁾.

¹⁾Subtelny, Maria Eva (2011). "Alī Shīr Navā'ī". In Fleet, Kate; Krämer, Gudrun; Matringe, Denis; Nawas, John; Rowson, Everett (eds.) Encyclopaedia of Islam (3rd ed.). Brill Online. ISSN1873-9830.

²⁾Subtelny, Maria Eva (1993). "Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī". In C. E. Bosworth; E. Van Donzel; W. P. Heinrichs; Ch. Pellat (Eds.). The Encyclopedia of Islam. Vol. VII. Leiden—New York: E. J. Brill.

³⁾ See the meaning of the word "Bakhshi" "history of the Turks in Central Asia-Barthold, translated by D.Ahmed said Suleiman, P.: 233-236)

⁴⁾ history of Rashidi P 431 in Uyghur

⁵⁾Subtelny, Maria Eva (1979–1980). 'Alī Shīr Navā'ī: Bakhshī and Beg. Eucharisterion: Essays presented to Omeljan Pritsak on his Sixtieth Birthday by his Colleagues and Students. Vol. 3/4.



This information was confirmed to Muhammad Mirza Haydar by both the well-known researcher Zaki Walid Dogan, a Tatar, and the well-known Russian researcher specializing in Turkish Studies A.Semenov in their compositions.

Researcher Professor Ezzat Sultan says about the Nava'i: "I have been very keen on Nava'i Studies, and I have studied many sources. I draw your attention to evidence that Ali Sher Nava'i's father Ghiyath al-Din kujak was from the Uyghur Bakhshi family in the city of Kashgar"⁽¹⁾

Noyai was mentioned in the Turkish encyclopedia published in Turkish as a "Uyghur poet"⁽²⁾

It is also mentioned in the Turkish Islamic encyclopedia, "and Ali Sher Nava'i's father, kajkane Bahadur, was one of the famous Uyghur figures"⁽³⁾.

The Chinese scholar Li guoshang, in his book "history of Uyghur literature", emphasized: "Ali Sher Nava'i is a great poet and a great thinker of Uyghurs"⁽⁴⁾

The Chinese researcher in his book "The History of Uyghur literature" has quoted the opinion of the famous Russian researcher "Semenov", a specialist in Turkish literature, who pointed out and confirmed that the poet is a literary Nava'i affiliated with the Uyghur people.

However, other scholars such as Kazuyuki Kubo disagree with this view⁽⁵⁾

Soviet and Uzbek sources hold that Nava'i significantly contributed to the development of the Uzbek language and consider him to be the founder of Uzbek literature⁽⁶⁾. In the early 20th century, Soviet linguistic policy renamed the Chagatai language "Old Uzbek", which, according to Edward A. Allworth, "badly distorted the literary history of the region" and was used to give authors such as Alisher Nava'i an Uzbek identity⁽⁷⁾.

The Uyghurs are considered the first peoples of the Turks who knew the writing among the Turkic peoples, and they used the ancient Uyghur, the karakhanid Uyghur,

Harvard Ukrainian Studies. p. 799. (See "history of Rashidi" P.: 431 in Uyghur). (See also the manuscript copy of the "history of Rashidi" at the Institute of orientalism of the Academy of arts of Uzbekistan, no.: 1410)

Asarda Xoja Qavomiddin Nizomulmuluk nomi “Qavom ul-haq vad din val milla” shaklida keladi. Vazir Qavomiddinning ismi arab tilida “dinning tayanchi, suyanchi” ma’nosini anglatadi. Nizomulmuluk esa uning taxallusi bo‘lib, “mamlakatning nizomi” ma’nosini anglatadi. Xoja Qavomiddin Nizomulmuluk Xurosonning Xavof viloyatida tug‘ilgan. Yoshligida Sulton Abu Said Mirzo devoniga xizmatga o‘tgan. 1469-yilda Sulton Abu Said vafot etgach, Hirotda hokimiyatni Sulton Husayn Mirzo egallagach, Nizomulmuluk uning saroyiga xizmatga o‘tadi. Xoja Qavomiddin Nizomulmuluk tez fursatda davlat ishlarida qobiliyatli ekanligini, devon boshqaruvida kuchli shaxs ekanligini, ko‘plab muhim masalalarni hal eta olishini namoyon etadi. Shuning uchun ham Sulton Husayn unga bosh vazir, ya’ni sohibi devon lavozimini taqdim etadi. Xoja Qavomiddin Nizomulmulukning ikki farzandi bo‘lib, ular Kamoliddin Husayn va Rashididdin Abdulmaliklar edi.

Viqor Ahmad Hamadoniy – Uqayliy bu asarni yozar ekan, hijriy 725-yil / milodiy 1324–1325-yillar dekabrigacha bo‘lgan davrini “Nasoyim ul-as’har” asaridan foydalangan deb qayd etadi. Biroq, “Osor al-vuzaro” asarini nashr etgan Mirhoshim Jaloliddin Husayniy Urmaviy (Muhaddis) bu fikrga qo‘shilmaydi. Sayfiddin Hoji Uqayliyning “Osor al-vuzaro” asarini yozishda foydalangan manbalari bugungi kungacha yetib kelmagani, mazkur asarning qiymatini oshiradi. Biroq Uqayliy ushbu asarni yozayotganida foydalangan manbalarning ma’lumotlarini asl hujjatlardan emas, o‘z tushunchasiga ko‘ra bayon etgan. Shu sababli asarning ko‘p qismlarida noaniqliklar



mavjud. Boshqa tomondan, asarni tahrir etgan Mir Jaloliddin Husayniy Urmaviy asardagi ko‘plab xatolarni ishonchli manba hisoblangan “Tarix-i Bahira” nomli vazirlar haqida ma’lumot beruvchi asardan tuzatgan.

Mir Jaloliddin Husayniy Urmaviy (Muhaddis) hijriy 1337-yil / milodiy 1985-yilda Tehronda “Osor al-vuzaro”¹ asarining zamonaviy forscha matnini nashr etadi. U mazkur nashr uchun Tehrondagi Milliy Majlis Kutubxonasida saqlanayotgan oltita kitobdan iborat majmuaning 619-raqam bilan qayd etilgan to‘rtinchi kitobidan foydalangan².

2021-yilda Nargis Oskuye va Zahro Jafariyonlarning “Analysis of stylistic layers in “Asar Al-Wozarah’s ” with a critical stylistic approach”³ (“Osor al-vuzaro” asaridagi stilistik qatlamlarning tanqidiy tahlili, stilistik yondashuv) nomli ilmiy maqolasi e’lon qilingan. Maqola “Osor al-vuzaro” asari matni, stilistikasi, vazirlar nutqi uslublariga bag‘ishlangan.

2023-yilda, Istanbulda Fotih Bo‘stonchining “Seyfeddin Haci B. Nizam-i Ukayli’nin Asaru’l-Vuzera Adli Eserinde Timurlu Devleti Vezirleri”⁴ nomli ilmiy maqolasi nashr etilgan. Maqolada Fotih Bo‘stonchining “Osor al-vuzaro” asari, muallifi va Temuriylar davlati vazirlari haqida turk tilidagi tadqiqoti joy olgan.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Sayfiddin Hoji ibn Nizom Uqayliyning “Osor al-vuzaro” asari Temuriylar davrining muhim manbalaridan biri bo‘lib, ushbu asar o‘z davrining ma’naviy va ma’muriy yutuqlaridan dalolat beradi. Unda bayon etilgan vazirlar haqidagi ma’lumotlar qimmatli hisoblanib, o‘rta asrlardagi davlat boshqaruvi, siyosat va madaniyat sohalaridagi tushunchalarimizni boyitishga xizmat qiladi. Asar hukmdorlar uchun vazirlar qanchalik ahamiyatli, vazirlar qanday bo‘lishi, kerak, vazirlar nimalarni bilishi kerak va nimalarni amalga oshirishi kerak, nimalardan tiyilishi kerak, hukmdorga qanday maslahat berishi kerak kabi savollarga javob bo‘lishi uchun yozilgan.

“Osor al-vuzaro” ham tarixiy manba, hujjat, ham adabiy asar sifatida Temuriylar davri, uning ma’muriy tuzilmalari, boy madaniy merosini o‘rganuvchi olimlar uchun muhim manba bo‘lib qolmoqda. Uning qo‘lyozmalari va tarjimalari bo‘yicha keyingi tadqiqotlar tarixdagi ushbu muhim davrning yangi qirralarini yoritishga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun ushbu asarning o‘zbek tilidagi nashri amalga oshirilishi lozim.

¹ Seyfeddin Haci b. Nizam-i Ukayli, Asaru’l-Vuzera, tah. Mir Celaledin Huseyni Urmevi, neshr. Intisharat-i Itlaat, Tahrn 1364 h.ş.

² Bostanci Fatih. (2023). Seyfeddin Haci B. Nizam-I Ukayli’nin Asaru’l-Vuzera Adli Eserinde Timurlu Devleti Vezirleri. Farsça ve Arapça Kaynaklarda Türk ve Moğol Devleti Tarihi I (İlhanlılar, Timurlular, Ak-Koyunlular ve Kara-Koyunlular). İstanbul. Efe Akademi. 95–126 s.

³ Oskouie Narges and, Jafariyan Zahra. (2021). Analysis of stylistic layers in "Asar Al-Wozarah's " with a critical stylistic approach. Literary Research. 1–6 p. DOI: <https://doi.org/10.2634/Lire.18.72.1>

⁴ Bostanci Fatih. (2023). Seyfeddin Haci B. Nizam-I Ukayli’nin Asaru’l-Vuzera Adli Eserinde Timurlu Devleti Vezirleri. Farsça ve Arapça Kaynaklarda Türk ve Moğol Devleti Tarihi I (İlhanlılar, Timurlular, Ak-Koyunlular ve Kara-Koyunlular). İstanbul. Efe Akademi. 95–126 s.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sayfiddin Hoji ibn Nizom al-Uqayliy. Osor ul-vuzaro. O'z R.FA.ShI qo'lyozmasi. № 2009.
2. Sayf al-Dīn Ḥājjī ibn Nizām 'Uqaylī. (1958). *Āṣār al-vuzarā'*. Intishārāt-i Dānishgāh-i Tihrān (Tom 528).
https://books.google.co.uz/books/about/%C4%80s%C4%81r_al_vuzar%C4%81.html?id=GwBhzwEACAAJ&redir_esc=y
3. Aghili, Saif al-Din Haji Ibn Nizam. (1985), Works of Ministers, second edition, edited by Mir Jalaluddin Hosseini Armavi, Tehran: Information.
4. Bostanci Fatih. (2023). Seyfeddin Haci B. Nizam-I Ukayli'nin Asaru'l-Vuzera Adli Eserinde Timurlu Devleti Vezirleri. Farsça ve Arapça Kaynaklarda Türk ve Moğol Devleti Tarihi I (İlhanlılar, Timurlular, Ak-Koyunlular ve Kara-Koyunlular). İstanbul. Efe Akademi. 95-126 s.
5. Seyfeddin Hacı b. Nizam-ı Ukaylî, Asaru'l-Vüzera, tah. Mir Celaleddin Hüseyinî Urmevî, neşr. İntişarat-ı İtlaât, Tahran 1364 h.ş.
6. Jumayev G.I. "Audiomanuscript" – a project on the study of oriental manuscript sources. // Journal of Social Research in Uzbekistan, 2023. P. 50-52.
7. Tabatabai, Seyed Javad (1996) Khajeh Nizam-ol-Molk, Tehran: New Plan.
8. Сайфуддин Хочй ибни Низоми Уқдйлий. Осор-ул-вузаро (Асар ал-вузара). Ба тасхиҳе ва таълиқд Мирчалолуддин Хусайнии Урмавии Мухаддис. Техрон: Иттилоот, 1364. - 368 с.
9. Oskouie Narges and, Jafariyan Zahra. (2021). Analysis of stylistic layers in "Asar Al-Wozarah's " with a critical stylistic approach. Literary Research. 1-6 p. DOI: <https://doi.org/10.2634/Lire.18.72.1>



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

SALIYEVA MUHABBAT

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi, TDSHU

Zamonaviy axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya

Annotatsiya: ushbu maqoladan asosiy maqsad Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining barcha faoliyati shakllanishiga qaratilgan jamoatchilik fikrining integratsion roli jamiyatda ma'naviy birlik va totuvlikka erishish haqidagi mulohazalar bilan birga, bugungi kunda dunyoda va O'zbekistonda joriy qilingan siyosiy tizim uzoq asrlar davomida shakllangan va davrlar mobaynida katta natijalarga erishilgan hamda bu natijalarni davlat rahbari tomonidan zamonga mos tarzda hayotga tatbiq etilayotganligi. Xususan, huquqiy ong va siyosiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli hamda uzviy olib borilmayotganligi sir emas. Jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti. Bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks yondashuv kuzatilmayapti. Yoshlarning huquqiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga yetarli tayanilmaganligi to'g'risidagi ilmiy manbalarga asoslangan tadqiqot ishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat, siyosat, huquq, tarbiya, internet, qadimgi davr, islohot, jamiyat, kommunikatsiya, qadriyat.

Аннотация: Основной целью данной статьи является интегративная роль общественного мнения, направленная на формирование всей деятельности современных средств массовой информации, а также сообщения о достижении духовного единства и согласия в обществе, о достигнутых результатах и о том, что есть плоды. Эти результаты реализуются главой государства своевременно. В частности, не секрет, что работа по правовому просвещению и воспитанию не проводится системно и органично, особенно в сфере повышения правового сознания и правовой культуры. Не обеспечивается активное участие государственных органов и других отраслевых служб в организации и проведении целевых правозащитных мероприятий в обществе. В связи с этим высокой эффективности и результативности не просматривается.



Отсутствует комплексный подход к формированию правового иммунитета к факторам, оказывающим негативное влияние на правовое воспитание молодежи, уважение к законам и правилам этикета, верность национальным ценностям, привитие чувства нетерпимости к правонарушениям у каждого человека. Рассмотрено основанное на научных источниках исследование недостаточной опоры на историю, религию, обычаи и национальные ценности узбекского народа при формировании правовой и политической культуры молодежи.

Ключевые слова: государство, политика, право, образование, интернет, древние времена, реформа, общество, коммуникация, ценность,

Abstract: *The main objective of this article is the integrative role of public opinion aimed at shaping all activities of modern mass media, as well as considerations about achieving spiritual unity and harmony in society, about the results achieved and that there are fruits. These results are implemented by the head of state in a timely manner. In particular, it is no secret that the work on legal education and upbringing is not carried out systematically and organically, especially in the field of increasing legal awareness and legal culture. The active participation of government agencies and other industry services in organizing and conducting targeted human rights activities in society is not ensured. In this regard, high efficiency and effectiveness are not visible. There is no comprehensive approach to the formation of legal immunity to factors that have a negative impact on the legal education of young people, respect for laws and rules of etiquette, loyalty to national values, instilling a sense of intolerance to offenses in each person. The article examines a study based on scientific sources of insufficient reliance on history, religion, customs and national values of the Uzbek people in the formation of the legal and political culture of youth.*

Keywords: state, politics, law, education, Internet, ancient times, reform, society, communication, value,

Siyosiy tuzilmalar siyosiy institutlar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi axborot-kommunikatsiya tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu tizimning elementlariga hukumatga ma'lumot uzatish kanallari (ishni ochiq majlislarda, tergov komissiyalarida, manfaatdor guruhlar bilan maxfiy maslahatlashuvlarda va boshqalarda ko'rish tartibi), shuningdek, televideniye, radio, gazetalar, ommaviy axborot vositalari kiradi.

Siyosiy kommunikatsiya tizimining ahamiyati juda katta, chunki odamlar ma'lum miqdordagi bilim va ma'lumotlarga ega bo'lgan taqdirdagina siyosiy harakatlarni baholashga qodir bo'ladi. Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari mustaqil bo'lsa, avtoritar va totalitar jamiyatlarda ular butunlay hukmron elitaga bo'ysunadi. Siyosat yuqorida aytib o'tilganidek, ijtimoiy hayotning turli sohalariga kirib boradi, muayyan muammolarni hal etishga aloqador bo'ladi. Ushbu inkluzivlik xususiyati davlat hokimiyati organlari tomonidan siyosiy ahamiyatga ega deb hisoblangan muammolar doirasiga bog'liq. Zero, F.Brod yozishicha, "hech narsani o'z tabiatiga ko'ra siyosiy lashtirish shart emas va hamma narsa shunday bo'lishi mumkin"¹, shu

¹ Брауд П. Политология. – Париж. 1972. – С. 11.



o‘rinda N.Freyzerning fikricha, “ijtimoiyni siyosiy lashtirish murakkab jamiyatlarda uzviy jarayondir”¹, deyiladi.

Siyosiy kommunikatsiya – bu ma‘lumot va xabarlarini yetkazish jarayoni. Amerikalik siyosatshunos G.Lassuyell aloqa harakatini quyidagicha ta‘riflagan: “Kim? Nima deding? Kimga? Qanday natija bilan? Bu funksiya orqali siyosiy tizimning turli tuzilmalari o‘rtasidagi aloqa ta‘minlanadi”². Siyosatni boshqarish va amalga oshirish, odatda, axborotning vertikal oqimini xalqdan hukumatga va hukumatdan xalqqa yetkazishni talab qiladigan tizim hisoblanib, darajalar va hokimiyatlar o‘rtasida gorizontal axborot oqimi ham zarur degan fikrni bildiradi muallif. Aloqa jarayoni tufayli hokimiyatni egallash uchun stixiyali harakatlar hamda fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarning ma‘lum bir shakliga aylantirish orqali hokimiyatga hurmat shakllanishi shu tariqa davlatchilik vujudga kelishi to‘g‘risida keng fikr bildiradi. “Normativ ijodkorlik natijasida fuqarolarning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi qonunlar ishlab chiqiladi. Odatda, qoida yaratish jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: siyosatni yuritish va umumiy maqsadlarni tanlash, maqsadlarga erishish uchun yechimlar va maxsus qoidalarni ishlab chiqish. Bu funksiyani qonun chiqaruvchi, shuningdek, ijro etuvchi va sud organlari amalga oshiradilar.

Davlat siyosati qonunlar qabul qilish bilan tugamaydi. Siyosat va qarorlar qabul qilishning muhim jihati “majburiy ta‘minlash” funksiyasi bo‘lib, uni nafaqat ijro etuvchi organlar va ma‘muriy tizim boshqaruvida, ko‘pincha qonun chiqaruvchi va huquqiy tuzilmalar ham bajaradilar. Amalga oshirish deganda qonunlarni sharhlash va ma‘lum bir qonun buzilganligini aniqlash va tegishli jazolarni qo‘llash harakati nazarda tutiladi. Huquqbuzarliklar bo‘yicha murojaatlarni ko‘rib chiqish, birinchi navbatda, sud hokimiyatining mas‘uliyati hisoblanadi, shu bilan bir qatorda qaramay, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat sud jarayonlarida muhim rol o‘ynashi”³ amaliyotda o‘z isbotini topgan.

Axborot jamiyati siyosatida kommunikatsiya ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, tarmoqlar ulanishi natijasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu esa globallashtirish davrida siyosiy kommunikatsiya tizimlari tadqiqotchilar e‘tiborini tarmoq makonida sodir bo‘layotgan jarayonlarga tortishi tobora ortib bormoqda. Olimlar mustaqil virtual siyosiy aloqa makonining paydo bo‘lishi va tarmoq siyosiy kommunikatsiyasining rivojlanishi haqida o‘z gipotezalarini gapiradilar, M.S. Vershinin “axborotga egalik qilish va uni

¹ Freedman J.O. Idealism and Liberal Education. – Ann Arbor: Univ. of Michigan press, 1996. – P. 62.

² Лассуэлл Г.Д. Политика: кто достигает чего, когда и как? // Чикагская школа политической мысли (1920–1940-е годы): сборник переводов под ред. Д.В. Ефременко; пер. с англ. В.Г. Николаева. – Москва: Институт научной информации по общественным наукам РАН, 2023. – С. 77.

³ Internet Usage Statistics. The Internet Big Picture. World Internet Users and 2017 Population Stats. URL: <http://www.internetworldstats.com/stats.html>.



tasarruf etish ham davlat, ham xalqaro miqyosida eng muhim siyosiy vositaga aylangan¹ gini qayd etadi. Ushbu ma'lumotlarning asosiy manbai zamonaviy jamiyatning siyosiy instituti sifatida qaraladigan ommaviy axborot vositalari bo'lib qolmoqda. "Tarmoq makonida ommaviy axborot vositalari juda beqaror hodisadir"². Texnologiyaning rivojlanishi bugungi kunda professional ommaviy axborot vositalari bilan raqobatlashadigan ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishiga yordam beradi. Tarmoqlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar, gipertexnologiya tufayli tarmoqning voqeligi va interaktivligi internet-media sektori chegaralarining xiralashishiga va aloqa xarakterining o'zgarishiga olib keladi. Zamonaviy innovatsion texnologiyaning rivojlanish tamoyillari internet-media haqidagi mavjud tushunchani qayta ko'rib chiqish, ham ularning Internetdagi siyosiy muloqot jarayonini o'rganishni taqozo etadi.

Masalan, kommunikatsiya fanining asoschilaridan biri Jey Blumler siyosiy kommunikatsiya yo'nalishini "kommunikatsiya fanining istiqbolli tarmog'i"³, deb ta'riflaydi. Siyosiy kommunikatsiyani o'rganishda Garold Lassvellning asarlari fundamental va tizimli manbalarni beradi, bu esa siyosiy kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotlar qat'iy ilmiy maqomga da'vo qilishi mumkinligini anglatadi.

Siyosiy axborot ijtimoiy axborot sifatida hamisha aholining katta qiziqishiga sabab bo'lib kelgan. Shu bois barcha ijtimoiy-ommabop tahririyatlar o'z sahifalarida yangi qabul qilingan huquqiy hujjatlarning sharhlari, keng jamoatchilikning savollariga siyosatshunoslar tomonidan berilgan javoblar, davlat va jamiyat boshqaruvi to'g'risidagi axborotlar, davlatlararo siyosiy uchrashuvlarga asoslangan tahliliy maqolalar, "siyosiy axborot kommunikatsiyalari" uchun maxsus joy ajratadilar⁴. Ommaviy axborot vositalari shu yo'l bilan ijtimoiy axborotning alohida turi bo'lgan siyosiy axborotni tarqatadilar. Shu sababli rivojlanayotgan demokratik davlatlarda siyosiy kommunikatsiya tizimlariga OAVning e'tibori nihoyatda muhim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda hujjatlarining xalq e'tiboriga havola etilishi, ya'ni OAVda yoritib borilishi davlat faoliyatining xalq bilan muloqotini belgilovchi asosiy unsurdir.

Qayta aloqa o'rnatish imkoniyati bilan Internetning inson hayotiga ta'siri kuchayishi ommaviy kommunikatsiyalar uchun inqilobiy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarning barchasi insoniyatning rivojlanishiga bog'liq. O'zbekiston bosma ommaviy axborot vositalarida 2021–2022-yillarda axborot-huquqiy islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlarning yoritilishi darajasi va sifatini aniqlash maqsadida

¹ Vershinin M. The 15 Most Popular News Websites.URL:

<http://www.ebizmba.com/articles/news-websites>.

² Федеральные СМИ. http://www.mlg.ru/ratings/federal_media/. – М., 2016. Фрейзер Н.

Итогосиз амалиётлар. – Миннесота университети матбуоти. 1989. – Р. 12.

³ Хубецова З. Ф. Политическая коммуникация: Теория, образование, опыт. – М.: СПб. 2017. – С. 59.

⁴ <https://t.me/huquqiyaxborot>. 6.05.2023.



o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gazetaning har bir 8049 ta soniga deyarli bittadan maqola to'g'ri keladi¹. Gazetxonlar tomonidan eng ko'p o'qiladigan maqolalar aynan davlat boshqaruvidagi yangiliklar va ularning tafsilotlari to'g'risida yoritilgan maqolalarni tashkil etadi. Bu siyosiy kommunikatsiyaning yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Jamiyatda aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi ishtiroki haqida so'z yuritilganda, albatta, axborot erkinligini ta'minlash zarur. Sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan xalqni shakllantirmasdan turib, bu masalalarga erishib bo'lmaydi². Shuningdek, demokratik jamiyatda matbuot juda muhim vazifani bajarishi alohida ahamiyatga ega. Biroq matbuot ma'lum chegaradan o'tmasligi, jumladan, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlariga daxl qilmasligi hamda maxfiy ma'lumotlarni oshkor etmasligi lozim. Boshqa barcha masalalarda, deylik, ommani qiziqtiruvchi axborot va g'oyalar haqida istalgan shaklda (kommunikatsiya kanallarida axborotlarni yetkazish usullari nazarda tutilmoqda – M.S.) axborot yetkazish matbuotning burchidir³.

Davlat va jamiyat boshqaruvi murakkab jarayon bo'lib, uni tashkil etish, boshqarish bo'yicha turli modellar, boshqaruv shakllari va yo'llari ishlab chiqilgan. Insoniyat tomonidan ming yillar davomida "taraqqiyparvar davlat", "komil jamiyat" barpo etish g'oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o'tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini tashkil etish amaliyoti bir necha davlatlar tajribasida qo'llanilib, o'z samarasini berdi. Bugun esa, o'z suverenitetiga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlar uchun bunday yo'l eng maqbul maqsadga aylandi. Natijada ko'plab davlatlar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosida yuqori taraqqiyot sari odimlamoqda.

Siyosiy islohotlarning samarali kechishini bosqichma-bosqich ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Demokratik jamiyatning ijtimoiy asoslaridan biri siyosiy institutlar, tashkilotlardir. Siyosiy jarayonlar takomillashuvida albatta xalqning ishtiroki zarur. Siyosiy institutlar faoliyati siyosiy kommunikatsiya shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

So'z va axborot erkinligini ta'minlash tamoyili konstitutsiyaviy tamoyil bo'lib, 2023-yilda yangilangan Konstitutsiyaning 33-moddasiga muvofiq, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni

¹ URL: <https://t.me/huquqiyaxborot>. 6.05.2023.

² URL: <http://www.medialaw.ru/publications/books/wb-conc/15.html> // Европа Кенгаши Вазирлар Кўмитаси томонидан иштирокчи давлатларга берилган тавсиялар № R (94)13. (Вазирлар Маҳкамаси томонидан 1994 йил 22 ноябрь куни вазирлар ўринбосарларининг 521-сессиясида қабул қилинган).

³ Қаранг: Европейский суд по правам человека и защита свободы в России: прецеденты, анализ, рекомендации. Т.1. // Под ред. Винокурова Г.В., Рихтера А.Г., Чернишева В.В. – М.: Институт проблем информационной права. 2002. – С. 139.



ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi¹. Demak, mazkur modda fuqarolarning axborot olish va undan foydalanishga doir huquq va erkinlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Ko'rsatilgan konstitutsiyaviy normalar orasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi"², deb ifodalangan 12-modda mavjud. Shuningdek, mazkur Asosiy qonunda 5 ta moddani o'z ichiga olgan "Siyosiy huquqlar" nomli 8-bobning 36-, 37-, 38-, 39- va 40-moddalarida jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega³ ekani belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini ta'minlash, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat, davlatning axborot borasidagi xavfsizligini qonun yo'li bilan ta'minlanishi qayd etilgan.

Ko'rsatilgan qonunga muvofiq, ma'lum bir axborotni taqdim etish to'g'risidagi so'rovga javob imkoni boricha qisqa muddatlarda, ammo 30 ish kunidan kech bo'lmagan muddatda taqdim etilishi shart qilib qo'yildi. Agar so'rov tushgan muassasa yoki mansabdor shaxs so'ralayotgan axborotga ega bo'lmasa, murojaat etuvchiga bu haqda so'rov olingan sanadan boshlab yetti ish kunidan kechiktirmasdan ma'lum qilishi kerak. Shuningdek, imkoniyat darajasida, unga bunday axborotga ega bo'lgan organning yoki mansabdor shaxsning nomini ma'lum qilishi zarurligi belgilab qo'yilgan. Shuni nazarda tutish kerakki, qonun davlat organlari murojaat etgan shaxsning huquqiy manfaatlariga aloqador axborotlarni bepul taqdim etishlari shartligini belgilaydi.

O'tgan davr mobaynida ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan o'nga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. O'z navbatida, fan va texnika insonlarning dunyoqarashiga, butun jamiyat rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy kafolatlari va har kimning ommaviy axborot vositalarida chiqishi, o'z fikr va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqlari mustahkamlandi.

Konstitutsiya va yuqorida ko'rsatilgan Qonunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan⁴. E'lon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga bermasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Axborotlashtirish sohasini rivojlantirishda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi huquqiy munosabatlar O'zbekiston

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 33 - моддаси. – Т.: “Адолат”. 2023. – Б. 22.

² Ўша манба, – Б. 22.

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 82 - модда. – Т.: “Адолат”. 2023. – Б. 45.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 82 - модда. – Т.: “Адолат”. 2023. – Б. 45.



Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solindi. Mazkur Qonunda yuridik va jismoniy shaxslarning axborot texnologiyalari tizimlarini qo'llagan holda axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlari belgilab berilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari jamiyatning axborotlashuv darajasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan shu qadar jiddiy ahamiyatga egaki, bu nihoyatda murakkab va serqirra jarayonga daxldor muammolarni o'rganish, tadqiq qilish va tegishli xulosalar chiqarish mutaxassislardan alohida yondashuvni talab etadi.

Amerikalik siyosatshunos Gerbert Shiller, kapitalistik mamlakatlarning axborot sohasidagi jarayonlarni o'rganar ekan, u juda muhim xulosaga keldi: "axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanishi qandaydir stixiyali jarayonlarning natijasi emas, ularning yaratilishi harbiy va xususiy tijorat manfaatlariga asoslanadi"¹. Shunga ko'ra, ularning asosiy maqsadi jamiyatga xizmat qilish emas, balki harbiy qudratni mustahkamlash va foyda olishdir. Qo'shma Shtatlar va boshqa ko'plab mamlakatlarda "bozor totalitarizmi", ya'ni tijorat munosabatlarining jamiyat hayotining barcha sohalariga to'liq tarqalishini e'lon qilgan holda, axborot uzoq vaqtdan beri "tish pastasi, jo'xori uni yoki avtomobillar" bilan birga sotiladigan va sotib olinadigan iste'mol mahsulotiga aylandi". Mamlakatimizda axborot muhitini rivojlantirish ko'p jihatdan xuddi shunday yo'ldan bormoqda. Ammo shuni tushunish kerakki, bozor munosabatlarining bunday kengayishi ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi.

Bozorning asosiy tamoyilini – foydani maksimal darajada oshirishni axborot sohasiga loyihalashtirish, axborot mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning, bir tomondan, o'z xarajatlarini kamaytirishga, ikkinchi tomondan, shunchalik ko'p odamlarning ehtiyojlarini qondirishga intilishlariga olib keladi. Shu sababli, media-axborot mahsulotlariga urg'u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlardan katta auditoriyani jalb qiladigan iqtisodiy jihatdan foydaliroq ma'lumotlarga o'tmoqda. Natijada, aksariyat telekompaniyalar bir xil axborot mahsulotini – ko'ngilochar, turli seriallar, ko'rsatuvlar, filmlar, musiqa va sport ko'rinishida taqdim etadilar. Ularning bozor sharoitidagi faoliyati oddiy qoidaga bo'ysunadi – ommaga taklif qilinadigan hamma narsa arzon bo'lishi kerak, chunki ommaviy aholining xarid qobiliyati past. Tabiiyki, bu axborot mahsulotlari sifatiga ta'sir qiladi. Shaxs ko'ngilochar dasturlar bilan bombardimon qilinadi, bularning barchasini G. Shiller "axborot axlati" deb atagan. "Bu axlat qiziqarli, chalg'ituvchi, juda ko'p g'iybat va juda kam qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi"² degan fikrlarini aytgan edi.

¹ Шиллер Г. Манипуляторы сознанием / пер. с англ. В. М. Погостина, А. Н. Бурмистенко. М., 1980. С. 186.

² Уэбстер Ф. Теории информационного общества / пер. с англ. М. В. Арапова, Н. В. Малыхиной. М., 2004. С. 201.



Davlat va jamiyat boshqaruvida zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish usuli sifatida siyosiy axborotlarni rivojlantirish uzatish tizimi kommunikatsiyaning bir shakli sifatida rivojlanib bormoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvi ildizlarining mustahkam bo'lishida fuqarolarning o'zaro hamjihatlikda va hamfikir bo'lib yashashlari haqida ulug' mutafakkir Forobiyning shunday fikrlari bor: "Siyosat bosqichma-bosqich va davlat ishlaridagi boshqa tadbirlar bilan birga amalga oshiriladigan asosiy ish bo'lishi zarur. Bu ta'limot avvalan shu davrda urf bo'lgan odatlarni soxtalashtirish bilan mashg'ul odamlarga nisbatan qo'llanishi kerak. Bu soxtalashtirishlar qonunni yaxshi bilmaydigan odamlar va bolalarda muayyan bir illatlarni paydo qilishi mumkin. Agar ta'limot va qonunlarga o'rganish ishlari bosqichma-bosqich va izchil olib borilsa, u holda ular a'lo natija beradi"¹. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirish, xalqning ma'naviyatini huquqiy bilimlar bilan to'ldirish zarur.

Davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirish kabi ta'limiy manbalar borki, xalq buni ongli ravishda anglay bilishi, tushunishi dolzarb masaladir.

Xalq jamiyatdagi axboriy-siyosiy jarayonni tushunmas ekan, ularning ongida insoniylikka zid bo'lgan g'oyalarga ergashish, turli safsatalarga ishonish ishtiyoqining paydo bo'lishiga olib keladi. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Inson qadri ulug'lanayotgan zaminda uning jamiyatdagi o'rni, qolaversa, huquq va erkinliklari, osoyishta turmush tarzi davlat tomonidan kafolatlanishi oliy mezon hisoblanadi. Shu o'rinda ulug' hukmdor o'z davrining buyuk siyosatdoni Amir Temurning "Temur tuzuklari" asaridagi fikrlarda "Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadim"², deydi va uning siyosiy tadbirlari haqidagi bu manbalar davrlar osha, hozirda ham nihoyatda katta qiymatga ega.

Zamonaviy demokratik davlat barpo etish jarayoni ketayotgan bugungi kunda xalqimiz erishgan eng muhim natija ham aslida demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan tus olayotgan mamlakatimizda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi tobora kengayib borayotganligidadir. Davlat boshqaruvi, vazir va hokimlar,

¹ Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2012. – Б. 89.

² Темур тузуклари. – Т.: Фафур Фулом НМИУ. 1996. – Б. 69.



barcha bo'g'indagi mansabdor shaxslar fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, amalda jiddiy shug'ullanmoqda, davlat organlari xalq bilan, har bir fuqaro bilan faol muloqot olib borayotgani, jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, yuksalishlarda hamfikir ekani, siyosiy axborotni davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga davlat tilida joylashtirilishi va axborotning ishonchli bo'lishi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan axborot bilan bir xil kuchga egaligi ta'minlayotganligi fikrimizni dalillaydi.

Davlat va jamiyat boshqaruvining zamonaviy strukturasi (tuzilmalarini) yaratish masalalari bugungi kunning birinchi darajali dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Har bir rahbarning vazifasi – mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatni, uning ustuvor yo'nalishlarini, strategik maqsadlarini to'g'ri tushunish, odamlarning ertangi kunini o'ylash, buning uchun munosib shart-sharoit yaratib berishdan iborat. O'zbekistonning yangi rahbari o'zining birinchi ish kunidan bu masalalarga kengroq nazar tashladi. Hayotga tatbiq etilayotgan xalq bilan muloqot masalasi juda qisqa muddatda boshlab yuborildi. Fuqarolar bilan uzluksiz muloqot yozma, og'zaki va virtual shakllar asosida olib borilmoqda. Bajarilayotgan vazifalar yuzasidan xalq oldida hisobot berib borilayotganligi buning isbotidir.

Davlat va jamiyat boshqaruvida inson qadrining ulug'lanishi, uning jamiyatdagi o'rini tobora yuksaltirish muhim zaruratga aylandi. O'z fikr-mulohazalarini erkin bildirishi, saylash huquqiga ega ekanligi, bularning barchasi insoniy qadriyatlar qadrlanishi, qonunlarning davlat uchun emas, avvalo, xalq uchun xizmat qilishi bilan e'tiborlidir. Inson va uning manfaatlarini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va osoyish-talik, mehr-oqibat, insonparvarlik muhitini mustahkamlash, ko'pchilikni o'ylantirayotgan dolzarb muammolarni hal qilish ustuvor vazifa sifatida fuqarolar hayotida o'z isbotini topmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlariga murojaat qilar ekanmiz, tarixiy asarlarda yozib qoldirilgan manbalarning guvohlik berishicha, bunday bahslar sof nazariy qarashlar doiralaridan chiqqan holda ma'lum bir tuzum va davlatlarning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz. Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtalib o'tmasdan iloj yo'q. Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tizimida boshqaruv huquqi – bugungi kunda, ya'ni davlat rahbari tomonidan ko'rsatilgan saylovoldi dasturida bayon etilgan, “islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun” degan eng muhim tamoyilni amalga oshirilishini maqsad qilib, mamlakatimiz Birinchi Prezidentining boshqaruvini davom ettirgan holda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasida “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptsiyasini amalga oshirish va shu yo'sinda siyosiy tizimni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash asnosida rivojlangan huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish kerakligini anglatadi.



Fuqarolarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishdagi tashabbuslarini amalga oshirishda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtiroki zarur. Shuni hisobga olib, bugungi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi va uning apparati faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq holda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish kerak.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, shu bilan birga, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligining kafolati ekanligi matbuotda bong urilmoqda. Aholi turmush darajasini oshirish mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim ustuvor masalasi bo'lib turibdi. Davlat rahbarining xalq bilan olib borayotgan muloqotlari, bosqichma-bosqich o'tish davrida xalqni konstitutsiyaviy ta'limotdan xabardor qilish maqsadida muntazam xalqchil qonunlar hayotga tatbiq etilayotgani, har yilning mamlakatni rivojlantirishdagi muayyan ustuvor strategik masala bilan bog'liq nom bilan atalishi siyosiy an'ana sifatida e'tiborga molikdir.

Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, huquqiy targ'ibot ishlarida qator omma-viy aksiyalar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Huquqiy targ'ibot sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanish kengaytirildi. "Telegram" ijtimoiy messengeridagi "Huquqiy axborot" kanali orqali 2022-yilda tarqatilgan 2 400 tadan ortiq huquqiy targ'ibot materiali jami 123 mln. marta ko'rildi¹. Shu bilan birga, huquqiy targ'ibot sohasida muayyan kamchiliklar, o'z yechimini kutayotgan muammolar va to'liq foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjud. Xususan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli hamda uzviy olib borilmayotganligi sir emas. Jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti. Bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks yondashuv kuzatilmayapti. Yoshlarning huquqiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlari, milliy qadriyatlariga yetarli tayanilmagan.

Ayrim davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari faoliyatida o'z sohasiga taalluqli qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining matnini quyi bo'g'inlarga to'liq yetkazilmaslik holatlari saqlanib qolmoqda. Davlat organlari tomonidan huquqiy targ'ibot tadbirlari hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan veb-texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Bunday holatlar keng ko'lamli islohotlar, jumladan, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholi e'tiboriga samarali yetkazishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, davlat dasturlari hamda

¹ Қараңг: <https://t.me/huquqiyaxborot>. Мурожаат вақти: 6.08.2023.



davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlar va yangilanishlarga nisbatan senatorlarning munosabati, fikr va mushohadalarini ommaviy axborot vositalarida doimiy tarzda e'lon qilib borishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada, ayniqsa, Xalqaro press-klub sessiyalarida, "Ijro intizomi" tok-shousida ko'plab chiqishlar qilindi. Shuningdek, Senat faoliyati bilan bog'liq muhim yangiliklar, qabul qilingan hujjatlar, qo'mita va komissiyalarning nazorat-tahlil faoliyati natijalari, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari bilan uchrashuvlar tafsilotlari Senatning yangilangan veb-saytida muntazam ravishda yoritib borildi.

Ko'p millatli O'zbekiston o'z rivojlanishida axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalarining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli uzoq muddatli davlat islohotlarini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari va hukumatning o'zaro munosabati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyoda va O'zbekistonda joriy qilingan siyosiy tizim uzoq asrlar davomida shakllangan va davrlar mobaynida katta natijalarga erishilgan hamda bu natijalarning mevasini davlat rahbari tomonidan zamonga mos tarzda hayotga tatbiq etilmoqda.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab davlat boshqaruvi islohotlarini o'tkazishda fuqarolik jamiyatining harakatlantiruvchi kuch sifatidagi o'rni tobora o'sishi kuzatilmog'da. Ko'p hollarda davlat va fuqarolarni oshkoralik va hisobdorlikni mustahkamlash, shuningdek, hukumatning xizmat ko'rsatish imkoniyatlari bo'yicha keng innovatsiya tashabbuslariga jalb qilish borasida fuqarolik jamiyati institutlari ishonchli hamkor sifatida harakat qilmoqda.

Siyosiy axborotlashtirishning ustuvor vazifasi davlatning axborot-huquqiy makonini yaratishdir. Chunki u orqali davlatdagi barcha huquq subyektlari o'zaro ta'sir o'tkazishi mumkin. Qayd etilishicha, ushbu vazifani amalga oshirish davlat organlarini kompyuterlashtirish va elektron hujjat aylanishini joriy etish orqali normativ-huquqiy axborotni yaratish, qayta ishlash va tarqatishning yagona uzluksiz siklini takomillashtirish orqali amalga oshirilmoqda. "Xalq so'zi" gazetasi bosh muharriri O'tkir Rahmatovning ta'kidlaganidek, "ochiqlik va oshkoralik yangilanish jarayonlarida xalq hokimiyati tamoyilini ro'yobga chiqarish uchun muhim vositaga aylanmoqda. Barcha loyiha va dasturlar xalq bilan kelishilgan holda inson manfaatlarini uchun amalga oshiriladi. Buning yorqin tasdig'i sifatida konstitutsiyaviy islohotni keltirish mumkin. Uni amalga oshirishda "Davlat – jamiyat – inson" paradigmasi "inson – jamiyat – davlat" ko'rinishiga almashgani ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu bilan inson manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yiladi. Buni yorqin namoyon etuvchi dalil shuki, kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, fuqaroning davlat organlari bilan munosabatida yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklar fuqaro foydasiga hal qilinadi. Yangi O'zbekistonga, amalga oshirilayotgan islohotlarga aynan shunday yondashuv xosdir"¹.

¹ Раҳматов Ў. Халқимиз орзу - истакларига ҳамоҳанг ислохотлар // "Халқ сўзи", 2023. № 55 (8398). – Б. 3.





Asosiy vazifalardan biri huquqning turli sohalarida to'la miqdordagi huquqiy ma'lumotni o'z ichiga oladigan yagona interaktiv Internet portalini rivojlantirishdir. Vaholanki, bunday portal allaqachon mavjud bo'lsa-da, geografik jihatdan uzoq va mintaqaviy huquqiy ma'lumotlarga va huquqiy manbalarga kirish muammosi hal qilinmadi.

Elektron manbalar bilan ishlashning eng muhim afzalliklari ularning ahamiyati, kirish tezligidir. Internet portalidagi eskirgan ma'lumotlarning tezkor yangilanishi va almashtirilishi, mutaxassislarning sharhlari, barcha toifadagi fuqarolarning ayrim masalalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish imkoniyati ham huquqiy axborotlashtirish yo'lida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalardir.

Zamonaviy demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari yordamida turli ijtimoiy guruhlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari va davlat siyosiy manfaatlarini ommaga ifodalaydi, eng muhim siyosiy voqealarga baho beradi, jamoatchilik fikrini shakllantirishga harakat qiladi. Jamiyatning siyosiy funksiyalarni amalga oshirish, demokratik jamiyatda ijtimoiy guruhlar va tarmoqlar manfaatlarini ifodalashi davlat OAVlariga bog'liq.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining barcha faoliyati shakllanishiga qaratilgan jamoatchilik fikrining integratsion roli jamiyatda ma'naviy birlik va totuvlikka erishishdan iborat. Shu o'rinda S.G.Korkonosenkoning fikrini keltirish o'rinli: "Rossiyada bugungi kunda manfaatlar muvozanatini saqlash mamlakatni parchalab tashlayotgan mojarolar fonida, jamoatchilik fikrini maqbul va qonsiz qarorlar uchun tayyorlaydigan o'ziga xos yarashtiruvchi komissiya sifatida ko'rib chiqish mumkin emas"¹, deyiladi. Ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi kuchlarning haqiqiy siyosiy muvozanatini, siyosiy qarashlar kurashini va siyosiy manfaatlar to'qnashuvini aks ettirishi kerak, aks holda ular jamiyatdagi siyosiy salmog'ini yo'qotib, siyosiy institut sifatidagi ishonchni yo'qotishiga olib keladi.

Mashhur fransuz siyosatshunosi Pierre Bourdieu voqelikni so'zlar yordamida yaratish imkoniyatini ilgari surar ekan, "ramziy kuch" tushunchasini kiritdi: "ramziy kuch haqiqatni yashirish yoki oshkor qilish xususiyati, agar ommaviy axborot vositalari siyosiy voqelikdan uzoqlashsa, ular jamiyatdagi ramziy kuchini, ramziy siyosiy kapitalini yo'qotadi"². Binobarin, ommaviy axborot vositalarining siyosiy hodisa sifatidagi o'rni va ahamiyatini tushunish, uning siyosiy texnologiyalarini qo'llash, jamoatchilik ongini shakllantirish imkoniyatlari va chegaralariga ega bo'lishi juda muhim.

¹ Корконосенко С. Основы журналистики. Учебное пособие. – М.: "Кнорус". 2023. – С. 71.

² Бурдьё П. Практический смысл / Пер. с фр.: А.Т. Бикбов, К.Д. Вознесенская, С.Н. Зенкин, Н.А. Шматко; Отв. ред., пер. и послесл. Н.А. Шматко. – СПб.: Алетейя. 2001. – С. 562.



HABIBULLO SADIBAQOSEV

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zXIA

Zamonaviy global xavfsizlik tizimida AQSHning o'rni: inkoniyatlar va muammolar

Annotatsiya: AQSH hukmron harbiy va iqtisodiy kuch sifatida zamonaviy global xavfsizlik tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu maqola ushbu kontekstda AQSH duch keladigan inkoniyatlar va muammolarni ko'rib chiqadi. Unda AQSH o'z milliy manfaatlarini ilgari surish, global barqarorlikni saqlash va yuzaga kelayotgan xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish uchun o'z ta'siridan qanday foydalangani o'rganiladi. Maqolada AQSH o'z milliy manfaatlarini ilgari surish, global barqarorlikni saqlash va yuzaga kelayotgan xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish uchun o'z ta'siridan qanday foydalangani, AQSHning ko'p tomonlama hamkorlikda ishtirok etish va rivojlanayotgan geosiyosiy dinamikaga moslashish qobiliyatini ko'rib chiqadi. Shu bilan birga, maqolada AQSHning roli bilan bog'liq murakkabliklar, jumladan, bir tomonlamalik, ichki siyosatning ta'siri va xavfsizlik ustuvorliklarini boshqa global muammolar bilan muvozanatlash zarurati bilan bog'liq muammolar ham ta'kidlangan, AQSH harakatlarining xalqaro tartib, mintaqaviy dinamika va global xavfsizlik tizimining umumiy samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. Ushbu ko'p tomonlamali jihatlarni o'rganib chiqqan holda, maqola AQSHning roli va global xavfsizlik kelajagini belgilovchi asosiy omillarni har tomonlama tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: AQSH, global xavfsizlik, inkoniyatlar, muammolar, tashqi siyosat, ittifoqlar, diplomatiya, yetakchilik, xalqaro tartib.

Аннотация: Соединенные Штаты действительно оказали значительное влияние на формирование современной системы глобальной безопасности, начиная с рубежа веков, выступая в роли мощной военной и экономической силы. В данной статье рассматриваются некоторые возможности и вызовы, с которыми сталкиваются США в этом контексте. Обсуждается, как США используют свое влияние для защиты национальных интересов, оценки региональной стабильности и определения новых возникающих угроз безопасности. Также рассматривается роль США в проецировании силы, перспективы многостороннего сотрудничества и необходимость адаптации к меняющейся геополитической динамике. Однако в статье также затрагиваются вопросы сложностей и критики лидерства США, касающиеся односторонности, вмешательства во внутреннюю политику и необходимости сбалансировать приоритеты безопасности с другими глобальными вызовами. В статье обсуждается, как действия США повлияют на международный порядок, динамику в регионах и общую эффективность международной системы безопасности. Рассматривая различные аспекты этой сложной ситуации, статья предлагает всесторонний взгляд на роль США и ключевые особенности, определяющие будущее мировой безопасности.

Ключевые слова: Соединенные Штаты, глобальная безопасность, возможности, вызовы, внешняя политика, альянсы, дипломатия, лидерство, международный порядок.

Abstract: The United States has indeed taken its toll on shaping what the modern global security system looks like today-since the turn of the century-a powerhouse of military and



economic force. This paper demonstrates some of the opportunities and challenges the US faces in this perspective. It discusses how the US brings to bear its influence to protect US national interests, assesses regional stability and determines newly arising threats to security. It looks at the role in projecting power, scope for multilateral cooperation, and the need for adaptation because of evolving geopolitical dynamics. Yet, this article also considers that there are questions about the complications and criticisms of US leadership in unilateralism, interference in domestic politics, and the need to balance security priorities with other global challenges. The paper discusses how the US action would implicate the international order, the dynamic of the region, and the overall effectiveness of the international security system. By considering these various aspects of this complex situation, the article brings a complete insight into the role of the US and most critical features setting the destiny of the world's future security.

